

**YUSUPOV KAXRAMON MUXIDDINOVICH  
MIRZAEVA MAXPORAXON MAMADALIEVNA**



## **“EKOLOGIYA VA GIGIYENA”**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

Farmatsiya - 60910700 yo‘nalishi uchun

**Andijon 2022 yil**

**Tuzuvchilar:****Q.M.Yusupov**

Umumiy gigiena kafedrasи katta o‘ituvchisi

**M.M.Mirzeva**

Umumiy gigiena kafedrasи katta o‘ituvchisi

**Taqrizchilar:****N.N. Noralieva**Andijon davlat universiteti Ekologiya va  
botanika kafedrasи mudiri, t.f.n. dotsent**S.M.Babich**ADTI Ijtimoiy gigiena va sog‘liqni saqlashni  
boshqarish kafedrasи mudiri, t.f.n., dotsent

*Ushbu “Farmatsiya” yo‘nalishi – 60910700 ta’lim sohasи Sog‘liqni saqlash – 910000 tibbiy oliygoхlar talabalari uchun o‘quv qo‘llanmada, o‘quv dasturining 2.06 blokida berilgan, umumiy gigiena kafedrasida o‘qitish jarayonida «Ekologiya va gigiena» fanining nazariy asoslarini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlar hajmi to‘liq yoritilgan. Talabalar bilimining yakuniy darajasini aniqlash maqsadida, o‘quv qo‘llanmada vaziyatli masalalar, savollar, testlar, lug‘at va gossariy keltirilgan.*

O‘quv qo‘llanma Andijon davlat tibbiyot institut kengashida tasdiqlandi.

“27” oktyabr 2021 yil

bayonнома № 3

**Kengash kotibasi, dotsent****N.A.Nasirdinova**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 17 martdagi 106-sonli buyrug‘i bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

# O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2022 yil "17" mart dagi "106" -sonli buyrug'iga asosan

K.M.Yusupov, M.M.Mirzayeva

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

60910700-Farmatsiya

(ta'lif yo'nalishi (mutaxassisligi))

ning

talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan

Ekologiya va gigiena nomli o'quv qo'llanmasi

(o'quv adabiyyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.



Vazir

A.Toshkulov

Ro'yxatga olish raqami

106 – 680



## MUNDARIJA

Kirish.....	6
Ekologiya bloki.....	8
Mavzu № 1. Hayot muhitlari: suv, yer-tuproq, havo va tirik organizm. Yashash muhitlarining o‘ziga xosligi. Moslanish, ekologik omillar, ularning organizmga ta’sir etish qonuniyatlari.....	8
Mavzu № 2. Populyasiyaning tuzilishi, unda organizmlarning joylashishi.....	32
Mavzu № 3. Biotsenozlar (jamoalar) xaqida tushuncha,Organizmlar orasidagi munosabat tiplari, turlararo munosabatlar. Ekotizimlarning xilma-xilligi va ularning tuzilishi.....	62
Mavzu № 4. Biosfera xaqida umumiy tushuncha. Biosferada moddalarning aylanishi.....	96
Mavzu № 5. Zamonaviy ekologik muammolar. Ijtimoiy ekologiya va inson ekologiyasi.....	130
Mavzu № 6. Atmosfera havosining ahamiyati, uni ifloslantiruvchi manbalar. Suv manbalarining ifloslanishi va muxofazasi, suv sifatini yaxshilash.....	153
Mavzu № 7. Tuproqni ifloslantiruvchi manbalar, zaharli kimyoviy moddalar. Tuproq o‘z-o‘zini tozalash jarayonining ahamiyati, tuproq muhofazasi.....	184
Mavzu № 8. Biologik zaxiralar, ularning ahamiyati va muxofazasi. Maxsus qo‘riqlanadigan xududlar.....	211
Mavzu № 9. Muhit holatini nazorat qilish monitoringi. Ekologik ekspertiza. Ekologik xafvsizlik. Ekologik ta’lim tarbiya.....	239
Gigiena bloki.....	280
Mavzu № 1. Organizmning vitaminlar bilan ta’minlanganligini baholash. Ovqatdan zaxarlanishlar va ularning profilaktikasi.....	280
Mavzu №2. Kasb kasallikkleri. Ishchilar organizmiga shovqin, tebranishning ta’siri.....	318
Mavzu №3. Ishlab chiqarish muhiti havosida changni aniqlash va baholash. Ishlab chiqarish muhiti havosida kimyoviy birikmalarni aniqlash va	

baholash.....	334
Mavzu №4. Loyiha materiallari bo‘yicha dorixona muassasalariga bo‘lgan gigienik talablar va ularni baholash. Yoritilganlik va havo almashinuvining ahamiyati.....	352
Mavzu № 5. Kimyo-farmatsevtika korxonalarida toza xonalarga va ishchixodimlar kiyimlariga qo‘yiladigan gigienik talablar. To‘g‘ri ishlab chiqarish qoidalari. Ionlantiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilgandagi dozimetrik va radiometrik nazorat.....	376
Mavzu №6. Galen preparatlari va tayyor dorilar shakllarni xamda antibiotiklarni ishlab chiqarishdagi mehnat gigienasi.....	399
Mavzu № 7. Dorixona xonalarini mikroiqlimining ahamiyati. Tuproqni tekshirish va unga gigienik baho berish.....	429
Mavzu № 8. Ichimlik suvi sifatini yaxshilash usullari. Farmatsevtika sohasida qo‘llaniladigan suvga gigienik talablar.....	445
Mavzu № 9. Bolalar va o‘smlarning jismoniy rivojlanishini tekshirish va baholash. SHaxsiy gigiena vasog‘lom turmush tarzi asoslari.....	455
Glossariy.....	473
Adabiyotlar.....	480

## KIRISH

Inson dunyoga kelgandan beri tabiat bilan to`xtovsiz o`zaro munosabatda bo`lib, uning boyliklaridan baxramand bo`lmoqda. O`zaro munosabat bevosita va bilvosita tarzda sodir bo`lib, bu hodisa biologik va kimyoviy modda hamda energiya almashuvi jarayonida yaxshi ifodalanadi. Modda va energiya almashuvi insonning tabiatga ta'sir miqyosiga bog'liq. Ma'lumki, texnika va texnologiya takomillashgan sari insonning tabiatga ta'sir doirasi kengayib bormoqda, tabiiy muhitda jiddiy o'zgarishlar sodir bo`lmoqda.

Ma'danlarni ochiq usulda qazib olish jarayonida ulkan kar'lerlar, asharmalar, ishlatib bo`lingan tog` jinslari-uyumlari tarkib topmoqda. Bularning barchasi insonning endilikda naqadar katta o`zgartiruvchi kuchga aylanganidan darak beradi. Xozirda ekologik muammolarni bartaraf etish dolzarb masala ekanligi barchaga ma'lum. Atrof muxitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, umuman ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishish ko`p jixatdan axolining ekologik savodxonlik darajasi, ekologik madaniyati xamda iqtisodiyot jabxalarining qanchalik ekologiyalashtirilishiga bog'liq. Shu tufayli ekologiyaning turli jixatlarini o`rganishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, uni iqtisodiy jixatdan o`rganish jiddiy axamiyatga ega. Chunki, ekologiya bilan iqtisodiyot bir-biri bilan o`zaro ta'sir va aloqada rivojlanadi. Bu iqtisodiyot yo`nalishidagi talablar, ekologik bilim va ko`nikmalarining yuksak darajada shakllangan bo`lishini takozo etadi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** -“Ekologiya va gigiena” fanini o'qitishdan maqsad-talabalarga tashqi muhit omillarning tirik organizmlarga ta'siri, ularning tashqi muhit bilan o`zaro munosabatlarning umumiyligini qonuniyatlar to'g'risida, ekosistemalar hayotini belgilovchi qonuniyatlar va prinsiplari to'g'risida, bo'lajak provizorlarda gigiena asoslarini ilm sifatida shakllantirish, Respublikamiz axolisini sifatli dori preparatlari bilan ta'minlashdagi muammoli masalalarni hal etishda bevosita aloqador ekanligini va asosiy o'rinni egallashini tushuntirishdan iborat. Gigienaning asosiy tushunchalari, qonunlar va meyorlari

xaqida bilim hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - tashqi muhit bilan inson organizmi o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rgatish, inson organizmida yuzaga chiqadigan kasalliklarga tashqi muhit holatining ta’sirini o‘rgatish, tabiatda energiya va moddalar almashinuvini o‘rgatish, genetik axborotni saqlash, uzatish mexanizmlari va ahamiyatini o‘rgatish, biosferaning umumiyligini tuzilmasi va unda moddalar aylanishini o‘rgatish, zamonaviy ekologik muammolar va ularning echimi yo‘llarini o‘rgatish, tashqi muhit holatini nazorat qilish, uning monitoringi va ekspertizasini o‘tkazishni o‘rgatish.

Talaba:- ekologiya fanining asoslari, populyasiyalar, ekosistemalar, biogeotsenozlar, biosfera to‘g‘risida;

- tashqi muhit bilan inson organizmi o‘rtasidagi bog‘lanishlar;
- inson organizmida yuzaga chiqadigan kasalliklarga tashqi muhit holatining ta’siri;
- tabiatda energiya va moddalar almashinuvini;
- genetik axborotni saqlash, uzatish mexanizmlari va ahamiyati;
- biosferaning umumiyligini tuzilmasi va unda moddalar aylanishi;
- zamonaviy ekologik muammolar va ularning echimi yo‘llari;
- tashqi muhit holatini nazorat qilish, uning monitoringi va ekspertizasini o‘tkazish xaqidagi tasavvurga ega bo‘lishi;
- ekosistemalar komponentlarining abiotik va biotik omillar bilan bog‘liqligi, undagi ozuqa zanjiri va trofik aloqalarni;
- ekosistemalar chidamliligi va o‘zini qayta tiklash xususiyatini;
- biosfera evolyutsiyasi va biosferada modda almashinuvini,
- flora va fauna turlar tarkibini o‘zgarishi, ekosistema barqarorligini ta’minlovchi mexanizmlarni bilini va ulardan foydalana olishi;
- ekosistemadagi jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari;
- tabiatdan foydalanishning ekologik prinsiplari;

- o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish, tabiat muhofazasi bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

- tashqi muhit omillariga gigienik baxo berish, ularni tekshirish usullarini qo'llash, gigienik muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak

### **Ecologiya bloki**

## **1- AMALIY MASHG'ULOT: HAYOT MUHITLARI: SUV, YER-TUPROQ, HAVO VA TIRIK ORGANIZM. YASHASH MUHITLARINING O'ZIGA XOSLIGI. MOSLANISH, EKOLOGIK OMILLAR, ULARNING ORGANIZMGA TA'SIR ETISH QONUNIYATLARI**

### **Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O'quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant  Mashg`ulot mavzusini e'lon qiladi, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.  SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o'quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish.	Talaba  Mashg`ulot rejasini bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.
2. Asosiy bosqich (60 min)	2.1. Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi savollarga javob berishni taklif qiladi.  1. Ekologik omillar turlari.  2. Ekologik omillarning tirik	Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.

	<p>organizmga ta'siri.</p> <p>3. Ekologik muhitning buzilishi.</p> <p>4. Ekologik omilning qonuniyatlari.</p> <p>5. Ekologik muhit tushunchasi.</p> <p>6. Ekologik omillar haqida tushuncha.</p> <p>7. Ekologik omillarning tirik organizmlarga ta'sir etish qonunyati.</p> <p>8. Ekologik omillarning tasnifi.</p> <p>Yuqoridagi savollar asosida savol-javob o'tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo'ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo'yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. O'qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolarni tuzatadi.</p> <p>2.4.Taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilarini diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo'linadi</p> <p>Gurux a'zolari bиргаликда изланабыя. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg`ulotlarni sistemalashtiradi, o'zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o'z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo'yicha umumiylar xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko'rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

Muhit tushunchasi fanda turli ma'nolarni anglatadi. Bular ekologik, geografik, fizik, falsafiy, ijtimoiy va boshqalar. Ekologiyada muxit deb tirik organizmni o'rab turgan fizik qurshovni e'tiborga olinadi. Muxit tevarak-atrofdagi o'zaro bog'lanishlardagi shart-sharoitlar va ta'sirlar majmuidir.

Odatda tabiiy va sun'iy muxitlar ajratiladi. Tabiiy muxitni suv, quyosh, shamol, xavo, yer, o'simlik va xayvonot dunyosi kabi tabiiy omillar majmui tashkil etadi. Sun'iy muxit inson tomonidan yaratilgan bo'lib, bunda insonning mexnat maxsuli yotadi. Tabiiy va sun'iy muxitlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ularning bog'liqligini ekologik muxit tushunchasi ifodalaydi. Ekologik muxit tabiiy va sun'iy atrof-muxit bo'lib, tirik mavjudotlar sub'ekt va ob'ekt ta'sirlar sifatida qatnashib, ta'sirlar soni esa tevarak atrofni saqlab qolish yoki xavf solish sharoitini keltirib chiqaradi. Ekologik muxit muayyan ekologik tizim xisoblanib, uni tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy qismlarga ajratish mumkin.

Tabiiy ekotizim yoki ekosfera xayotni rivojlanishiga imkon beradigan yerning tavsifi va abiotik jismlarning majmuidan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim esa insonning barcha atrof-muxitga (jonsiz va jonli tabiatga) bo'lgan munosabatini bildiradi.

Ekologik muxit muvozanatda yoki muvozanat buzilgan xolatlarda bo'ladi. Tirik organizmlarning xayoti o'zgarmagan shart-sharoitlar va ta'sirlar barqaror xolatida muvozanat o'zgarmaydi, aksincha, muxitning shart-sharoitlari va ta'sirlar buzilganda muvozanatsiz xolat kelib chiqadi.

Ekologik muxitning buzilishi atmosferaning yer ostki suvlarining ifloslanishi, qattiq chiqindi moddalarning to'planishi va ozuqaning zaxarlanishi, shovqinlarning ko'payishi, radioaktiv moddalar va boshqalarning ta'sirini ortib borishida ko'rindi. Inson tabiat qonunlarini chuqurroq o'rganish o'rniga xayot muxitini tezkorlik bilan buzib ifoslantira boshladi. (Tirik organizmlar - to'rtta asosiy muxitlarda tarqaladi. Ulardan ikkitasi, ya'ni suv va xavo muxitlari o'lik, tuproq muxiti oraliq va organizm (muxit sifatida) tirik xususiyatga ega. Xar bir xayot muxiti o'z navbatida organizmlar yashashi uchun xar xil yashash joylaridan iborat. Masalan suv muxiti quyidagi xolatda uchrashi mumkin, chunki va sho'r suv,

ko‘lmak va oqar suv, chuqur va sayoz, iliq va sovuq va xokazolar. Xavo va tuproq xam nixoyatda xilma-xil yashash joylarini tashkil etadi. Tirik organizmlar (o‘simpliklar, zamburug‘lar, xayvonlar) xam parazit va simbiontlar uchun muxit sifatida o‘ziga xosdir.

## MOSLASHISH

Sayyoramizda tirik organizmlar bir-birlaridan keskin farq qiluvchi o‘ziga xos to‘rtta muxitda tarqalgan ekan, ulardan biri xisoblangan suv muxitida dastlab xayot kelib chiqqan. Keyinchalik tirik organizmlar quruqlikka chiqib, tuprok xosil bo‘lishida qatnashadilar va uni egallaydilar. SHuningdek, xavo va boshqa bir tirik organizmni ichida yoki sirtida xam tarqalganlar. Demak, bizga ma’lum bo‘lgan tirik tabiat va uning tarkibiy qismlari xisoblangan uvoqlilar, zamburug‘lar, o‘simpliklar va xayvonlar ana shu muxitlarda yashashga moslashganlar. Xush moslashishni o‘zini qanday tushunish kerak? Moslashish yoki adaptatsiya ayrim individlar, populyasiyalar tur yoki jamoalarning morfofiziologik xulqiy va axborot biotsenotik xususiyatlarining majmuidan iborat bo‘lib, boshqa individlar, populyasiyalar, tur yoki jamoalar bilan yashash uchun kurashda g‘olib chiqishga sababchi bo‘ladigan, shuningdek abiotik muxit omillarining ta’siriga chidamliligini ifodalaydi. Moslashish turli darajalarda va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan xarorat omiliga moslashish molekulyar darajadan boshlab to biotsenotik darajagacha kuzatilishi mumkin. Ko‘pchilik o‘simpliklar ortiqcha qizib ketishdan saqlanish uchun boshqa o‘simplik turining soyasida o‘sadi. Bu erda moslashish biotsenotik darajada namoyon bo‘lmoqda. Asalarilarning uyalarini xaddan tashqari qizib ketganda qanotlarini qoqib uyanisovutishi jamoa darajasidagi moslashishga misol bo‘ladi. Xayvonlarning ter bezlari orqali tanasinisovutishi yoki o‘simpliklarni transpiratsiya orqali barg yuzasinisovutishi kabilar organizm darajasidagi moslanishlardir. Kuchli yorug‘lik ta’sirida xloroplastlarning xujayra devori ostida ma’lum bir tartibda joy olishi xujayra darajasidagi, termofil mikroorganizmlaring oqsillarini yuqori xarorat ta’siriga chidamliligi esa molekulyar darajadagi moslashish xisoblanadi.

Hozirda ma'lum adaptativ radiatsiya izolyasiyada qolgan arxipelaglar hamda orollarga o'xhash joylarda (masalan, ko'llarda) kuzatish munmkin. Ammo, hayot xilma-xilligi adaptativ radiatsiya hodisasi ekologik muhit turlanish uchun qulay paytlarda ro'y bergan vaziyatlarda yuzaga keladi. Bu kontekstda ekologik muhitning mos bo'lishida ikkita asosiy mexanizm mavjud: (1) organizmning muhim innovatsiyalar bilan bog'liq ichki o'zgarishlari; (2) tashqi ta'sirlar atrof-muhitdagi o'zgarishlar hamda ajralgan yer massalarining kolonizatsiyasi (kelib qo'shilishi) kabi. Ikki holatning ham o'zaro aloqadorligi bor, masalan, ichki (intrinsik) o'zgarishlar organizmga yangi muhitni o'zlashtirishga imkon beradi. Har ikki holatda ham, yangi tabiiy nisha muhitni o'zlashtirayotgan individlarda adaptiv radiatsiya bilan bog'liq genetik divergensiya ro'y berishi uchun populyasiyaning qolgan qismidan qay darajadadir ajratilagan bo'lishi talab etiladi. Agar yangi o'zlashtiruvchi boshqa shu joydagi boshqa yashovchilar (ajratilmagan izolyasiya bo'lмаган) bilan yaqin aloqaga kirishganda, ularning taksasi tomonidan davomiy kolonizatsiya qilinadi va turning o'zgargan qismlari evolyusion jarayon emas, balki immigratsiya va tashqi ta'sir etuvchi omillarni o'zida mujassamlashtirgan ekologik jarayon tomonidan boshqariladi.

Muxit organizmning fizik qobig'i xisoblanib, xar qanday muxit fizik, kimyoviy va boshqa omillarning majmui bilan namoyon bo'ladi. Omil tirik organizmlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi muxitning ayrim bir tarkibiy qismidir. SHunday qilib, ekologik omilni tirik organizmlar moslashish reaksiyalari orqali javob beradigan xar qanday muxitning shart-sharoiti deb qarash kerak.

Ekologik omillar juda xilma-xil. SHuning uchun ularni tasniflash zarur bo`ladi. Ekologiyaning tarixidan ma'lumki, omillarning tasnifi ancha murakkab masalalardan biri xisoblanadi. Tabiatda omillar tirik organizmlarga bir butun yoki birgalikda ta'sir etadi. Ular ekologik, fiziologik, genetik va xokazolar tarzida ta'sir etadi. Omillarni tasniflashda ularning xilma-xil ta'sir etishi emas, balki kelib chiqish manbaiga qarab ajratish lozim. Omilni aniqlashda uni tirik organizmlarga to'g'ridan-to'g'ri va o'ziga xos ta'siri muxim axamiyatga ega.

Ekologik omillarni tasniflashda uning tabiatni, xarorat, nurlanish, bosim muxitning reaksiyasi va boshqalar doimo o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. D.N. Kashkarov (1933) omillarni uch guruxga ajratadi: iqlim, edafik va biotik. V.V.Alexin (1950) iqlim, edafik, orografik, biotik, antropogen va tarixiy omillarga ajratadi.

Ta’rifga binoan omil muxitning ayrim elementi xisoblanib, organizmga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Ammo tarixiy, orografik kabi omillar tirik organizmlarga xech qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmaydi. SHubxasiz, ma’lum bir joyning dengiz satxidan absolyut balandligi, tog‘liklarning qiyalik burchagi darajasi yoki suv xavzasining chuqurligi kabilar xam ana shunday xususiyatga ega. Ular tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmay, balki bevosita ta’sir etgan xolda boshqa omillar, ya’ni xarorat, bosim va xokazolarni ta’sir etish xususiyatini o‘zgartiradi.

Muxit keng ma’noda qaralib, uning tarkibida faollik ko‘rsatuvchi omillar mavjud. Omillarni ta’sir etuvchi va xayot sharoiti uchun zarur guruxlarga ajratish mumkin. Ta’sir etuvchi omillar tirik organizmlar xayotiga kuchli ta’sir etib, ularning xatto irsiy xususiyatlari yoki boshqa ko‘rinishlardagi o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi. Bularga xar xil mutagen omillarni (nurlanish va boshqalar) ko‘rsatish mumkin.

Xayot sharoiti uchun zarur bo‘lgan omillar o‘z navbatida tirik organizmlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan xayoti va o‘sishini ta’minlovchi omillar va rivojlanish sharoiti (ontogenezni ta’minlovchi) omillariga bo‘linadi.

Yashil o‘simliklarning xayoti uchun zarur bo‘lgan omillar kosmik (yorug‘lik, xarorat) va yerdagi suv va ozuqa omillarga ajratiladi. Ushbu omillar mavqeい jixatdan bir-biri bilan barobar, shuningdek, boshqa omil bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli inson yashil o‘simliklar uchun, zarur bo‘lgan kosmik omillarni boshqara olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

SHunday qilib, xozirgi vaqtida ekologik omillar kelib chiqishiga vaqt bo‘yicha, muxitga, xarakteriga, ob’ektga ta’sir etishiga va boshqa tomonlarini xisobga olib tasniflanadi.

Ekologik omillarni abiotik (o'lik tabiatning ta'siri), biotik (tirik organizmlar bilan bog'liq bo'lgan ta'sir) va antropogen (insonning faoliyati natijasida kelib chiqadigan ta'sir) omillarga bo'lib o'r ganiladi.

Abiotik omillarga quyidagilar kiradi:

1. Iqlim, yorug'lik, xarorat, xavo, namlik (xar xil shakllardagi yog'ingarchiliklar, tuproq va xavoning namligi, qor qoplami);
2. Edafik (yoki tuproq. gurunt)—tuproqning mexanik va kimyoviy tarkibi, uning fizik xossalari va boshqalar.
3. Topografik (yoki orografik) - relef sharoiti.

Biotik omillarga quyidagilar kiradi: 1. Fitogen - birgalikda yashayotgap o'simliklarning to'g'ridan-to'g'ri (mexanik ta'sirlar, simbioz, parazitlik, epifitlarnnng yashashi) va bilvosita (tirik organizmlar yashayotgan muxitni o'zgartirishi) kabi ta'sirlari; 2. Zoogen - xayvonlarning (oziqlanishi, payxon qilishi va boshqa mexanik ta'sirlar, changlatish, meva va urug'larni tarqatishi, muxitga ta'sir etishi kabi ta'sirlar; 3. Mikrobiogen va mikrogen-mikroorganizmlar va zamburug'larning (parazitlilik, ta'zqi muxitni o'zgartirish) ta'siri.

Antropogen omillar insonning faoliyati natijasida kelib chiqadigan omillardir. Antropogen ta'sir natijasida tirik organizmlar yashash muxitining o'zgarishi o'z navbatida ekotizimlarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanishlarning buzilishiga, inqirozga yuz tutishiga (cho'llarni o'zlashtirish, o'rmonlarni kesib yuborish, pichan o'rish va mol boqish, suv, tuproq va xavoni sanoat chiqindilari, zararli kimyoviy moddalar, maishiy chiqindilar bilan ifloslantirish va zaxarlashga olib keladi. Ba'zi xollarda biotsenozlarning butunlay yo'q bo'lib ketishiga sababchi bo'ladi .

## **EKOLOGIK OMILLARNING TIRIK ORGANIZMLARGA TA'SIRI**

Ma'lum sharoitda yashayotgan organizmlarga ekologik omillar turlicha ta'sir etishi mumkin. Ammo ekologik omillar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning tirik organizmlarga ta'sir etish xarakteri nuqtai nazardan ular uchun umumiyl bo'lgan qonuniyatlar xam mavjud. Organizmning normal rivojlanishi uchun ma'lum darajada qulay ekologik omillar majmui talab etiladi. Xar bir

omilning organizmga ta'sir etish kuchi xamda quyi va yuqori ta'sir etish chegaralari bo'ladi. Omilning kuchli ta'sir etuvchi kuchi optimum zona deb qaraladi yoki optimum deb ataladn. Ekologik omil organizmga xaddan tashqari kuchsiz (minimum) va kuchli (maksimum) ta'sir etishi mumkin. SHunday qilib, xar qanday ekologik omilning optimum, minimum va maksimum ta'siri bo'lar ekan. Minimum va maksimum chegaralari kritik nuqta deb ataladi. Kritik nuqtalardan ortiq kuch ta'sirida organizm nobud bo'ladi.

Omilning kuchli ta'sir etishi, ya'ni optimum qonunning organizmlarga ta'sirini tushunib olish uchun g'o'za o'simligini xavo xaroratiga bo'lgan munosabati va uning optimum, minimum va maksimum nuqtalari xaqida tuxtab o'tamiz. Ma'lumki, chigitning unib chiqishi uchun temperatura 14-16°S bo'lishi zarur. Baxorda xarorat past kelsa, chigitning unib chikishi kechikadi. Bizning sharoitda g'o'za nixollari paydo bo'lgan vaqtda xavo bilan tuproq temperaturasi sekin-asta ko'tariladi va odatda, normal darajada bo'ladi. Temperatura 38°S dan yuqori bo'lganda, ayniqsa, nam kam bo'lsa, o'simlik qizib ketadi. Temperatura 1-2°S bo'lsa, g'o'za nixollarini sovuq uradi. Kuzdag'i 3-4°S sovuq xam g'o'zani nobud qiladi. SHunday qilib, g'o'za o'simligining vegetatsiya davomida minimum nuqtadan xaroratni 1-4°S pasayishi uni nobud bo'lishiga olib keladi. 14-16°S dan 38°S gacha oraliqdagi temperatura o'simlik o'sishi uchun qulay, undan yuqorisi esa, noqulay xisoblanadi. G'o'za o'simligi uchun maksimum nuqta 46-47°S deb qarash mumkin.

Ekologik omillarni o'rganish sohasida YU. Libix ko'p tajribalar o'tkazadi va 1840 yilda omillarning **minimum qonunini** taklif etgan.

Uning yozishicha -organizmning chidamligi uning oziq zanjiridagi eng kam miqdorga bog'liq.

YU.Libix ekinlarning hosildorligi ko'pincha ular uchun ko'p kerak bo'lgan elementlar bilan cheklanmaydi, aksincha, tuproqda kam uchraudigan va osimliklar uchun juda kam miqdorda kerak bo'lgan elementlar bilan cheklanadi.

### Tolerantlik qonuni

Organizmning hayot faoliytini susaytiruvchi omilga cheklovchi omil deyiladi. SHunday qilib organizmlar uchun ekologik omillarning etishhmasligigina (minimum) emas balki ortiqchaligi (maksimumi) ham cheklovchi omil bo‘lishi mumkin

U yoki bu turning yashash imkoniyati bo‘lgan ma’lum bir omilning o‘zgaruvchan chegarasi tolerantlik deyiladi

Muxitning biror omiliga keng doirada moslashgan ekologik turlarga evri-old qo‘srimchasini qushib, tor doirada moslashganlarga steno-old qo‘srimchasini qo’shib nomlanadi. Temperaturaga nisbatan evriterm, stenoterm, namlikka nisbatan evrigidrid, stenogidrid, sho‘rlanishga nisbatan evrigal, stenogal. Ekologik omillarniig ta’sir etish kuchi bilan organizmda bo‘ladigan o‘zgarishlarning o‘zaro ta’siri bosimga nisbatan evribat, stenobat ekologik guruxlar ajratiladi.

Tashqi muxitning turli omillarga nisbatan ekologik valentliklar yig‘indisi turning-ekologiya spektrini tashkil etadi. Masalan, cho‘lda o‘suvchi sho‘raklar tuproqning sho‘rligiga, kurg‘okchilik va yuqori tsmeraturaga yaxshi moslashgan. Ushbu omillarga moslanish shuraklarning ekologik spektrini tashkil etadi. Boshqa turlar tuproq sho‘rlanishiga chidamsiz ekanligini ko‘rish mumkin.

Ayrim turlarning ekologik spektri bir-biriga tug‘ri kelmaydi. Xatto bir xil sharoitda yashayotgan va moslashish xususiyati xam o‘xhash bo‘lgan turlar ozmi-ko‘pmi miqdorda o‘zining ekologik imkoniyatiga ega bo‘ladi. Izen va teresken o‘simliklari kurg‘okchil va issiq sharoitga moslashgan turlar xisoblanib, ulardan birinchisi nisbatan kurg‘okchilikka xam, yuqori xaroratga xam biroz kuchliroq moslashishi bilan ajralib turadi.

Ekologik omillar organizmning turli funksiyalariga xam turlicha ta’sir etadi. Sovuq qonli xayvonlar uchun xavo temperaturasiing 40-45°S bo‘lishi modda almashinushi jarayonini tezlashtiradi, ammo ularning faolligi, ya’ni xarakatlanishi susayadi. Bunda xayvonlar tinim xolatiga o‘tadi.

Ayrim individlarning tashqi muxit omillariga chidamlilik darjasи, kritik nuqtalari, optimal zonasi xam tug‘ri kelmaydi. Ushbu individning irlsiy, jinsiy, yosh yoki fiziologik xususiyatlari bilan bog‘lik, bo‘lishi mumkin. Don

maxsulotlari va unda yashovchi mita kapalagining g‘umbagn uchun kritik temperatura - 7°S ni tashkil etsa, katta yoshdagilari uchun 22°S, tuxumlari uchun esa - 27°S. -10°S, temperatura g‘umbakni nobud qiladi, ammo ularning davri va tuxumlariga ta’sir etmaydi.

Muxitning ayrim ekologik omillari organizmga bir vaqtda ta’sir etadi. Ushbu omillarning ta’siri boshqa omillarning mikdoriga bog‘liq bo‘ladi. Buni omillarning uzaro ta’sir etish qonuniyati deyiladi.

Organizmning normal xayoti uchun ma’lum darajada sharoit talab etiladi. Agar barcha shart-sharoitlar qulay bo‘lib, ulardan biri etarli miqdorda bo‘lmasa, uni cheklovchi omil deb ataladi. CHeklovchi omil organizmni ushbu sharoitda yashashi yoki yashay olmasligini belgilab beradi.

Turlarning shimolga tomon siljishiga temperatura omilining etishmasligi ta’sir etsa, kurgokchil rayonlarda esa namlik yoki yuqori temperaturaning ta’siri cheklovchi xisoblanadi. CHeklovchi omillar fakatgina abiotik omillar bo‘lib kolmay, balki biotik omillar xdm bulishi mumkin. Gulli usimliklar turlarini biror joyga iklimlashtirishda ularni changlatuvchn xdsharotlar cheklovchi omil bo`ladi. CHesklovchi omillarni anikdash amaliy jixatdan muxim axamiyatga ega.

Organizmning yaxshi o‘sishi, rivojlanishi abiotik omillarning optimal (zona) sharoiti ta’sirida bo‘lsa, ularning yomon xolati .... (nobud bo‘lishi) minimal sharoitda, ya’ni abiotik omillarning salbiy ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Muhit organizmning fiziologik qobig‘i hisoblanib, har qanday muhit fizik, kimyoviy va boshqa omillarning majmui bilan namoyon bo‘ladi. Omil tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi muhitning ayrim bir tarkibiy qismidir. SHunday qilib, ekologik omilni tirik organizmlarga moslashish reaksiyalari orqali javob beradigan har qanday muhitning shart-sharoiti deb qarash kerak.

Ekologik omillarning xilma-xilligi ularni tasniflashni taqozo etadi. Omillarni tasniflashda ularni xilma-xil ta’siri emas, balki kelib chiqish manbaiga qarab ajratish lozim. Omilni aniqlashda uni tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va o‘ziga xos ta’siri muhim ahamiyatga ega.

Muhit keng ma'noda qaralib, uning tarkibida faollik ko'rsatuvchi omillar mavjud. Omillarni ta'sir etuvchi va hayot sharoiti uchun zarur guruxlarga ajratish mumkin. Ta'sir etuvchi omillar tirik organizmlar hayotiga kuchli ta'sir etib, ularning xatto irsiy hususiyatlari yoki boshqa ko'rinishlardagi o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Bularga har-xil mutagen omillarni (nurlanish va boshqalar) ko'rsatish mumkin.

Hayot sharoiti uchun zarur bo'lgan omillar, o'z navbatida, tirik organizmlarning yashashi uchun zarur bo'lgan (hayotini va o'sishini ta'minlovchi) omillar va rivojlanish sharoiti (ontogenezni ta'minlovchi) omillarga bo'linadi.

YAshil o'simliklarning hayoti uchun zarur bo'lgan omillar kosmik (yorug'lik, harorat) va erdag'i suv va ozuqa omillariga ajratiladi. Ushbu omillar mavqeい jihatidan bir-biri bilan barobar, shuningdek, boshqa omil bilan almashtirib bo'lmaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli inson yashil o'simliklar uchun zarur bo'lgan kosmik omillarni boshqara olish imkotiyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtida ekologik omillar kelib chiqishiga, vaqt bo'yicha, muhitga, xarakteriga, ob'ektga ta'sir etishiga va boshqa tomonlarini hisobga olib tasniflanadi.

Biz ekologik omillarni abiotik (o'lik tabiatning ta'siri), biotik (tirik organizmlar bilan bog'liq bo'lgan ta'sir) va antropogen (insonning faoliyati natijasida kelib chiqadigan ta'sir) omillarga bo'lib o'rganamiz.

1.Ekologik omillarning tasniflanishi.

2. Abiotik (quruqlikdagi va suv muhitidagi) omillar.

## **ABIOTIK OMILLAR**

O'ziga xos morfologik, fiziologik va xulq-atvor bilan bog'liq ozuqa yoki yashash joy harakteristikalari borligi haqidagi fikrni o'zi ekologik alternativalar mavjudligiga ishora qiladi. O'z navbatida bu ham ikkita har xil dunyo nuqtalaridan bir xil ekologik vazifaga ega mavjudotlarning uchratilishiga ishora qiladi. Grinnellning misolida, Sahara jerboasi bilan aniq vazifada to'g'ri keladigan SHimoliy Amerika Dipodomisi keltirilgan. Ekologik o'rnini bosuvchilar mavjudligi shunga ishora qiladiki, mavjudotlardan ko'proq ular hayot kechiradigan joyga xos o'zgarmas vazifalarni bajarish talab qilinadi, misol uchun cho'llardagi.

SHu bilan birgalikda vazifalar bo'sh qolishi ham mumkin va bunga sabab ularga mos keladigan mavjudot turlari o'sha muhitda uchramasligidir. Balki ular o'sha muhitga kelmagan yoki kelib rivojlanib keta olmagandirlar. SHu zayilda qanchalik darajada ekologik o'rin bosuvchilar tabiatda uchrashi mumkinligini ayta olamiz? Grinnell ishidan keyin o'n yillar o'tib, biz ba'zi misollarning aniq mavjudligi va ularning bir-birigao'xhash muhitda hayot kechirishiga amin bo'ldik. SHunngdek, ushbu mavjudotlar bir-biridan uzoqda yashashi va biri biriga juda o'xhash bo'lmasligini ham tushundik. Bo'lishi mumkinki, aniq shu fikrlar ekologik vazifalarning keyingi ikkita targ'ibi yaralishiga olib kelgan. Ularning har biri ekologiya dunyosi qanday ishlashi to'g'risidagi o'ziga xos fikrlar to'plamidan iborat

#### **“Blits usuli”**

<b><u>Nº</u></b>	<b><u>Mavzular savoli</u></b>	<b><u>Bilaman</u></b>	<b><u>Bilishni xoxlayman</u></b>	<b><u>Bildim</u></b>
1.	Ekologik omillar turlari.			
2.	2. Ekologik omillarning tirik organizmga ta'siri.			
3.	3. Ekologik muhitning buzilishi.			
4	4. Ekologik omilning qonuniyatları.			
5.	5. Ekologik muhit tushunchasi.			
6.	6. Ekologik omillar haqida tushuncha.			

#### **“Insert usuli”**

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

## **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'yantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
ekologiyaning maqsadi				
Ekologik tadkikot metodlari				
Umumiy ekologiya				
Xususiy ekologiya				

## **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

### **Vaziyatli masala**

Suv muxiti quyidagi xolatda uchrashi mumkin, achchiq va shirin suv, ko'lmak va oqar suv, chuqur va sayoz, balchiq va toza suv, iliq va sovuq va xokazolar.

Vaziyatni baxolang:

### **Vaziyatli masala**

Sayyoramizda tirik organizmlar bir-birlaridan keskin farq qiluvchi o'ziga xos to'rtta muxitda tarqalgan ekan, ulardan biri xisoblangan suv muxitida dastlab xayot kelib chiqqan. Keyinchalik tirik organizmlar quruqlikka chiqib, tuprok xosil bo'lishida qatnashadilar va uni egallaydilar.

Qolgan uchta muxitni sanab bering.

### Vaziyatli masala

Moslashish yoki adaptatsiya ayrim individlar, populyasiyalar tur yoki jamoalarning morfofiziologik xulqiy va axborot biotsenotik xususiyatlarining majmuidan iborat bo‘lib, boshqa individlar, populyasiyalar, tur yoki jamoalar bilan yashash uchun kurashda g‘olib chiqishga sababchi bo‘ladigan, shuningdek abiotik muxit omillarining ta’siriga chidamlilagini ifodalaydi.

Moslashish qanday darajalarda va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

### Vaziyatli masala

Xarorat omiliga moslashish molekulyar darajadan boshlab to biotsenotik darajagacha kuzatilishi mumkin.

Kupchilik o‘simliklar ortiqcha kizib ketishdan saqlanish uchun qanday o‘sadi?

### Vaziyatli masala

Muxit organizmning fizik qobig‘i xisoblanib, xar qanday muxit fizik, kimyoviy va boshqa omillarning majmui bilan namoyon bo‘ladi. Omil tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi muxitning ayrim bir tarkibiy qismidir. SHunday qilib, ekologik omilni tirik organizmlar moslashish reaksiyalari orqali javob beradigan xar qanday muxitning ....

Jumlani tugallang.

### Vaziyatli masala

Ekologik omillarni tasniflashda uning tabiatini, xarorati, nurlanishi, bosim muxitning reaksiyasi va boshqalar doimo o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. V.V.Alexin (1933) omillarni uch guruxga ajratadi: iqlim, edafik va biotik. omillarga ajratadi.

Vaziyatni baxolang.

### Vaziyatli masala

Ekologik omillarni tasniflashda uning tabiatini, xarorati, nurlanishi, bosim muxitning reaksiyasi va boshqalar doimo o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. D.N. Kashkarov (1950) iqlim, edafik, orografik, biotik, antropogen va tarixiy omillarga ajratadi.

Vaziyatni baxolang.

## Vaziyatli masala


Muxit keng ma'noda qaralib, uning tarkibida faollik ko'rsatuvchi omillar mavjud. Omillarni ta'sir etuvchi va xayot sharoiti uchun zarur guruxlarga ajratish mumkin. Ta'sir etuvchi omillar tirik organizmlar xayotiga kuchli ta'sir etib, ularning xatto irsiy xususiyatlari yoki boiqa ko'rinishlardagi o'zgarishlarini keltirib chiqaradi.

Bularga qaysi omillarni ko'rsatish mumkin:

### **Mavzuni amaliy ko'nikmalarini egalashning o'quv texnologiyasi**

#### **"SHAJARA DARAXTI" usuli**

#### **MUXIT TUSHUNCHASI TEXNOLOGIYASI STRUKTURASI**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

**TABIY**


**OMILLAR**



## Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning

o‘quv texnologiyasi


“Klaster” usuli



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyalari**

**“LOYIXA”USULI**


## **EKOLOGIK OMILLAR**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**


**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“Klaster” usuli**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
«NILUFAR GULI» usuli  
BIOTIK OMILLAR**



**1 – variant**

1. Muhit

A. ekologik, geografik, fizik, falsafiy, ijtimoiy

B., geografik, fizik, falsafiy, ijtimoiy

V. ekologik, , fizik, falsafiy, ijtimoiy

G. ekologik, geografik, , falsafiy, ijtimoiy

2. Tabiiy muxitni...

A. suv, quyosh, shamol, xavo, er, o‘simglik va xayvonot dunyosi

B. suv, , shamol, xavo, er, o‘simglik va xayvonot dunyosi

V. suv, quyosh, , xavo, er, o‘simglik dunyosi

G. suv, quyosh, shamol, xavo, er, xayvonot dunyosi

3. Ekologik muxitning buzilishiga kirmaydi:

- A. Quyoshning charaqlab turishi B. qattiq chiqindi moddalarning to‘planishi va ozuqaning zaxarlanishi,
- V. shovqinlarning ko‘payishi, radioaktiv moddalarning ta’sirini ortib borishi
- G. atmosferaning er ostki suvlarining ifloslanishi,
4. Tirik organizmlar - to‘rtta asosiy muxitlarda tarqaladi. Noto‘g‘ri javobni toping.
- A. Ijtimoiy muxit
- B. Suv va xavo muxiti
- V. organizm
- G. tuproq muxiti
5. O‘lik muxitga kiradi
- A. Suv va xavo muxiti
- B. tuproq muxiti
- V. Organizm
- G. Ijtimoiy muxit
6. Oralik muxitga kiradi:
- A. tuproq muxiti
- B. Organizm
- V. Suv va xavo muxiti
- G. Ijtimoiy muxit
7. Moslashish darajalari
- A. molekulyar darajada, biotsenotik darajada, jamoa darajasida, organizm darajasida, xujayra darajasida,
- B. biotsenotik darajada, jamoa darajasida, organizm darajasida, xujayra darajasida,
- V. molekulyar darajada, jamoa darajasida, organizm darajasida, xujayra darajasida,
- G. molekulyar darajada, biotsenotik darajada, organizm darajasida, xujayra darajasida,
8. Fenotipik egiluvchanlik nima?
- A. jonzodning tabiatga qarab o‘zgarishi
- B. noodatiy moslasholmaslik
- V. Adaptiv egilmasliklik

G. Noadptiv egiluvchanlik

9. Fenotipik moslashuvchanlik ... bo‘lishi mumkin:

A. qaytar va qaytmas

B. botar va botmas

V. oksidlanish – qaytalanish

G. Borsa kelmas.

10. Muxitlarda yashashga moslashganlar

A. uvoqlilar, zamburug‘lar, o‘simliklar va xayvonlar

B. zamburug‘lar, o‘simliklar va xayvonlar

V. uvoqlilar, o‘simliklar va xayvonlar

G. uvoqlilar, zamburug‘lar, xayvonlar

## **2 – variant**

1. Ekologik omillarni tasniflashda uning .... o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi.

A. tabiati, xarorat, nurlanish, bosim muxitning reaksiyasi

B. xarorat, nurlanish, bosim muxitning reaksiyasi

V. tabiati, nurlanish, bosim muxitning reaksiyasi

G. tabiati, xarorat, bosim muxitning reaksiyasi

2. D.N. Kashkarov (1933) omillarni qanday guruxlarga ajratadi:

A. iqlim, edafik va biotik.

B. edafik biotik.

V. iqlim biotik.

G. iqlim, edafik .

3 D.N. Kashkarov (1933) omillarni necha guruxga ajratadi?

A. 3

B. 4

V. 5

G. 2

4. V.V.Alexin (1950) omillarni qanday guruxlarga ajratadi?

A. iqlim, edafik, orografik, biotik, antropogen va tarixiy

B. orografik, biotik, antropogen va tarixiy

- V. iqlim, edafik, antropogen va tarixiy  
G. iqlim, edafik, orografik, biotik.
5. V.V.Alexin (1950) omillarni nechta guruxga ajratadi?
- A. 6.  
B. 5.  
V. 4  
G. 3.
6. Qanday omillar tirik organizmlarga xech qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmaydi
- A. tarixiy, orografik  
B. Ijtimoiy, iqtisodiy.  
V. siyosiy, ilmiy  
G. Biologik, kimyoviy.
7. YAshil o‘simliklarning xayoti uchun zarur bo‘lgan kosmik omillarga qandy omillar kiradi(
- A. yorug‘lik, xarorat  
B. namlik, bosim  
V. xavo xarakati tezligi  
G. Suv, ozuqa.
8. Abiotik omillarga nimalar kiradi?
- A. Iqlim, tuproq, relef  
B. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy.  
V. fizikaviy, kimyoviy.  
G. Suv, ozuqa.
9. Abiotik omillarga kirmaydi:
- A. Ijtimoiy.  
B. Edafik.  
V. Topograyik  
G. Iqlim.
10. Biotik omillarga nimalar kiradi?

- A. Fitogen, Zoogen, Mikrobiogen va mikogen
- B. Iqlim, tuproq, relef
- V. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy.
- G. fizikaviy, kimyoviy.

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT. POPULYASIYALARNING TUZILISHI UNDA ORGANIZMLARNING JOYLASHISHI.**

### **Amaliy mashg‘ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	<p>Assistant</p> <p>Mashg`ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.</p> <p>SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish.</p>	<p>Talaba</p> <p>Mashg`ulot rejasi bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60 min)	<p>2.1. Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi.</p> <p>1. Populyasiya tarkibini ko‘rsatuvchi asosiy omillar. 2. Populyasiyada individlarning jinsi.</p> <p>3. Rivojlanish ,o‘sish, ekologik faoliyatdagi farqlarni aniqlash.</p> <p>4. Populyasiya vakillarining makonda tarqalishi.</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p>

	<p>5.Populyasiyada uning a'zolarining notejis tarqalishi sabablari.</p> <p>6. Hayvonlar hulq-atvori.</p> <p>6. Populyasiya belgilari to‘g‘risida.</p> <p>7. Populyasiyani guruhli xossalari.</p> <p>8. Populyasiyaning soni tuzilishi?</p> <p>9. Biologik birligi?</p> <p>10. Populyasiyaning miqdori?</p> <p>11. Populyasiya ichidagi qonun?</p> <p>YUqoridagi savollar asosida savol-javob o‘tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari birgalikda izlanibya. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiylar qiladi.Natijalarini aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

## POPULYASIYANING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Populyasiya (lotincha populations; so‘zidan olingan bo‘lib - guruh, aholi, xalq degan ma’nolarnibildiradi. Bu atama 18 asrning oxiridan boshlab, to 20asrning 40-50 yillariga qadarbiologiya fanida xar qanday individlar yigindisi sifatida qo‘llanib kelindi. Ekologik nuqtai nazardan esa populyasiya deb-- uzoq muddat davomida muayyan bir hududda yashaydigan yoki o‘sadigan bir turga mansub individlar yig‘indisidir.

Bir populyasiyaga mansub individlar shu turning boshqa populyasiya individlariga nisbatan bir-biri bilan erkin va oson chatishadi.

Populyasiyaning biologik xususiyatlaridan biri – bir populyasiyaga oid individlar boshqa populyasiya individlariga qaraganda erkin chatisha oladilar. Zarafshon archasi deganda o‘rmonda uchraydigan zarfshon archasi turiga mansub barcha individlar yig‘indisi etiborga olinadi yoki o‘tloqlarda qoqio‘ti populyasiyasi,

Demak populyasiyaning asosiy xususiyati uning genetik birligidir. O‘zbekistonning shuvoq barra o‘tli yaylovlaridagi shuvoqlar populyasiyasi, qumli cho‘llardagi oq saksovullar, izenlar, qandimlar populyasiyalari, qo‘llardagi baliqlar populyasiyalazenlar, qandimlar populyasiyalari, qo‘llardagi baliqlar populyasiyalari, dalalardagi chigirkalar populyasiyalari, kishi organizmidagi tif yoki sil kasalliklarini tugdiruvchi bakteriyalar populyasiyasi yoki shag‘arda odamlar populyasiyasi ana shu tushunchaga misol bo‘la oladi. Xonaki xayvonlarning aloxida guruxlari (zotlar, podalar) va o‘simliklarning madaniy guruxlari (navlari, linyalari, klonlari va boshqalar) xam populyasiya atamasi bilan ifodalanadi.

Evolusion tabiiy tanlanish nazariyasi ekologiya nazariyasi hisoblanadi. Bu nazariya birinchi bor CHarlz Darwin tomonidan ishlab chiqilgan (1859-yil). U quyidagilarga asoslangan:

1. Populyasiya jarayonidagi individlar o‘zgarmas emas, sezilmas darajada bo‘lsa ham o‘zgarib turadi. Rivojlanish darajsi harorat va boshqa omillarga bog‘liq;

**2.** Kam holatda ularning ba’zilari uchun o‘zgarishlar nasldan o‘tadi. Boshqacha aytganda ularning tabiat qaysidir ma’noda ularning gen tuzilishiga bo‘liq. Xarakteri nasldan naslga o‘tadi;

**3.** Har qanday populyasiya butun dunyoni egallash potensialiga ega. Agar har bir individ yashab qolsa, va maksimal darajada nasl qoldirsagina amalga oshishi mumkin. Ammo ba’zilari nasl qoldirmay nobud bo‘ladi, qolganlari maksimal darajada nasl qoldirmaydi;

**4.** Har bir individ turli miqdorda nasl qoldiradi. Bu ularning nasl qoldirgunga qadar yashab qolishiga, nasl qoldirish sharoitiga, naslning yashab qolishiga va boshqalarga bog‘liq;

**5.** Nihoyat, nasl soni to‘laqonli bo‘lmasa ham hal qiladigan darajada organizm va uning muhiti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga bog‘liq.

Har qanday jamiyatda individlar yashab qolishga, yaxshiroq rivojlanishga va boshqalardan ko‘ra ko‘proq nasl qoldirishga moyillik sezadilar. SHu tufayli agar populyasiyaning o‘tib keluvchi xususiyatlari avloddan avlodga o‘zgarsa, unda tabiiy seleksiya yuz bergan deyiladi. Buning ma’nosи tabiatni seleksiya deb tushunishga sabab bo‘ladi. Ammo tabiat o‘simpliklar va hayvonlardek seleksiya qilmaydi. Ularning muayyan nihoyasi bor-kattaroq urug‘lar yoki tezroq nasl qoldirish kabi. Ammo tabiat seleksiya qilmaydi, u shunchaki differensial yashab qolish va ko‘payishning evolyusion ijrosi uchun muhit yaratadi.

Gistologiya va meditsina va mikrobiologiyada ko‘p xujayrali organizmlar to‘qimasidagi bir xil tuzilishga ega bo‘lgan xujayralar populyasiyasi deb aytildi. Etnograflar populyasiya deganda o‘z ichida qiz olish berish qiladigan odamlar jamoasini tushunadilar.

SHuningdek populyasiya individlariga genetik getrogenlik ham xos bo‘lib, bu xususiyat ularning har xil sharoitiga moslanishlarini belgilaydi va evolutsiya uchun juda muhim bo‘lgan irsiy o‘zgaruvchanlik imkoniyatini yuzaga keltiradi. Populyasiyadagi genetik o‘zgarishlar turlarning kelib chiqishi, yangi o‘simlik navlari, hayvon zotlarini yaratish va boshqalar asosini tashkil qiladi.

«Populyasiya» terminini 1903 yilda daniyalik genetik V. Iogansen bir turga mansub, genetik bir xil xususiyatga ega bo‘lman individlar yig‘indisini tushuntirishda keltirgan edi. Demak populyasiya deganda bir turga oid bir-birlari bilan doimo bog‘langan organizmlar yig‘indisi e’tiborga olinadi.

Populyasiyadagi yakka organizmlar bir- biriga o‘xshash bo‘lgan taqdirda biz shunchaki yakka organizmlarnig sonini sanash orqali populyasiyaga ta`rif berishimiz mumkin. Ammo hayvonlar va o‘simlik populyasiyalari orasidagi yakka organizmlar yashab qolish va ko‘payishning hozirgi va kelajakdagi istiqbollariga ta`sir o‘tkazuvchi turli xil muhim xolatlarda bir- biridan farq qiladi. Masalan, kattaroq yakka organizmlar odatda yashab qolish ko‘proq nasl qoldirish va ba`zida kattaroq avlodlar hamda sekinroq o‘sish ko‘rsatkichlariga erishish uchun ko‘proq imkonoyatlar bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda har bir turlicha tipning ko‘plab yakka organizmlarini hisobga olgan holda populyasiya tuzilishini tasniflash populyasiyaning davrlar mobaynida qanday o‘zgarganini tushunish uchun tanqidiy bo‘lib qoladi. Ushbu bobda biz tuzilgan populyasiyalarning dinamikasini ta`riflash va oldindan aytib berish uchun qo‘llaniladigan modellaening asosiy turlaridan bir nechtasini tekshirib o‘tamiz. Ayrim davrlarda davriy shakllangan modellar mavsumiy muhitlarda populyasiyalar uchun mos bo‘lgan buyuk matematik Lionard euler (1707- 1783)tomonidan bir necha asrlar oldinrivojlantirilgan. Hayot siklida(masalan, urug‘lar gullayotgan o‘simliklarga qarshi, lichinka voyaga etgan organizmga qarshi) ularning qatlamlari tomonidan tasniflanadigan yakka organizmlar o‘rganilganda bu modellarga ko‘chishdan avval davriy shakllangan modellar dastlab ishlatilgan. Aynan bir davrga asoslangan modellar o‘rganilgach biz davomiy vaqt modellaridan, keyin esa ba`zi tatbiqlar va kutiladigan natijalardan ham foydalanishimiz ham kerak.

Xar bir populyasiyadagi organizmlar miqdori bir meyorda bo‘lib, tashqi muxit sharoiti keskin o‘zgarmaguncha u shu miqdorda saqlanib qolishi mumkin. Tashqi muxining o‘zgarishi populyasiyadagi organizmlar sonining o‘zgarishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir etib turadi.

Populyasiya a'zolarining hayotiy belgilari Populyasiya - bu bir turning yoki bir necha tur vakillarining guruhidir. Ular ma'lum joyda uchraydi va ko'p hayotiy belgilarga ega bo'ladi va shu belgilar butun guruhning doimiy funksiyalarini aks ettiradi. Populyasiya a'zolarining hayotiy belgilari: -tur vakillarining qaliligi, -tug'ilishi, -o'lishi, -yosh bo'yicha taqsimlanishi, -ma'lum hududda tarqalishi, -organizmning biotik potensiali Populyasiya belgilarini aniqlash ekologik tadqiqot orqali amalga oshiriladi va umumiyligi uchun katta ahamiyatga ega.

### **Turlar orasida ixtisoslashuv**

Tabiat organizmlarning bir darajadan boshqasiga o'tadigan turlaridan iborat emas. SHunga qaramay, biz bilgan turlar orasida ham odatda sezilarli variatsiya mavjud va ularning bazilari o'tib keluvchidir. Bu o'simlik va hayvonlar uchraydigan intraspesifik variatsiyada ko'rindi.

Ecotip so'zi birinchi marta o'simlik populyasiyasiga nisbatan ishlatalgan. U organizmlar va tabiat o'rtasidagi mahalliy mosliklarni ko'rsatuvchi turlar orasidagi populyasiyadagi muayyan genetik farqlarni namoyon etadi. Ammo evolyusiya populyasiya xususiyatlarini bir-biridan ajralishini taqozo etadi. Ikki populyasiya toki ularning a'zolari doimiy o'zaro migratsiya qilsa va genlar aralashsa, butunlay ajralib ketmaydi.

Mahalliy, maxsus populyasiyalar hayotining asosiy qismida ko'chmaydigan organizmlar orasida differensiallanadi. Ko'chmanchi organizmlar o'zları yashaydigan muhitda katta nazorat mavqeiga ega. Ular nomaqbul muhitdan qochadilar va faol boshqasini qidiradilar. Ko'chmas organizmlarda bunday erkinlik yo'q. ular o'zları joylashgan muhit sharoitida yashashlari va o'lishlari shart. Bu contrast sohil bo'yida yana

ham yaqqol ko'rindi. Bu organizmlarning ko'chishlari o'z muhitlarini o'zlariga

moslashtirishga imkon yaratadi. Ko'chmaydigan organizm esa o'zini muhitga moslashga majburdir.

## Genetik polimorfizm

Amensalizjm (-.) — bunda bir populyasiya o'ziga zarar keltirmasdan ikkinchi populyasiyaning yashashiga to'sqinlik qiladi yoki uni o'sishga qo'ymaydi. Amensalizmga tipik misol qilib antibiotik zamburugMar — akti-nomitsetlar yoki o'simlik g'itonsidlarining parazit mikroorganizmlarga ko'rsatgan ta'sirini olish mumkin. Amensalizm hodisasini suvning gulashida ham ko'rish mumkin, ya'ni ko'payib chiriyotgan ko'k-yashil suvo'tlardan ajralib chiqqan toksinlar (zaharli moddalar) ko'pchilik zoo- planktonlarning oiimiga sabab boiadi yoki ularni siqib chiqaradi.

3. Parazitizm va yirtqichlik (+,-) — bunda bir populyasiya ikkinchi populyasiyaga hujum qilib uning yashashishga zarar keltiradi, biroq o'zining kelgusidagi hayoti ham o'ljasiga bevosita bog'liqdir. Agar ja-moadagi bir populyasiya yirtqich (birlamchi konsument) — odatda, hay-vonlar o'ljası yoki «xo'jayini» — birlamchi produtsent (o'simlik) bo'lsa ular o'simlikxo'rlar deyiladi. Agar bir populyasiya ikkinchi populyasiya uchun zararli bo'lgan moddalarni ishlab chiqsa, bunda allelopatiya yoki antibioz mikroorganizmlar deyiladi.

Biz hammamiz yirtqich va parazitlarga nisbatan g'arazgo'yligimiz ku-chli, biroq odamlarning o'zları ham tipik yirtqichlar hisoblanadi.

Ular tabiiy epidemiyalarga ko'pincha o'zları sabab bo'ladilar. To'g'ri yirtqichlar va parazitlar o'simliklar bilan oziqlanib, allelopatiyada esa bir populyasiya individlari ikkinchi bir populyasiya individlariga salbiy ta'sir etib, ulami halok qiladilar yoki zarar keltiradilar, populyasiyalaming o'sishini susaytiradilar, ularning miqdorini kamaytiradilar va hokazo. Lekin yirtqichlarsiz, parazitlarsiz va allelopotiyasiz populyasiyalar yashay oladimi yo'qmi, buni chuqr tahlil qilib O'rganilganda shu narsa aniq ravshan bo'ldiki, bu xildagi organizmlar populyasiyalar zichligini normal ta'minlash imkoniyatini yaratadilar.

## **Ekologiya epidemiologiyasining zaruriyatি**

Parazitlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikrlaganda, organizmlarning eng muhim turi hisoblanadi. Har yili infeksiyaning turli hillaridan millionlab odamlar o‘ladi va ko‘pchiliklari zaiflashadi yoki majruh bo‘lib qoladi. Qachonki uy hayvonlari va donlarga parazitlarni ta’siri bunga qo‘silsa, insoniyat kambag‘alligi terminidagi bah ova iqtisodiy talofat hisobsiz darajada bo‘ladi. Parazitlar raqamli holda muhim hisoblanadi. Turlar sonining bir qancha parazitik yakkaliklarga boshpana bermaydigan erkin yashovchi organizmlar kamnamodir. SHunday qilib, ekologik epidemiologiya tajriba nuqtayi nazaridan kelib chiqqanda hisoblanadi. Ekologiyada bir qator javobsiz qolgan va hozirga qadar murojaat qilinadigan savollar ko‘p: masalan, qaysi darajagacha hayvonlar va o‘simliklar populyasiyasi yoki jamiyat umumiy olganda, parazitizm va kasallik tomonidan zararlanadi? Ekologiya mutaxasislari oziq-ovqat resurslari musobaqachilar, yirtqichlarning muhim turlari bo‘yicha anchadan beri jalb qilinganlar; yaqindan boshlab parazitlar va patagenlar yuqoridagilar qatori e’tiborni jalb etib kelyapti.

4. Kommensaliztik (+,0) — bunda bir populyasiya ikkinchi populyasiya bilan birlashganda g‘oyda ko‘radi, bu birlashish ikkinchi populyasiya uchun esa ahamiyatsiz yoki uning uchun bcg‘arq bo‘ladi. Bu birlashish simbioz- ning shunday bir shakli, bundagi partnyorlaming bittasi ikkinchisiga (xo‘jayiniga) tashqi muhitga bo‘lgan munosabatlarini bajarishni yuklaydi, o‘zi esa tashqi muhit bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmaydi. Ular orasida antoganizm ham bo‘lmaydi. Umumiy maydon, substrat, ozuqa, hara- katlanish-kommensial munosabatlaming asosini tashkil etadi. Xo‘jayinning tuzilishi va hayot kechirish holatlaridan kommensal o‘zi uchun ko‘pincha bir tomonlama g‘oyda ko‘radi. Uning o‘zi «xo‘jayin» uchun ko‘pincha be- g‘arq, ahamiyati yo‘qday tuyuladi. Parazitlik yoki simbiozning boshqa shakllariga qaraganda kommensalizm kamroq uchrab turadi. Masalan, daraxtlarda in qurib yashovchi qushlar, akulalarda yopishib yashovchi lotsman baliqlari, axlatlar bilan oziqlanadigan sinantrop yumronqoziq populyasiyalari va qushlar ham kommensalizmga misol bo‘la oladi.

Kommensalizm ko‘pincha okeanlardagi organizmlarda ko‘proq uchrab turadi. Buni okeanlardagi har bir qurt uyasida, har bir ikki chanoqli moluskalar chanog‘ida, bulutlilarning tanasida doimo chaqirilmagan meh- monlar, organizmlar yashab hayot kechiradilar. Lekin ular o‘zлari xo‘jayinlariga zarar keltirmaydilar.

5. Protokooperatsiya — bunda ikki populyasiya ham birlashgan assotsiatslyadan g‘aqat g‘oyda ko‘radilar, biroq bunday munosabatlar ular uchun shart emas.

6. Kooperatsiya — ikki organizm bir-birlari bilan kooperatsiya hosil qiladilar. Bimday kooperatsiya ikki organizm uchun ham ustunliklarga ega. Masalan, krablar bilan kovakichlilar bunga misol bo‘la oladi. Kovakichlilar krablarning orqasiga yopishib olib (ba’zan ularni krablarning o‘zлari o‘tqazib oladilar) ularni dushmanlardan himoya qiladilar. Kovakichlilar esa o‘z navbatida krablardan transport vazig‘asida g‘oydalanadilar hamda ulardan qolgan ovqat qoldiqlari bilan ovqatlanadilar.

7. Mutualizm (+,+). Birlashgan ikki populyasiya ham g‘aqat g‘oyda ko‘radi, bu birlashish ular uchun g‘ovdalidir, bunday birlashgan organizmlar tabiiy sharoitda biri ikkinchisiz hayot kechira oimaydi. Masalan, termitlar va ularning ichaklarida yashovchi xivchinlilar bunga yaqqol misoldir. Bunda xivchinlilar termitlar qabul qilgan kletchatkani hazm qilishga yor- dam beradilar, chunki termitlar kletchatkani mustaqil o‘zlashtira olmaydi- lar. Xivchinlilar ham termitlarsiz yashay olmaydilar. CHunki, ular uchun yashash sharoiti termitlar ichaklaridir. Xuddi shunday holatni lishayniklar misolida ham ko‘rish mumkin.

8. Turlar o‘rtasidagi munosabatlaming ikki va undan ko‘p tur uchun qulaylik tug‘diradigan iilini o‘zaro )vrdam deyiladi. Masalan, hasharotlar yordamida changlanadigan o‘simliklar, changni bir o‘simlikdan ikkinchi o‘simlikka olib o‘tadigan va shu bilan o‘simliklaming chetdan cianglanishini ta’minlaydigan hasharotlarga muhtojdir. Boshqa hollarda turlar orasidagi o‘zaro munosabatlar bir-biriga qarama-qarehi tarzda bo‘lishi mumkin.

Yirtqichlikda bir tur hayvonlar boshqa tur hayvonlami eydi. Ikkala tur tashqi muhitning bir xil sharoitician g‘oydalansa-yu, o‘sha shart-sharoit miqdori

chegaralangan bo‘lsa, bunda bu sharoitda yashaydigan turlar o‘zaro raqobat tarzida munosabatda bo‘ladi. Masalan, o‘simliklar yorug‘lik. tuproqdagi suv va meniral moddalar uchun raqobatda bo‘ladi. SHox-shabbasi yaxshi rivojlangan o‘simliklar yorug‘lik nurini ko‘proq oladi, suv va mineral moddalardan yaxshi g‘oydalanadi hamda tez o‘sadi va rivoj- lanadi, natijada, yorug‘lik va boshqa mineral moddalardan kamroq g‘oy- dalangan turlami o‘zining shox-shabbasi ostida qoldirib, ularning o‘sishi va rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi.

Bir xil o‘lja bilan ovqatlanadigan yirtqich hayvonlaming liar xil turlari o‘rtasida ham ana shunday raqobat qiladigan o‘zaro munosabatlar mavjud. Mikroorganizmlardagi antibioz qarama-qarshi munosabatlaming o‘ziga xos shaklidir, chunonchi, penitsill zamburug‘i organik oziq moddalar uchun o‘zi bilan raqobat qiladigan talaygina bakteriyalarning o‘sishi va ko‘payishini to‘xtatib qo‘yadi.

### **Serial va Klimaks jamoalar. Mono va poliklimaks nazariyalar**

SHakllangan nisbatan dominant tizimli, o‘z-o‘zini oqlay oladigan va tashqi muhit bilan tenglikda bo‘luvchi jamoani klimaks jamoa deyiladi.

Klimaks jamoalarda ko‘pincha bitta dominant yoki bir ncchta kodominant turlar bo‘ladi. Dominantlik ko‘pincha subyktiv tushuncha bo‘lib, odatda, ko‘p biomassa va hosil benivchi turlarni dominantlar deyiladi. Klimaks jamoalarga O‘zbekistonning gil tuproqli cho‘l mintaqasi- dagi shuvoq barra o‘tli yaylovlarni misol qilib olish mumkin. Bu jamoada shuvoq individlar soni liamda biomassa hosil qilishi bo‘yicha boshqa (yan- toq, chitir, qo‘ng‘rbosh, qorabosh va hokazolar) o‘simliklarga nisbatan us- tun turadi. Dcmak, u dominant tur hisoblanadi.

Sukscsiya nazariyasini birinchi bo‘lib asoslab borgan kishi Klementsdir (1916). U SHimoliy Amerika hududidagi jamolarni o‘rganib klimaks jamoalar tarkibining o‘zgarishiga asosiy sabab iqlim ekanligiga ishonch hosil qildi. Uning tasawuricha ma’lum bir iqlim sharoitida g‘aqatgina bitta klimaks jamoa shakllanishi mumkin. Buni monoklimaks konsepsiya deyiladi.

Hozirgi kunda esa poliklimaks konsepsiyasi ko‘proq ishlatilmoqda. Bu nazariyaga ko‘ra klimaks jamoalari birgina iqlim omillari asosida emas, balki bir qancha g‘izik omillar (drenajlar, tuproq, topografiya, yong‘inlar) ta’sirida ham shakllanishi mumkin.

Poliklimaks konsepsiyasining haqiqatga naqadar yaqin ekanligi Markaziy Osiyoning cho‘1 zonasida shakllangan klimaks jamoalaridan ko‘rinib turibdi. Ma’lumki, bu mintaqaning iqlimi deyarli bir xil keskin kontinental hisoblanadi. Qishi sovuq, yozi esa issiq keladi. YOg‘ingarchilik miqdori ham chegaralangan bo‘lib, uning o‘rtacha yillik miqdori 80—120 mm ni tashkil etadi.

YOg‘inlar ham asosan kech kuzda va qishda hamda bahor oylarida yog‘adi. Lyundan oktabr oyigacha olti oy mobaynida yog‘ingarchilik kuzatilmaydi. Biroq bu mintaqaning tuproq sharoiti turli xilda bo‘lib, gil tuproqli, qum tuproqli, gips tuproqli va sho‘r tuproqli hududlarga bo‘linadi. Ana shunday tuproq sharoitlari cho‘1 mintaqada bir- biridan o‘simlik va hayvon turlari jihatidan g‘arq qiladigan klimaks jamoa- larning shakllanishiga olib kelgan. CHunouchi, gil tuproqli cho‘llarda asosan chala buta va ko‘p yillik o‘t osimliklar hamda eg‘emer va eg‘eme- roidlardan tashkil topgan yuqorida bayon etilgan shuvoq barra o‘tli klimaks jamoalar shakllangan bo‘lsa, qumli cho‘llarda buta, chala buta ko‘p yillik o‘t, eg‘emer va eg‘emeraldan tashkil topgan saksovul, shuvoq barra o‘tli klimaks jamoalar hosil qilgan. Bu jamoalarda dominant oq saksovul bo‘lib, subdominantlarga shuvoq yoki singrenlar kiradi. Xuddi shunday tur va biomassasi jihatidan bir-biridan g‘arq qiluvchi klimaks jamoalar gipsli tuproqli va sho‘r tuproqli hududlarda ham shakllangan.

Uzoq muddat davomida yashab turadigan jamoalarga chin klimaks jamoa deyiladi, chunki ularda vaqtli klimaks jamoalarga qaraganda o‘zga- rishlar nisbatan sekinlik bilan bo‘lib turadi.

Quruqlikdagi tipik klimaks jamoalarga misol qilib, barglari to‘kiluvchi o‘rmonlarmi, dasht, cho‘1 va tog‘ zonasi o‘simliklarmi misol qilib olish mumkin. Bu o‘rmonlar turlarga juda boy bo‘lishadi. Masalan, Oksg‘ord (Angliya) o‘rmonlarida 4 mingga yaqin hayvon turlari uchraydi. SHunday ko‘p hayvon

turlarining uchrashishiga asosiy sabab ko‘p miqdorda mik- roiqlim sharoitining mavjudligidir. O‘rmon zonasining muhim xususiyat- laridan biri bu o‘simliklaming yaruslar bo‘ylab ko‘p uchrashidir. Dastlabki mahsulotning ko‘p qismi birinchi yarusdagi o‘simliklar tamonidan yara- tiladi. Erga yaqin joylashgan yarusda esa eng intensiv ravishda organik moddalarning parchalanishi bo‘lib turadi. Hayvonlar esa hamma yarusdagi burchaklarda uchraydi.

Suksessiyalar natijasida jamoalar mahsuldorligining oshib borishi to‘g‘rlasidagi dastlabki tushunchasini 1942-yilda Lindeman aytgan edi. Ke- yingi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, suksessiyaning oxirgi davrlarida jamoalar mahsuldorligi chindan ham orta boradi. Biroq klimaks jamoaga o‘tgandan so‘ng uning umumiyligi mahsuldorligi pasaya boradi. SHunday qilib, keksaygan o‘rmonlarda mahsuldorlik yosli o‘rmonlaiga qaraganda anclia past bo‘ladi, shunga o‘xshash mahsuldorlikning pasayishini ba’zi bir suv ekosistemalarida ham kuzatish mumkin. O‘rmonlardagi mahsuldorlikning kamayishini daraxt- larning eskirganligi, qariganligi bilan tushuntirish mumkin. SHakllangan kli- maks jamoalarda biomassaning to‘planishi suksessiya davrlariga qaraganda ko‘proq bo‘ladi. Oiganizmlaraing g‘aoliyati natijasida tashqi muhit vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Bunga misol qilib qumliklarda suksessiyalarining hosil bo‘lish jarayonini olish mumkin. Masalan, SHimoliy Amerikadagi Michigan ko‘U atrog‘idagi suksessiyalarining shakllanishi yaxshi o‘rganilgan. Bu erlarda qumlikning stabbillanishi natijasida oziq moddalarga talabi ko‘p bo‘lmagan daraxt o‘simliklarining (terak, qarag‘ay) o‘sishiga imkon tug‘ilgan. Keyinchalik ulaming g‘aoliyati natijasida uzoq vaqt davomida organik mod- dani o‘zida to‘plovchi tuproq qatlami hosil bo‘la boshlagan va azot to‘plovchi bakteriyalar ko‘payib ular tuproqni azot birikmali bilan bo- yitganlar va natijada bu erlarda dominant turga aylangan dub doimiy o‘sa boshlagan. Bu erda suksessiyaning shakllanishida tuproq omili asosiy rol egallagan. Biroq suksessiyaning to‘la shakllanib tamom bo‘lishi uchun yana ming yillar talab etiladiki, ana shu davrda tuproq to‘la shakllanadi hamda shu sharoitga moslashgan o‘simliklar keyinchalik doimiy o‘sa boshlaydi va klimaks jamoa hosil bo‘ladi. Suksessiyaning keyingi davrlarda jamoanining

shakllanishida biotik omillaming o‘zaro ta’siri kuchayib, muhim ahamiyat kasb etadi. Oiganizmlaming turli-tumanligi ortadi va so‘zsiz ulaming bir- biriga ta’siri murakkablashib boradi.

To‘liq suksessiya ba’zan seriya deb ataladi. Seriyalar seriya jamoa qa- torlarini hosil qiladilar. O‘xhash yashash sharoitlarida bir-biriariqa yaqin (o‘xhash) suksessiyalar bo‘ladi. Ana shunga qarab suksessiyalami yashash sharoitlariga ko‘ra klassig‘ikatsiyalash mumkin. CHunonchi, suv sharoitida rivojlangan suksessiyalami gidroseriya, sho‘rlangan joylanda rivojlangan suksessiyalami galoseriya deyiladi.

### **“Blits usuli”**

Nº	Mavzular savoli	Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bildim
1.	Biotsenozlar deb nimaga aytiladi?			
2.	Biotsenoz ta’mintonini fanga kim kiritgan?			
3.	Fitotsenoz deb nimaga aytiladi?			
4	Biotsenozlarning tuzilishi qanday?			
5.	Biotsenozlarning tur tarkibini gapirib bering?			
6.	Biotsenozning ekologik tuzilishi qayday?			

### **“Insert usuli”**

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘sishimcha ma’lumot zarur

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
fanerofit				
xamefit				
terrofit				
gidrofit				

### **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

#### Vaziyatli masala

Emanlar jamoasi yoki shuvoqlar jamoasi deganda ana shu hududlarda yashovchi barcha o‘simliklar va hayvonlami o‘z ichiga oluvchi tirik organizmlar jamoasini e’tiborga olib, ularda emanlar va shuvoqlar us- tunlik qiladi. SHu sababli bu jamoalami emanlar yoki shuvoqlar jamoasi deb yuritiladi.

Bu nimaga misol bo‘la oladi?

#### Vaziyatli masala

Biotik omillar-barcha tirik organizmlarning yashash jarayonida bir-biriga ma’lum munosabatda bulishi va ta’sir ko`rsatishidir. Biotik omillar xar hil kurnishda va xarakterda yashash joylarida bir-biriga ta’sir etadi.

Biotik omillarga misol keltiring.

#### Vaziyatli masala

Konkurensiya bu bir xil sharoitda yashovchi organizmlar orasidagi yashash uchun kurash. Tabiatda odatda ekologik jixatdan 2 ta bir xil tur., ayniqsa bir xil Ovqat talab kiluvchilar kelishib, yashay olmaydi. G.F.Gauze tajribasida, 2 ta infuzoriya turi bir xil Ovqat muxitida kuyilganda, ma’lum vakt utgach fakat bitta turi tirik koladi. Bir xil joyda usgan xar xil tur usimliklarda xam shunday bo`ladi.

Yirtqich xayvonlarda qanday bo‘ladi?

### Vaziyatli masala

Yirtkichlik bularga tirik xayvonlar bilan oziqlanuvchilar-kiradi. Odatda yirtkich o‘z o‘ljasini oldin o‘ldiradi, keyin endi. Yirtqichda va uning qurbanida ma’lum bir ximoya moslamalar paydo bo‘lgan. Masalan, qurbanida tikanaklar, sovut-kosa (toshbaqa), ximoya ranglar, zaxarli bezlar, tez chopib qutulish, tuproknii ichiga kirib ketish, chuqur in qazish (yirtkichlar kira olmaydigan), xavf yaqinlashganda o‘zlaridan xar xil signal chikarish.

Yirtqich xayvonlarda qanday bo‘ladi?

### Vaziyatli masala

Redutsentlar— o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar. Bular, asosan fotosintezlovchi murakkab va tuban yashil o‘simliklardir.

Vaziyatni baxolang.

### Vaziyatli masala

Produtsentlar yoki istehmol qiluvchilar. Produtsentlar hosil qilgan organik moddalarni istehmol qiladi. Ularga hayvonlar, parazit o‘simlmk va mikroorganizmlar kiradi.

Vaziyatni baxolang.

### Vaziyatli masala

Konsumetlar – organik moddalarni minerallashtiruvchilar, avvalgi holatiga qaytaruvchilar. Ularga bakteriyalar, zamburug‘lar, saprofit usimliklar kiradi. Ifodali kilib aytganda xayot estafetasini yashil o‘simliklar boshlab hayvonlarga uzatadi, uni bakteriyalar marraga olib boradi, yana qaytadan yashil o‘simliklarga uzatadi. Yangi halqa boshlanib bu estafeta tinmasdan davom etaveradi.

Vaziyatni baxolang.

### Vaziyatli masala

Patogenlar bir qancha turlardan oziq moddalarni oladigan, odatda zararga sabab bo‘ladigan lekin o‘limga sabab bo‘lmaydigan organizm. Bu parazitlarni o‘zining hayoti davomida ko‘p qurbanlarni iste’mol qiladigan va ularni o‘ldiradigan yirtqichlardan va turli xil o‘ljalarda kam ishtirok etadigan o‘txo‘rlardan farqlaydi.

Aniq zararli hisoblangan simptomlarni oshishiga parazit infeksiyasi ta'sir ko'rsatsa, turning kasallanishi kuzatiladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Parazit kasallikni rivojlantiradigan barcha parazitlar uchun muhim bo'lgan termin. O'simlik patalogiyasi va hayvon patalogiyasi mutaxasislari tomonidan ishlatiladigan til odatda turli xil hisoblanadi. Lekin ekoliya mutaxasislari uchun bu farqlar o'xshashliklardan ko'ra kam ta'sir qiladigan hisoblanadi. Mikroparazitlar va makroparazitlar o'rtasidagi farqni aytib o'tish foydalidir.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Makroparazitlar kichik, ichki hujayralarda joylashadigan hisoblanadi va ular o'zining shiddatli darajada ko'p tarqalgan turlari ichida to'g'ridan-to'g'ri ko'payadigan parazitlardir. SHuning uchun to'dalarda mikroparazitlar sonini sanashning odatda imkon yo'q; ekoliya mutaxasislar odatda populyasiyadagi infeksiya yuqtirilgan turlarning sonini o'rghanish bilan shug'ullanadilar. Bunga misol qilib, bakteriya va viruslar, hayvonlarga yuqtiriladigan pratazoa (bezgakka sabab bo'ladigan turlar) va bir qancha o'simliklarga ta'sir ko'rsatadigan oddiy zamburug'lar.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Mikroparazitlar o'sadi, lekin tur ichida ko'paymaydi. Ular yangi turlarga yuqtirish uchun chiqariladigan infeksiya bosqichini ishlab chiqaradi. Hayvonlarning makroparazitlari ko'pincha tana ustida yoki tana ichidagi katakchalarda yashaydi. O'simliklarda ular ichki hujayra katakchalarida joylashadi. Tur ichida yoki ustida makroparazitlarni sanash yoki hisoblab chiqishning imkonи bor. SHuning uchun ekoliya mutaxasislari parazitlar soni kabi yuqtirilgan turlar sonini ham o'rghanishadi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Konkurensiya — (0:0) bunda ikki populyasiyadagi asatsiatsiyalarda o‘zaro ta’sir sezilmaydi, ikki populyasiya individlari ham deyarlik bir xilday yashaydi. Masalan, sherlar o‘tlar bilan oziqlanmasalar ham, savannalardagi yaylovlaming holati ular uchun beg‘arq cmas. CHunki, ulaming ovqati bo‘lmish antiloplar hosildor yaylovlarda ko‘p boladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Neytralizm bunda ikki populyasiyalar bir- birlariga to‘sinqinlik qiladilar. YA’ni bir poplatsiya ikkinchi populyasiya bilan deg‘itsit (etishmaydigan) resurslarni o‘zlashtirishda kurashadilar. (Bu masala populyasiyalar mavzuyida batafsil yoritilgan).

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Parazitizm (-.0) — bunda bir populyasiya o‘ziga zarar keltirmasdan ikkinchi populyasiyaning yashashiga to‘sinqinlik qiladi yoki uni o‘sishga qo‘ymaydi. Parazitizm tipik misol qilib antibiotik zamburug‘lar — akti- nomitsetlar yoki o‘simlik g‘itonsidlarining parazit mikroorganizmlarga ko‘rsatgan ta’sirini olish mumkin. Parazitizm hodisasini suvning gulashida ham ko‘rish mumkin, ya’ni ko‘payib chiriyotgan ko‘k-yashil suvo‘tlardan ajralib chiqqan toksinlar (zaharli moddalar) ko‘pchilik zoo- planktonlarning oiimiga sabab boiadi yoki ularni siqib chiqaradi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Amensalizm va yiritqichlik (+,-)— bunda bir populyasiya ikkinchi populyasiyaga hujum qilib uning yashashishga zarar keltiradi, biroq o‘zining kelgusidagi hayoti ham o‘ljasiga bevosita bog‘liqdir. Agar ja- moadagi bir populyasiya yirtqich (birlamchi konsument) — odatda, hay- vonlar o‘ljasи yoki «xo‘jayini» — birlamchi produtsent (o‘simlik) bo‘lsa ular o‘simlikxo‘rlar deyiladi. Agar bir populyasiya ikkinchi populyasiya uchun zararli bo‘lgan moddalarni ishlab chiqsa, bunda allelopatiya yoki antibioz mikroorganizmlar deyiladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Mutualizm (+,+). Birlashgan ikki populyasiya ham g‘aqat g‘oyda ko‘radi, bu birlashish ular uchun g‘ovdalidir, bunday birlashgan organizmlar tabiiy sharoitda biri ikkinchisiz hayot kechira oimaydi.

Misollar keltiring.

#### Vaziyatli masala

SHakllangan nisbatan dominant tizimli, o‘z-o‘zini oqlay oladigan va tashqi muhit bilan tenglikda bo‘luvchi jamoani klimaks jamoa deyiladi.

Klimaks jamoalarda ko‘pincha bitta dominant yoki bir ncchta kodominant turlar bo‘ladi.

Klimaks jamoalarga misollar keltiring.

#### Vaziyatli masala

Klimaks jamoalarga O‘zbekistonning gil tuproqli cho‘l mintaqasi- dagi shuvoq barra o‘tli yaylovlarni misol qilib olish mumkin. Bu jamoada shuvoq individlar soni liamda biomassa hosil qilishi bo‘yicha boshqa (yan- toq, chitir, qo‘ng‘rbosh, qorabosh va hokazolar) o‘simgiklarga nisbatan us- tun turadi. Dcmak, u kodominant tur hisoblanadi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Suksessiya nazariyasini birinchi bo‘lib asoslab borgan kishi Kenjaevdir (1916). U Janubiy Osiyoda hududidagi jamolarni o‘rganib klimaks jamoalar tarkibining o‘zgarishiga asosiy sabab iqlim ekanligiga ishonch hosil qildi. Uning tasavvuricha ma’lum bir iqlim sharoitida g‘aqatgina bitta klimaks jamoa shakllanishi mumkin. Buni monoklimaks konsepsiya deyiladi.


Vaziyatni baxolang.

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

## **BIOTSENOZ KOMPONENTLARI**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**

**POPULYASIYALAR ORASIDAGI KURASH**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“Klaster” usuli**


### **TURLAR O‘RTASIDA BIOTIK MUNOSABATLAR:**



## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning o‘quv texnologiyasi**

### **“ECHIM DARAXTI» usuli**

**“Fitofag xayvonlar usimliklar bilan Ovqatlanib  
nimalarga ta’sir qilishi”**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

## **SUKSESSIYALAR**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**


**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**

**BIOTSENOZ KOMPONENTLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
“Klaster” usuli**

**PARAZITLAR TURLARI**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«Echim daraxti» usuli**

**“Boigen migratsiyada qatnashuvchi organizmlar”**

### **Biogen migratsiyada qatnashuvchi organizmlar**



## **1 - variant**

1. Jamoa nima ? A. ekosistemasining tirik ajralmas qismi bo'lib, ma'lum bir hududni egallagan, bir-biriga o'zaro ta'sir qo'rsatuvchi populatsiyalar yig'indisi hisoblanadi.

B. Xar bir hududni egallagan, o'zaro ta'sir qo'rsatuvchi energiyalar yig'indisi hisoblanadi.

V. keng hududni egallagan, bir-biriga o'zaro ta'sir qo'rsatmaydigan maydonlar yig'indisi hisoblanadi. tor hududni egallagan, bir-biriga o'zaro qo'payadigan turlar yig'indisi hisoblanadi.

2. Gullovchi usimliklar uchun biotik omild qaysi?

A. changlatuvchi xayvonlar-xasharotlar. B. Go'ng tashuvchi qo'ng'izlar V. uya quruvchi qushlar G. In kovlovchilar

3. Turlar urtasida biotik munosabatlar qanday?

A. Konkurensiya, Yirtkichlik, Parazitizm, Komensalizm, Sinoysiya, Simbioz, Zooxoriya, Feromonlar, Mutualizm.

B. Konkurensiya, Komensalizm, Sinoysiya, Simbioz, Zooxoriya, Feromonlar, Mutualizm.

V. Konkurensiya, Yirtkichlik, Parazitizm, Simbioz, Zooxoriya, Feromonlar, Mutualizm.

G. Konkurensiya, Yirtkichlik, Parazitizm, Komensalizm, Sinoysiya, Feromonlar, Mutualizm.

4. Mutualizm nima ?

A. turli sistematik guruxlarga mansub usimlik va xayvonlarning bir-biriga. foyda berishi mumkin bulgan ikki individning uzaro kushilib yashashi

B. aktiv modda chikarib, urgochisi erkagini jalb qiladii

V. ba'zi xayvonlar usimliklarni uruglarini terilariga (yung) yoki eb (xazm kilmaydi) ularni urugini tarkatadi.

G. ikki turni bir joyda yashashi, bunda ikkalasi xam manfaatdor bo`ladi

5. Feromonlar nima ?

A. aktiv modda chikarib, urgochisi erkagini jalb qiladii

B. ba'zi xayvonlar usimliklarni uruglarini terilariga (yung) yoki eb (xazm kilmaydi) ularni urugini tarkatadi.

V. ikki turni bir joyda yashashi, bunda ikkalasi xam manfaatdor bo`ladi

G. turli sistematik guruxlarga mansub usimlik va xayvonlarning birbiriga. foyda berishi mumkin bulgan ikki individning uzaro kushilib yashashi

6. Zooxoriya nima ?

A. ba'zi xayvonlar usimliklarni uruglarini terilariga (yung) yoki eb (xazm kilmaydi) ularni urugini tarkatadi.

B. ikki turni bir joyda yashashi, bunda ikkalasi xam manfaatdor bo`ladi

V. turli sistematik guruxlarga mansub usimlik va xayvonlarning birbiriga. foyda berishi mumkin bulgan ikki individning uzaro kushilib yashashi

G. aktiv modda chikarib, urgochisi erkagini jalb qiladii

7. Simbioz nima ?

A. ikki turni bir joyda yashashi, bunda ikkalasi xam manfaatdor bo`ladi

B. turli sistematik guruxlarga mansub usimliklarning kushilib yashashi

V. aktiv modda chikarib, urgochisi erkagini jalb qiladii

G. ba'zi xayvonlar usimliklarni uruglarini terilariga yoki eb (xazm kilmaydi) ularni urugini tarkatadi.

8. Sinoykiya nima ?

A. xar xil tur organizmlarning bir-biriga chambarchas bog'liq ravishda simbiotik, ya'ni uzaro kelishib va moslashib xayot kechirish xolati.

B. ikki turni bir joyda yashashi, bunda ikkalasi xam manfaatdor bo`ladi

V. turli sistematik guruxlarga mansub usimliklarning kushilib yashashi

G. aktiv modda chikarib, urgochisi erkagini jalb qiladii

9. Komensalizm nima ?

A. xar xil turdag'i xayvonlar birga yashab, ularning bittasi (kompensal) doimo yoki vaktincha boshqasi xisobiga yashaydi

B. Bunda organizmlarning biri tekinxur bo'lib, ikkinchisi (xujayin)ning tukimalari yoki xazm kilgan Ovqati bilan tuyinadi

V. Bularga tirik xayvonlar bilan oziklanuvchilar-kiradi

G. bu bir xil sharoitda yashovchi organizmlar orasidagi yashash uchun kurash

10. Parazitizm nima?

A. Bunda organizmlarning biri tekinxur bo‘lib, ikkinchisi (xujayin)ning tukimalari yoki xazm kilgan Ovqati bilan tuyinadi

B. Bularga tirik xayvonlar bilan oziklanuvchilar-kiradi

V. bu bir xil sharoitda yashovchi organizmlar orasidagi yashash uchun kurash

G. xar xil turdag'i xayvonlar birga yashab, ularning bittasi (kompensal) doimo yoki vaktincha boshqasi xisobiga yashaydi

## **2 – variant**

1. Produtsentlar nima ?

A. o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar. B. istehmol qiluvchilar. V. organik moddalarni minerallashtiruvchilar G. tirik moddalarni minerallashtiruvchilar

2. Produtsentlarga nimalar kiradi ?

A. asosan fotosintezlovchi murakkab va tuban yashil o‘simliklardir.

B. hayvonlar, parazit o‘simlmk va mikroorganizmlar kiradi.

V. zamburug‘lar, saprofit usimliklar kiradi. G. Hayvonlar, zamburug‘lar .

2. Konsumetlar nima?

A. istehmol qiluvchilar. B. organik moddalarni minerallashtiruvchilar

V. tirik moddalarni minerallashtiruvchilar

G. o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar.

3. Konsumetlarga nimalar kiradi?

A. hayvonlar, parazit o‘simlmk va mikroorganizmlar kiradi.

B. zamburug‘lar, saprofit usimliklar kiradi. V. Hayvonlar, zamburug‘lar .

G. asosan fotosintezlovchi murakkab va tuban yashil o‘simliklardir.

4. Redutsentlar nima ?

A. organik moddalarni minerallashtiruvchilar, avvalgi holatiga qaytaruvchilar

B. o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar. V. istehmol qiluvchilar.

G. tirik moddalarni minerallashtiruvchilar

5. Redutsentlar nimalar kiradi ?

- A. zamburug‘lar, saprofit usimliklar kiradi.
- B. Hayvonlar, zamburug‘lar. V. asosan fotosintezlovchi murakkab va tuban yashil o‘simpliklardir. G. hayvonlar, parazit o‘simplmk va mikroorganizmlar kiradi.
6. Xayot estafetasi qanday?
- A. yashil o‘simpliklar boshlab hayvonlarga uzatadi, uni bakteriyalar marraga olib boradi, yana qaytadan yashil o‘simpliklarga uzatadi.
- B. Hayvonlar boshlab yashil o‘simpliklarga uzatadi, uni bakteriyalar marraga olib boradi, yana qaytadan xayvonlarga uzatadi.
- V. bakteriyalar boshlab hayvonlarga uzatadi, uni yashil o‘simpliklar marraga olib boradi, yana qaytadan yashil o‘simpliklarga uzatadi.
- G. bakteriyalar boshlab hayvonlarga uzatadi, uniyashil o‘simpliklar marraga olib boradi, yana qaytadan bakteriyalarga uzatadi.
7. Protokooperatsiya nima ?
- A. bunda ikki populyasiya ham birlashgan asso- siatsiyadan faqat foyda ko‘radilar.
- B. ikki organizm bir-birlari bilan kooperatsiya hosil qiladilar
- V. organik moddalarni minerallashtiruvchilar, avvalgi holatiga qaytaruvchilar
- G. o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar.
8. Kooperatsiya nima ?
- A. ikki organizm bir-birlari bilan kooperatsiya hosil qiladilar
- B. bunda ikki populyasiya ham birlashgan asso- siatsiyadan faqat foyda ko‘radilar.
- V. o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar.
- G. organik moddalarni minerallashtiruvchilar, avvalgi holatiga qaytaruvchilar
9. 1916 yilada Klements fanga qanday nazariya kiritgan ?
- A. Suksessiya. B. Sinergizm. V. Simbioz. G. Sinoysiya.
10. Klimaks jamoa deb nimaga aytildi? A. shakllangan nisbatan dominant tizimli, o‘z-o‘zini oqlay oladigan va tashqi muhit bilan tenglikda bo‘luvchi jamoaga B. o‘z-o‘zini oqlay olmaydigan xamma bilan tenglikda bo‘luvchi jamoaga V. tashqi muhit bilan tenglikda bo‘luvchi xoxlagan jamoaga G. shakllanmagan kodominant tizim.

## **4- AMALIY MASHG‘ULOT: BIOSFERA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА. BIOSFERADA MODDALARNING AYLANISHI**

### **Amaliy mashg‘ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant	Talaba
	<p>Mashg`ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalananadigan adabiyotlar bilan taniştiradi.</p> <p>SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan taniştirish.</p>	<p>Mashg`ulot rejasi bilan taniştiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1. Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi.</p> <p>1. Biosfera deb nimaga aytildi? 2. Biosfera haqida tushuncha bering? 3. Insonning biosferaga ta’siri nimadan iborat? 4. Biosferaning tirik moddasi va uning funksiyalari nimadan iborat? 5. Tabiatda azot qanday aylanadi? 6. Tabiatda uglerod qanday aylanadi? 7. Biosfera tuzilmasi deb nimaga aytiladi? 8. Atmosferada erkin azotning miqdori qancha?</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari birgalikda</p>

	<p>9. Tirik organizmlar tarkibida qancha suv bor?</p> <p>10. Biosfera tushunchasi fanga qachon va kim tomonidan kiritilgan?</p> <p>YUqoridagi savollar asosida savol-javob o‘tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>izlanibya. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiylar xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

### Biosfera tushunchasi, uning chegaralari takibiy qismlari va funksiyalarini.

Biosfera (yunoncha bios – xayot, sfera – shar so‘zlaridan olingan) tushunchasi fanga birinchi marta avstriyalik geolog olim E.Zyuss tomonidan tirik organizmlar yashaydigan er qobig‘ini belgilash maqsadida kiritilgan. Biosfera xaqidagi taolimotni rus akademigi V.I. Vernadskiy yaratgan va rivojlantirgan.

XX- asrning 20-30 yillarda buyuk rus olimi V.I. Vernadskiy tomonidan biosfera to‘g‘risidagi ta’limot yaratildi.

V.I. Vernadskiy ta’biri bilan aytganda- ***biosfera*** planetamizning tirik organizmlar yashayotgan yoki qachonlardir yashagan va xar doim tirik organizmlar ta’sir qilib turadigan qismidir.

Biosfera- tirik organizmlar yashaydigan va ularning taosirida tinmay o‘zgaradigan er shari qobig‘ining bir qismidir. Erdagi xamma biogeotsenozlarning yig‘indisi umumiy ekologik sistema – biosferani xosil qiladi. SHunday qilib, biosferaning elementar (eng kichik) birligi biogeotsenozalar xisoblanadi.

Biosfera tirik va o‘lik tarkibiy qismlardan iborat. Sayyoramizda yashaydigan xamma tirik organizmlarning yig‘indisi biosferaning tirik moddasini tashkil etadi. Tirik organizmlar, asosan arning gazsimon (atmosfera) suyuq (gidrosfera) qattiq (litosfera) geologik qobiqlarida joylashgan. Keyingi maolumotlarga qaraganda biosferaning yuqori chegarasi dengiz satxidan 22 km balandlikda, atmosferaning quyi qatlami troposferada joylashgan.

Xayot gidrosferaning xamma qismida hatto eng chuqr – 11 km gacha bo‘lgan joylarda xam uchraydi. Xayot arning qattiq qobig‘i litosferaning yuqori qatlamlarida 3-4 km chuqurlikkacha bo‘lgan masofada tarqalgan. Biosferaning quyi chegarasi okeanlarning eng chuqr joylariga va litosferada neftp bor bo‘lgan, anaerob bakteriyalar yashaydigan qismlariga tarqaladi. Biosferaning o‘lik tarkibiga atmosferaning, gidrosferaning va litosferaning moddalar va energiya almashinushi jarayonida qatnashuvchi qismlari kiradi.

Sayyorada xayot chegaralari biosferaning chegaralarini aniqlaydi. Biosfera – arning tirik organizmlar yashaydigan geologik qobiqlarining bir qismidir.

Biosferaning o‘ziga xosligi organizmlar faoliyati tomonidan iroda qilinuvchi moddalarning davriy aylanishidir. Biosfera energiyani tashqaridan – quyoshdan olgani uchun ochiq sistema xisoblanadi. Tirik organizmlar moddalar davriy aylanishini iroda qilib, sayyoraning yuzasini o‘zgartiruvchi kuchli geologik omil xisoblanadi.

Tirik moddaning funksiyalari. Tirik moddaning quyidagi asosiy biokimyoviy funksiyalari mavjud:

- 1)gaz almashinishi; 2) oksidlanish qaytarilish; 3) konsentratsiyalash, jamg‘arish;
- 4) biokimyoviy.

### **Gaz almashinish funksiyasi**

Fotosintez va nafas olish jarayonlariga bog‘liq. Avtotrof organizmlarning organik moddalarni sintezlash jarayonida qadimgi atmosfera tarkibidagi korbonat angidrid ko‘p miqdorda sarflanadi. YAshil o‘simliklar toboro ko‘payib borishi bilan atmosferaning gaz tarkibi xam o‘zgara boshlaydi. Korbonat angidrid miqdori kamayib, kislorod orta boshlaydi. Atmosfera tarkibidagi kislorodning xammasi tirik organizmlar faoliyati natijasida xosil bo‘ladi. Nafas olish jarayonida kislorod sarflanib, karbonat angidrid xosil bo‘ladi va yana atmosferaga chiqariladi. SHunday qilib tirik organizmlarning faoliyati natijasida xosil bo‘lgan atmosfera xozirgi davrda xam ularning faoliyati tufayli saqlanib turadi.

**Konsentratsiyalash funksiyasi** – tirik organizmlar tomonidan atrof-muxitda tarkqalgan kimyoviy elementlarning to‘planishidir. O‘simliklar fotosintez jarayonida kimyoviy elementlarni tuproqda, kaliy, fosfor, azot, vodorod va boshqalarni, havodan uglerod olib xo‘jayraning organik moddalari tarkibiga kiritadi. Jamg‘arish funksiyalari tufayli tirik organizmlar ko‘p miqdorda cho‘kma jinslarni, masalan, bo‘r, ohak jinslarini hosil qiladi.

**Oksidlanish–qaytarilish funksiyasi** – o‘zgaruvchan valentlikka ega bo‘lgan kimyoviy elementlarning temir, oltingurgut, marganets, azot va boshqalarni aylanishini taominlaydi. Masalan: tuproqdagi xemosintezlovchi bakteriyalar ana shu jarayonlarini amalga oshiradi. SHuning natijasida N<sub>2</sub>S , temir rudasining baozi turlari, xar xil azot oksidlari xosil bo`ladi.

**Biokimyoviy funksiyalar** tirik organizmlarning xayot faoliyati davomida va ularning o‘limidan keyin biokimyoviy jarayonlarni taominlaydi. Biokimyoviy funksiya organizmlarning oziqlanishi, nafas olishi, ko‘payishi, o‘lgan organizmlarning parchalanishi, chirishi bilan bog‘liqdir.

Biosferaning eng asosiy funksiyalaridan biri kimyoviy elementlarning davriy aylanishini tahminlashdir. Biosferadagi biotik aylanish erda hayot kechiradigan hamma tirik organizmlar ishtirokida kechadi. Kimyoviy elementlarning bir birikmadan ikkinchisiga, er qobig‘i tarkibidan tirik organizmlarga, keyin esa ularning anorganik birikmalarga va kimyoviy elementlarga parchalanib, yana er qobig‘i tarkibiga o‘tishi moddolar va energiyaning davriy aylanishi deyiladi. Bu aylanish tinmay davom etadigan jarayondir. Biotik aylanish natijasida kimyoviy elementlarning miqdori cheklangan bo‘lishiga qaramay, hayotning mavjudligi va uzoq yillar davomida rivojlanishi tahminlanadi. Haqiqitan ham erdag'i organizmlar uchun zarur bo‘lgan kimyoviy elementlar miqdori cheksiz emas. Agar bu elemenglar faqat istehmol qilinganda ertami-kechmi ular tugab, hayot to‘xtab qolishi mumkin edi. Akademik V. R. Vilg‘yamsning tahbiri bilan aytganda, kam miqdorning cheksizligini tahminlovchi birdan-bir usul uni yopiq halqa buylab aylanishga majbur etishdir. Hayot xuddi usha usulni tanlab olgandir. YAshil o‘simgiklar quyosh energiyasidan foydalanib, anorganik moddalardan organik moddalarni barpo etadi. Boshqa tirik organizmlar istehmol qiluvchi geterotroflar, parchalovchilar esa bu moddalarni parchalaydi. Organik moddalar parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan mineral moddalardan esa yangi o‘simgiklar yangi organik moddalarni sintezlaydi. Erdagi moddalarning davriy aylanishini tahminlovchi birdan-bir manba quyosh energiyasidir. Bir yil davomida erga tushadigan quyosh energiyasi  $10,5 \times 10^{20}$  kJ ni tashkil etadi. Bu energiyaning 42 foizi erdan koinotga qaytadi, 58 foizi esa atmosferaga va tuproqqa yutiladi, buning 20 foizini er o‘zidan qaytarib turadi. Erga yutilgan, quyosh energiyasining 10 foizi suv va tuproqdan suvni buglantirish uchun sarflanadi. Har bir minutda 1 milliard tonnaga yaqin suv er yuzasidan bug‘lanib turadi. Suv havzalari bilan quruqlik o‘rtasida suvning tinmasdan aylanib turishi erdag'i hayotni tahminlovchi hamda o‘simgik va hayvonlarning jonsiz tabiat va munosabatini tahminlovchi asosiy omillardan biridir. Erga etib keladigan quyosh energiyasining 0,1—0,2 foizidan yashil o‘simgiklar fotosintez jarayonini amalga oshirishda foydalanadi. Bu energiya suvni bug‘lantirish va er yuzasini isitishga sarf bo‘ladigan energiyaga nisbatan juda kam

bo‘lsa ham kimyoviy elementlarning aylanishini tahminlashda juda katta rol uynaydi.

Atomlarning biogen migratsiyasi. Moddalarning doimiy davriy ayla-nishi, yahni atomlar biogen migratsiyasi va energiya oqimi tirik orga-nizmlarning oziqlanishi, nafas olishi, ko‘payishi, organik moddalarni sintezlashi, to‘plashi va parchalanishi hisobiga amalga oshadi. Moddalar davriy almashinishida tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi kimyoviy elementlar uglerod, vodorod, azot, kislorod, fosfor va boshqalar qatnashadi. Kimyoviy elementlarning izotoplari juda ko‘p bulishiga, tirik organizmlar tarkibiga faqat mahlum izotoplargina o‘tishi mumkin. Masalan, vodorodning 1N, 2N, 3N izotoplaridan eng faoli 1N bo‘lib, faqat shu izotopgina organizmlarga xosdir. Organik moddalar tarkibiga 12S izotopi, anorganik kimyoviy birikmalar tarkibiga esa 13S izotopi kiradi. Kislorodning 16O, 17O, 18O izotoplarining ichida 16O izotopigina suv va karbonat angidrid gazi tarkibiga kirib, yuksak biologik faollikka egadir.

Kimyoviy elementlar doimiy ravishda bir organizmdan ikkinchisiga tuproqdan, atmosferadan, gidrosferadan tirik organizmlarga, ulardan esa yana atrof-muhitga o‘tib, biosferaning jonsiz moddalari tarkibini to‘ldiradi. Bu jarayonlar tinimsiz, cheksiz davom etib turadi. Masalan, atmosfera kislorodining hammasi 2000 yil davomida, karbonat angidrid gazi 200-300 yil, biosferadagi borliq suv esa 2 million yil davomida tirik modda orqali o‘tadi. Tirik organizmlar faqat tabiatda keng tarqalgan kimyoviy elementlarnigina to‘plamay, juda ham kam miqdorda uchraydigan elementlarni ham to‘play olish xususiyatiga ega. Ko‘p kimyoviy elemeytlarning konsentratsiyasi o‘simlik va hayvonlarda tashqi muhitdagiga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. O‘simliklarda uglerodning konsentratsiyasi er po‘stlog‘idagiga nisbatan 200 marta, azotniki esa 30 marta yuqoridir. Biogen migratsiya natijasida tirik organizmlar tafsirida ayrim kimyoviy elementlarning valentligi o‘zgaradi. Natijada yangi kimyoviy birikmalar hosil bo‘ladi. Bizga mahlum bo‘lgan kimyoviy elementlarning 40 taga yaqini biogen migratsiyada faol ishtirok etadi.

Avtotrof organizmlar quyosh energiyasini yutib anorganik moddalardan organik moddalarning birlamchi o'simlik moddalarini hosil qiladi. Geterotroflar esa o'simliklar bilan oziqdanib o'simlik mahsulotlarini ikkilamchi hayvon mahsulotlariga aylantiradi. Bakteriyalar va zamburug'lar esa o'simlik va hayvonlar organik mahsulotlarini mineral tuzlarga, avtotrof o'simliklar istehmol qila oladigan darajagacha parchalaydi. Biogen migratsiyasining ikki turi mavjud: birinchi turini mikroorganizmlar, ikkinchisini esa ko'p hujayrali organizmlar amalga oshiradi. Birinchi turdag'i migratsiya ikkinchi turdagisiga qaraganda ustunroq keladi. Hozirgi vaqtda atomlar biogen migratsiyasida insoniyatning roli ham tobora ortib bormoqda. Quyida bahzi biogen elementlarning davriy aylanishi bilan to'likroq tanishib chiqamiz. Karbonat angidrid o'simliklar tomonidan yutilib fotosintez jarayonida uglevodlarga, lipidlarga, oqsillarga va boshqa organik moddalarga aylanadi. Bu moddalar. boshqa hayvonlar tomonidan istehmol qilinadi. Hamma tirik organizmlar nafas olish jarayonida, atmosferada karbonat angidrid gazini ajratib chiqaradi. O'lik o'simlik va hayvonlar, ularning chiqindilari mikroorganizmlar tomonidan parchalanadi, minerallashadi. Minerallashishning oxirgi mahsuloti karbonat angidrid bo'lib, u tuproqdan va suv havzalaridan atmosferaga ajratib chiqariladi. Uglerodning bir qismi esa tuproqda organik birikmalar sifatida saqlanib qoladi. Dengiz suvida uglerod ko'mir kislota va uning suvda eriydigan tuzlari sifatida yoki  $\text{CaCO}_3$  bo'r, ohaktoshlar, korallar shaklida to'planadi. Uglerodning bir qismi dengiz tubida cho'kindi, ohaktoshlar sifatida to'planib, uzoq vaqt davomida biogen migratsiyada qatnashmaydi. Vaqt o'tishi bilan tog' hosil bo'lishi jarayonlari natijasida, cho'kma jinslar yana yuqoriga ko'tariladi, kimyoviy o'zgarishlar natijasida yana davriy aylanishga qo'shiladi. Uglerod atmosferaga avtomashinalardan, zavod va fabrikalardan ajraladigan tutunlardan ham o'tadi. Biosferadagi uglerod aylanishi natijasida energiya resurslari — neftg', toshko'mir, yoqilgi gazlari, torf, eg'och hosil bo'lib, ular insonning amaliy faoliyatida keng foydalaniladi. YUqorida keltirilgan hamma moddalar fotosintezlovchi o'simliklarning mahsulotlari hisoblanadi. YOg'och va torf o'rnini to'ldirsa bo'ladigan, neftg', gaz va toshko'mir esa o'r-nini to'ldirib

bo‘lmaydigan tabiiy boyliklar hisoblanadi. Organik yoqilgilarning cheklanganligi va o‘rnini to‘ldirib bo‘lmasligi insoniyat oldida energiyaning yangi manbalaridan — er qahridagi issiqlik energiyasi, okean va dengiz to‘lqinlari, quyosh energiyasidan foydalanish kabi murakkab muammolarni qo‘yadi.

Azot eng muhim elementlardan biridir. U oqsillar va nuklein kislotalarning tarkibiga kiradi. Azot atmosferadan yashin paytida azot va kislorodning birikib azot IV oksid hosil qilishi natijasida o‘zlash-tiriladi. Ammo azotning asosiy massasi suvga va tuproqqa tirik orga-nizmlarning havo tarkibidagi azotni fiksatsiyalashi natijasida o‘tadi .

Suvda va tuproqda azot fiksatsiyalovchi bakteriyalar va suv o‘tlari yashaydi. Bu bakteriya va suv o‘tlari o‘lib minerallashishi natijasida ular tuproqni azot bilan boyitadi. SHuning natijasida har bir getkar tuproqda bir yilda 25 kg ga yaqin azot o‘tadi. Azotni eng samarali fiksatsiyalovchilarga dukkakli o‘simliklar ildizlarida hayot kechiruvchi tugunak bakteriyalari hisoblanadi. Azot o‘simliklar ildiziga har xil manbalardan, poya va barglarga o‘tadi va shu joylarda oqsil biosintezlanadi. O‘simlik oqsillari hayvonlar uchun asosiy azot manbai hisoblanadi. Organizmlar o‘lgandan keyin bakteriya va zamburug‘lar tahsirida oqsillar parchalanib, ammiak ajralib chiqadi. Ajralgan ammiak qisman o‘simliklar, qisman esa bakteriyalar tomonidan o‘zlashtiriladi. Ayrim bakteriyalar faoliyati natijasida ammiak nitratlarga aylanadi.

Nitratlar ammoniyli tuzlar kabi o‘simlik va mikroorganizmlar tomonidan istehmol qilinadi. Nitratlarning bir qismi esa ayrim bakteriyalar tomonidan elementar azotgacha qaytarilib atmosferaga chiqariladi. Bu jarayoni denitrifikatsiya deyiladi. SHu tarzda azotning tabiatda davriy almashinishi davom etaveradi. SHunday qilib, jonli (biotik) va jonsiz (abiotik) tabiatning o‘zaro munosabati natijasida anorganik materiya tirik organizmlarga o‘tib, o‘zgarib yana qaytadan abiotik holatga qaytadi.

**Boigen migratsiyada qatnashuvchi organizmlarni uchta katta guruhgajratish mumkin.**

1. Produtsentlar – o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar. Bular, asosan fotosintezlovchi murakkab va tuban yashil o‘simliklardir.

2. Konsumetlar yoki istehmol qiluvchilar. Produtsentlar hosil qilgan organik moddalarni istehmol qiladi. Ularga hayvonlar, parazit o'simlmk va mikroorganizmlar kiradi.
3. Redutsentlar – organik moddalarni minerallashtiruvchilar, avvalgi holatiga qaytaruvchilar. Ularga bakteriyalar, zamburug'lar, saprofit usimliklar kiradi. Ifodali kilib aytganda xayot estafetasini yashil o'simliklar boshlab hayvonlarga uzatadi, uni bakteriyalar marraga olib boradi, yana qaytadan yashil o'simliklarga uzatadi. YAngi halqa boshlanib bu estafeta tinmasdan davom etaveradi.

Biosferaning evolyusiyasini 3 ta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

1. Biotik bosqich aylanishga ega bo'lgan birlamchi biosferaning ho-sil bo'lishi. Bu bosqich taxminan 3 milliard yillar oldin boshlanib, paleozoy erasining kembriy davrida tugallanadi.
2. 2-bosqichda ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lib rivojlanadi va biosferaning evolyusiyasi yanada davom etadi. Bu davr 0,5 milliard yillar oldin kembriy davridan boshlanib, hozirgi zamon odamlari paydo bo'lishi bilan tugallanadi.
3. 3-bosqichda biosfera hozirgi zamon odamlari tafsirida rivojlanadi, bundan 40-50 ming yillar oldin boshlanib, hozirgi davrgacha davom etmoqda. Biosferaning tarixining asosiy kismida u ikki xil omilning tafsirida rivojlanadi: 1. Sayyorada tabiiy geologik, iqlim o'zgarishlari. 2. Biologik evolyusiya natijasida tirik organizmlar turlarining soni va miqdorining o'zgarishi o'sha asosiy omillar hisoblanadi. Hozirgi bosqichda esa biosferaning evolyusiyasiga uchinchi omil, inson faoliyati katta tafsir ko'rsatmoqda. Biosferaning birinchi va ikkinchi bosqichlari evolyusiyasi faqat biologik qonuniyatlar asosida kechadi, shuning uchun ham bu ikkala davr biogenez davri deb ataladi. Bu davrda haet paydo bo'ldi va rivojlandi. Uchinchi davr kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Biogenez davri bilan tanishib chiqamiz.

Biogenez bosqichi. Erda biosfera birinchi tirik organizmlar bilan bir vaqtida paydo bo'ldi. SHu vaqdan boshlab tirik organizmlar evolyusiyasi bilan birga biosfera ham o'zgara boradi. Birinchi paydo bo'lgan tirik organizmlar bir hujayrali geterotrof, anaeroblar edi. Ular taxminan 3 milliard yil avval paydo bo'lgan,

energiyani bijg'ish jarayonlaridan olgan. Ular abiogen usulda hosil bo'lgan tayyor organik moddalar bilan oziqlanib biomassani to'plab borgan. Endigina paydo bo'lgan biosferada organik moddalar etishmas, birlamchi organizmlar tez kupaya olmas edi. Tabiiy tanlash natijasida anorganik moddalardan organik moddalarni mustaqil sintezlay oladigan avtotrof organizmlar kelib chiqqan. Birinchi xemosintezlovchi bakteriyalar, fotosintezlovchi va ko'k yashil suv o'tlari paydo bo'lgan. Birinchi fotosintezlovchi organizmlar karbonat angidridni yutib, kislorod ajratib chiqarib atmosferaning tarkibini o'zgartirgan. Natijada atmosferada karbonat angidrid miqdori kamayib kislorodning miqdori tobora ko'paya borgan. Atmosferaning yuqori qatlamida kislorod ozon ekranini o'osil qilgan. Ozon ekrani esa er yuzidagi tirik organizmlarni quyoshning ulturabinafsha nurlari va kosmik nurlarning xalokatli tahsiridan himoya qilgan. Bunday sharoitda dengiz yuzasida tirik organizmlar yanada ko'paya borgan. Atmosferada erkin kislorodning mavjudligi er yuzasida aerob tipida kislorod bilan nafas oluvchi organizmlarning va ko'p hujayralilarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ozon ekrani tirik organizmlarning suvdan quruqlikka chiqib tarqalishiga imkon yaratgan. Birinchi ko'p xujayrali-lar atmosferada kislorodning konsentratsiyasi taxminan 3 foizga etganda, kembriy davrining boshida 500 million yillar avval kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Dengizda yashovchi fotosintezlovchi organizmlar keragidan ortiqcha kislorod hosil qilgan. Bu esa aerob yul bilan nafas oluvchi organizmlar sonining ko'payishiga olib kelgan. Aerob nafas olish jarayonida moddalar parchalanishi tufayli ko'p energiya ajralgan. Kup energiyaga ega organizmlarda morfologik va funksional tuzilish tobora murakkablashib borgan.

Ular qisqa vaqtning ichida har xil yashash muhitlariga o'tib keng tarqalgan. Paleozoy erasida haet faqat suvdagina keng tarkalib qolmay, balki quruqlikka ham chiqqan. YAshil o'simliklarning keng rivoj-lanishi atmosferaning kislorod bilan yanada boyitdi, bu esa organizmlar tuzilishini yanada takomillashishiga imkon yaratdi. Paleozoyning o'rtalarida kislorodning hosil bo'lishi va sarflanishi o'rtasida muvo-zanat paydo buldi, atmosferada kislorod miqdori taxminan 20 foizgacha etdi va bu muvozanat hozirgacha saqdanib kelmoqda.

Noogenez bosqichi. Insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishi bilan biosferaning noogenez davri boshlanadi. Bu davrda biosferaning evo-lyusiyasi insonning ongli mehnat faoliyati tafsirida davom etadi. Noosfera tushunchasi 1927 yilda fransuz olimi e. Lerua tomonidan kiritilgan (yunoncha «noos» — aql, «sfera» — shar so‘zlaridan olingan). V. I. Vernadskiyning tahbiriga ko‘ra noosfera — inson mehnati va ilmiy faoliyati tafsirida o‘zgargan biosferadir.

Odamning paydo bo‘lishi biosferaning kuchli o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Fanning, texnikaning va sanoatning juda tez rivojlanishi ele-mentlarning biogen migratsiyasini tezlashtirib yubordi. Butun tarix davomida insoniyat o‘z mehnat faoliyati bilan atrof-muhitdan iloji boricha ko‘proq; va tez fonda olishga harakat qilib kelgan. U tabiat hodisalariga insonning aralashishi keyinchalik qanday natijalarga olib kelishi haqida o‘ylab ham ko‘rmagan. Inson o‘z mavjudligining eng dastlabki bosqichlaridan boshlaboq hayvonlar ayrim turlarining yuqolib ketishiga (oziqlanish uchun keragidan ham ortiqcha miqdorda) sabab bo‘lgan. Tosh asrida yashagan odamlar mamontlar kabi yirik sut emizuvchilarining yo‘qolib ketishiga sababchi bo‘lgan. Inson ham biosferaning tarkibiy qismidir. O‘zi uchun kerak bo‘lgan narsalarning hammasini inson biosferadan oladi, biosferaga esa faqat sanoat chiqindilarini ajratib chiqaradi. Uzoq vaqtlar davomida odam faoliyati biosfera muvozanatining buzilishiga olib kelmagan, chunki inson tomonidan olin-gan tabiiy mahsulotlar yana biosferaga qaytariladi. Ammo keyingi asrda insonning biosferaga ko`rsatadigan tafsiri juda kuchayib ketdi va o‘tkir muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Tabiiy resurslar tobora kamayib ketmoqda. Ko‘plab o‘simlik va hayvonlarning turlari yo‘qolib ketdi. Muhit, sanoat, turmush chiqindilari, zaharli kimyoviy moddalar tomonidan ifloslanmoqda va zaharlanmoqda. Tabiiy ekosistemalar, ko‘llar, o‘rmonlar buzilmoksa. Biosferadagi bunday noqulay o‘zgarishlar o‘simliklar va hayvonot olamiga, insonning o‘ziga ham kuchli tafsir ko‘rsatmoqda.

Biosferaning o‘zgarishi qonuniyatlarini insonning yaxshi tushunib etmasligi tashqi muhitning juda ayanchi o‘zgarishlariga olib kelishi mumkin.

Insonning gidrosferaga va atmosferaga tafsirining tobora kuchayib borishi biosfera doirasida iqlimning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda atmosferada karbonat angidridning miqdori tobora ortib bormokda. Organik yoqilg‘ilardan foydalanish kislorodning yonib kamayishiga, karbonat angidridning esa ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Atmosferada karbonat angidridning ko‘payishi esa «parnik effektiga» olib kelmokda, bu esa er yuzasi haroratining ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Keyingi 100 yil davomida er yuzasining harorati o‘rtacha  $0,6^{\circ}\text{S}$  gacha ko‘tarilganligi aniqlangan. Iqlim o‘zgarishi esa cho‘l-dashtlar maydonining tobora ortib borishiga, tog‘lardagi muzliklarning erishiga, okean va dengiz suvlari sathining kamaya borishiga olib keladi. YUqorida aytib o‘tganimizdek atmosferada ozon katlamini bo‘lib, uning maksimal konsentratsiyasi er yuzasidan 20-25 km baland-likdadir. Atmosferaga azot II oksid va freonning o‘tishi natijasyda bir necha yillar davomida .ozon qatlami yupqalashib bormoqda. Freon lak va buyoqlarni purkovchi sifatida, sovitgichlar va konditsionerda sovutgich modda sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda. So‘nggi yillarda Antraktida atmosferasida ozonning juda kamayib ketishi natijasyda «ozon teshiklari» hosil bo‘lishi kabi ayanchli, xavfli hodisalar kuzatilmoxda. Bu hodisaning va ozon qatlami buzilishining oldini olish maqsadida 1987 yilda Kanadaning Montreal shahrida 50 mamlakat vakillari freonlar ishlab chiqarishni o‘rtacha 50 foizga kamaytirish tug‘risidagi xalqaro bitimga qo‘l qo‘ydilar. Atmosferaning ifloslanishi tinmasdan davom etib, yildan-yilga ortib bormoqda. Atmosferaning ifloslanishi sanoat korxonalarining chiqindilari, transport vosita-lari ajratib chiqaradigan birikmalar, ayniqsa N2S uglerod va og‘ir metallardan qurg‘oshin, mis, kadmiy, nikel va boshqa metallar zarrachalari hisobiga tobora ortib bormoqda. Atmosferaga har yili yuz mil-lionlab tonna ifloslanuvchi moddalar ajratiladi. Havoda N2S ning ortib borishi kislotali yomg‘irlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonda mevali daraxtlar hosildorligining kamayishi, uzumzorlarning kasallanib yildan-yilgacha kam hosil bulishining asosiy sabablaridan biri ham kislotali yomg‘irlarning ko‘payib borishidir.

Tojikistonning M. Tursunzoda shahri atrofida kurilgan alyuminiy zavodi chiqindilari ham Surxondaryo viloyatidagi mashhur anorazorlar hosilining keskin kamayishiga, mevalarining maydalashib ketishiga, hayvonlar va odamlar orasida kasalliklarning ko‘payishiga olib keldi. Navoiy shahridagi kimyo zavoddari chiqindilari ham atrof-muhitni za-rarlashda katta rolg‘ o‘ynamokda. Sug‘orish va sanoat korxonalari uchun suvdan isrofgarchilik bilan foydalanish kichik daryolarning qurib qo-lishiga, yirik daryolar suvining keskin kamayib ketishiga olib kelmoqda. Bunday ayanchli hodisalarining tipik misoli Orol dengizi muammosidir. Sug‘oriladigan paxta maydonlarini haddan tashqari ko‘paytirish bu dengizning qurib qolishi xavfini tug‘dirmoqda. Suvni nazoratsiz, ksrugilan ortiqcha ishlatish natijasida Amudaryo va Sirdaryo kabi buyuk daryolar Orol dengiziga etib bor olmayapti. Bu esa Orol atrofidagi tabiiy ekologik sistemalarining buzilishiga, shu regionda yashovchi odamlar sog‘ligining tobor yomonlashib borishiga sabab bulmoqda. Mineral o‘g‘itlarning, chorvachilik chiqindilari va kanalizatsiyaning suv havzalariga qo‘shilishi, suvda azot va fosforning ortib ketishiga, suv o‘tlarining ko‘payib ketishiga, kislorod zaxirasi kamayishi natijasida suvdagi hayvonlar, ayniqsa baliqlar qirilib ketishiga olib bormoqda. Keyingi paytlarda o‘rmonlarining kesilib, kamayib ketishi juda ayanchli natijalarga olib kelmoqda. Lichosfsraning, suv havzalarining, tuproqning tobora iflosnishi natijasida o‘rmonlardagi daraxtlar kaslanib qurib qolmoqda. O‘rmonlarning yo‘qolishi iqlimning keskin o‘zgarishiga, suv boyliklarining kamayishiga, tuprok, holatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Hozirgi vaqtida xo‘jalikni energiya bilan tahminlash uchun ko‘plab kssiqliq, suv va atom elektr stansiyalari qurilmoqda. Issiqqliq elektr stansiyalari tabiiy yoqilg‘ilardan foyda-langanligi uchun atmosferlni ifoslantirmoqda, suv eyaektr stansiyalari katta-katga suv omborarinining qurilishini talab etadi, buning natijasida serhosil erlar, tuproqlar suv ostida qolib ketmoqda. Ilgari ekologik jihatdan eng toza va xavfsiz deb xisoblangan atom elektr standiyalari ham katta xavf tug‘dirishi mahlum bo‘lib qoldi. Ukrainianadagi CHernobil AESning falokati juda katga hududda ekologik inqiroz holatiga olib keldi, o‘simliklar va hayvonot olamiga katta zarar etkaz-di. Aholining o‘rtasida har

xil kasalliklarning ko‘laynb ketishiga sabab bo‘ldi. SHunday qilib, odamning ekologik sistemalarga kuchli tafsiri kutilmagan ayanchli hodisalarga olib kelishi mumkin. Natijada ekologik o‘zgarnshlar zanjiri vujudta keladi. Hozirgi vaqtida insoniyat ekologik inqiroz xavfi ostida turibli. Agar zarur choralar ko‘rilmasa, biosferaning ko‘p joylari hayog uchun yaroqsiz bo‘lib qolishi mumkin. Tabiatni muhofaea qilish, hozirgi vaqtida eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda

Insoniyatning tabiatni boshqarishga bo‘lgan urunishlari huddi qishloq xo‘jaligi kabi balki undan ham qadimiydir. Ekoliya fan sifatida shakllangan vaqtdan buyon asos ekoliya kun tartibida bo‘lib keladi. Stefen Alfred Forbs (1844-1930) taniqli Amerikalik tabiatshunos bo‘lib, u o‘z faoliyati davomida ekologiyaning kelib chiqishi va mustahkamlanib rivojlanishini tadqiq etadi. Forbs o‘z faoliyatini tabiatshunos-entomolog sifatida boshlab, bu hususdagi Murdoch tomonidan ilgari surilgan biologik nazoratdagi alomatlarni ko‘rsatuvchi changish va uyalarga doir muammolar bilan shug‘ullandi(VII.1-bob). Forbs keyinchalik Vinkonsindagi Mendota ko‘lidagi baliqlardagi ommaviy o‘limning sabablarini o‘rgandi. Uning eng mashhur maqolasi “Ko‘l mikrotizim sifatida”(1887), asarida xususiyatli ekoliya va oziq to‘ri dinamikasi kabi zamonaviy g‘oyalarni ilgari surdi. Janubiy Amerika ekologik jamiyati prezidenti va Milliy fanlar akademiyasining a’zosi sifatida Forbs insoniyatning farovonligi uchun fundamental ekologik fanlarning amaliy foydalanimishiga rahbarlik qildi. Boshqa ko‘plab havaskor tabiatshunoslар fundamental fan savollari bilan aloqador bo‘lgan jamiyatning amaliy muammolari ustida tadqiqotlar olib borishdi. Ekologik boshqaruv muammolari odatda yaqona zararkunanda turlar yoki baliqlarning yagona yovvoyi turlarining unumi eng muhim turlar saqlanib qolgan ekotizimlarni e’tiborga oluvchi o‘yin va jarayonlarni o‘rganish bilan boshlanadi. Murchod (VII.1-bobda) hasharot zararkunandalarning biologic nazorati o‘zaro aloqaga kirishuvchi resurs va iste’molchi populyasiyalarning dinamikasini hisobga olishdanaqadar keng tarqalganini ko‘rsatib beradi. Hilborn (VII.2 –bobda) yagona tur mavjud bo‘lgan eng yuqori darajadagi mavjud bo‘lgan hududni baliq ovlovchilar qanday qilib boshqarishini tushuntirib beradi. Boys, Merril va Sinkler

(VII.3-bobda) yovvoyi dunyoni boshqarishda muhitning o‘xhash kengayishini muhokama qiladi. Patz va Olson (VII.6-bobda) bioxilma-xillik va zamindagi o‘zgarishlar va ekotizimlararo kaskadning ishlatilishi ekotizim va odamlarga ta’sir ko‘rsatuvchi kasallikkarning sodir bo‘lishi, uzatish, tiklanishga qanday ta’sir ko‘rsatishini tavsiflab beradi.

Toza suv odatda ekotizim va odamlar uchun cheklangan va etishmaydigan resurs hisoblanadi, shuning uchun ekotizim boshqaruvi odatda suvda markazlashgan mahalliy, mintaqaviy yoki global miqyosda sodir bo‘ladi. Alkamo (VII.4-bobda) toza suv ta’mintonini boshqarib turishdagi muammo va qiyinchiliklar haqida mulohaza yuritadi. Suv miqdoridagi muammolar odatda, suv miqdori qo‘lida bo‘lganlarga borib taqaladi. Eurtopikatsiya, toksik zaharli moddalar, turli hidlar, oksidsizlantirish, o‘lgan baliq tanalaridan suvni tozalash, ya’ni yuqori darajadagi filterlash jarayonidir. Eurtopikatsiya jarayonini boshqarish Skindler (VII.5-bobda) toomnidan izohlab beriladi. Insoniyat populyasiyasining va iste’mol hajmining ortishi ichki biosferaga ta’sir ko‘rsatadi hamda kengayib borayotgan insoniyat izlarini boshqarishning mukammalligi Er yuzining quruqlikdagi ekotizimlari uchun ayniqsa, aniqdir. Er maydonlarining foydalanilishini boshqarishning muammolari Foley va boshqalar (VII.7-bobda) ko‘rib chiqiladi. CHisholm tomonidan VII.8-bobda ko‘rib chiqilgan tajovuzkor turlar landshaftlardan tortib to ekotizim, jamoa hamda populyasiyalargacha bo‘lgan ekologik fanning an’anaviy bo‘limlari bilan tutashib ketgan yoyilgan atrof-muhit muammolari hisoblanadi.

Sotsial-ekologik tizimlarni tushunish uchu8n eng muhim bo‘lgan institatlardan biri- Beijer ekologik iqtisod instituti (<http://beijer.kva.se>) bo‘lib, u SHvedsiya Qirollik fanlar akademiyasining tarmog‘i hisoblanadi. Iqtisod va ekologiya etimologik jihatdan o‘xhash ildizga ega (yunincha ildiz “oikos” yoki “uy” dan kelib chiqadi). Ular shuningdek, resurslar dinamikasini tadqiq qiluvchi fanlar hamdir. Xepapades (VII.9-bobda) mavjud xususiyatga olib keluvchi qonun qoidalar va zararkunandalikni loyihalashtirish uchun hozirda kalit fan sifatida ekologik iqtisodni tahlil qiladi. Ostrom (VII.10-bobda) umumni boshqarish uchun

foydalanimadigan institutlar haqida so‘z yuritadi. Bu soha ham muhim, chunki u boshqaruv sodir bo‘ladigan ekotizimdagи kontekstni yaratishda institutlar markaziy rol o‘ynaydi. Miller (VII.11-bobda) global atrof-muhit manzarasining maqomi va uslublarini ko‘rib chiqadi.

1990-yillardan buyon moslashuvchan birgalikda boshqarish atamasiturli xil yo‘nalishlardagi havaskor guruhlar va ekspertlar orasidagi hamkorlikning ahamiyatini o‘zida aks ettirib, tezda urfga kirdi. Bu kabi g‘oyalar boshqaruv bobida Ostrom (VII.10-bobda) tomonidan tadqiq etiladi.

Folk, Han, Olsson va Norberg o‘z maqlolarida moslashuvchan boshqaruv moslashuvchan ekotizim boshqaruvining ko‘maklashuvi nazariyalarining nuqtayi nazari bilan ta’minlaydi. Valker va Salt *elastik fikrlash* nazariyasida bir qancha keys tadqiqotlarni qo‘llagan holda pragmatik ekotizim boshqaruvida panarxik nazariyalar elastiklik va moslashuvchan sikllarning foydalanimishining miqdorini taklif etadi. *ehtimolga borib etish* maqolasida Vestley, Zimmerman va Patton moslashuvchan sikl bo‘ylab loyihani boshqarishda amaliy jihatdan tushunchalar beradi.

Biomassa, quruqlik yuzasi va okean biomassasi.

Biosferadagi tirik moddalarning umumiyligi massasi biomassa deyiladi. Xozirgi davrda erda yashaydigan o‘simliklarning 500 mingga yaqin turi, xayyovonlarning esa 1,5 millonga yaqin turi aniqlangan. SHularning 93% i quriqlikda, 7% i esa suvda yashaydi.

## **BIOSFERADA BIOSMASSANING TARQALISHI, MODDALARNING, eNERGIYANING DAVRIY AYLANISHINING MOXIYATI VA AXAMIYATI.**

**Okeanlar er yuzining 70 foizini egallahiga qaramay, er biosmassasining 0,13 foizini xosil qiladi.** O‘simliklar maolum bo‘lgan organizmlar turlarining 21 foizini, er biomassasining 99 foizidan tashkil etadi. Xayvonlar turlari barcha organizmlarning 79 foizini qamrab olganiga qaramay, ularning biomassasidagi xissasi 1 foizdan kamroqdir. Xayvonlarning ichida 96 foizi umirtqasizlardan, 4

foizi esa umirtqalilardan iborat. Umirtqaliklarning esa faqat 10 foizi sut emizuvchilarga to‘g‘ri keladi. Keltirilgan mahlumotlar erda yashaydigan organizmlarning asosiy kupchiligi xali evalyusiyada yuqori pog‘onaga ko‘tarilmaganligidan dalolat beradi. Tirik moddalar o‘zining massasiga ko‘ra o‘lik moddalarning faqat 0,001 – 0,02 foizinigina xosil etsa xam, lekin biosferaning asosiy funksiyalarini amalga oshirishda eng muxim rol o‘ynaydi. Tirik moddalar biosferaning eng muxim tarkibiy qismi bo‘lib, geokimyoviy jarayonlar natijasida ernen boshqa qobiqlariga juda katta taosir ko‘rsatadi.

Quriqlik biomassasi. Quriqlik yuzasining turli qismlarida biomassaning miqdori bir xil emas. Qutblardan ekvatorgacha biomassa miqdori va organizmlar turlarining soni tobora ortib boradi. Ayniqsa, tropik o‘rmonlarda o‘simliklar turlari juda ko‘p bo‘ladi, zich va bir necha yaruslarda o‘sadi. Hayvonlar xam xar xil yaruslarda joylashadi. Ekvator biogeotsenozlarida xayot zichligi juda yuqori bo‘ladi.

Organizmlar o‘rtasida yashash joyi, oziq-ovqat, yorug‘lik, kislorod uchun kuchli raqobat kuzatiladi. Qutblarda buning aksini kuramiz. Odamning taosirida biomassa xosil bo‘ladigan maydonlar keskin o‘zgarishi mumkin. SHuning uchun xam sanoat va qishloq xo‘jalik maksadlarida tibiiy resursdan oqilona foydalanish zarur. Quruqlik yuzasining asosiy qismini tuproq biogeotsenozlari egallaydi. Tuproqning hosil bo‘lishi juda murakkab jarayon bo‘lib, uning tarkib topishida tog‘ jinslari birlamchi axamiyatga ega. Tog‘ jinslariga mikroorganizmlar, o‘simlik va hayvonlarning taosirida ernen tuproq qatlami asta-sekin shakllanadi. Organizmlar o‘zining tarkibida biogen elementlarini to‘playdi. O‘simlik va hayvonlar o‘lganidan, parchalanganidan keyin ulardagi elementlar tuproq tarkibiga o‘tib, biogen elementlar to‘planib boradi. SHuningdek oxirigacha parchalanib ulgurmagan organik moddalar xam tuprokda tuplanadi. Tuprokda tirik organizmlar xam zich joylashgan. Masalan, 1t qora tuproqda mikroorganizmlarning soni  $25 \times 10^8$  ga etishi mumkin, 1 ga tuproqda 2,5 millionga yaqin yomg‘ir chuvalchangi yashashi mumkinligi aniqlangan. Tuproqda gazlar almashinishi xam tinmasdan davom etib turadi. Havo tarkibidagi kislorod o‘simliklarga yutiladi va kimyoviy

birikmalar tarkibiga kiradi. Azot esa ayrim bakteriyalar tomonidan o'zlashtiriladi. Kunduzi tuproq qiziganda undan karbonat angidrid, vodorod sulg'fid, ammiak ajraladi. SHunday qilib, tuproq biogen usulida xosil bo'ladi. U anorganik va organik moddalardan xamda tirik organizmlardan tashkil topadi. Biosferadan tashqarida tuproqning hosil bo'lishi mumkin emas. Tuproq tirik organizmlarning yashash muxiti bo'lib, undan o'simliklar o'ziga oziq moddalar bilan suvni oladi. Tuproqda kechadigan jarayonlar moddalarning biosferada aylanishining tarkibiy qismini tashkil etadi. Odamning xo'jalik faoliyati ko'pincha tuproq tarkibining tobora o'zgarishiga, undagi mikroorganizmlarning nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun xam turqriddan oqilona foydalanish tadbirlari ishlab chiqilishi zarurdir.

Okean biomassasi. Suv biosferaning muxim tarkibiy qismlaridan bo'lib, tirik organizmlarning yashashi uchun eng zarur omillardan biri hisoblanadi. Suvning asosiy qismi okean, dengizlardayu Okean va dengiz suvi tarkibiga 60 ga yaqin kimyoviy elementdan iborat bo'lgan mineral tuzlar kiradi. Organizmlar xayoti uchun juda zarur bo'lgan kislород va karbonat angidrid gazlari suvda yaxshi eriydi. Suvdagagi xayvonlar nafas olish jarayonida karbonat angidrid ajratadi. O'simliklar fotosintezi natijasida esa suv kislород bilan boyiydi. Okean suvlarining 200 m gacha bo'lgan egori qatlamida bir xo'jayrali suv o'tlari juda ko'p bo'lib, ular mikroplanktonni (yunoncha «planktos» - sayyor, ko'chib yuruvchi degan so'zdan olingan) xosil qiladi. Sayyoramizdagi fotosintez jarayonining 30 foizga yaqin suvda kechadi. Suv o'tlari quyosh energiyasini qabul qilib, uni kimyoviy reaksiyalar energiyasiga aylantiradi. Suvda yashaydigan xayvonlarni oziqlanishida plankton asosiy axamiyatga egadir. Suvning tupiga yopishib xayot kechiradigan organizmlar bentos deb ataladi ( yunoncha «bentos» - chuqurdagi degan so'zdan olingan). Okeanning tupida juda ko'p bakteriyalar mavjud bo'lib, ular organik moddalarni onorganik moddalarga aylantiradi. Gidrosfera xam biosferaga kuchli taosir ko'rsatadi. Gidrosfera sayyorada issiqlik va namlikning taqsimlanishida, moddalar aylanishida muxim rol o'ynaydi.

## Dengizda yashovchi jonivorlar:

**Plankton**-suvning yuza qatlamida passiv hayot kechiruvchi, suv oqimga aktiv qarshilik ko‘rsata olmaydigan organizmlarning birligi. **fitoplanktonlar va zooplanktonlar**

**Nekton**-suv havzalarinig o‘rta qatlamida yashovchi, aktiv suzuvchi organizmlar, bo‘lib, suv oqimiga erkin qarshilik korsata oladigan organizmlarning birligi

**Bentos** -- butun hayoti davomida yoki hayotinig ko‘p qismini okeanlarning tubida (quyi qismida) va unung tuprog‘da yoki tuproq ichida yashovchi organizmlar birligi.

### “Blits usuli”

<u>№</u>	<u>Mavzular savoli</u>	<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni xoxlayman</u>	<u>Bildim</u>
1.	Biosfera deb nimaga aytildi?			
2.	Biosfera haqida tushuncha bering?			
3.	Insonning biosferaga ta’siri nimadan iborat?			
4	Biosferaning tirik moddasi va uning funksiyalari nimadan iborat?			
5.	Tabiatda azot qanday aylanadi?			
6.	Tabiatda uglerod qanday aylanadi?			

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va

boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘sishimcha ma’lumot zarur

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Biosfera				
Neobiosfera				
paleobiosfera				
Eubiosfera				

### **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

#### **Vaziyatli masala**

Biosfera (yunoncha bios – xayot, sfera – shar so‘zlaridan olingan) tushunchasi fanga birinchi marta avstriyalik geolog olim V.I. Vernadskiy tomonidan tirik organizmlar yashaydigan er qobig‘ini belgilash maqsadida kiritilgan. Biosfera xaqidagi taolimotni rus akademigi E.Zyuss yaratgan va rivojlantirgan.

Vaziyatni baxolang.

#### **Vaziyatli masala**

Biosfera tirik va o‘lik tarkibiy qismlardan iborat. Sayyoramizda yashaydigan xamma tirik organizmlarning yig‘indisi biosferaning tirik moddasini tashkil etadi. Tirik organizmlar, asosan ernen gazsimon (litosfera) suyuq (atmosfera) qattiq (gidrosfera) geologik qobiqlarida joylashgan. Keyingi maolumotlarga qaraganda biosferaning quyi chegarasi dengiz satxidan 22 km balandlikda, atmosferaning yuqori qatlami troposferada joylashgan.

Vaziyatni baxolang.

#### **Vaziyatli masala**

Tirik moddaning funksiyalari. Tirik moddaning quyidagi asosiy biokimyoviy funksiyalari mavjud:

- 1) gaz ko‘payishi; 2) oksidlanish qamaytish; 3) kondensatsiyalash, sochib yuborishamg‘arish; 4) biofizikaviy.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Biokimyoviy funksiyalar – tirik organizmlar tomonidan atrof-muxitda tarkqalgan kimyoviy elementlarning to‘planishidir. O‘simliklar fotosintez jarayonida kimyoviy elementlarni tuproqda, kaliy, fosfor, azot, vodorod va boshqalarni, havodan uglerod olib xo‘jayraning organik moddalari tarkibiga kiritadi. Jamg‘arish funksiyalari tufayli tirik organizmlar ko‘p miqdorda cho‘kma jinslarni, masalan, bo‘r, ohak jinslarini hosil qiladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Oksidlanish–qaytarilish funksiyasi – o‘zgaruvchan valentlikka ega bo‘lgan kimyoviy elementlarning temir, oltingurgut, marganets, azot va boshqalarni aylanishini taominlaydi. Masalan: tuproqdagagi xemosintezlovchi bakteriyalar ana shu jarayonlarini amalga oshiradi. SHuning natijasida N<sub>2</sub>S , temir rudasining baozi turlari, xar xil azot oksidlari xosil bo`ladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Konsentratsiyalash funksiyalar tirik organizmlarning xayot faoliyati davomida va ularning o‘limidan keyin biokimyoviy jarayonlarni taominlaydi. Biokimyoviy funksiya organizmlarning oziqlanishi, nafas olishi, ko‘payishi, o‘lgan organizmlarning parchalanishi, chirishi bilan bog‘liqdir

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Okeanlar er yuzining 10 foizini egallashiga qaramay, okeanlar biosmassasining 0,13 foizini xosil qiladi. Biomassa ma’lum bo‘lgan organizmlar turlarining 21 foizini, er o‘simliklarning 99 foizidan tashkil etadi. Xayvonlar turlari

barcha organizmlarning 79 foizini qamrab olganiga qaramay, ularning biomassasidagi xissasi 1 foizdan kamroqdir. Xayvonlarning ichida 96 foizi umirtqalilardan, 4 foizi esa umirtqasizlardan iborat.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Quriqlik yuzasining turli qismlarida biomassaning miqdori bir xil emas. Qutblardan ekvatorgacha biomassa miqdori va organizmlar turlarining soni tobora ortib boradi. Ayniqsa, tropik o'rmonlarda o'simliklar turlari juda ko'p bo'ladi, zich va bir necha yaruslarda o'sadi. Hayvonlar xam xil yaruslarda joylashadi.

Ekvator biogeotsenozlarida xayot zichligi qanday bo'ladi?

#### Vaziyatli masala

Bentos -suvning yuza qatlamida passiv hayot kechiruvchi, suv oqimiga aktiv qarshilik ko'rsata olmaydigan organizmlarning birligi.

Plankton -suv havzalarinig o'rta qatlamida yashovchi, aktiv suzuvchi organizmlar, bo'lib, suv oqimiga erkin qarshilik korsata oladigan organizmlarning birligi

Nekton -- butun hayoti davomida yoki hayotinig ko'p qismini okeanlarning tubida (quyi qismida) va unung tuprog'da yoki tuproq ichida yashovchi organizmlar birligi.

Vaziyatni baxolang.

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“SHAJARA DARAXTI” USULI**

**“Tirik moddaning funksiyalari”**

**Gaz almashinishi**

**Oksidlanish  
qaytarilish**

**Tirik moddaning  
biokimyoviy funksiyalari**

**Konsentratsiya  
lash, jamg‘arish**


**Biokimyoviy**

## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**


**“Klaster” usuli**

### **EURTOPIKATSIYA SUVNI TOZALASH**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**  
**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**

**BIOSFERAGA TA’RIF BERGAN OLIMLAR**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**


**«NILUFAR GULI» usuli**

**TIRIK ORGANIZMLAR JOYLASHGAN**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
«NILUFAR GULI» usuli**

**ERNING TUPROQ QATLAMI ASTA-SEKIN SHAKLLANISHI**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**  
**“SHAJARA DARAXTI” USULI**  
**«Okean biomassasi»**

**OKEAN BIOMASSASI**




**PLANKTON**

**NEKTON**

**BENTOS**

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**  
**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**  
**MODDALARNING DOIMIY DAVRIY AYLANISHI**




## Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning

o‘quv texnologiyasi

“Klaster” usuli

### BIOSFERADAGI BIOTIK AYLANISH



## **1 – variant**

1. Biosfera yunoncha bios – xayot, sfera – shar so‘zlaridan olingan tushunchasini fanga birinchi marta kim kiritgan?
  - A. avstriyalik geolog olim E.Zyuss
  - B. rus olimi V.I. Vernadskiy
  - V. nemis olimi Robert Kox
  - G. O‘zbek olimi Ulug‘bek
2. Rus olimi V.I. Vernadskiy tomonidan biosfera to‘g‘risidagi ta’limot qachon yaratildi.
  - A. XX- asrning 20-30 yillarida
  - B. XX- asrning 10-15 yillarida
  - V. XX- asrning 40-50 yillarida
  - G. XX- asrning 50-60 yillarida
3. **biosfera** planetamizning tirik organizmlar yashayotgan yoki qachonlardir yashagan va xar doim tirik organizmlar ta’sir qilib turadigan qismidir. Bu ta’rifni kim bergan?
  - A. rus olimi V.I. Vernadskiy
  - B. nemis olimi Robert Kox
  - V. O‘zbek olimi Ulug‘bek
  - G. avstriyalik geolog olim E.Zyuss
3. Biosfera qanday tarkibiy qismlardan ibora?t
  - A. tirik va o‘lik      B. Ochiq va yopiq.
  - V. katta va kichik.    G. Er va osmon.
4. Biosfer qanday qismlardan tashkil topgan?
  - A. Atmosfera, gidrosfera, litosfera, troposferada
  - B., gidrosfera, litosfera, troposferada
  - V. Atmosfera, , litosfera, troposferada
  - G. Atmosfera, gidrosfera, , troposferada
5. gidrosferaning xamma qismida hatto eng chuqur gacha bo‘lgan joy
  - A. 11 km      B. 21 km.    V. 8 km    G. 18 km

6. Tirik moddaning funksiyalari.

A.gaz almashinishi; oksidlanish qaytarilish; konsentratsiyalash, jamg‘arish; biokimyoviy.

B.; oksidlanish qaytarilish; konsentratsiyalash, jamg‘arish; biokimyoviy.

V. gaz almashinishi; qaytarilish; konsentratsiyalash, jamg‘arish; biokimyoviy.

G. gaz almashinishi; oksidlanish qaytarilish;, jamg‘arish; biokimyoviy.

7. Biosferadagi tirik moddalarning umumiy massasi nima deyiladi?

A. Biomassa    B. Fitomassa    V. geomassa.    G. Gidromassa.

8. Xozirgi davrda erda yashaydigan o‘simliklarning nechaga yaqin turi aniqlangan?

A. 500 mingga yaqin turi,

B. 300 mingga yaqin turi

V. 400 mingga yaqin turi

G. 200 mingga yaqin turi.

9. Xozirgi davrda erda yashaydigan xayyovonlarning nechaga yaqin turi aniqlangan?

A. 1,5 millonga yaqin turi.

B. 0,5 millonga yaqin turi

V. 2,5 millonga yaqin turi

G. 2,0 millonga yaqin turi

10. Xozirgi davrda erda yashaydigan o‘simliklarning va xayyovonlarning necha % quriqlikda va necha % suvda yashaydi?

A. 93% i quriqlikda, 7% i suvda yashaydi.

B. 94% i quriqlikda, 6% i suvda yashaydi.

V. 95% i quriqlikda, 5% i suvda yashaydi.

G. 96% i quriqlikda, 4% i suvda yashaydi.

## 2 - variant

1. Okeanlar er yuzining necha foizini egallaydi?

A. 70 %        B. 60 %        V. 50 %        G. 40 %

2. Er biosmassasiningnecha foizini xosil qiladi ?

A. 0,13 %    B. 0,14 %    V. 0,15 %    G. 0,16 %

3. Xayvonlarning ichida necha foizi umirtqasizlar?
- A. 96 %  
B. 80 %  
V. 70 %  
G. 56 %
4. Xayvonlarning ichida necha foizi umirtqalilar?
- A. 4 %      B. 5 %      V. 6 %      G. 7 %
5. Umirtqaliklarning esa faqat necha foizi sut emizuvchilarga to‘g‘ri keladi?
- A. 10 %  
B. 20 %  
V. 30 %  
G. 40 %
6. Tirik moddalar o‘zining massasiga ko‘ra o‘lik moddalarning faqat necha foizinigina xosil etadi?
- A. 0,001 – 0,02 %  
B. 0,003 – 0,04 %  
V. 0,005 – 0,06 %  
G. 0,01 – 0,2 %
7. Suvning yuza qatlamida passiv hayot kechiruvchi, suv oqimga aktiv qarshilik ko‘rsata olmaydigan organizmlarning birligi nima ?
- A. Plankton  
B. Nekton  
V. Bentos  
G. Pluton
8. Suv havzalarinig o‘rta qatlamida yashovchi, aktiv suzuvchi organizmlar, bo‘lib, suv oqimiga erkin qarshilik korsata oladigan organizmlarning birligi nima deb ataladi?
- A. Nekton  
B. Bentos  
V. Pluton

G. Plankton

9. butun hayoti davomida yoki hayotinig ko‘p qismini okeanlarning tubida (quyi qismida) va unung tuprog‘da yoki tuproq ichida yashovchi organizmlar birligi nima ?

A. Bentos

B. Pluton

V. Plankton

G. Nekton

10. Nekton nima ?

A. aktiv suzuvchi organizmlar

B, suv o‘tlari

V. ivildiriq

G. mollyusk

## **5- AMALIY MASHG‘ULOT. ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR.**

### **IJTIMOY EKOLOGIYA VA INSON EKOLOGIYASI**

#### **Amaliy mashg‘ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant Mashg`ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.  SHu jumladan talabalarni rejallashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish.	Talaba  Mashg`ulot rejasи bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.

2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1. Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi.</p> <p>1. Umumbashariy (global muammolar ).</p> <p>2. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasining sababi va okibatla-ri.</p> <p>3. Ozon qatlaming siyraklanishi sabablari va oldini olish chorala-ri.</p> <p>4. Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng asosiy muammolar.</p> <p>5. CHuchuk suv muammosi kelib chiqishining asosiy sabablari.</p> <p>6. Pestitsidlardan foydalanish qanday ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda?</p> <p>7. Maxalliy ekologik muammolar.</p> <p>8. Mintaqaviy ekologik muammolar</p> <p>9. Pestitsidlarning zaharli ta'sirini oldini olishda qanday chora-tadbirlar ko'rildi?</p> <p>YUqoridagi savollar asosida savol-javob o'tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo'ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo'yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo'linadi</p> <p>Gurux a'zolari bиргаликда izlanibya. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg'ulotlarni sistemalashtiradi, o'zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o'z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
---------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

	<p>qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.Taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	
3. YAkuniy bosqich (10 min)	<p>Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.</p>	<p>Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.</p>

## ZAMONAVIY eKOLOGIK MUAMMOLAR

Inson faoliyati ta’sirida biosferaning o‘zgarishi juda tezlik bilan boryapti. Er kurrasining qiyofasini o‘zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V. I. Vernadskiy tomonidan ta’kidlab o‘tilgan edi. Insonning geologik va geokimyoviy faoliyatini sarxisob qiladigan bo‘lsak nixoyatda katta.

Insonning tabiiy jarayonlarga ana shunday munosabatda bo‘lishi natijasida XX asrning o‘rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi.

**Ekologik muammo** deganda insonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan bog‘lik xolda tabiatning insonga aks ta’siri ya’ni uning iqtisodiyotida, xayotida xo‘jalik axamiyatiga molik bo‘lgan jarayonlar, tabiiy xodisalar bilan bog‘liq (stixiyali talofotlar, iqlimning o‘zgarishi, xayvonlarning yalpi ko‘chib ketishi va b.) xar qanday xodisa tushiniladi.

Dunyo bo‘yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen xodisalar -umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday muammolarga ba’zi bir misollar keltiramiz.

1. “Atmosferaning dimqish” xodisasi. Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi SO<sub>2</sub> miqdori ortib borayotganligi ma’lum bo‘lib qoldi. Natijada Er

yuzasining xarorati 100 yil ichida 0,5 - 1,0°S ortdi. Iqlimning keng ko‘lamda o‘zgarishi atmosferaning sanoat chiqindilari va avtotransportlardan chiqayotgan gazlar bilan bog‘lik. Er yuzasining global isishi, ya’ni “atmosferaning dimiqishi” SO<sub>2</sub> ning xavo tarkibida ortib ketishi, o‘rmonlarni kesilishi, toshko‘mir va benzin kabi yoqilgilarini yonishidan atmosferada to‘planadigan SO<sub>2</sub> gazi tufaylidir. Ana shunday zaylda axvol o‘zgarmasa XXI asrga kelib er yuzasining xarorati 1,5 - 4,5°S ga ortishi mumkin. Natijada: 1. Iqlimning o‘zgarishi ayniqsa, cho‘llanish jarayonining kuchayishi. 2. YOg‘ingarchilikning o‘zgarishi. 3. Geografik zonalarning siljishi. 4. Dengiz va okeanlar satxining ortishi. 5. Muzliklarning erishi va kamayishi, xamda, boshqa xodisalar kuzatiladi.

**Ozon qatlaming siyraklanishi.** Ozonosfera atmosferaning muxim tarkibiy qismi xisoblanib, u iqlimga va Er yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi ozonning eng muxim xususiyati uning doimo xosil bo‘lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta’sirida kislород, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida xosil bo‘ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarini yutib qolib er yuzidagi tirik organizmlarni ximoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar ta’sirida nurlanish odamlarda terini kuyishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta’sirida kelib chiqayotganligi aniqlandi. Xozirgi davrda xlorfmetanlar (freonlar) dan keng foydalanish tufayli xamda azotli ug‘itlar, aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmasferv etarli miqdorda azon to‘planishiga imkon beradi. SHuning uchun mayishiy turmushda sovutgichlarda ishlatiladigan freondan foydalanishna qisqartirish va 2000 yilga borib butunlay ishlab chiqarishni to‘xtatish ko‘zda tutilgan.

**4. CHuchuk suv muammozi.** Quruqlikda chuchuk suv va uning biosferadagi roli nixoyatda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz (2-2,5 %). CHuchuk suv zaxirasi asosan qutublardagi muzliklardir. Jamiyatning rivojlanishi bilan axolining chuchuk suvga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3-3,5 ming km<sup>2</sup> suv saflanadi. Asrimizning oxirida ushbu ko‘rsatkich 1,5-2 marta ortsa kerak.

Daryolarning umumiy yillik oqimi er yuzi bo'yicha  $50000 \text{ km}^2$ . Ammo bunday foydalanishda chuchuk suv etishmasligi aniq.

Qurg'oqchil zonalarda daryolardan to'zliq foydalanilganda xatto ularning suvi etmay qoladi. 1980 yillar boshlarida bunday xolat, Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika, Nil, Sirdaryo, Amudaryo va ba'zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaxarli moddalar bilan zaxarlanishi (ifloslanishi) o'sib bormoqda. Sanoat yiliga  $160 \text{ km}^3$  sanoat oqova suvlarini daryoga tashlaydi. Bu ko`rsatkich daryolarning umumiy suv miqdorining 10% ni, ba'zi rivojlangan davlatlarda 30% ni tashkil etadi. Daryolardagi toza suvlarda yildan-yilga xar xil erigan moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormokda.

**5. Pestitsidlardan foydalanish muammosi.** Ushbu zaxarli kimyoviy moddalar guruxi begona o'tlar, zararkunanda xashorotlar va boshqa xayvonlar, o'simliklarda kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga qarshi kurashda foydalaniladi. Pestitsidlardni qishloq xo'jaligida, o'rmonchilikda aviatsiya yordamida sepish keng ko'lamda atrof-muxitni ifloslanishiga olib keladi. Pestitsidlar atmosferada, uzoq masofalarga tarqalishi shuningdek suv orqali dala, daryo, ko'llardan o'tib dunyo okeanlarida to'planadi. Eng xavfli joyi shundaki ular ekologik oziq zanjiriga qo'shilib, tuprokdan va suvdan o'simliklarga, undan xayvonlarga va qushlarga, nixoyat oziq va suv bilan odam organizmiga o'tadi. Xar bir bug'inda pestitsidlar zararli va ziyon keltiradi. Pestitsidlarning tirik tabiatga va odamga ko'rsatadigan zararli va jiddiy, shu bilan birga ular tashqi muxit omillariga nisbatan barqaror moddalar xisoblanadi. Pestitsidlarning zaxarli ta'sirini oldini olish uchun quyidagi tadbirlani o'tkazish lozim:

1. Kukun xolda tayyorlashdan ko'ra donador xolatda tayyorlash;
2. Xayvonlar va odamlarga ta'sirini susaytirish;
3. Tuproq va suvlarda to'planishning oldini olish;
4. Pestitsidlardan foydalanishni iloji boricha cheklash;
5. Tez parchalanuvchi va beqaror pestitsidlardan sintez qilish;
6. Agrotexnik, seleksion xo'jalik va tashkiliy ishlarni qo'llash;

## 7. O'simliklarni biologik ximoya qilish.

Tirik tabiaidagi o'simlik va xayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. O'simliklar dunyosi, ayniqsa er yuzidagi xayotni ta'minlashda o'rmonlarning axamiyati juda katta. Xozirgi vaqtda quruqlilikning 30%, ya'ni 3,8 mld. Gektar er o'rmonlar bilan qoplangan. Ular shimoliy yarim sharda va tropik zonalarda tarqalgan. O'rmonlarning tabiatda va insonning xo'jalik faoliyatidagi axamiyati ko'pchilik uchun ma'lum.

Yirik shaxarlarning vujudga kelishi, axoli sonining va sanoat markazlarining ortishi bilan kishilarining tabiat quchog'ida dam olishga extiyojlari xam ortib bormoqda. Ayniqsa o'rmonlar ana shunday dam olish maskanlariga aylanib bormokda. Dunyo bo'yicha o'rmonlarning xolati yaxshi emas. Xar yili 3 mld. m<sup>2</sup> xajmda o'rmonlar qirqilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 2000 - yilga borib 1,5 martaga ortdi. Insoniyatni, ayniqsa tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U erlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln. gektar maydaon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi "Qizil kitob" yaratilishiga sabab bo'ladi. Axoli sonining ortishi, xo'jalik faoliyatining kengayishi tufayli tabiatning inson qo'li tegmagan joyi qolyapti. Xayvonlarning asosiy ko'payish xududlari, migratsiya qiluvchi yo'llari, dam olish joylari, tuyoqli xayvonlarning oziqlanuvchi maydonlari sun'iy qoplamlarga aylangan, suvlar bosib mol boqib yoki xaydab yuborilgan. Ayniqsa nam tropiqlarda ko'pchilik xayvon turlarining qirilib ketishi ko'zatilmovda.

O'simlik va xayvon turlarini davlat muxrfazasiga olish qonunlar orqali ovchilikni tug'ri yulga quyish shuningdek qo'riqxonalar zakazniklar, milliy bog'lar, botanika bog'lari va "Kizil kitob" lar o'simlik va xayvon turlarini saqlashda katta rol uynaydi.

Mintaqaviy ekologik muammolar. Er yuzasining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy - iqlim, ijtimoiy ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari xarakterni belgilab beradi. Mintaqaviy ekologik muammolarga baxam berishning me'zoni xavo va suvning

ifloslanishi, belgilangan miqdordan oshib ketishi, o‘rmonlarda daraxtlarni kesish va boshqalar xisoblanadi.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolardan eng muximi Orol va Orol bo‘yi ekologik muammosidir. Orol dengizi yaqin vaqtargacha dunyodagi eng yirik dengizlardan biri xisoblangan. U msxim baliqchilik, ovchilik, transport va reaksion axamiyatga ega edi. Sug‘oriladigan dexqonchilikning rivojlanishi natijasida, shuningdek qurg‘okchilik natijasida, shuningdek qurg‘okchilik yillari Amudaryo va Sirdaryolar suv quyishi 1970 yilga kelib 37,8 km<sup>3</sup>, 1980 yilda esa 11,1 km<sup>3</sup> ga kemayib ketdi. 80 yillarning boshlarida ushbu daryolarning dengizga quyilishi butunlay tuxtadi.

Suvning sho‘rlanish darajasi 9-10 g/l dan 34-37g/l gacha ortdi. Xozirgi kunda dengiz satxining yillik o‘rtacha pasayishi 80-110-sm Orolning qurigan tubi yirik chang-tuzon makoniga aylandi. Axoli ichadigan suv pestitsidlar bilan ifloslangan, keyingi 10 yil ichida o‘lish ikki marta ortgan. Bolalar o‘limi 1000 kishi xisobiga 45-90 taga to‘g‘ri keladi. Ayollarning 80% dan ortig‘i kamqonlik xastaligiga mutbalo bo‘lgan. Bolalarning 90% zida siydigida tuzlar miqdori ortib ketgan. YUqumli kasalliklar tez-tez takrorlanib turadi.

Orol va Orol bo‘yida murakkab ekologik muammolar majmui shakllanib bo‘lib, kelib chiqishi va oqibati darajasi jixatidan davlatlararo xarakterga ega.

Keljakda ushbu mintaqaviy muammoni xal etilishi Markaziy Osiyon ijtimoiy ekologik va iqtisodiy axvoli, shuningdek demografik xolat, sug‘oriladigan erlarni meliorativ xolati va maxsulorligini oshirish, axolini ichimlik suv bilan ta’minlash kabilar bilan bog‘lik.

O‘zbekistondagi ekologik muammolar. Bugungi kunda Mustaqil O‘zbekistan yirik sanoat va agrar mintaqasi bo‘lib, keljakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetik, kimyo, oziq-Ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilmovda. Xolbuki, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy ekotizimlarning xolatiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Respublikada keskin bo‘lib turgan ekologik va tabiatni muxrfaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik xududiy-sanoat majmuilari joylashgan rayonlarda (Angren - Olmalikq - CHirchik, Fargona - Margilon, Navoiy va xokazo) tabiatni muxofaza qilish muammolari.

2. Orol va Orol bo‘yi muammolari, suv resurslarini muxofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish.

3. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

4. Tabiatdagi suvlvrning sanoat yaiqindilari, pestitstdlar va mineral o‘g‘itlar bilan ifloslanishi.

5. O‘simlik va xayvonot dunyosini mux’ofaza va qayta tiklash muammolari, qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar tarmog‘ini kengaytirish.

YUqorida keltirilgan muammolarni e’tiborga olib, Respublikada noqulay ekologik vaziyat yuzaga kelgan tuman va xududlarni aniqlab ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Ekologik muammolarni oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar.** Ma’lumki, har qanday davlatning rivoji, aholi turmush farovonligining oshirib borishida uch tamoyilga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi: iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy himoya va nihoyat, ekologik xavfsizlikdir.

Bu borada mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardanoq kuchli, uzoqni ko‘zlovchi siyosat amalga oshirilayotganligini bugun nafaqat o‘zbekistonliklar, balki jahondagi rivojlangan davlatlar, xalqaro tashkilotlar ham ochiq e’tirof etmoqda. YUqoridagi uch tamoyil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojiga asos qilib olingan desak, xato qilmaymiz. Kengroq fikr yuritadigan bo‘lsak, Prezidentimizning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobiga yana bir bor murojaat etamiz. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida chop etilgan ushbu kitobda O‘zbekistonning ekologik xavfsizligi masalasiga alohida o‘rin berilgan. Umuman, O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikka, bu xavfsizlikka tahdid solayotgan va endilikda global muammoga aylanib qolgan Orol va Orolbo‘yi ekologik fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, transchegaraviy daryolar suvidan oqilona foydalanish masalalariga faqat bugun e’tibor qaratilayotgani yo‘q. Bu masalalar YUrtboshimiz

tomonidan o‘tgan asrning 80- yillari oxirida ham ko‘tarilgan va mustaqillikka erishilgandan keyin yanada rivojlantirilgan edi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Orol ekologik fojiasini to‘xtatish va yumshatish yo‘lida keng ko‘lamdagi mislsiz ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbuslari bilan Orolbo‘yi genofondini muhofaza qilish hayriya jamoat fondi tashkil etildi.

Xalqaro donorlarni Orol va Orolbo‘yi muammolarini yumshatish borasidagi harakatlarga jalb qilish maqsadida 2008 yilning 11-12 martida Toshkent shahrida Xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Unda “Orolbo‘yi mintaqasida iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida amalga oshirish uchun xalqaro donorlarga taklif etilayotgan majmuaviy harakat dasturi” qabul qilindi.

Orol va Orolbo‘yi muammosini hal qilishda O‘rta Osiyo davlatlari hamkorligi 1993 yili Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining (OQXJ) tashkil etilishida namoyon bo‘ldi. Uning doirasida “Orol dengizi havzasasi Dasturi” hayotga tatbiq etildi.

2009 yil aprelida Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga a’zo davlatlar rahbarlari uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov jahon hamjamiyatini Orol dengizi havzasasi muammolarini hal etishga yanada kengroq jalb qilishga qaratilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga a’zo mamlakatlarning 2011-2015 yillardagi faoliyati Dasturi konsepsiyasini taklif etdi.

Mintaqada ekologik muvozanatning buzilishi oqibatlarini yumshatish maqsadida Amudaryo deltasida kichik suv havzalarini yaratish, to‘qayzorlarni saqlab qolish, Orolbo‘yining olis aholi yashash joylarida quyosh energiyasidan foydalanishga qaratilgan bir qator xalqaro va davlatlararo loyihalar amalga oshirilmoqda.

To‘qayzorlar, qamishzor o‘simgiklari, tabiiy yaylovlar maydonining hamda noyob turdagи jonivorlar va qushlar sonining qisqarishi yoki ularning butunlay yo‘qolishi natijasida etkaziladigan umumiy ziyon eng kamida yuzlab million AQSH dollariga baholanmoqda. Ammo flora va faunadagi haqiqiy qayta tiklab bo‘lmaydigan yo‘qotishlarni moliyaviy jihatdan o‘lchab bo‘lmaydi.

Bu sohada mavjud vazifalar ko‘laming kengligi, murakkabligi hamda miqyosi mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash muammolarini kompleks ravishda hal etishda nafaqat davlat organlarining, balki jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlarining sa’y-harakatlarini birlashtirishni talab etadi. SHu bois O‘zbekistonda bu ishga keng jamoatchilikni jalg qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish davlat, jamiyat va har bir fuqaroning ishiga aylanishi yo‘lida jiddiy qadamlar tashlanib, keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

SHu bilan bir qatorda, mustaqillik yillarda Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam, yaxlit qonunchilik bazasi yaratildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1992 y.), “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi (1993 y.), “Veterinariya to‘g‘risida”gi (1993 y.), “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi (1994 y.), “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi (1995 y.), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1996 y.), “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (1997 y.), “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (1997 y.), “O‘rmon to‘g‘risida”gi (1999 y.), “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi (2000 y.), “CHiqindilar to‘g‘risida”gi (2002 y.), “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (2004 y.) qonunlari atrof-muhitni, tabiiy resurslarni huquqiy jihatdan muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining **50-moddasida** “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, **54-moddasida**, “Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart”, **55-moddasida esa** “Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, deya alohida ta’kidlangan. Qonunchilikdagi yangiliklar,

ayniqsa, atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalariga doir qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartish va qo‘sishchalarining mazmun-mohiyatini o‘sib kelayotgan yosh avlodga etkazish yoshlarning ekologik bilim va ko‘nikmalarining oshishida, ekologik tafakkur va ongining yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **INSON EKOLOGIYASI.**

Mintaqamizda joylashgan Orol dengizining qurishi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik fojealardan biridir.

Orol dengizi – sayyoramizdagи eng qadimi yopiq suv havzalaridan biri va u yirikligi jihatidan dunyoda to‘rtinchi o‘rinda bo‘lgan, boy tabiiy zahiralari bilan mashhur edi. Orolbo‘yi mintaqasi esa biologik jihatdan boy tabiiy muhit hisoblanardi. 1960 yilga qadar Orol dengizi maydoni 68,9 ming kv. km ga teng edi, suv hajmi 1083 kub. km ni tashkil etardi. Orol va Orolbo‘yi suv havzalarida 38 turdagи baliq bo‘lib, yiliga 30 ming tonnagacha baliq ovlangan. Orolbo‘yining keng hududlarida bir qator hayvon turlari – Buxoro kiyigi, jayron, Ustyurt tog‘ echkisi va sayg‘oqlarning ko‘p sonli populyasiyasi mavjud edi.

Bir paytlar Amudaryo deltasi florasi tarkibida 638 turdagи turli o‘simliklar mavjudligi ham ushbu mintaqaning naqadar boy bioxilma-xillikka ega bo‘lganidan yorqin dalolatdir.

Bugun Orol dengizining hajmi 13 barobarga, maydoni 7 barobarga qisqardi. Suv sathi 26m ga pasaydi, suv chegarasi yuzlab kilometrga chekindi. Suvning sho‘rlanishi, ya’ni minerallashuvi g‘arbiy qismida 120 g/l ga, sharqiy qismida 280 g/l gacha etdi.

Ekologik halokat oqibatlari Orol dengizi havzasida yashovchi millionlab odamlarning turmush tarziga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Bugun xalqaro miqyosdagi ekologik muammolarning murakkab majmui Orol fojiasida o‘z aksini topdi. Ochig‘i, mintaqadagi barcha jarayon va holatlar global iqlim o‘zgarishi sharoitida yanada keskin, shiddatli va murakkablikda namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda mavsumiy qurg‘ochilikning kuchayish tendensiyasi sezilarli ko‘lam kasb etgan. Bu esa Orolning qurish jarayoni mintqa iqlim sharoiti o‘zgarishiga salbiy ta’sir o‘tkazayotganidan dalolat beradi. Orol fojasi iqlim

kontinentalligini keskinlashtirdi, natijada, yoz kunlari qurg‘oqchilik kuchayib, qishning sovuq kunlari esa aksincha uzaydi. Orolbo‘yida harorat  $40^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo‘ladigan kunlar soni 2 martaga ko‘paydi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo davlatlari aholisining suvga bo‘lgan talabi transchegaraviy daryolar - Amudaryo va Sirdaryo hisobiga qondiriladi. Mutaxassislarning bashorat qilishicha, iqlim o‘zgarishi, global haroratning oshishi tufayli Amudaryo va Sirdaryoning suv zahirasi manbai bo‘lgan muzliklar 2015 yilga borib 15-20% ga kamayishi kutilmoqda. Bu esa hududimizda suv ta’mnotinining 20% gacha qisqarishiga olib kelishi mumkin. Tog‘ muzliklarining hajmi hozir yiliga 0,2 dan – 1 foizgacha kamayib borayotgani fikrimiz isbotidir.

Orol dengizining qurigan qismida maydoni taxminan 5,5 mln. ga bo‘lgan yangi cho‘l – Orolqum, oppoq tuz bilan qoplangan keng hududlar paydo bo‘ldi. Undan yuzlab kilometrga millionlab tonna tuz, chang va qumlarni tarqatuvchi dovullar ko‘tariladi.

Tuz shleyflari 400 km dan oshadi, qumli va tuzli buxronlarning ta’sir doirasi - 300 km gacha etmoqda. Har yili bu erdan atmosferaga 100 mln. tonnagacha qum aralash tuzli changlar ko‘tariladi. O‘tgan asrning 80-yillari boshidan boshlab bunday dovullar yiliga 90 kundan ortiq vaqt davomida tez-tez sodir bo‘lmoqda.

Orolbo‘yi cho‘llanishi er resurslarining degradatsiyasiga, tabiiy yaylovlar va pichanzorlar sifatining yomonlashuviga sabab bo‘lmoqda, tuproqning sho‘rlanishi faollahib, u yil sayin yangidan-yangi maydonlarni qamrab olmoqda. Antropogen cho‘llanish natijasida Orolbo‘yining biologik unumдорligi 10 barobarga qisqardi. Ko‘pgina joylarda er va erosti suvlarida shu qadar ko‘p tuz to‘planganki, bu qishloq xo‘jaligi ekinlari etishtirishni qariyb imkonsiz qilib qo‘ymoqda.

Bugun shuni afsus bilan ta’kidlash kerakki, Orolbo‘yi o‘simplik va hayvonot dunyosi genofondining yarmidan ko‘p yo‘q bo‘lib ketdi.

Ayni paytda, Janubiy Orolbo‘yida ko‘plab kichik ko‘llar sayozlashdi yoki qurib qoldi. Bu esa, o‘z navbatida, 800 ming hektar maydondagi mavjud butazor va to‘qayzorlarning 90%ni, ular bilan birga, bu erda qo‘nim topgan jonivorlarning

yo‘qolishiga olib keldi. Suv tanqisligi tufayli daryo bo‘yidagi o‘rmonlar, deltadagi yuzlab ko‘llar qurib qoldi.

### “Blits usuli”

<u>Nº</u>	<u>Mavzular savoli</u>	<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni xoxlayman</u>	<u>Bildim</u>
1.	Umumbashariy (global muammolar ).			
2.	“Atmosferaning dimiqishi” hodisasining sababi va oqibatlari.			
3.	Ozon qatlamining siyraklanishi sabablari va oldini olish choralar.			
4	Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng asosiy muammolar.			
5.	CHuchuk suv muammosi kelib chiqishining asosiy sabablari.			
6.	Pestitsidlardan foydalanish qanday ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda?			

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
"Atmosferaning dimiqishi"				
Ozon qatlaming siyraklanishi				
CHuchuk suv muammosi				
Pestitsidlardan foydalanish				
Qo'riqxonalar				
Zakazniklar				

### **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

#### Vaziyatli masala

Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotgda, xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (dabdabali to'ylar, iliqlish, kometalarning yalpi ko'chib ketishi va har qanday hodisa tushuniladi.

#### Vaziyatli masala

Ekologik muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Mintaqaviy (global).
2. Mahalliy (regional).
3. Umumbashariy (lokal).

#### Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Umumbashariy muammolar:

- 1.“Troposferaning dimiqish”
- 2.Litosfera qatlaming siyraklanishi.

3.YOmg‘ir suvi muammosi.

4.Peptonlardan foydalanish muammosi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Ozon qatlaming siyraklanishi natijasida quyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkin:

1. Iqlimning o‘zgarishi, ayniqsa cho‘llanish jarayoning kuchayishi.
2. YOg‘ingarchilik miqdori va muddatlarining o‘zgarishi.
3. Geografik zonalarning siljishi.
4. Dengiz va okeanlar sathining ortishi.
5. Muzliklarning erishi va kamayishi hamda boshqa hodisadlar kuzatiladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Er kurrasи mintaqalarida iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni, xo‘jalikni rivojlantirish va uni o‘zlashtirish jarayoni zaminidagi qonunyatlarni ochib berish, insonning morfofiziologik, o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib litossferani texnogen jarayonlar ta’sirida gidrosferaga, xronosferaga o‘tish davrida, uning sihat-salomatligini saqlash inson ekologiyasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Ijtimoiy fanlar sohasidagi olim V.I.Vernadskiyning ta’kdlashicha, bugun insoniyat o‘zi yaratgan juda kuchli texnik qurollar yordamida tabiiy resurslardan beqiyos foydalanishi natijasida biologik tur sifatida o‘z sivilizatsiyasiga erishdi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

I.T.Frolovning fikricha, insoniyatning tabiatni o‘zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘layotgan xo‘jalik faoliyati oqibatlarining tabiatga nisbatan ta’siri tobora kuchayib borayotgan bir vaqtida, tabiatning imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Aks holda, tabiatda namoyon bo‘layotgan ekologik salbiy

o‘zgarishlar inson salomatligini yomon tomonga o‘zgartirib yuboradi, boshqacha qilib aytganda, inson hozir va qelajakda biosferada bo‘ladigan salbiy o‘zgarishlarga javob beradi

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Ekotizimga ko‘rsatiladigan bilvosita ta’sirga ozuqa zanjirini misol qilib ko‘rsatish mumkin: o‘txo‘rlar o‘txo‘rlar bilan oziqlanishadi va o‘z navbatida go‘shtxo‘rlar o‘simlik bilan. Go‘shtxo‘rlarning o‘txo‘rlar populatsiyasini ovlashi o‘txo‘rlar tomonidan o‘simlik biomassasini nazorat qilishini izdan chiqaradi. Bu ta’sirlar zanjiri ozuqa zanjirini ishdan chiqaradi va bu trofik kaskad deb atalib, turli trofik daraja va ekotizim funksiyasini boshqaruvchi biomassaga ta’sir ko‘rsatadi.


Vaziyatni baxolang.

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

**“EKOLOGIK MUAMMOLAR ”**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**

### **UMUMBASHARIY (GLOBAL) MUAMMOLAR**



## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“Klaster” usuli**


### **ATMOSFERANING DIMIQISHI NATIJASIDA QUYIDAGI HOLATLAR YUZAGA KELISHI MUMKIN**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini  
egalashningo‘quv texnologiyasi**


**«Echim daraxti» usuli**

**“EKOLOGIYA FANINING YO‘NALISHLARI”**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
“Klaster” usuli**

**JAMIYATNING TABIATGA NISBATAN  
SHAKLLARI**



## **1 – variant**

1.Er kurarsi qiyofasining o‘zgarishida insoniyat katta geologik kuch sifatida vujudga kelgani kim tomonidan ta’kidlab o‘tilgan?

A. V.I. Vernadskiy

B. E Zyuss

V. Robert Kox

G. Ulug‘bek

2. Ekologik muammo deganda nima tushuniladi?

A. nsonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri, tabiiy hodisalar bilan bog‘liq har qanday hodisa

B. iqtisodiyotgda,

V. xo‘jalik ahamiyatiga molik bo‘lgan jarayonlar,

G. stixiyali talofotlar, iqlimning o‘zgarishi, hayvonlarning yalpi ko‘chib ketishi

3. Ekologik muammolarni necha guruhga ajratish mumkin?

A. 3      B. 2      V. 4      G. 5

4. Ekologik muammolarni vanday guruhlarga ajratish mumkin?

A.. Umumbashariy, Mintaqaviy, Mahalliy (lokal).

B. Global, Mintaqaviy, regional

V. regional, Umumbashariy, Mahalliy

G. Lokal, Mahalliy, Global.

4. “Atmosferaning dimiqish” hodisasi nima ?

A. Er yuzasining global isishi

B. SO<sub>2</sub> ning havo tarkibida kamayib ketishi

V. o‘rmonlarning kesilishi

G. avtovozsizlarda chiqayotgan gazlar

5. Er yuzasining harorati 100 yil ichida nechv gradusga ortdi.

A. 0,5 -1,0<sup>0</sup>S                  B. 1,5 -1,0<sup>0</sup>S

V. 0,5 -1,5<sup>0</sup>S                  G. 1,5 -2,0<sup>0</sup>S

6. Ozon qatlaming siyraklanishiga sabab bo‘luvchi, sovutgichlarda ishlataladigan modda nima ?

- A. Frion                    B. Faraon
- V. fibrion                G. Frima.
7. Gidrosferada chuchuk suv miqdori necha foiz ?
- A. 2-2,5%
- B. 3 - 4 %
- V. 5 – 6 %
- G. 7 – 8 %.
8. Yiliga suv sarflanadi
- A. 3-3.5 ming km<sup>3</sup>
- B. 4-4.5 ming km<sup>3</sup>
- V. 5-5.5 ming km<sup>3</sup>
- G. 6-6.5 ming km<sup>3</sup>
9. Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryoning suv quyishi nechvnchi yili butunlay to‘xtadi ?
- A. 80–yillarning boshlarida
- B. 80–yillarning oxirida
- V. 90–yillarning boshlarida
- G. 70–yillarning oxirida
10. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan ?
- A. 1992 y.                B. 1994 y.
- V. 1996 y.                G. 1998 y.

## **2 - variant**

1. Inson ekologiyasi qanday fan ?
- A. bu kompleks fanlararo ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u inson populyasiyasining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir etish qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir.
- B. bu kompleks yo‘nalish bo‘lib, u inson populyasiyasining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir etish qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir.
- V. bu fanlararo ilmiy yo‘nalish bo‘lib, xayaon populyasiyasining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir etish qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir.

- G. bu o'simlik populyasiyasining atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir etish qonuniyatlarini o'rganadigan fandir.
2. "Insoniyatning tabiatni o'zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo'layotgan xo'jalik faoliyati oqibatlarining tabiatga nisbatan ta'siri tobora kuchayib borayotgan bir vaqtda, tabiatning imkoniyatlarini hi sobga olishni taqozo etadi". Bu kimning fikri ?
- A. V.I.Vernadskiy B. V.I.Lenin V. V.I.Voroshilov G. V.I.SHevarnedze
3. Inson ekologiyasi haqida dastlab ijtimoiy fanlar bilan shug'ullanuvchi AQSH olimlaridan kim o'z fikrlarini bildirdi?
- A. R.Parker B. Djon.Parker V. Piter Parker G. Piter Pen.
4. Piter Vitosek va Pamela Metson qanday ma'lumotlarni ma'lumotlarni taqdim etishdi?
- A. ekotizimdagи ozuqa moddalari almashinuvi, uni nazorat qiluvchi omillar va global biokimyoviy almashinuvga ta'siri to'g'risida.
- B. ilmiy tadqiqot uglerodning global aylanishi,
- V. karbonat angidridning aylanishi
- G. elementlarning harakati.
5. Julien Lartigu va Jast Sebrian ekotizimda uglerod almashinuvi fanday muxitlarda o'rganib chiqishgan ?
- A. er va suv muxitida
- B. Xavo va tuproq muxitida
- V. er va osmon muxitida.
- G. O'lik va tirik muxitda.
6. Ekotizim qanday xosil bo'ladi ?
- A. biotik va abiotik tizimlarning bir joyda yashashidan.
- B. Xavo va tuproq tizimlarning bir joyda yashashidan
- V. er va osmon tizimlarning bir joyda yashashidan.
- G. O'lik va tirik tizimlarning bir joyda yashashidan

7. “Bugun insoniyat o‘zi yaratgan juda kuchli texnik qurollar yordamida tabiiy resurslardan beqiyos foydalanishi natijasida biologik tur sifatida o‘z sivilizatsiyasiga erishdi”. Bu gaplarni kim aytgan ?
- A. I.T.Frolov   B. I.T.Fomin   V. V.S.Fyodorov.   G. I.V.Stalin.
8. Urbanizatsiya va industrlashtirish jarayonlari nimani o‘zgartirib yubordi?
- A. Ekotizimni   B. Sivilizatsiyani   V. cho‘llarni   G. SHaxarlarni.
9. inson ekologiyasining tarixiy rivoji va shakllanishi nimalarga bog‘liq ?
- A. tabiiy va ijtimoiy fanlarning bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq.  
B. Sun’iy va genetik fanlarning  
V. fazika va kimyo fanlarining  
G. Matematika va falsafa fanlarining
10. Ekologiya fani qanday asosiy yo‘nalishga bo‘linadi?
- A. jamiyat ekologiyasi va ekotizim ekologiyasi.  
B. Xayvonlar ekologiyasi va o‘simpliklar ekologiyasi  
V. taproq ekologiyasi va suv ekologiyasi  
G. Atmosfera ekologiyasi va troposfera ekologiyasi

## **6- MAVZU. ATMOSFERA HAVOSINING AHAMIYATI, UNI IFLOSLANTIRUVCHI MANBALAR. SUV MANBALARINING IFLOSLANISHI VA MUXOFAZASI, SUV SIFATINI YAXSHILASH.**

### **Amaliy mashg‘ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant	Talaba
	Mashg‘ulot mavzusini e‘lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.  SHu jumladan talabalarni	Mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.



	<p>bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	asoslab beradi.
3. YAKUNIY BOSQICH (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiylar xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq yuzasida bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

## ATMOSFERANI HAVOSINI IFLOSLANTIRUVCHI MANBALAR

**Atmosfera** – Erning gazsimon qatlami bo‘lib, erdag'i tirik organizmlar hayotida katta rol o‘ynaydi. Atmosfera er po‘stiga fizikaviy, kimyoviy va biologik ta’sir ko‘rsatib, er yuzasida issiqlik va namlikni tartibga solib turadi. Atmosfera Erning himoya qobig‘i hisoblanib, erdag'i tirik organizmlarni turli ultrabinafsha va infraqizil nurlar va kosmosdan tushadigan meteroitlarning zarralari ta’siridan himoya qiladi. Atmosfera qatlami er yuzasini kunduzi +100 °C qizib ketishdan, kechasi esa -100° C sovub ketishdan saqlaydi.

Er yuzasining o‘rtacha harorati +14°C ga teng bo‘lib, atmosfera quyosh issiqligini erga o‘tkazib, undagi issiqlikni saqlaydi. Atmosfera qatlami biosferada moddalar va issiqlik almashnuvida asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi hamda **1996- yil 27 dekabrdagi** qabil qilingan **“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”**gi Qonunlari asosida atrof muhitning tabiiy holati va hududlar ekologik muvozanatining buzilishi ko‘p jihatdan atmosfera havosining tarkibi buzilishiga hamda uning turli ishlab chiqarish ta’siridagi salbiy o‘zgarishlarga bevosita bog‘liq.

Respublikada havoni bulg‘ayotgan **3500 doimiy manba bo‘lib**, ularning yarmiga yaqini chang va turli xil zararli gazlarni tutib qoluvchi va tozalovchi moslama ega. Bu moslamalarning 4,1 qismi samaradorligi juda past. Atrof-muhitning me’yordan ortiqcha ifloslanishi, ayniqsa, yirik shaharlarga xos. O‘zbekiston Respublikasida Olmaliq, Farg‘ona, Bekobod, Andijon, Ohangaron, Angren, Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlari atmosferasi eng ko‘p ifloslangan shaharlar jumlasiga kiradi.

Keyingi yillarda atmosfera havosining tozaligi ustidan nazoratining kuchaytirilishi, havo tozalagich moslamalardan ko‘plab foydalanilishi, ekologik ongnimg oshishi, mutaxassislar mas’ulyyatining oshishi, “Ekosan” Xalqaro ekologik va salomatlik jamg‘armasining faol sa’y-harakati natijasida O‘zbekiston Respublikasida bir qancha ijobiy siljishlar ro‘y bermoqda.

Atmosfera havosini ifoslantirishga asosiy sababchi bo‘lgan sanoat obektlari Toshkent (42,7%), Qashqadaryo (14,6%), Buxoro (10.9%), Navoiy (8,1%), Farg‘ona (6,8%) viloyatlarida jamiangan. Sanoat salo-hiyati energetika, (jolra va rangli metallurgiya, kimyo va neftkimyo sanoati (asosan, o‘g‘itlar ishlab chiqarish), gaz sanoati, neftni qayta ishlash zavodlari, sement va -boshqa qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar obektlaridan iborat.

1999—2010-yillar ifoslantiruvchi modda tashlamalarining o‘rtacha 5,5% ga kamayishi bilan tavsiflanadi. Respublikada statsionar (turg‘un) manbalardan tashlanadigan ifoslantiruvchi moddalar tendentsiyasi.

Davlat statistik hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, yiliga yirik kor-xonalardan (IES va IEM) 200 ming tonnadan ortiq ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga chiqariladi. Asosiy ifloslantiruvchi moddalar — qattiq chang zarralari, oltin-gugurt dioksidi, azot oksidlari, uglerod oksidi, vannadiy besh oksidi va benzapiren hisoblanadi. SHu qatorda, IES va IEM lar tomo-nidan, eng ko'p rniqdorda ya'ni, tarmoq bo'yicha — 57,6%ni, res-pubJika bo'yicha esa — 44, 16%ni tashkil etuvchi, 121,38 ming ton-na oltingugurt dioksidi atmosferaga chiqariladi.

IES qozonlarida yoqilg'inining yonishi natijasida, ifloslantiruvchi modda tashlamalari qatorida, respublika bo'yicha 50% atrofida, bug'I effektni yuzaga keltiruvchi uglerod ikki oksidi ham atmosferaga tashlanadi. Uglerod dioksid tashlamasining hosil bo'lish miqdori, yon-diriladigan yoqilg'i massasida qancha bo'lish miqdori, yondiriladigan yoqilg'i massasida qancha uglerod saqlashi va ishlatilishiga bog'liq. 2003-yil.dagi 240 ming tonnaga nisbatan 2004-yilda uglerod dioksidi oshib, 2964 ming tonnani tashkil etdi.

**Neft va gaz sanoati:** O'zbekistonning neft-gaz sanoati og'ir sanoatning ulkan tarmoqlaridan biri hisoblanib, respublika energetikasini birlamchi yonilg'i resurslari bilan 93% ga ta'minlaydi.

Mustaqillik davrida suyuq uglevodorodlarni qazib olish deyarli 3 barobarga ortdi, bu neftni import qilishdan to'la voz kechishni va res-publikada yoqilg'i mustaqilligini ta'minladi.

Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida neft va gaz qazib olish amalga oshirilyapti, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi Ustyurtda gaz konlarini o'zlashtirish olib borilmoqda.

Neft tarkibida oltingugurt birikmalarining miqdori ko'pligi (2,7% gacha) va tabiiy gaz va neftda toksik hamda zanglash-agressiv oltingugurt vodorodining aralashmalari mavjudligi respublikamiz konlarini ajratib turuvchi tabiiy xususiyat hisoblanadi, .bu dastlabki xomashyonini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

**Metallurgiya:** Metallurgiya sanoati tashlamalariga barcha turg‘un manbalardan atmosferaga tashlanadigan tashlamalar umumiyligi miqdorining taxminan 15%ni to‘g‘ri keladi.

Tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘tkazilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, «OTMK» OAJ respublikada atmosfera havosini ifoslantiruvchi yirik manba bo‘lib qolmoqda. Respublika bo‘yicha barcha turg‘un manbalar tomonidan chiqarilayotgan chiqindilarning 12% va oltingugurt dioksidining 26%ni ushbu tashkilot hisobiga to‘g‘ri keladi. 2004-yilda atmosferaga ifoslantiruvchi moddalarni chiqarish hajmi 106,2 tonnani tashkil etdi.

Ba’zi yillarda, Olmaliq shahrida atmosfera havosini oltingugurt dioksidi bilan ifoslantirish darajasi sanitariya-gigienik me’yorlardan 5 barobar oshgan.

### **Kimyoviy ifoslantiruvchilar**

Kimyoviy ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti davrida atmosfera havosining ifloslanishi Respublikaning Olmaliq, CHirchiq, Farg‘ona va Navoiy viloyatlarida ayniqsa sezilarli darajada ortganligi hech kimga sir emas. Birgina Navoiy viloyatida atmosfera havosining yuqori darajada ifloslanganligini kuzatish mumkin. Ikki yuz mingga yaqin aholisi bo‘lgan Navoiy shahrida havoni ifoslantiruvchi ko‘plab sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatadi . Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida har yili **637,6 ming tonna** zararli moddalar hosil bo‘lib, shundan 97,2% ni ushlab qolinadi

Jamiyat tuzilmasi. Ko‘pchilik jamiyatlar har bir trofik bosqichda ko‘plab o‘zaro aloqada bo‘lgan turlardan tarkib topgan va biz biror trofik guruhnung umumiz biomassasidagidek turlar mavjudligiga qiziqamiz.Iste`molchilar va ozuqalarni manipulyatsiya qiluvchi ko‘plab tajribalar shuni ko‘rsatdiki,har bir trofik darajadagi biomassalar o‘zgarmaganda jamiyat tuzilmasi keskin o‘zgarishi mumkin ekan.biror bir turning trofik darajada kamayganda,boshqasiniki o‘sishi mumkin.Misol uchun, G`arbiy Evropaning torfli hududlarida,azot miqdorining ortishi mahalli kalluna archaguli,qamish brofit o‘simliklarining kamayishiga sabab sifatida ko‘rsatildi.

Atmosferaga tashlanadigan zararli moddalar miqdori 51,7 ming tonnani tashkil qilib, tozalash uskunalarining ishlash samaradorligi 92,9% ga tehgdir. Tashlanadigan zararli moddalarning asosiy miqdori (94%) yirik sanoat korxonalariga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yillardagiga nisbatan 1,9% ga oshgan.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasi korxonalarida gaz yoqishda hosil bo‘ladigan azot oksidlarini tozalash inshootlarini loyihalash ko‘zda tutilgan, ammo ushbu moddalarning me’yoridan yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Viloyatda sanoat va maishiy chiqindilarning yillik hajmi **2,5 million tonnadan** oshiq bo‘lib, jami 43,5 million tonna chiqindilar to‘planib qolgan. SHundan yiliga 62 ming sanoat chiqindisi, 46 ming tonna maishiy chiqindilar qayta ishlanmoqda. SHuningdek, viloyatda 24,7 ming hektar arning ustki qatlam strukturasi buzilgan bo‘lib, shundan 5,7 ming hektar er rekultivatsiyani talab qiladi. Hozirgacha 2,1 ming hektar (37%) er rekultivatsiya qilingan.

**Qurilish sanoati:** Ohangaron, Navoiy, Bekobod, Buxorodagi qurilish va sement ish-lab chiqarish, sanoati — asosiy chang chiqaruvchi manbalar hisoblanadi. Atmosfera havosini chang bilan ifloslanish darajasi sanitariya -gigienik me’yorlardan oshadi.

**Kimyo sanoati:** Olmaliq, Andijon, Qo‘qon, Navoiy, Farg‘ona, CHirchiq va Samarqandda kimyo sanoati ob’ektlarining tashlamalari, turg‘un manbalardan tashlanayotgan tashlamalar umumiy hajmining bor-yo‘g‘i 3% ni tashkil etadi.

Asosiy ifloslantiruvchi moddalar — ammiak, ftorli vodorod, azot dioksidi va fenol bo‘lib, quyida Andijon, Farg‘ona, Navoiy shaharlarida atmosfera havosini ammiak va fenol bilan ifloslanish darajasi dinamikasi keltirilgan. Oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari esa havoni yuqori bo‘lmagan darajada ifloslantiradi.

Sanoat obektlarida atmosfera havosini yuqori darajada ifloslanti-rishga asosiy sabab, ifloslantirishni karnaytiruvchi texnologiyalarining eskirib qolganligini va samarasizligi yoki umuman qo‘llartmasligidir. Bundan tashqari, ishlab chiqarish texnologiyalari zamonaviy talablarga javob bermaydi va modernizatsiyalashtirish yoki almashtirishga muhtoj.

## **Ko‘chma manbalarning atmosfera havosini ifloslantirishi:**

Respublikaning atmosfera havosini ifloslantirishda ko‘chma manbalarning tashlamalari asosiy manba bo‘lib qolmoqda. 2010-yilda ko‘chma manbalar tashlamalar miqdori umumiy hajmidagi ifloslantiruvchi moddalarda tashlamalarning 67% ini yoki 1310,9 ming tonnani tashkil etdi. Ko‘chma manba tashlamalari bilan ko‘proq, ya’ni 80%dan ortiqroq iflos-langan shaharlarga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona kiradi. 1996-yildan 2001-yilgacha bo‘lgan davr ichida ifloslantiruvchi modda tash-lamalarining 1316 ming tonnadan 1593 ming tonnaga ortishi kuzatildi, bu shaxsiy avtomobil transporti sonining o‘sishi bilan bog‘iiq bo‘lgan. 2001-yildan boshlab, avtotransportdan ifloslantiruvchi modda tashlamalarning har yili o‘rtacha 3—5% ga pasayishi kuzatilmoqda.

**Avtomobillarning atmosfera havosini ifloslantirishini kuzatish:** Hozirgi kunda avtotransportlar havo atmosferasini eng ifloslantiruv-chi manbalardan biri hisoblanadi. Atmosferaga tashlanadigan zaharli moddalar miqdori avtorriobiilar soni, ko‘cha harakatining tuzilishiga, avtomobil magistral yo‘llarining joylashiga, ular foydalanadigan yoqilg‘i turlari va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Benzin bilan yuradigan avtomobillar havo issiq paytlarda uglevodorod bug‘larini tashlaydi. Mana shu zaharli bug‘larning oldini olish uchun uzluksiz mashina dvigatellarining zaharli gaz tashlanmasi tekshi-rilib turadi. Tekshirishlar natijasi havoga tashlanayotgan toksik gazlar miqdori yuqori ekanligini ko‘rsatsa o‘sha mashinani ishlatishga ruxsat berilmaydi.

Kuzatishlar bir haftada soat 6 dan 13 gacha va 14 dan 21 gacha olib boriladi, asosiy kuzatishlar avtomobillar ko‘p yuradigan vaqtarda olib boriladi, kechalari 1—2 marta o‘tkaziladi.

Kuzatish nuqtasi qiiib shahar ko‘chalarining har joyidan eng ser-qatnov uchastkaiari olinadi. Ko‘chalar kesishgan joyda va ko‘priklar tagida zararli moddalar juda ko‘p bo‘ladi.

O‘lchov asboblari odam yuradigan yo‘laklarga joylashtiriladi, yo‘lning bir tomonidagi harakat o‘lchanadi.

Idoralarga tegishli avtotransportiar, gazoanalitik va diagnostik usku-nalar bilan etarlicha jihozlanmaganligi, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bilan shug‘ullanuvchi xodimlaniing bilim darajasi pastligi, atrof-muhitni muhofaza qilish muammoiariga yagona yondashuv yo‘qligi sababli, ekoilogik jihatdan noqulay vaziyat yuzaga kelmoqda. Bunday ekoilogik vaziyat, kechiktirmay hal etishni talab etuvchi ko‘plab muammplar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

## **SUV MANBALARNING IFOLSLANISHI. SUV MANBA’LARI.**

### **SANITARIYA HOLATI.**

Gidrosfera biosferani muhim elementi hisoblanib, tabiatda kechadigan jarayonlar va kishi hayotini ta’minalashda muhim o‘rin tutadi. Gidrosferani hajmi 1389 mln. kub. kilometrni tashkil etadi. Okean va dengizlar er shari yuzasining 70 % ko‘prog‘ini egallagan. Botqoqliklar arning 6 mln. km<sup>2</sup> qismini egallagan. Bularning hammasi planetamizda suv zahiralarni ko‘pligini isbotlasa ham, chuchuk suv bor yo‘g‘i 2 % ni tashkil etadi. Uning ham katta qismi Grelandiya va Antarktida muzliklariga to‘g‘ri keladi.

Suv erdag‘i tirik organizmlarni yashashi va ularni hayot faoliyatining rivojlanishini ta’minalaydi.

Demak, suv planetamizga jon ato etuvchi «hayot eliksiri», planetamizga shakl beruvchi «buyuk skulptor», iqlim va ob-havoni «harakatlantiruvchi g‘ildiraqdir». Suv tabiatda doimiy harakatda bo‘ladi. Quyoshdan kelayotgan issiqlik natijasida u okean, dengiz, daryo va ko‘llar yuzasidan bug‘lanadi, so‘ngra yana yomg‘ir bo‘lib erga qaytadi.

Har qanday xom-aşyoni boshqa turdag‘i mahsulot bilan almashtirsa bo‘ladi, lekin suvni o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Suv ta’minoti inson hayoti va taraqqiyotida o‘ta muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Mutaxassislarni fikricha planetamizda daryo va er osti suvlari tobora kamayib bormoqda.

Amerikalik mutaxassislarni fikricha AQSHda tabiat in’om etgan chuchuk suv 2020 yilgacha etar ekan xolos. Amerikada eng qimmatbaho mahsulot bu suvdir, ba’zi bir shaharlarda suv etishmaganligi uchun haftada bir kun «suvsiz kun» deb

e'lon qilinar ekan. SHu kuni maishiy ehtiyojlar uchun suvdan foydalanilmas ekan, hamma sohalarda suvni istemol qilish ustidan nazorat o'rnatilar ekan.

Industriyalashtirish, qishloq xo'jaligini rivojlanishi, yangi shahar va qishloqlarni qurilishi bilan turli ifloslikdagi oqova suvlar yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan qaragandan eng dolzarb muammo suv resurslarining (er usti va er osti) tanqisligi va ifloslanganligidir. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto er osti suvlari turli antropogen ta'sirlar ostiga tushib qolgan.

O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab yangi erlarni keng ko'lamda o'zlashtirish, sanoatning, chorvachilikning ekstensiv rivojlanishi, urbanizatsiya, kollektor-drenaj sistemalarining qurilishi va daryo suvlarining sug'orish uchun olinishi munosabati bilan daryo havzalaridagi suvning sifati intensiv ravishda yomonlasha bordi. Bu holat ekologik-gigienik va sanitariya-epidemiologik vaziyatni, ayniqsa daryo o'zanlaridagi ahvolni yomonlashtiradi.

Daryo ekosistemalariga antropogen bosimning o'sib borishi suvlarning tarkibi va tuzilishidagi chuqur o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Er usti suv sifati

Er usti suvining ifloslanishi keng tarqalgan bo'lib er osti, jumladan quduq suvining sezilarli darajada ifloslanishiga olib keladi. Suvning ifloslanishi kasallik (buyrak kasalliklari, onkologiya va o'tkir infeksiyali kasalliklar) ko'rsatkichi o'sib borishida muhim rol o'ynayapti.

Ichki suv havzalarini sanoat va maishiy oqova suvlarini bilan ifloslanishi oxirgi paytda ortib bormoqda.

### **Er osti ichimlik suvi**

Ichimlik suvi ta'minotining katta qismini er osti suvi beradi. Er osti chuchuk suvi zaxiralari notekis joylashgani tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlari, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarining g'arbiy hududlarida ichimlik suvi taqchil. Davlatning maqsadi markazlashgan suv ta'minoti tizimi orqali butun aholiga sifati yaxshi

ichimlik suvi etkazib berish va shahar va posyolkalarda suvga bo‘lgan kommunal talabni qondirishdan iborat.

Maydoni 330 km<sup>2</sup>, aholisi 2,3 million bo‘lgan va 99 foiz qamrab olingan Toshkentda ichimlik suvi ta’minoti uch asosiy manbadan iborat, ulardan ikkitasi er osti suvi zaxirasi va bir er usti manba bo‘lib 3.500 km tarmoq orqali kuniga 2,3 million m<sup>3</sup> suv etkazib beriladi. Garchi xom suv tiniq keladigan davrlar bo‘lsa-da, milliy va xalqaro standartlarga javob berish uchun suvni filrlash va xlorlash orqali tozalash zarur. Ichimlik suvini sanoatda ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi, kichik korxonalar uchun ba’zi istisnolar bor.

Er osti suvi zaxiralari aholiga etkaziladigan ichimlik suvining 80 foizini ta’minlab beradi. Umuman, mavjud er osti chuchuk suv zaxiralari aholining ichimlik suviga bo‘lgan talabini qondiradi.

Er osti suvi ko‘rsatilgandek asosan uylarga suv berish va ichimlik suvi (173,5 m<sup>3</sup>/s), sug‘orish va suv zaxirasini rivojlantirish (70,5 m<sup>3</sup>/s) va sanoat va texnik suv ta’minoti uchun (29,6m<sup>3</sup>/s), foydalaniladi.

Biroq, shuni aytish lozimki, oxirgi bir necha yil davomida er osti suvining sifati yomonlashib bormoqda, oqibatda ichimlik suvi manbai sifatida foydalanib bo‘ladigan er osti suvi zaxirasi kamayib bormoqda.

CHuchuk er osti suvi asosan Farg‘ona vodiyida (34,5 foiz) va Toshkent (25,7 foiz), Samarqand (18 foiz), Surxondaryo (9 foiz) va Qashqadaryo (5,5 foiz) viloyatlarida jamlangan, qolgani esa sho‘rtang yoki sho‘r bo‘lib ularni ishlatish imkoniyati kam. Qolgan hududlardagi chuchuk suv jami 7 foizni tashkil qiladi.

### **Er osti suvi sifati**

Mamlakatning g‘arbiy qismida (Zarafshonning quyi oqimi va Qashqadaryo, Sirdaryo, Amudaryo va Markaziy Qizilqum basseyni)da er osti suvi yuqori darajada minerallashgan va qattiqdir. Yirik daryolar (Amudaryo va sug‘orish kanallari) oqimi bo‘lab hosil bo‘lgan, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ichimlik suvi etkazib berish uchun ishlatilayotgan er osti chuchuk suv linzalarining suvi oxirgi 10-15 yil mobaynida minerallashuv va qattiqligi ortib borganligi

(sug‘orish ta’siri) tufayli milliy standartlar talabiga javob bermaydi.

**Suv omborlari** O‘zbekiston suv resurslari tizimini boshqarishni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlamoq maqsadga muvofiq. Mamlakatda suvning kamayishi va ko‘payishi (gidrologik ekstremum) hamda suv resurslarining hajmi doimiy nazorat ostiga olingan. Ayni paytda mamlakatda ko‘p suv omborlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi uchun jami ajratilgan suvning 92,5%i qishloq xo‘jaligiga, 5,2%i maishiy xizmat sohasiga, 1,4 %i sanoat sohasiga, 0,7 %i baliqchilikka va qolgan 0,2%i energetika sohalariga ishlatiladi. Demak, respublikamizning dehqonchilik qilinadigan arning 98 foizi yoki 4,3 mln. getktari sug‘oriladigan maydonlar bo‘lib, jami ajratilgan suvning 92,5 foizi sug‘orishga ishlatiladi va sug‘orish natijasida paxta, don, makka, meva va sabzavot, kartoshka, uzum va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtiriladi.

## **ATMOSFERAGA VA SUVGA CHIQADIGAN CHIQINDILARNI TOZALASH MUAMMOLARI**

Havo tarkibida iflos texnogen qo‘silmalarining ko‘payishi yoki kamayishi insonga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Hozirgi kunda havoni zararli gaz va zarralardan tozlashda turli xil usullardan foydalanilmoqda. Bular asosan ikkita katta guruhga bo‘linadi.

**Fizik-kimyoviy usullar** havoni zararli gazlardan tozalashda ishlatiladi. Bu usullar ko‘pincha gazlarni kimyoviy yo‘l bilan tozlash deb yuritiladi.

Turli sanoat ob’ektlaridan chiqadigan karbonat angidrid, oltingugurt (1V) oksid, azot (II) oksid fenol va boshqalarning havoni ifloslanishidan saqlashda kimyoviy usullardan foydalanish mumkin. Kimyoviy birikmalardan tarkib topgan filtrlovchi uskunalar yordamida zavod, fabrika va kombinatlardan chqadigan zaharli gazlar tutib qolinadi. YOki turli katalizator yordamida saqlab turiladi. Sanoatning gaz holdagi chiqindilarini suyuqliklar yordamida absorbsiyalash

zararli birikmalarning turli erituvchilarda tanlab erish xossasiga asoslangan bo‘lib, eng ishonchli usul hisoblanadi. Absorbsion tozalash usuli uzluksiz- yopiq jarayon bo‘lib, atmosferaga chiqariladigan uglerod oksidlari, azot oksidlari, xlor, oltingugurt birikmali, sianli birikmalar, fenol kabi birikmalarni ushlab qolish uchun qo‘llaniladi.

Absorbent sifatida suv, ammiakli suv, o‘yuvchi ishqorlar, etanolaminlar, kaliy permanganat, kalsiy sulfatning suspenziysi, marganets oksidlari ishlatiladi. Absorbsion reaktorlar sifatida esa, to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan minoralar yoki tarelkali reaktorlardan foydalaniladi. Sanoatning chiqindi gazlarini katalizatorlar yordamida tozalashning mohiyati shundaki, bunda barcha zararli gazlar boshqa zararsiz birikmaga aylantiriladi va havoga chiqarib yuboriladi.

**Fizik usullar** guruhi havodagi zaharli gaz, qattiq va suyuq qo‘shilmalarni chang, tutun va boshqalarni tozalaydi.

Hozirgi vaqtda sanoat tarmoqlaridan atmosferada iflos gazlarni tozalab chiqarishda turli chang va mayda zarralarni tutib qoladigan oddiy filtrli uskunalardan foydalaniladi. Bu usullar gruppasi arzon energiya hisobiga havodagi juda mayda chang zarralarini quruq holda tutib turadi. Keyingi vaqtarda iflos gaz va chang qo‘shilmalarini elektr filtrlar orqali ushlanib qolinmoqda. Kam elektr energiyasi sarflash oqibatida soatiga millionlab kub metr havo iflos qo‘shilmalardan toza bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda atmosfera havosini muhofaza qilish uchun uchta tadbirni amalgam oshirish ko‘zda tutilgan. Bular texnologik, loyihalash, sanitariya-texnika tadbirlaridir. Mazkur tadbirlar amalga oshirilsa, atmosfera havosining ifloslanishini ruxsat etiladigan darajada ta’minalash mumkin bo‘ladi

### **Texnologik tadbirlar:**

Atmosfera havosini muhofaza qilishda texnologik tadbirlarning ahamiyati katta. Tekshirish natijalariga qarab, ob’ektlarga va atmosfera havosiga tashlanadigan chiqindilar miqdorini kamaytirish yoki mutlaqo to‘xtatish mumkin bo‘ladi. Buning uchun sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlar takomillashtirilishi zarur. SHunda hatto chiqindisiz yoki kam chiqindili mahsulot

ishlab chiqarish mumkin bo‘ladi.Bunday jarayon berk jarayon bo‘lib, bunda chiqindilardan umuman bo‘lmaydi yoki chiqindilardan boshqa mahsulot ishlab chiqariladi.

Loyihalashga asoslangan tadbirlar o‘z ichiga bir qancha **kompleks holdagi masalalarni** oladi:

1. SHahar hududini zonalarga bo‘lish;
2. Tabiiy changlarga qarshi kurashish;
3. Sanitariya- himoya chegaralarini tashkil qilish;
4. Turar- joylar loyihalarini takomillashtiish;
5. Turar- joylarni ko‘kalamzorlashtirish;

Loyihalashga asoslangan chora- tadbirlar asosan chiqindilarni atmosfera havosiga tushishining oldini olishga qaratilgan.Sanoat korxonalari shahar hududida to‘g‘ri joylashtirilishi, shahar bosh loyihasiga hamda sanitariya normalariga asoslangan holda qurilishi kerak.Sanoat korxonalari qurish uchun er maydoni ajratilayotganda joining relefi, uning iqlim sharoiti,tumanlatning payda bo‘lib turish holatlariga ahamiyat beriladi.

Sanitariya-gigiena tadbirlari sanoat korxonalari va avtotransport vositalaridan ajralib chiqadigan zararli chiqindilarni tozalash va bu usullarni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Mazkur usulda qurilgan tozalash inshootlari mazkur sanoat korxonalaridan ajralib chiqayotgan zararli omillarni kamaytirish yoki butunlay yo‘qotish bilan shug‘ullanadi.Tozalash inshootlari changlarni mexanik usulda filtrli apparatlar yordamida, elektrostatik filtrlar va namlaydigan apparatlar vositasida ushlab qoladi.

Atmosfera havosining tozaligini ta’minalash uchun kundalik sanitariya nazorati joriy qilingan.Sanoat korxonalarida kundalik sanitariya nazoratini amalga oshirish va atmosfera havosining ifloslanishining oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Gigienik jihatdan talabga javob beradigan uskunalar ishlatilishi;
2. Texnologik jarayonlar vaqtida quvurlarni mahkam berkitish, ular orqali zaharli gazlar chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- 3.Xom ashyo va reaktiv sifatida foydalaniladigan kimyoviy moddalardan me'yorida foydalanish;
- 4.Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qadoqlash va boshqa jarayonlarni avtomatlashtirilishi zarur;
5. Texnologik jarayonlarni berk sistemaga o'tkazish, iloji boricha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik zarur.
- 6.Eng zaruri tozalash inshootlarining samarali ishlashini ta'minlash hisoblanadi;

### **Suv resurslaridan foydalanishda yangicha yondashuvlar.**

Xozirgi globallashuv davrida suv ist'emoli bo'yicha shakllangan azaliy boy tajribalarni o'rganish va rivojlantirish, suvdan barqaror foydalanish va uni tejash bilan bog'liq takomillashgan ilmiy echimlarni yaratish ham dolzarb axamiyat kasb etmokda. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim maskanlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida bu vazifalarni xal etishga katta e'tibor berilmoqda.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida, sanoatda, turmushda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va obihayotni tejashga xizmat qiladigan ko'plab yangi texnologiyalar yaratildi. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti olimlari ixtiro qilgan past bosimli tomchilatib sug'orish tizimi, Urganch davlat universiteti tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan kanallar suvidan foydalanish samaradorligini oshirish usuli, Geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasiga qarashli Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti olimlarining gidrogeologiyada jo'g'rofiy axborot tizimlaridan foydalanishga oid yangi ishlanmalari shular jumlasidandir.

Suv inson xayotini ta'minlaydigan muxim ne'matlardan biridir, - deydi YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi raxbari Xorxe Ivan espinal. - Dunyoda ko'plab insonlar toza ichimlik suviga muxtoj bo'lgan bugungi kunda obihayotning xar qatrasidan oqilona foydalanish nixoyatda dolzarb vazifaga aylanmokda. O'zbekistonda bu ishlarga davlat darajasida e'tibor berilayotgani e'tirofga loyiq. YUrtingizda suvni qadrlash bilan bog'liq boy kadriyatlar yuksak e'zozlanadi. Suvdan tejab foydalanish, bu borada ilm-fan yutuqlarini kengaytirish

va amalga tatbiq etishga ustuvor axamiyat beriladi. Ushbu tadbirdarga biz ham o‘z xissamizni qo‘shayotganimizdan mammunmiz. Ishonchim komilki, bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi.

Orol dengizining barcha havzalari tom ma’noda transchegaraviy daryolar hisoblanadi. Amudaryo daryosi havzasi tarkibiga Surxondaryo, SHerobod, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzalari kiradi. Ular ichida faqat Qashqadaryo va SHerobod daryolari havzalarigina to‘laligicha O‘zbekiston hududida shakllanadi. Asosiy daryo hisoblanmish Amudaryo daryosi havzasi suvi komyoviy tarkibini taxlillanishida O‘zbekiston va Turkmaniston hududida joylashgan qishloq xo‘jaligi maydonlaridan xosil bo‘lgan oqova suvlar xam o‘z xissasini qo‘shmoqda. Amudaryo suvining Termizdan oqib o‘tadigan qismida suvning ifloslanish indeksi (SII) sifati kattaligi bo‘yicha 1996 yildagi turg‘un holatda saqlangan, ya’ni II sinf – toza suv bo‘lsa, daryoning qolgan qismlarida suv ifloslanishi o‘rtacha darajada bo‘lib, III sinfga taalluqli, 2001 yilda Amudaryoda suv holati esa II sinfga mansub. Tuyamo‘yin gidropostida suvning tarkibida neft, azot, ammoniy, mis mahsulotlari eritmali hamda suvning minerallashishi kuzatilmoxda.

Sirdaryo daryosi suvlari Qirg‘iziston Respublikasining tog‘li hududlarida Norin va Qoradaryoning qo‘shilishi bilan shakllanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududiga Andijon viloyatining Uchtepa qo‘rg‘oni joylashgan mintaqaga, Norin daryosi esa Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on shahri hududiga oqib keladi.

O‘zbekiston hududiga kirishda Qoradaryo va Norin daryolari suvlarida vaqt-vaqt bilan azot nitritining (1,2-2,6 PDK), fenolning (2-4 PDK) va neft mahsulotlarining (1,6-5,2 PDK) yuqori tarkiblari qayd etilgan. Suvlarni ifloslanish indeksi (SII) bo‘yicha daryo suvi sifati uning butun uzunligi bo‘yicha III-sinf – o‘rta me’yor ifloslangan suvlar darajasida saqlanib turgan.

Zarafshon daryosi dengiz sathidan 2775 m balandlikda, Tojikiston Respublikasining Turkiston va Xisor tog‘ tizmalarining birlashgan joyida, Zarafshon muzligidan boshlanadi va O‘zbekiston hududiga Ravot-Xo‘ja to‘g‘oni

atrofidan kirib keladi. Daryo Zarafshon vodiysining asosiy suv manbai bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktyabrdagi “Zarafshon daryosi havzasida ekologik va sanitar-epidemilogik vaziyatni yaxshilash to‘g‘risida”gi 401-sonli qarorini bajarish borasida, Buxoro, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida Zarafshon daryosi va unga kelib qo‘shiladigan irmoqlardagi suv sifatining monitoringi olib borilmoqda, daryoga noqonuniy tashlamalarni tugatish borasida o‘z vaqtida choralar ko‘rilmoxda, daryoga tashlamasi bo‘lgan ob’ektlardan oqizilayotgan suvlari tizimli nazorat qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhiti ifloslanishi monitoringi ma’lumotlariga ko‘ra, Zarafshon daryosi suvlari O‘zbekiston Respublikasiga kirishida (Ravot-Xo‘ja) muntazam ravishda fenol bilan 2-4 PDK va mis bilan 1,1-3,5 PDK atrofida ifloslangan bo‘lsada, uning sifati II-toza suvlari sinfiga, keyinchalik daryo oqimi bo‘ylab pastga qarab oxirigacha III-sinf – o‘rta meyor ifloslangan suvlarga o‘tgan.

Sirdaryo havzasi tarkibiga ko‘pgina daryolar kiradi. Norin, Qoradaryo, CHirchiq, Ohangaron daryolari asosiy daryolardir. Ular orasida faqat CHirchiq va Ohangaron daryolari transchegaraviy daryolar sirasiga kirmaydi. Qolgan daryolar (shu jumladan, Farg‘ona vodiysidagi kichik daryolar, CHirchiq daryosining irmoqlari) qo‘shti davlatlar hududidan oqib o‘tadi. Sirdaryo daryosi O‘zbekiston hududi bo‘ylab ikkita uchastkada oqib o‘tadi: yuqori – Norin daryosining qo‘shilish joyi va Qoradaryo hamda quyi – Ohangaron va CHirchiq daryolari etaklari.

O‘zbekistonda 500 ga yaqin ko‘l bor bo‘lib, ushbu kichik suv havzalarining maydoni 1 km<sup>2</sup> atrofida. Faqat 32 ta ko‘lning yuza qismi 10 km<sup>2</sup> dan oshadi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi O‘zbekistondagi eng katta ko‘l hisoblanadi. Mazkur ko‘l To‘xtagul suv omboridan qish paytida suv tashlash natijasi orqali vujudga kelgan. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining umumiy maydoni 3600 km<sup>2</sup> va ko‘lami 42 km<sup>2</sup>. Ushbu ko‘l boshqa barcha suv omborlari suvi zaxirasini oshiradi. 2008 yilda “Asosan suvda yashovchi qushlar uchun qo‘nim hisoblangan xalqaro

ahamiyatga ega suv-botqoq hududlari to‘g“risida”gi Xalqaro Konvensiyasi (Ramsar Konvensiyasi) ro‘yxatiga kiritildi.

Suv omborlari O‘zbekiston suv resurslari tizimini boshqarishni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlamoq maqsadga muvofiq. Mamlakatda suvning kamayishi va ko‘payishi (gidrologik ekstremum) hamda suv resurslarining hajmi doimiy nazorat ostiga olingan. Ayni paytda mamlakatda ko‘p suv omborlari mavjud, ulardan irrigatsiya ishlarida samarali foydalanilmoqda.

### “Blits usuli”

<u>Nº</u>	<u>Mavzular savoli</u>	<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni xoxlayman</u>	<u>Bildim</u>
1.	Atmosfera havosini kemyoviy tarkibi?			
2.	Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar?			
3.	Antropogen ifloslanishlar?			
4	Atmosfera va avtotransport havosi?			
5.	Ifloslanmagan, quruq atmosfera havosining tarkibi.			

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘sishimcha ma’lumot zarur

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
DDT				
xlororganik birikmalar				
fosfororganik birikmalar				
gerbitsidlar				
nitrit va nitratlar				

### **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

#### **Vaziyatli masala**

Gidrosfera er po‘stiga fizikaviy, kimyoviy va biologik ta’sir ko‘rsatib, er yuzasida issiqlik va namlikni tartibga solib turadi. Troposfera Erning himoya qobig‘i hisoblanib, erdagagi tirik organizmlarni turli ultrabinafsha va infraqizil nurlar va kosmosdan tushadigan meteroitlarning zarralari ta’siridan himoya qiladi. Litosfera qatlami er yuzasini kunduzi +100 °C qizib ketishdan, kechasi esa -100° C sovub ketishdan saqlaydi.

Vaziyatni baxolang.

#### **Vaziyatli masala**

Troposfera havosini ifloslantirishga asosiy sababchi bo‘lgan sanoat obektlari Toshkent (42,7%), Qashqadaryo (14,6%), Buxoro (10.9%), Navoiy (8,1%), Farg‘ona (6,8%) viloyatlarida jamiangan. Vaziyatni baxolang.

#### **Vaziyatli masala**

Qishloq xo‘jaligi salohiyati energetika, (rangli metallurgiya, kimyo va neftkimyo sanoati (asosan, o‘g‘itlar ishlab chiqarish), gaz sanoati, neftni qayta ishlash zavodlari, sement va -boshqa qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar obektlaridan iborat.

Vaziyatni baxolang.

#### **Vaziyatli masala**

Davlat statistik hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, yiliga yirik kor-xonalardan (IES va IEM) 200 ming tonnadan ortiq ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga chiqariladi. Asosiy ifloslantiruvchi moddalar — qattiq chang zarralari, oltin-gugurt dioksidi, azot oksidlari, uglerod oksidi, vannadiy besh oksidi va benzapiren hisoblanadi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Gidrosfera biosferani muhim elementi hisoblanib, tabiatda kechadigan jarayonlar va kishi hayotini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Gidrosferani hajmi 3198 mln. kub. kilometrni tashkil etadi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Okean va dengizlar er shari yuzasining 50 % ko'prog'ini egallagan. Botqoqliklar arning 6 mln. km<sup>2</sup> qismini egallagan. Bularning hammasi planetamizda suv zahiralarni ko'pligini isbotlasa ham, chuchuk suv bor yo'g'i 50 % ni tashkil etadi. Uning ham katta qismi Zelandiya va Arktika muzliklariga to'g'ri keladi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan qaragandan eng dolzarb muammo qum resurslarining (er usti va er osti) tanqisligi va ifloslanganligidir. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto er osti suvlari turli antropogen ta'sirlar ostiga tushib qolgan.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Ichimlik suvi ta'minotining katta qismini yomg'irlar suvi beradi. Er osti chuchuk suvi zaxiralari notekis joylashgani tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlari, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarining g'arbiy hududlarida ichimlik suvi taqchil. Davlatning maqsadi

markazlashgan suv ta'minoti tizimi orqali butun aholiga sifati yaxshi ichimlik suvi etkazib berish va shahar va posyolkalarda suvgaga bo'lgan kommunal talabni qondirishdan iborat.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Maydoni 630 km<sup>2</sup>, aholisi 1,3 million bo'lgan va 99 foiz qamrab olingan Toshkentda ichimlik suvi ta'minoti uch asosiy manbadan iborat, ulardan ikkitasi er osti suvi zaxirasi va bir er osti manba bo'lib 3.500 km tarmoq orqali kuniga 2,3 million m<sup>3</sup> suv etkazib beriladi.


Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala


Er osti suvi zaxiralari aholiga etkaziladigan ichimlik suvining 50 foizini ta'minlab beradi. Umuman, mavjud er osti chuchuk suv zaxiralari aholining ichimlik suviga bo'lgan talabini qondira olmaydi.

Vaziyatni baxolang.

**Mavzuni amaliy ko'nikmalarini egalashning o'quv texnologiyasi  
“VENN DIAGRAMMASI” usuli SUVNING IFLOSLANISHIDAN  
KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLAR**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egallashning**  
**“PIRAMIDA” o‘quv texnologiyasi**  
**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ENG KO‘P IFLOSLANGAN**  
**SHAHARLAR”**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“Klaster” usuli**


### **ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANTI RISHGA ASOSIY SABABCHI BO‘LGAN SANOAT OBEKTLARI**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**

**ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHDA  
TEXNOLOGIK TADBIRLAR**




**Mavzuni amaliy ko'nikmalarini egalashning o'quv texnologiyasi**  
**«NILUFAR GULI» usuli ATMOSFERA ER PO'SТИGA**  
**QUYIDAGTCHA TA'SIR KO'RSATADI**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**  
**“SHAJARA DARAXTI” USULI**  
**“O‘zbekiston hududiga kirishda Qoradaryo va Norin daryolari suvlaridagi  
moddalar PDKsi”**

**O‘ZBEKISTON HUDUDIGA  
KIRISHDA QORADARYO VA NORIN  
DARYOLARI SUVLARIDAGI  
MODDALAR PDKSI**



**AZOT NITRIT  
(1,2-2,6 PDK)**

**FENOL  
(2-4 PDK)**


**NEFT  
MAHSULOTLARI  
(1,6-5,2 PDK)**

## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**


**o‘quv texnologiyasi**

**“Klaster” usuli**

### **ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANTI RISHGA ASOSIY SABABCHI BO‘LGAN SANOAT OBEKTLARI**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning o‘quv texnologiyasi**  
**«NILUFAR GULI» usuli GIDROSFERA**



**1 – variant**

1. Atmosfera – Erning qanday qatlami ?
  - A. gazsimon
  - B. Suyuq
  - V. qattiq
  - G. Aralash
2. Atmosfera er po‘stiga ta’sir ko‘rsatadi?
  - A. fizikaviy, kimyoviy va biologik
  - B. Issiq, sovuq
  - V. shamol, tornado
  - G. Genetik.

3. Atmosfera qatlami er yuzasini necha grudusga kunduzi qizib ketishdan va kechasi sovub ketishdan saqlaydi?

- A. +100 °C, -100° C

- B. +10 °C, -10° C

- V. +10 °C, -100° C

- G. +100 °C, -10° C

4. Atmosfera Erning himoya qobig‘i hisoblanib, erdagи tirik organizmlarni nimalar ta’siridan himoya qiladi?

- A. turli ultrabinafsha va infraqizil nurlar va kosmosdan tushadigan meteroitlarning zarralaridan

- #### B. turli ultrabinafsha nurlardan

- V. infraqizil nurlardan

- G. kosmosdan tushadigan meteroitlarning zarralaridan

5. Er yuzasining o‘rtacha harorati nechv gradusga teng?

- A. +14°C

- B. +16°C

- V. +18°C

- G. +20°C

6. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun vachon qabul qilingan ?

- A. 1996- yil 27 dekabrda

- B. 1994- yil 27 dekabrda

- V. 1998- yil 27 dekabrda

- G. 1996- yil 29 dekabrda

7. Respublikada havoni bulg‘ayotgan nechta doimiy manba bor ?

- A. 3500

- B. 4600

- V. 3600

- G. 3800

8. Navoiy viloyatda qancha sanoat va maishiy chiqindilar to‘planib qolgan?

- A. 43,5 million tonna

- B. 53,5 million tonna

- V. 33,5 million tonna

- G. 45 million tonna

9. Ko‘chma manbalar tashlamalar miqdori qancha ?

- A. 1310,9 ming tonna
- B. 1130,9 ming tonna
- V. 1910,3 ming tonna
- G. 1390,3 ming tonna

10. Avtomobilarning atmosferani ifoslantirishini kuzatishlar qancha vaqt olib boriladi?

- A. bir haftada soat 6 dan 13 gacha va 14 dan 21 gacha
- B, bir haftada soat 8 dan 12 gacha va 14 dan 21 gacha
- V. bir haftada soat 6 dan 13 gacha va 13 dan 22 gacha
- G. bir haftada soat 5 dan 12 gacha va 12 dan 21 gacha

## **2 – variant**

1. Gidrosferani hajmi qancha ?

- A. 1389 mln. kub.km.
- B. 1289 mln. kub.km.
- V. 1339 mln. kub.km.
- G. 1383 mln. kub.km.

2. Okean va dengizlar er shari yuzasining necha % egallagan?

- A. 70 % ko‘prog‘ini
- B. 60 % ko‘prog‘ini
- V. 50 % ko‘prog‘ini
- G. 40 % ko‘prog‘ini

3. Botqoqliklar arning qanchasini egallagan?

- A.. 6 mln. km<sup>2</sup>
- B. 5 mln. km<sup>2</sup>
- V. 7 mln. km<sup>2</sup>
- G. 4 mln. km<sup>2</sup>

4. Toshkentda ichimlik suvi ta’mnoti nechta manbadan iborat?

- A. 3 ta
- B. 4 ta

V. 5 ta.

G. 2 ta

5. Er osti suvi zaxiralari aholiga etkaziladigan ichimlik suvining necha foizini ta'minlab beradi?

A. 80 %

B. 70 %

V. 90 %

G. 60 %

6. CHuchuk er osti suvi Farg'ona vodiysida necha foiz)

A. 34,5 %

B. 35,5 %

V. 33,5 %

G. 44,5 %

7. Sirdaryo daryosi qanday xosil bo'ladi?

A. Norin va Qoradaryoning qo'shilishi bilan

B. Amudaryo va Qoradaryoning qo'shilishi bilan

V. Norin va Amudaryoning qo'shilishi bilan

G. Qoradaryo va oq daryoning qo'shilishi bilan

8. Daryolari suvlarida azot nitritining PDKsi nechaga teng?

A. 1,2-2,6

B. 1,2-2,6

V. 1,2-2,6

G. 1,2-2,6

9. Daryolari suvlarida fenolning PDKsi nechaga teng?

A. 2 - 4

B. 5 - 7

V. 8 – 9

G. 0.1 – 0.5

10. Daryolari suvlarida neft mahsulotlarining

A. 1,6-5,2

B. 6.2 – 7.3

V. 7.5 – 8.2 G. 8.5 – 9.0

**7-amaliy mashg‘ulot: Tuproqni ifoslantiruvchi manbalar, zaharli kimyoviy moddalar. Tuproq o‘z-o‘zini tozalash jarayonining ahamiyati, tuproq muhofazasi**

## **Amaliy mashg‘ulot texnologik kartasi**

	<p>2.2. Bakalavrlarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

## TUPROQNI IFLOSLANTIRUVCHI MANBALAR

Tuproq turli xil omillar: tog‘- jinslari, iqlim, tirik organizmlar (o‘simlik va hayvonlar), relef, hudud yoshi va insonlaming faoliyati natijasida hosil bo‘lgan muhim tabiat jismi in’omidir. U asosan emirilgan tog‘ jinslari —gildan va chirindilar — gumusdan iborat. Gumus organik olam qoldig‘idan, xususan, o‘simliklarning mikroorganizmlar faoliyati natijasida chirishdan hosil bo‘ladi. Tuproqda bundan tashqari, suv havo va ko‘plab tirik organizmlar (mikroorganizmlar) ham bo‘ladi. Tuproq doimo o‘zgarib va rivojlanib turganligi

tufayli turli xil iqlim sharoitida har xil tuproq turlari uchraydi. Masalan, Hamdo'stlik davlatlari hududida yuzdan ortiq tuproq xili bordir. Tuproqning ekologik omil sifatida eng muhim qismi bu tog\*jinslaridan tuproqning yuzasigacha bo'lgan qavatidir.0 'simlik ildizlarning asosiy qismi ana shu zona bo'ylab joylashgan.Tuproqning ana shu qismi va gumus bo'lgan zona qancha kuchli rivojlangan bo\*Isa o'simliklaming ildiz sistemasi shunchalik chuqur va eniga yaxshitarqaladi, chunki bu gorizontlarda suv va ozuqa moddalar miqdori ko'p bo'ladi. Tuproq aeratsiyasi va harorati o'simliklar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, past haroratli tuproqlarga nisbatan yuqori haroratli tuproqlarda o'simlik ildizlari suv va mineral tuzlami ko'proq va tez shimib oladi. CHunki past haroratli tuproqlarda suvni shimib oluvchi ildiz va ildiz tukchalarining o'sishi susayadi, bu oiganlar hujayrasi sitoplazmasining suv o'tkazuvchanlik xususiyati pasayadi va natijada, o'simliklaming yuqoriga fco'tariluvchi oqimi, ya'ni suvning o'simlik bo'ylab yuqoriga ko'tarilishi kamayadi. Tuproq tarkibida gumus moddasi miqdori ko'p bo'lsa, bu tuproqlar unumdon hisoblanadi. 2. Tuproqning biotik omfflari Tuproqda o'simliklar va hayvonlarning parchalanishidan qolgan qoldiqlaridan tashqari yana yuqori o'simliklar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan har xil mikro va makroorganizmlar ko'p!ab uchraydi.Ana shu xildagi oiganizmlami YU.Odum (1975) quyidagi guruhlarga ajratadi:

*Mikrobiota* — bakteriyalar, zamburug'lar, tuproq suvo4lari va sodda hayvonlar; *Mezobiota* — nematodlar, kanalar, kichik hasharot va boshqa organizmlarning lichinkalari; *Makrobiota* — o'simliklarning ildizlari, yirik hasharotlar, yomg'ir chuvalchanglari.SHular orasida eng muhim ekologik ahamiyatga ega bo'lganlari tuproqdagi xlorofilsiz organizmlar (bakteriyalar, zamburug'lar, aktinomitsetlar, infuzoriyalar, amyobalar, qorinoyoqlilar va boshq.) hisoblanadi.Mikroorganizmlar kul moddasi va azot ko'p bo'lgan bog'-rog'lar va shunga o'xshash madaniy tuproqlarda juda ko'p miqdorda bo'ladi. Ildiz va uning atrofidagi tuproqlar mikroorganizmlaiga, ayniqsa boydir (rizosfera). Mikroorganizmlar miqdori faqatgina tuproq strukturasigagina emas balki o'simlik turiga ham bog'liq. Lyupin, beda, sebaiga, no'xat va shu kabi dukkakli O'simliklar rizosferasi, ayniqsa

mikroorganizmlaiga' boy hisoblanadi. Masalan, beda etishtiriladigan 1 g tuproqda 50—100 mld gacha bakteriyalar bo'ladi (M.A.Krasilnikov, 1958). O'sha muallifning aytishicha g'o'za ildizida azotobakteriyalar beda ildizidagiga qaraganda ancha kam bo'ladi. Lekin uning ildizida vilt kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'lar (*Verticillium dahliae*, *Fusarium fasinfectum*) ko'p uchraydi. Timofeevka javdar kabi O'simliklar ildizlarida esa diatom suvo'tlari, lyupin, sebaiga rizosferalarida yashil suvo'tlari, kartoshka rizosferasida esa ko'k yashil suvo'tlari yashaydi. Rizosferalardagi mikrooiganizmlar miqdori O'simliklarning yashashiga va rivojlanish fazalariga ham bog'liq bo'ladi. YOsh 'simliklarning gullash davridan oldin mikrooiganizmlar, ayniqsa, ko'p bo'ladi. CHunki, aynan shu davrda mikrooiganizmlarning o'sishini va rivojlanishini tezlatuvchi oiganik moddalar ildizlar tomonidan ko'p hosil bo'lib turadi. SHuni ta'kidlash lozimki, tuproqning gumusli qavatida mikrooiganizmlar ko'p bo'ladi. A.N.Krasilnikovning yozishicha (1958) tuproqning haydaladigan qavatida gektariga 10 t. ga to'g'ri keladigan bakteriyalar, zamburug'lar, suv o'tlari, aktinomitsetlardan tashkil topgan tirik massa uchrar ekan. Bundan tashqari, haydaladigan tuproqlarda gektariga taxminan 600—664 ming dona yomg'ir chuvalchangi to'g'ri keladi (Olimjonov, 1946). YUksak agrotexnik qoidalarga amal qilingan erlarda esa ularning miqdori bir tonnagacha boradi. ularning bir yil davomida ovqat hazm qilish

tizimidan o'tkazgan tuprog'i gektariga 12 tonnadan 100 tonnagacha yoki 7 mm qilinlikdagi tuproqni tashkil etadi.

SHunday qilib, yuqori o'simliklar rizosferasi tuproqning oiganik va mineral birikmalarini parchalab turadigan mikrooiganizmlarning yashashi uchun eng qulay zona hisoblanar ekan. Gumus qavatida ko'pincha bakteriyalar ko'p uchraydi lekin suvo'tlari, zambumg'lar va aktinomitsetlar ham tuproq hosil qilishda muhim rol o'ynab, yuqori o'simliklar yashashi uchun zarurdir. ularning hammasi tuproqdagi o'simlik qoldiqlarini parchalab tuproq unumdoorligini, uning tarkibidagi mineral moddalar miqdorini oshiradi. Tuproqdagi mikrooiganizmlar soniga tuproq unumdoorligidan tashqari iqlim sharoiti va ayniqsa, harorat va namlik katta ta'sir

ko‘rsatadi.*E.M.Mishustinmwg* yozishicha (1972) Janubiy va ayniqsa, SHimoliy rayonlarda o‘simliklar uchun optimal harorat tuproq haroratiga qaraganda yuqori. Haroratning etishmasligi (balandhklarda) tuproqning hosil bo‘lishi jarayonini susaytiradi.

Miroorganizmlarning tuproqdagi holatiga namlikning ta’siri ayniqsa, kuchlidir. CHunki tuproqdagi aminokislalar organic moddalaming parchalangan qoldiqlari har xil tuzlar mikroorganizmlar tomonidan faqatgina suvda erigan holda qabul qilinadi.

Suv etishmaganda hattoki, qurg‘oqchilikka cliidamli mikroorganizlar ham yaxshi ko‘paymaydi, ularning biokimyoviy aktivligi susayadi. Tuproq dala nam sig‘imi 60 % bo‘lganda mikroorganizmlar hayot faoliyati uchun eng qulay sharoitidir. Ana shunday qulay sharoitda tuproq havo va suv bilan yashash ta’minlangan va natijada, ammonifikatsiya va nitirifikatsiya jarayonlari intensiv bo‘lib turadi. Tuproqning kislotali holati ham mikroorganizmlar rivojlanishi uchun muhimdir. Neytrai va ishqorli tuproqlarda bakteriyalar va aktinomitsetlar,kislotali tuproqlarda esa zamburug‘lar ko‘p bo‘ladi.Tuproq tarkibida uchraydigan mikroorganizmlar tuproq xiligagina emas balki yuqorida ko‘rsatilgandek, turli xil ekologik omillarga bevosita bog‘liq. 1 g tuproqda 300 dan 3 mlrd gacha mirooiganizmlar uchrashi mumkin.

Tuproq zarrachalarining donadorligi ham hayvonlar uchun ekologik ahamiyatga ega. Ba’zi hayvonlar tuproqni kavlab hayot kechiradi. Hasharotlarning lichinkalari toshloqli tuproqlarda yashay olmaydi. Kavlash xususiyatiga ega bo‘lgan pardaganotlilar tuxumlarini er osti bo‘shliqlarga, ko‘pchilik chigirkalar ham tuxumini g‘ovak. tuproqqa qo‘yishga moslashgan. Tuproq ostida yashovchi hayvonlar uchun yorug‘lik uncha katta ahamiyatga ega emas. Tuproqning chuqur qatlamlarida harorat ham o‘zgarmaydi. Kislorodning miqdori esa kamayib uglerod ikki oksidi ortib boradi. Tuproq namligi biingga o4simliklar uchun emas, balki hayvonlar uchun ham ahamiyati katta. Hayvonlar orasida ham tuproq qurg‘oqchiligiga chidamsiz turlari uchraydi. Ularga yomg‘ir chuvalchanglari va termitlarni ko‘rsatish mumkin. Qumli tuproqlarda yashovchi hayvonlar qumning

ostiga tezda kirib ketish xususiyatga ega. Psammafil hayvonlarning panjalarida har xil o'simtalar, tuklar yoki muguz pardalar bo'lib, ularning yuzasini og'irlashtiradi hamda tuproq qatlamida harakat qilishga, uya qurishga ham yordam beradi. Ilonlar, kaltakesaklar, ba'zi hasharotlar qum ostida anchagina masofalarga ko'chib yurishi mumkin.

#### 4. Tuproqning tuz rejimiga o'simliklarning reaksiyasi. Makro va mikro elementlarning o'simliklar uchun ahamiyati

Tuproq eritmasidagi makro va mikro elementlami o'simliklaming hammasi ham bir xilday qabul qilolmaydi. Tuproqda mikroelementlar juda kam miqdorda bo'ladi. SHu sababli ba'zan ularni kimyoviy analiz bilan ham aniqlash qiyin. SHunga qaramasdan o'simliklar bu xil mikrodementlarni tuproqdan olib o'z tanasida saqlash xususiyatiga ega. Masalan, qoqio'tdoshlar, ayiqtovondoshlar oilalariga kiruvchi o'simliklar tarkibida litiya ko'proq, astragal, selen, el, g'o'za barglarida marganes ko'p uchraydi. Suvdag'i suvo'tlarda yod va brom ko'p uchraydi. Masalan, Laminariya o'simligi tarkibida yodning miqdori 0,1—0,5 % uchragan holda dengiz suvida esa bu ko'rsatgich 0,000005 %ga teng. Karamgullilar va soyabongullilar oilalariga kiruvchi o'simliklarda olitingugurtning miqdori boshqa oila vakillariga qaraganda 5—10 barobar ko'pdir. Rux (Viola) binafsha tarkibida uclirasa lavlagi, kartoshka, paxta tarkibida kaliy, magniy, tilog'och va sho'radoshlar oilasi vakillarida ko'pincha soda ko'proq uchraydi. T.F. Morozovning (1943) yozishicha daraxtsimon o'simhklar o't o'simliklariga qaraganda mineral moddalami 10—15 barobar kamroq qabul qilishadi. Daraxt o'simliklar fosfor va kaliyni juda ham talab etganliklari sababli ular qishloq xo'jaligi ekinlari o'smaydigan unumsiz tuproqlarda ham bemalol yashayveradilar. Bunday holatga, ayniqsa, qarag'ay o'ta chidamlidir.

U o'simliklarning yoshi o'tishi bilan ularning mineral moddalarga bo'lgan talabi o'zgarib boradi. Daraxtsimon o'simliklarda azot va mineral moddalarga bo'lgan talabi ularning o'sishi davrida kuchli bo'lsa g'allasimon o'simliklarda esa naychalash va boshoq hosil bo'lishi davrida bo'ladi. Em-xashak o'simliklarida bu ko'rsatkichga talab gullah va ullahdan oldin kuzatiladi. Tuproq unum dorligiga

nisbatan o'simliklar quyidagi guruhlaiga bo'linadi. 7. Evtrof o 'simliklar — unumli tuproqlarda o'suvchi o'simliklar (yasen, zarang, dub va boshqa daraxt o'simliklar). 2. Oligotroflar — tuproq unumdarligiga kam talabchan o'simliklar. Bu guruhga daraxtlardan oddiy qarag'ay kiradi.

3. Mezotrof — kam unumli tuproqlarda o'suvchi o'simliklar bu guruhga o'tloq va o'rmon zonasining o'simliklari kiradi.

O'simlik uchun eng muhim kimyoviy elementlar bular azot, fosfor va kaliydir. SHuning uchun o'simliklaiga o'g'it beiganda kompleks, ya'ni NPK (azot, fosfor, kaliy) beriladi. *Azot* o'simliklarda oqsil, nuklein kislotalari va xlorofil tarkibiga kirganligi sababli u hamma o'simliklar uchun eng kerakli muliim element hisoblanadi. Azot etishmasa 0'simliklar bargi och yashil rangda bo'ladi. Bundan tashqari, o'simliklarni o'sishi va rivojlanishini tezlashtiruvclii va moddalar almashuvida aktiv ishtirok etuvchi garmonlar tarkibida ham bo'ladi. 0 'simliklar uchun azotning manbayi nitratlar, ammoniy tuzlari va azot to'plovchi bakteriyalar hosil qiladigan biologik azotlardir. Azot etishmaganda g'allasimon o'simliklarda quyidagi o'zgarishlar bo'ladi: poyalari ingichka, barglar kichik va dag'al, ularning hujayralari mayda va hujayra po'sti qalin bo'ladi. YOsh baiglar och yashil rangda, biroq qarigan barglar sariq, qizil ranglarga kira boshlaydi. 0 'simUkning o'sishi va tuplanishi juda sust bo'ladi. Bu hollarda azot berish tavsiya etiladi. Azotning ko'pligi ham o'simliklaiga zarar keltiradi. YA'ni azot ko'p bo'lib, kaliy va fosfor etishmasa o'simliklarda yupqa po'stli katta va ko'p suvli barglari hosil bo'jadi. Bu o'simliklar bargida azot konsentratsiyasi kuchli bo'lib, bu xil o'simliklar sovuqqqa chidamsiz va hasharotlar tomonidan ko'proq zararlanadi. Eqiladiigan bug'doy, arpa, javdar, suli va shu kabi boshqa don ekinlari azot o'g'itlariga nisbatan o'rtacha talabchan bo'ladi. Azot ko'p berilsa o'simliklarda gullash va don etilishi kechikadi, hosil kamayadi. Biroq makkajo'xori, jo'xori va shu kabi boshqa xil don ekinlarining gullashi don etilislii va liosildorligi azot ko'p berilganda to'lishadi va ortadi. Azot qandlavlagi bargining o'sishini tezlashtirsa ham uning ildiz mevasidagi qand miqdorini pasaytiradi. *Fosfor* — xuddi azotdek o'simliklar uchun eng muhim kimyoviy element bo'lib, u ham nuklein kislotalar tarkibiga kiradi.

YOsh meristikatik hujayralarda keksa hujayralarga qaraganda fosfor ko‘p bo‘ladi. Bundan tashqari, fosfor modda almashinish va fotosintez jarayonlarida ham muhim rol o‘ynaydi. YUqori energiyaga ega fosforlar ko‘pincha ATFda bo‘ladi. Fosfor etishmasa o‘simliklarning rivojlanishi susayadi. YA’ni ildiz, poya va barglari rivojlanmaydi. Poyasi ingichka, barglari dag‘al bo‘lib, rangi ko‘k yashil bo‘ladi, antatsion pegmentlarining ko‘pligidan baiglari ba’zan bronza rangda bo‘ladi. Tuplanish intensivligi va meva beradigan poyalari keskin qisqaradi. *Fosfor* ko‘pincha o‘simliklaiga ekishdan yoki ko‘chatni o‘tkazishdan oldin beriladi. *Kaliy*. Ammoniy ionlaridan aminokislotalar va proteinlami sintez qilishda kaliyning o‘rni katta. Fotosintez jarayoni ham kaliy ishtirokida bo‘lib turadi. Kaliyning etishmasligi natijasida barglaming CO<sub>2</sub> ni qabul qilish jarayoni susayadi. Ko‘p azot me’yori qand lavlagi ildizidagi qand moddasini kamaytirsa, kaliy esa ko‘paytiradi. Kaliy etislimasligidan ko‘pincha o‘simliklarning ostki barglari quriy boshlaydi, ildiz va ildiz mevalari yaxshi rivojlanmaydi. Masalan, kaliyning o‘payishi bilan kaitoshka tugunagi va undagi kraxmaining miqdori doimo oshib boradi. Kartoshkadan tashqari kaliyga nisbatan talabchan o‘simliklardan qandlavlagi, mevasabzavot (olma, smorodina) ekinlarini ham ko‘rsatish mumkin. Kaliy etishmasa ko‘pchilik o‘simliklar past haroratga nisbatan chidamsiz bo‘lib qolishadi. Demak, g‘allasimon o‘simliklarga va mevali daraxtlarga kaliy etarli berilsa, ularning tarkibida qand moddasining ko‘p to‘planishi natijasida sovuqqa chidamlilik xususiyati ortadi. Kaliy etishmasa o‘simliklarda poyalari qisqa, barglari kichik burshaygan, ko‘k yashil va jigarranglarda bo‘ladi. Kaliy o‘simliklarga azot va fosfor bilan birgalikda erta bahorda beriladi.

Meristikatik xujayralaming o‘sishi rivojlanishi uchun kalsiy zarurdir. *Kalsiy* etishmasa ildiz yaxshi rivojlanmaydi. To‘qimalar tarkibida kalsiy ko‘payib ketsa, o‘simliklarning magniy va kaliy elementlarini pasaytiradi. Kalsiyga bo‘lgan talabga ko‘ra o‘simliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1. **Kalsiefillar** — kalsiy ko‘p bo‘lgan tuproqlarda o‘sadigan o‘simliklar (bo‘takuz, astra, daraxtlardan buk, tilog‘och, oddiy archalar). 2. **Kalsiefoblar** — kislotali tuproqda o‘suvchi o‘simliklar (torf moxlari, choy, kashtan). Kalsiyga nisbatan **indefferent** o‘simliklar

(befarq o'simliklar). Bular kislotah tuproqda ham, ohakli tuproqlarda ham o'saveradi (landish). *Magniy*. Xlorofil va ribosomalaming tarkibiga kiradi. U o'simliklarda fosfatlamining aktiv harakatida ishtirok etadi. **Natriy**. Natriyning ko'p bo'lishi ko'pchilik o'simliklarga zarar keltirishi mumkin. CHunki u to'qimalarda to'planib, kalsiy, magniy va shu kabi boshqa kationlarning o'zlashtirilishini qiyinlashtiradi. Biroq sho'rxok joylarda o'suvchi o'simliklaming o'sishini natriy tezlashtiradi (qorasho'ra, sarsazan).

### **TUPROQNING ASOSIY XOSSALARI.**

Rus olimi Vasiliy Vasil'evich Dokuchaev (1846-1903) butun umrini, tuproq, erni o'rganishga bag'ishladi va o'ta qimmatbaho maslahatlarini qoldirdi. Bu tuproqshunos olim, tuproq paydo bo'lishida uni hosil qiluvchi ona jins va kompleks faktorlarning qatnashishini isbot qilib berdi, yaniy tuproq hosil bo'lishini va o'simlik hamda hayvonat dunyosining bu jarayonda aktiv qatnashishini, iqlimning ro'lini, joyning rel'efini va yoshini, namlikning ahamiatli ekanini, bu faktorlar o'zaro bir birlariga ta'sir ko'rsatib, tuproqning paydo bo'lganini isbotlab berdi. Barcha tuproq paydo qiluvchi yoki ona jinslar kelib chiqishiga kyla quyidagi gruppalarga: elyuvial, delyuvial, elyuvial-delyuvial, kollyuvial, delyuvial-kollyuvial, soliflyuksion, delyuvial-soliflyuksion, allyuvial, ko'l-allyuvial, prolyuvial, allyuvial-prolyuvial, muz yotqiziqlari, flyuvioglyasial, dengiz va lyoss jinslariga bo'linadi.

Bu jinslar o'zining tashqi ko'rinishi, belgilari, tuzilishi va shuningdek kimyoviy mineralogik va mexanik tarkibi bilan farqlanadi.

Tuproqning fizik-mexanik xossalari: tuproqning asosiy xossalariiga uning fizik, mexanik va kimyoviy tarkibi kiradi. **Fizik mexanik xossalari**, birinchidan tuproqning xususiyatlarini o'zida aks ettirsa, ikkinchidan tuproqqa ishlov berish nuqtai nazaridan uni baholashda muhim rol tutadi. Bu xossalarni o'rganish tuproqqa ishlov berishda qo'llaniladigan xilma-xil quollarni joriy qilishda katta ahamiyatga ega. tuproq strukturaligini saqlash uchun kerakli namlik chegarasi unga ishlov berish va boshqa muhim texnologik jarayonlar tuproqning fizik-mexanik xossalariiga bog'liqdir.

**Tuproqning fizik xossalardan asosiyalar**, bu tuproqning solishtirma og‘irligidir. Tuproqning solishtirma va hajm og‘irligi hamda g‘ovakligi uning umumiy fizik xossalari deb yuritiladi. Tuproqning unumdorligini oshirish, albatta, mana shu umumiy fizik xossalariaga bog‘liq bylladi.

Tuproqqa sifatli ishlov berish hamda o‘simglik ildizlarining tuproqning turli qatlamlariga kirib borishi, uning plastikligi, yopishqoqligi, ko‘pchishi, cho‘kishi, ilashimligi, qattiqligi, solishtirma qarshiligi va fizikaviy etilishi kabi fizik-mexanik xossalariaga bog‘liq bo‘ladi.

Tuproqdagi ruy beradigan kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar ayniqsa suv, havo va issiqlik rejimi tuproqning fizik xossalariaga bog‘liqdir. Tuproqning fizik xossalari ham turli jarayonlar va agrotexnika sharoiti ta’sirida o‘zgarib turadi.

**Mexanik tarkibining ahamiyati** Mexanik tarkibi tuproqning eng muhim fundamental xossalari va unumdorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, birinchi navbatda uning agronomik ahamiyati kattadir. Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi, nam sig‘imi kabi xossalari hamda havo-suv, issiqlik kabi rejimlari mexanik tarkibi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, sug‘orish va zax qochirish melioratsiyasida bu ko‘rsatkichlar muhim rol o‘ynaydi.

Turli mexanik tarkibli tuproqlar har xil unumdorlikka ega bo‘lganligidan erni ishslash, o‘simgliklarni oziqlantirish bo‘yicha turli agrotexnik tadbirlar olib boriladi. Soz tuproqlar odatda qumoq va qumli tuproqlarga nisbatan o‘simgliklar uchun zarur oziqa kul moddalarni ko‘proq saqlaydi. Mexanik tarkibi tuproqning singdirish qobiliyati, oksidlanish-qaytarilish sharoitlariga, erda chirindining va oziq moddalarning to‘planishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Mexanik tarkibiga ko‘ra erga ishlov berish sistemasi, dala ishlarining muddatlari, o‘g‘itlash normasi, qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish sxemalari kabilar belgilanadi.

Tuproqning unumdorligi xam uning asosiy xossalariaga kiradi. Tuproqning turli tog‘ jinslaridan farq qiladigan eng muhim sifat belgilaridan biri unumdorlikdir. qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi hisoblangan tuproqning xalqxo‘jaligidagi ahamiyati ham, ana shu unumdorligi bilan belgilanadi.

Unumdorlik tuproqning juda murakkab xossasi sifatida, tuproqda kechadigan ko‘plab kimyoviy, fizikaviy va biologik jarayonlarga bog‘liq. Unumdor tuproq o‘simliklarni zarur oziq moddalar, suv, havo, issiqlik bilan ta’min eta olish, mo‘tadil reaksiyaga ega bo‘lishi, har xil zararli moddalar saqlashi zarur. Buning uchun tuproqning fizik xossalari va suv-rejimlari, oziq va tuz rejimlari, tuproqda kechadigan biokimyoviy, oksidlanish qaytarilish jarayonlari qulay bo‘lishi kerak.

Tuproqlarni madaniylashtirish va tuproq unumdorligining qayta takror yaratilishi. Insonlar erdan uzoq muddat foydalanganda tuproqda kechadigan tabiiy jarayonlar, jumladan, tuproqning qator xossalari va rejimlari o‘zgarib, yangi madaniy tuproqlar paydo bo‘ladi.

Tuproq unumdorligini doim yaxshi va yuqori holatda saqlab turish maqsadida, insonlar tomonidan tuproq tabiiy xossalaring o‘zgartirish jarayonlariga tuproqni madaniylashtirish deyiladi.

Tuproqlarni madaniylashtirishga qaratilgan kompleks tadbirlari sistemasi, ekinlardan barqaror va muttasil yuqori hosil olishni ta’minlovchi tuproq xossalarni yaxshilash imkonini beradi. Tuproqlarni madaniylashtirishning biologik, kimyoviy va fizikaviy usullaridan foydalaniladi.

Biologik usul tuproqda gumus va azotning ko‘proq to‘planishiga imkon beradigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. SHu maqsadda ko‘p yillik o‘tlar eqiladii va mahalliy organik o‘g‘itlardan foydalaniladi.

Kimyoviy usul erga mineral o‘g‘itlar solish yo‘li bilan tuproqda o‘simliklar uchun zarur va tez o‘tadigan oziq elementlari miqdorini ko‘paytirish hamda tuproqning kimyoviy xossalarni yaxshilashga qaratilgan.

Fizikaviy usullarga fizik-mexanikaviy va meliorativ tadbirlar qo‘llanish ya’ni erni ishlash, haydalma qatlama agronomik jihatdan qimmatli struktura yaratish, tuproqning suv-fizik, issiqlik xossalari va rejimlarini yaxshilash singari tadbirlar kiradi.

## **TUPROQNING KISLOTALI MUHITIGA O'SIMLIKLARNING MUNOSABATLARI**

Tuproq (kislotali, neytral, ishqoriy) eritmasi tuproqdagi mikroorganizmlar holatiga va miqdoriga va ular orqali yashil 0'simliklarning oziqlanish rejimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tuproqning kislotali muhit (erkin odorod ionlarining ko'pligi) aktiv bo'lishi mumkin, uning aktivligi pH niiig kattaligiga bog'liq. pH — 7 bo'lsa bu neytrai reaksiyali muhit bo'lib bunda vodorod, karbonat angidrid ionlari bir xil bo'ladi. Kislotali muhitli tuproqlarda pH — 7 dan past va ishqorli muhitli tuproqlarda pH — 7 dan ortiq bo'ladi. Tuproq eritmasining reaksiya chegarasi katta bo'lib, u pH — 3—3,5 dan (torfli tuproqlarda) pH — 10—11 gacha borishi mumkin (sho'rxok erlarda) tuproq eritmasining reaksiyasi iqlim, o'simliklar, jinslar, sizot suvlari, relef, o'g'itlar va shu kabi boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun tundra va o'rmon zonasining tuproqlari ko'pincha kislotali eritmaga ega, chunki bu erlarda issiqlik etishmasligi va namlikning ortiqchaligi 0'simlik qoldiqlari parchalanayotganda ko'pincha kislotalarning ko'p ajralib chiqishini ta'minlaydi. SHimoldan janubga borgan sari tuproq eritmasining kislotali muhitini kamayib boradi va issiq dasht va ayniqsa, Markaziy Osiyoning cho'l zonalarida kislota kamroq hosil bo'ladi, hosil bo'lgan kislotalar ham ohak yordamida neytrallashadi, chunki bu tuproqlarda ohak hosil qiluvchi jinslar ko'p. SHuning uchun ham dasht zonasining tuprog'i neytrai, cho'l zonasining tuprog'i esa ishqorli muhitga ega bo'ladi. SHunday qilib yuqori konsentratsiyali vodorod, aluminiy, marganes ionlari va tuproq eritmasidagi kalsiy miqdorining kamligi tuproqning kislotali muhitini ta'minlaydi. Ana shu kislotali muhitga nisbatan 0'simliklaming munosabatlari turlich bo'ladi.

Masalan, torf mohi kislota (pH—3,5) muhitda yaxshi o'sib rivojlansa, arpa pH—6—7 da yaxshi o'sadi va rivojlanadi. pH ning 4 dan 6 gacha- ko'tarilishini M.S. Avdonina (1965) ma'lumotiga qaraganda uning hosilini 26,4 %ga oshiradi. Vegetatsion idishlarda o'lb borilgan tajribalar

shuni ko'rsatadiki pH ni 4 dan 6,5 ko'targanda bahorgi bug'doyning umumiyl massasi 70,6 %ga, doni esa 138,6 %ga oshgan. Lavlagi va kartoshka kalsiyi

tuproqni talab qilsa, javdar o'simligi kislotali tuproqlarda yaxshi o'sadi. Tuproq eritmasi muhitiga bo'lgan munosabatiga ko'ra o'simliklar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**1. Atsidofil o'simliklar** — kislotali tuproqda o'suvchi indicator o'simliklar. Bu guruh o'simliklarga botqoqlikda o'suvchi torf moxi, botqoq bagulnigi (Sedum), botqoq klukvasi (Oxekokus auadripetoxis), o'tloqlarda o'suvchi belaus, rusinka, chernikalar ham kiradi.

**2. Neytral muhitli tuproq o'simliklari.** Bu guruhga eng muhim emxashak o'simliklaridan o'tloq ovsyanitsasi, o'tloq timofieevkasi, sebarga, tog' sebargasi, sariq beda (M. falcafa), Sibir borsheviki, zira va shu kabilar kiradi.

**3. Bazifil o'simliklar** — ishqorli muhitli tuproq o'simliklari — indikatorlari. Bularga dasht va cho'l zonasida o'suvchi o'simliklar kiradi. Cho'l mintaqasining qumli tuproqlarida **psammofitlar** deb atalgan o'simliklarning ekologik guruhi tarqalgan bo'lib, ularga singrenlar, oq saksovul, qandim, quyonsuyak, shuvoqlar, qizilchalar, selinlar, ilaklar misol bo'la oladi.

Psammofit o'simliklarning baiglari ensiz, qattiq yoki odatda, reduksiyalashgan (saksoviilda), meva va urug'lari qumda o'rmalab yoki shamol yordamida tarqaladi va sharsimon ko^inishda bo'ladi. Tuproqning ma'lum kimyoviy elementlarga boyligini ko'rsatuvchi o'simliklar — indikator turlar deyiladi. Masalan, plaun aluminiyga boy tuproqlarda, astragal selenli, itqumoq ruxli, shuvoq, oddiy qarag'ay va makkajo'xorilar otinga boy tuproqlarda o'sadi. 4. Indifferen o'simliklar. Bularning tipik vakili landish o'simligi hisoblanadi. Bunday o'simliklar tuproqning kislotali va ishqorli muhitlarida ham o'sa oladi.

### “Blits usuli”

<b><u>Nº</u></b>	<b><u>Mavzular savoli</u></b>	<b><u>Bilaman</u></b>	<b><u>Bilishni xoxlayman</u></b>	<b><u>Bildim</u></b>
1.	Ekinlarga solinadigan azot me'yori			
2.	Tuproqni ifoslantiruvchi manbalar?			

3.	Antropogen ifloslanishlar?			
4	Atmosfera va tuproq havosi?			
5.	Ifloslanmagan, tuproqning tarkibi.			

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

#### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘srimcha ma’lumot zarur

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Mikrobiota				
Mezobiota				
Atsidofil o‘simliklar				
Tuproq eritmasi				
nitrit va nitratlar				

### **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

#### Vaziyatli masala

Tuproq turli ta’sirlar natijasida tez buziladigan va amalda deyarli tiklanmaydigan tabiiy resurslardir. Hisoblarga ko‘ra 20 sm qalinlikdagi tuproq qatlaming hosil bo‘lishi uchun 400-700 yil kerak. Chunki taxminan 100 yilda

atigi 0,1-0,2 sm tuproq qatlami hosil bo‘ladi. Bunday qatlamni suv eroziyasi 5-10 yildayoq yuvib ketishi mumkin.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Mutaxassislarning baholashlaricha, mamlakatimizdagi haydaladigan erlarning 100 foiziga yaqini azot bilan o‘g‘itlanishi lozim. CHunki ortiqcha azot berish foydali. Azot o‘g‘it bilan nitrit, ammiak va amin formasida erga tushadi.

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Fosforli o‘g‘itlarning o‘ziga xos xususiyatidan biri, ularning tarkibida fтор aralashmalari, radioaktiv elementlardan uran, radiy va stronsiyning borligidir. Tuproqqa 3 s superfosfat bilan birga 1,5-10 kg gacha stronsiy ham kelib tushishi mumkin. (J.Sattorov, 1980).

Vaziyatni baxolang.

#### Vaziyatli masala

Tuproqda ftorning nihoyatda ko‘payib ketishi uning o‘z-o‘zidan tozalanish xususiyatini pasaytiradi. O‘simliklarda modda almashinuviyaxo‘ilanadi, barglarning nafas olishi, fotosintez jarayonining tezligiortadi. Hayvonlarda flyuoroz va karies kasalligi yuzaga keladi. Ftorning ko‘payishi odamlar salomatligiga ham katta ta’sir etadi.

1. Vaziyatni baxolang.

2. Sizning tavsiyangiz.

#### Vaziyatli masala

Tuproq normal holatda yirik uzunchoq donachalardan iborat, katta kichikligi 20-30 mmk bo‘lib, oralarida zinch mavjud, ular tuproq donachalarini yopishib, havosiz bo‘lishi kerak, tuproqni shamollashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, bu esa o‘z navbatida, tuproqda kechadigan jarayonlarni jadallashtirishga imkon tug‘diradi.

1. Vaziyatni baxolang.

2. Sizning tavsiyangiz.

### Vaziyatli masala

Tuproqda organik moddalarning parchalanishi ikki bosqichda o‘tadi: oldin moddalarning nitrifikatsiyasi yuz beradi, keyin esa minerallashuvi bosqichlarini o‘tadi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizning tavsiyangiz.

### Vaziyatli masala


Oksidlanish jarayoni yordamida:

- a) karbon kislotasi sulfat kislotasiga va sulfat kislota tuzlariga (sulfatlarga) aylanadi;
- b) fosfor karbonat kislotasi tuzlariga (karbonatlarga ) aylanadi;
- v) vodorod sulfit esa fosfor kislotasiga va fosfor kislota tuzlariga (fosfatlarga) aylanadi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizning tavsiyangiz.

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
“SHAJARA DARAXTI” USULI  
“EKINLARGA SOLINADIGAN AZOT ME’YORI”**

**EKINLARGA SOLINADIGAN AZOT  
ME’YORI**




**DONLI  
EKINLARNING HAR  
GEKTARIGA  
180 KG**


**ChOPIQ QILINADIGAN  
EKINLARNING HAR  
GEKTARIGA 150 KG**

## **Mavzuni amaliy ko'nikmalarini egalashning o'quv texnologiyasi**

### **“Klaster” usuli      MEZOBIOTA**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning o‘quv texnologiyasi**  
**“VENN DIAGRAMMASI” usuli YU.ODUM BO‘YICHA MIKRO VA**  
**MAKROORGANIZMLAR GURUXLARI**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

**TUPROQ EROZIYASI SODIR BO‘LMASLIGI UCHUN**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“LOYIXA ” usuli**


### **TUPROQDA ORGANIK MODDALARNING PARCHALANISH**

#### **BOSQICHLARI**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
“Klaster” usuli**

**ATSIDOFIL O‘SIMLIKLAR**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**  
**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**  
**TUPROQ ERITMASI**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi  
«NILUFAR GULI» usuli**

**TUPROQ ERITMASI MUHITIGA BO‘LGAN MUNOSABATIGA KO‘RA  
O‘SIMLIKLAR**



## 1 - variant

1. «Tuproq-bizning eng qimmatli kapitalimiz” deb kim aytgan?
  - A. J.Dorst
  - B. I.T.Frolov
  - V. I.T.Fomin
  - G. V.S.Fyodorov
2. 10 sm qalinlikdagi tuproq qatlaming hosil bo‘lishi uchun necha yil kerak bo‘ladi ?
  - A. 1400-1700 yil
  - B. 1800-1900 yil
  - V. 1200-1300 yil
  - G. 1000-1100 yil
3. Xaydaladigan erlarning necha foizi **azot** bilan o‘g‘itlanishi lozim.?
  - A. 90 %
  - B. 80 %
  - V. 98 %
  - G. 70 %
4. Azot o‘g‘it bilan qanday erga tushadi?
  - A. nitrat, ammoniy va amid formasida
  - B. nitrat,
  - V. ammoniy
  - G. amid formasida.
5. Tuproq eroziyasi necha xil bo‘ladi ?
  - A. shamol va suv eroziyasi
  - B. Xavo va bug‘ eroziyasi
  - V. namlik va issiqlik eroziyasi
  - G. Muzlik va geyzer eroziyasi
6. YU.Odum (1975) taproqdagi mikro- va makroorganizmlarni qanday guruxlarga ajratgan?
  - A. Mikrobiota, mezobiota, makrobiota.

B. Monobiota, makrobiota, mezobiota

V. fitobiota, mezobiota, mikrobiota

G. Dermosiota, makrobiota, mikrobiota

7. Mikrobiota nima ?

A. bakteriyalar, zamburug‘lar, tuproq suvo‘tlari va sodda hayvonlar;

B. nematodlar, kanalar, kichik hasharot va boshqa organizmlarning lichinkalari;

V. o‘simliklarning ildizlari, yirik hasharotlar, yomg‘ir chuvalchanglari.

G. Zamburug‘lar, nematodlar, yomg‘ir chuvalchanglari.

8. Mezobiota nima ?

A. nematodlar, kanalar, kichik hasharot va boshqa organizmlarning lichinkalari

B. o‘simliklarning ildizlari, yirik hasharotlar, yomg‘ir chuvalchanglari.

V. zamburug‘lar, nematodlar, yomg‘ir chuvalchanglari.

G. bakteriyalar, zamburug‘lar, tuproq suvo‘tlari va sodda hayvonlar

9. Makrobiota nima ?

A. o‘simliklarning ildizlari, yirik hasharotlar, yomg‘ir chuvalchanglari.

B. bakteriyalar, zamburug‘lar, tuproq suvo‘tlari va sodda hayvonlar;

V. nematodlar, kanalar, kichik hasharot va boshqa organizmlarning lichinkalari;

G. Zamburug‘lar, nematodlar, yomg‘ir chuvalchanglari.

10. Rizosfera nima ?

A. Ildiz va uning atrofidagi mikroorganizmlarga boy bo‘lgan tuproq muxiti.

B. mikroorganizmlarga boy bo‘lgan xavo muxiti

V. mikroorganizmlarga boy bo‘lgan suv muxiti

G. mikroorganizmlarga boy bo‘lgan tosh muxiti

## 2 - variant

1. O‘z-o‘zini tozalash jarayonida qaysi jarayon sodir bo‘lmaydi ?

A. organik moddalar minerallashadi va oxir pirovardida mineral tuzlarga aylanadi;

B. patogenli bakteriyalar, ayniqsa ichak bakteriyalari guruxi va enteroviruslar o‘ladi;

V. gjija tuxumlari yashash qobiliyatini yo‘qotadi, so‘ngra o‘ladi.

G. Enteroviruslar, gjija tuxumlari kupayadi.

2. Tuproq normal holatda mayda yumaloq donachalarining o‘lchami qanday?
- A. 2-10 mmk
  - B. 12-15 mkm
  - V. 1-2 mkm
  - G. 10-20 mkm.
3. Tuproqda organik moddalarning parchalanishi qanday bosqichlarda o‘tadi?
- A. moddalarning minerallashuvi, nitrifikatsiya
  - B. moddalarning moslashuvi, shimilishi
  - V. moddalarning g‘ovaklashuvi, sochilishi
  - G. Moddalarning jipslashuvi, birikishi.
4. Organik moddalarni parchalanishi natixasida nima sodir bo‘lmaydi?
- A. serovodorod tarkibidagi oltingugurt oqsilga aylanadi.
  - B. karbon suvlar-suvga va karbonat angidridga parchalanadi.
  - V. yog‘lar-oldin yog‘ kislotalariga, glitsiringa, so‘ngra ular suvga va karbonat angidridga parchalanadi.
  - G. oqsil moddalari aminokislotalarga va ammiakka aylanadilar.
4. Anaerob jarayonda parchalanayotgan organik moddalar o‘zlaridan qanday gazlar chiqaradi?
- A. ammiak, serovodorod, merkaptan
  - B. Metan, butan, zarin
  - V. etan, zaman, butan
  - G. Propan, metan, etan
5. Tuproqning o‘z-o‘zini tozalash jarayonning ikkinchi bosqichida nima sodir bo‘lmaydi ?
- A. Fosfatlar fosforga, karbonatlar karbon kislotasiga aylanadi
  - B. vodorod sulfat kislotasiga va sulfat kislota tuzlariga (sulfatlarga) aylanadi;
  - V. karbon kislotasi karbonat kislotasi tuzlariga (karbonatlarga ) aylanadi;
  - G. fosfor esa fosfor kislotasiga va fosfor kislota tuzlariga (fosfatlarga) aylanadi.
6. Gumus tarkibiga nimalar kiradi ?

- A. gumin-, fulvokislotasi, ligninlar, proteinlar, karbon suvlari, yog'lar, organik kislotalar va boshqa karbonat moddalar
- B. Metan, karbon suvlari, yog'lar, butan, zarin
- V. etan, gumin-, fulvokislotasi, zaman, butan
- G. Propan, ligninlar, proteinlar, metan, etan,
7. N.I.Xlebnikov bo'yicha toza tuproqning sanitariya soni nechaga teng ?
- A. 1 B. 0.07 V. 1.5 G. 2
8. Sanitariya soni nima ?
- A. bu tuproqdagi oqsil azot miqdorining organik azotning miqdoriga nisbati.
- B. bu tuproqdagi organik azotning miqdorining oqsil azot miqdoriga nisbati
- V. bu tuproqdagi azot miqdorining oqsil miqdoriga nisbati
- G. bu tuproqdagi organik moddalarning oqsil moddalarga nisbati
9. Tuproqning necha sm chuqurligida gjija tuxumlari quyosh nuridan, tuproqning qurishidan saqlanib o'z hayotini 1 yilgacha va undan ortiq saqlab qoladi?
- A. 2.5 - 10 sm
- B. 10 - 15 sm
- V. 15 - 20 sm
- G. 1 - 2 sm
10. Tuproq unumdarligiga nisbatan o'simliklar qanday guruhlaiga bo'linadi ?
- A. Avtorof, Oligotroflar, Mezotrof
- B. Megotrof, Avtorof, Oligotroflar
- V. Gegotrof, Oligotroflar, Avtorof
- G. Oligotroflar, Geterotrof, Oligotroflar

**8-amaliy mashg'ulot: BIOLOGIK ZAXIRALAR, ULARNING AHAMIYATI  
VA MUXOFAZASI. MAXSUS QO'RIQLANADIGAN XUDUDLAR.**

**Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O'quv	Assistant	Talaba

jarayoniga kirish (10 min)	<p>Mashg`ulot mavzusini e'lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan taniştiradi.</p> <p>SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan taniştirish.</p>	<p>Mashg`ulot rejasi bilan taniştiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1.Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi.</p> <p>1. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha mavjud bo‘lgan o‘simlik turlari.</p> <p>2.Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar;</p> <p>3. “Qizil kitob” nima?</p> <p>4“Qizil kitob” qachon tashkil topgan ?</p> <p>5.Tabiatni muhofa qilish Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya.</p> <p>6.“Qizil kitob”ning yangi nashrlaridagi o‘simlik turlarining soni.</p> <p>7.Qizil kitobga kiritilgan xayvonlar</p> <p>8.Hayvonlarning tabiatda kamayib ketishining asosiy sabablari.</p> <p>9. O‘zbekistonning birinchi “Qizil kitobi”</p> <p>YUqoridagi savollar asosida savol- javob o‘tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari bиргаликда изланабыя. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr</p>

	<p>guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarini yozib oladilar.

### **O‘simglik resurslari, ularni muhofaza qilish.**

Insoniyat yashab turgan zamin ma’lum bir darajada turli-tuman o‘simglik dunyosi bilan qoplangan. Ularning barcha tirik organizmlar uchun tutgan o‘rnini ham juda katta. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 500 mingga yaqin o‘simglik turi mavjud bo‘lib, shulardan 8% suv o‘simgliklari, 50% dan ortig‘i gulli o‘simgliklar, 27% i zamburug‘lar, qolganlari mox va lishayniklar hisoblanadi (Tilavov, 2003). Ular o‘zlarining tuzilishi va rangiga qarab xilma-xildir.

Inson paydo bo‘libdiki, uning hayoti asosan yuksak o‘simgliklar bilan chambarchas bog‘liqidir. U o‘simgliklardan turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlarinigina emas, balki boshqa har xil mahsulotlarni (tola, efir moyi, smola, kauchuk, yog‘och, sellyuloza va h.) ham oladi. Toshko‘mir, neft, torf kabi moddalar ham qadimgi zamonlarda er yuzida yashagan o‘simgliklardan paydo bo‘lgan. O‘simglik–tirik organizmdir, u o‘z

atrofini o‘rab turgan muhit bilan o‘zaro bir-biriga to‘xtovsiz ravishda ta’sir qilishib turadi.

O‘simlik bizning atrofimizda, ko‘z o‘ngimizda – uyimizda, deraza tokchalarida, stol ustida, uyimiz oldida, ko‘chalarda, o‘tloqlarda, dalalarda, o‘rmonlardan iborat yashil manzara bo‘lib ko‘rinadi. YOvvoyi holda o‘suvchi xilma-xil o‘simliklarning ko‘pchiligi xalq xo‘jaligi uchun foydalidir. Ular orasida juda chiroylisi, zaharlisi, manzarali, texnika o‘simliklari, begona o‘tlar va hokazolar bor. YAshil o‘simlikning eng ahamiyatli tomoni shundaki, u hayot uchun zarur bo‘lgan kislorod manbaidir.

Respublikamizning tabiiy boyliklari ichida uning o‘simlik boyliklari alohida o‘rinda turadi. Bular orasida oziq-ovqat, em-xashak, kauchuk, oshlovchi, bo‘yoq moddalari beradigan, vitaminli, efir moyli, dorivor bo‘ladigan juda ko‘p qimmatli o‘simliklar bor. Odam hayotini butunlay deyarli o‘simlikka bog‘liq deyish mumkin. CHunki insonlar uchun zarur oziq-ovqat, qandolat, yoqilg‘i, kiyim-bosh, qurilish materiallari, tabiiy bo‘yoq, dorivor xom ashyosi, nihoyat sanoatning ko‘p soxalari uchun zarur bo‘ladigan xom-ashyolarni faqat o‘simliklar beradi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tarixiy tabiiy faktorlari va xususan, fizik-geografik sharoitiga muofiq xo‘jalik jihatdan eng qimmatli bo‘lgan o‘simliklarning o‘sishi uchun bebahoh joy bo‘lib hisoblanadi. YAshil o‘simliklar havoni tozalaydi, tevarak-atrofimizga go‘zallik, chiroy, estetik zavq beradi. Dalalarni shamollardan himoya qiladi. Masalan, o‘rmonlar, hiyobonlar, bog‘lar, gulzorlar muhit havosini turli hil gazlardan, tutun va changlardan tozalaydi, texnika, transport shovqin-suronlarini pasaytiradi, iqlimni yumshatadi, tuproqni shamol va suv eroziyalaridan saqlaydi, suv bosish, qor ko‘chish va sel kelish havfini kamaytiradi. Undan tashqari, yashil maydonlar ham muhim ahamiyatga ega. Inson tabiat bilan doimo o‘zaro muloqotda bo‘lib, unga nisbatan ehtiyoj sezadi, shunga ko‘ra u mumkin qadar maysazorlar va gullar orasida bo‘lishga intiladi. YAshil olam kishilar ruhiyatiga yoqimli ta’sir ko‘rsatadi, uning ayot tarzini ko‘taradi va

Estetik tarbiyasining eng muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Respublikamiz o‘simliklar dunyosi nihoyatda boy va rang–barangdir. Ayniqsa, janubiy viloyatlarimiz – Qashqadaryo va Surxondaryoda o‘sadigan dorivor o‘simliklar borki, ular boshqa mintaqalarda umuman o’smaydi yoki o’sganda ham o‘zining shifobaxsh xususiyati – kimyoviy tarkiblari, dorivor moddalari bo‘yicha sifat jihatidan bir xil o‘rinda tura olmaydi.

O‘zbekiston tabiat o‘zining betakror go‘zalliklari, quyoshi, havosi, tuprog‘i va suvi bilan alohida ajralib turadi. SHuning uchun ham uning o‘simliklar dunyosi g‘oyat boy bo‘lib, 4560 dan ortiq yovvoyi o‘simlik turlari o‘sadi. SHundan 577 tasi dorivor o‘simliklar, 103 turi bo‘yoqdir o‘simliklar, 560 turi efir moyli o‘simliklar hisoblanadi. Bu o‘simliklarning hammasi tabiat va inson uchun juda zarurdir. Biz haligacha ko‘p o‘simliklar mohiyatini, ahamiyatli tomonlarini etarli darajada o‘rganmaganmiz.

Agarda tabiatda birorta o‘simlik yoki hayvon turi yo‘qolsa, albatta ular orasidagi muvozanat buziladi.

Ko‘p o‘simlik turlari tog‘dagi o‘rmonlarda bo‘lib, bunday o‘simliklar respublikamizdagi jami erving 11% ni tashkil etadi va u 311 ming gektardan iborat (Tilavov, 2003). Ko‘p o‘rmonzorlardagi daraxtlarning asosiy qismini archalar tashkil etadi. Bunday joylarda xalqimiz dam olishi uchun oromgohlar tashkil qilingan. Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumani shahar aholisining yoz oylarida dam olish maskani hisoblanadi. Bu joylar o‘simlik dunyosiga boy va rang–barangdir. Afsuski, shunday o‘simlik dunyosiga boy go‘zal tabiatimiz insonlar ta’sirida oyoq-osti qilinmoqda.

YAna cho‘l zonasiga qaytadigan bo‘lsak, Buxoro viloyatining qumli cho‘llarida o‘sadigan partek, chogon, shuvoq, yulg‘un, saksovul, keyreuk kabi o‘simliklar mahalliy xalq tomonidan ketmon bilan chopib olinib, pilla qurtiga dasta va o‘tin sifatida foydalanilmoqda.

Tog‘ zonasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, birgina Bo‘stonliq tumani misolida yong‘oq va bodom to‘g‘risida ularning har tomonlama foydali bu o‘simlikni muhofaza qilish uchun “Qizil kitob”ga kiritildi. SHunga qaramasdan, hozirgi

kunda ham uning zahiralari antropogen omillar tas'sirida kamayib, ayrim joylarda esa butunlay yo'qolib ketmoqda. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida adirlar o'zlashtirilib, etmak zahiralari kamayib ketgan. Etmakdan sanoat uchun zarur saponin xom ashyosi olinadi. O'simlik tarkibida 25% gacha saponin muddasi bo'lib, undan ko'pikli ichimliklar tayyorlashda, parfyumeriyada, qandolat mahsulotlari (holva, parvarda, nisholda) tayyorlashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, rangli metallurgiya, tibbiyotda, to'qimachilik va qurilish sanoatida ham ishlatiladi. 1962 yilgacha etmak Namangan viloyatining bir qancha tumanlaridan yig'ib olingan bo'lsa, hozirgi kunda bu tumanlarda etmak umuman uchramaydi Sababi, adirlarning o'zlashtirilganligi, o'simlikning biologik xususiyatini bilmaslik, rejasiz qazib olinishi kabi antropogen omillar uning kamayib, yo'qolib ketishiga olib kelgan. Bu esa tabiatda tarixan tashkil topgan muvozanatning buzilishiga, ya'ni ko'plab foydali o'simliklar, o'simlik jamoalari hamda ekotizimlarning o'zgarishiga olib kelmoqda.

Yana yovvoyi holda o'sadigan qatrondi, xurmo, nok, olma, jilonjiyda (unabi), tok (uzum), archalar, kamyob dorivor o'simliklar(omonqora), kamyob ziynatlari o'simliklar (lolalar), to'g'risida ham gapirishimiz mumkin. Bunday o'simliklar inson tomonidan yo'q qilinishiga emas, balki insonning yordamiga muhtoj va ularni muhofaza qilishga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Insonning salbiy ta'siri oqibatida respublikamizdagagi o'rmonzorlar maydoni keyingi yillarda 4-5 marta kamayib ketdi. Ko'plab qimmatli o'simlik turlari yo'qolib ketgan. Hozirgi vaqtida o'rmonlar maydonining keskin qisqarish jarayonlari davom etmoqda. Yangi erlarni o'zlashtirish, turli sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligining rivojlanishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabilar oqibatida o'simlik turlari kamayib bormoqda. Bu esa o'simliklar genofondinig kamayishiga olib keladi.

Biosferadagi muvozanatni saqlab qolishda o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun turli tadbirlar o'tkaziladi.

XIX asrdan boshlab qo'riqxonalar, milliy bog'lar, davlat buyurtmalarini tashkil qilish faoliyati tezlashgan. Bunday alohida muhofaza qilinadigan hududlarda

yo‘qolib borayotgan noyob o‘simlik va hayvon turlari muhofaza qilinadi. Noyob va yo‘qolib borayotgan turlarning muhofazasiga e’tiborni kuchaytirish uchun 1966 yili tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tomonidan xalqaro “Qizil kitob” tashkil qilingan. Alovida yirik davlatlar o‘z “Qizil kitobi”ga ega bo‘lib, “Qizil kitob” faqatgina xatar darakchisi bo‘lib qolmay, balki muhofaza harakatlarining dasturi ham hisoblanadi.

“Qizil kitob” ayrim viloyatlar, mamlakatlar yoki butun dunyo bo‘yicha kelajakda xavf ostida turgan o‘simlik va hayvonlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lgan rasmiy hujjatdir.

Tabiatdagi mavjud o‘simliklarning 400 dan ortiq turlari (10-12%) kam uchraydigan endemik va relikt turlardan hisoblanadi. Bunday o‘simliklardan 163 turi 1984 yili nashr etilgan O‘zbekistonning “Qizil kitobi”ga kiritilgan bo‘lib, ular yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik turlaridir (Belolipov va boshqalar, 1997). Bu kitobga kiritilgan o‘simlik turlari Tabiatni muhofa qilish Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyaga binoan, 4 kategoriyaiga ajratiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- Yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasidagi turlar.** Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin ayrim yig‘ib olish qiyin bo‘lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoliga ega bo‘lgan o‘simlik turlari.
- Yo‘qolib borayotgan turlar.** Yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlanib qolishi uchun maxsus muhofaza talab etadigan turlar.
- Kamyob turlar.** Ma’lum kichik maydonlarda o‘ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan va tez yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.
- Kamayib borayotgan turlar.** Ma’lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko‘ra yoki insonlar ta’siri ostida qisqarib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda bunday o‘simliklar har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi.

“Qizil kitob”ning 1998 yilgi nashrida muhofazaga olingan o’simlik turlarining soni 301 ga etdi. ”Qizil kitob”ning yangi 2006 yildagi nashrida muhofazaga olingan o’simlik turlarining soni 305 tadir.

Umumiyl qilib aytganda, “Qizil kitob”ning mohiyati shundaki, ular o’simlik va hayvonot olamining kamyob, yo‘qolib, kamayib ketish xavfi ostidagi turlari haqida to‘liq ma’lumot beruvchi hujjatdir.

Jamoatchilik va davlat ijroiya muassasalarini tabiat muhofazasi muammosiga jalg qilish va turlar genofondini saqlab qolishga yordamlashish – “Qizil kitob”ning vazifasidir.

### **Xayvonot olami, uni muhofaza qilish.**

O‘rni kelganda shuni aytish kerakki, o‘lkamiz o’simlik olamiga boy bo‘libgina qolmay, balki xayvonot olamiga ham boydir. Bizdagi mavjud cho‘lu-adirlarimizda, tog‘u-yaylovlarimizda, to‘qayzoru–suv havzalarida turli–tuman o‘ziga xos hayvon turlari mavjud bo‘lib, bularning hammasi birgalikda ma’lum bir ekotizimlarni hosil qiladi. Insonlarning kundalik hayotida hayvonlarning tutgan o‘rni, ahamiyati o’simliklarnikidan kam emas. Ular bizni oziq-ovqat (go‘sht, sut, yog‘, moy, tuxum, baliq mahsulotlari va h.), kiyim–kechak, dorivor moddalar bilan ta’minlaydi, qishloq xo‘jaligi, transport, ilmiy-tadqiqot ishlarida, tibbiyotda tajribalar o‘tkazish kabilarda foydalananiladi. Xayvonlar o’simliklar bilan doimo biotik aloqada bo‘lib, ularni changlatishda, meva urug‘larini boshqa joylarga tarqalishida, ya’ni o’simliklarning territorial tarqalishida qatnashadi.

So‘nggi bir qancha o‘n yillar davomida ona tabiatimizning rang- barangligiga kattagina zarar etkazildi. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”da (11-tom, 2003 y.) ko‘rsatilganidek, so‘nggi o‘n yillar davomida, tabiatdan foydalanishning kuchayishi natijasida ko‘plab hayvon turlari inson ta’siri ostida qolib, ularning yashash joylari, soni qisqardi. Ayrimlari esa butunlay yo‘q bo‘lib ketdi. Jumladan, Turon yo‘lbarsi, gepard, Turkman quloni, Orol sulaymon balig‘i kabi hayvonlar umuman yo‘q bo‘lib ketdi. Sirtlon, qoplon, to‘xta tuvaloq, Sirdaryo va Amudaryoning kichik va katta kurak burunlari kabilar yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Ustyurt va Buxoro qo‘ylari, morxo‘r, qoraquloq, Markaziy Osiyo qunduzi,

oqbosh o‘rdak, vishildoq oqqush, marmar churrak, yo‘rg‘a tuvaloq, Farg‘ona qum kaltakesakchasi, ayrim mollyuska va hasharotlar yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida. Ko‘plab hayvon turlarining soni uzlusiz kamayib bormoqda, sababi, hududlarning xo‘jalik maqsadlarida o‘zlashtirilishi, atrof-muhitnig ifloslanishi, biologik resurslardan me’yorsiz foydalanishdir.

Oxirgi o‘n yillar mobaynida sug‘oriladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida Mirzacho‘l va Jizzax, Qarshi va Surxon-SHerobod cho‘llari, Farg‘ona vodiysining markaziy qismi, Tyan-SHan va Pomir-Oloy tizmalarining g‘arbiy etaklaridagi adirlar o‘zlashtirildi. Sug‘orish tufayli o‘zlashtirilgan hududlarda ekologik vaziyat o‘zgardi. Ko‘plab cho‘l xayvonlarining soni, masalan, jayron, yo‘rg‘a, tuvaloq kabi xayvonlar arealining qisqarishi buning dalilidir. To‘qayzorlarning kesib tashlanishi natijasida bu joylarda yashovchi Buxoro bug‘usi, tustovuq va boshqa endemik kenja turlar yashash joylarining keskin qisqarishiga olib keldi. Janubiy Orolbo‘yida ekologik vaziyatning o‘zgarishi natijasida Amudaryo deltasida vishildoq oqqush, pushti va jingalak saqoqush, qorabuzov va boshqa kamyob qushlarning joyi, ornitologiya nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan botqoqliklar bugunda o‘z moxiyatini yo‘qotdi. Tog‘-kon sanoatining tezkorlik bilan rivojlanishi daraxt va butalarning kesilishi, chorvachilikda yaylovlardan xaddan tashqari keng foydalanish natijasida barcha tog‘ ekotizimlarining o‘zgarishi hamda umurtqasiz xayovonlarning yashash joylari yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Respublikamizdagi mavjud qo‘riqxonalarda “Qizil kitob”ga kiritilgan Buxoro bug‘usi, morxo‘r, Qizilqum arxari kabi hayvonlar, yirtqich qushlar va xasharotlar muxofaza ostiga olingan.

Kamyob xayvonlar turlarini ko‘paytirish respublika markazi (Buxoro viloyati) olib borayotgan izlanishlari kamyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan xayvonlarni yarim tutqunlik sharoitida ko‘paytirish, ularni saqlab kolish, sonini tiklashga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, bu erda respublika “Qizil kitobi”ga hamda halqaro qizil kitoblarga kiritilgan jayron, yo‘rg‘a tuvaloq, qulon,

Prjevalskiy oti kabi turlarni ko‘paytirish va qo‘riqlash bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tabiatni muxofaza qilish davlat qo‘mitasi Davlat bionazorati bosh boshqarmasi, O‘zR FA Zoolgiya instituti olimlari tomonidan yo‘q bo‘lib ketish havfi ostidagi qushlarni sun’iy sharoitda ko‘paytirish va tabiatga qo‘yib yuborish ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning birinchi “Qizil kitobi” 1983 yilda nashr etilgan bo‘lib, unga umurtqali xayvonlarning 63 turi kiritilgan edi. “Qizil kitob”ning yangi nashriga (II tom, hayvonot olami, 2003 y.) sut emizuvchilarining 23 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarining 16 turi, baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchanglarning 3 turi, mollyuskalarining 14 turi, bo‘g‘imoyoqlilarning 61 turi kiritilgan.

Turlarning tabiatda yo‘q bo‘lib ketish havfi toifalari quyidagicha:

**0-yo‘q bo‘lib ketgan turlar.** Mamlakatda yo‘q bo‘lib ketgan yoki mamlakat yovvoyi tabiatida yo‘q bo‘lib ketgan deb belgilanishi mumkin.

**1-xavfli xolatdagi turlar.** Butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasidagi yoki yo‘q bo‘lib ketayotgan deb belgilanadi.

**2-zaif turlar.** Zaif toifasiga mansub turning xayotiy ko‘rsatkichlari torayib borayotgan yoki juda o‘zgaruvchan xolatda bo‘lsa, u “qisqarib borayotgan”, turning xayotiy ko‘rsatkichlari cheklangan bo‘lsa, u “tabiatan kamyob” deb belgilanadi.

**3-yo‘q bo‘lib ketish extimoliga yaqin.** Turning xayotiy ko‘rsatkichlari yashab qolishi uchun tahdid poyonidan nisbatan uzoq bo‘lib, ammo noaniq davr mobaynida uning shu darajaga etish extimoli mavjud bo‘lgan xoldagi tur belgilanadi.

**4-ma’lumotlar tanqis**-toifasi maqomi bo‘yicha noaniq va yo‘q bo‘lib ketish xolati toifalariga mansub bo‘lmagan turlarni o‘z ichiga oladi.

**BIOXILMA-XILLIK VA EKOTIZIM FAOLIYATINING BOG‘LIQLIGI**  
Xozirgi vaqtida sodir bo‘layotgan bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishiga aloqador taxminlar ekologlarni 1990 yillarning boshlarida xarakatga keltirgan edi. Ularni

turlarning yo‘qolib ketishi ekotizimga qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatishi xaqidagi savol tashvishga soldi. Ekotizim faoliyati atamasi bu ekotizim faoliyati jarayonlari uchun umumiy atama hisoblanadi, ya’ni biogeokimyoviy energiya oqimi va ekotizmlararovalar ichkimasalalar (jumladan, birlamchi ishlab chiqarish va oziq-ovqat moddalari aylanmasi). Ushbu mavzuning dastlabki umumiy bosqichida ekotizim jarayonlariga ta’sirlarni o‘lchash uchun turlidarajadagi xilma-xil model guruxlarni yig‘ish orqali shu savolga murojaat qilingan. Izlanishni dastlaki bosqichlaridagi meta-analiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, ya’ni bioxilma-xiltrofik guruuhlar va ekotizim turlari bilan izchil bog‘lanadigan ekotizim jarayonlariga umuman olganda ijobiy, ammo to‘ldiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu munosabatlar asosiy ta’sirga qaraganda deyarli ikki barobar kuchli to‘ldiruvchi ta’sir va asosiy ta’sir birikmalari oraqali kuzatiladi. SHu bilan birga, turli ekotizimlar kamdan-kam xollarda eng yaxshi yagona turga qaraganda sezilarli darajada yaxshi faoliyat ko‘rsatadi, kamida qisqa muddatga. Uzoq muddat davomida esa bioxilma-xillik moliyaviy investitsiyalarning turli xujjalardagi keltirilganxavf tarqalishi afzallikkabi sug‘urta qiymatini ta’minlab berishi mumkin.

## **XILMA-XILLIK VA BARQARORLIK**

Bioxilma-xillik va ekotizim faoliyatining o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishdagi asosiy yondashuvlardan biri bu laboratoriya va yoki dala sharoitida sintezlashgan model organizmlarni yig‘ish orqali bioxilma-xillikni bevosita boshqarishdir.

Muqobil yondashuv esa tabiiy organizmlar guruuhlaridan turlarni ajratib olishdir. Uchinchi, bu boshqaruvsiz yondashuvbo‘lib, bunda bioxilma-xillik va ekotizim faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik xaqida qanday qilib bu ikkala bog‘liqlik o‘simlik va xayvonot olamida o‘zaro munosabatda bo‘lishi mumkinligini kuzatgan xoldaxulosa qilishdir. Bu uchchala yondashuv o‘ziga yarasha afzalliklarga va noqulayliklarga ega. Ushbu bo‘limda biz diqqatimizni turli xilma-xillikdan namuna organizmlarni yig‘ishga qaratamiz. Tadqiqotning birinchi dekadasidagi meta-analiz bioxilma-xillik va ekotizim faoliyati o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik, bu quruqlikda xam suvda mavjud bo‘lgan trofik guruxlar (avtotrofik organizmlar,o‘txo‘rlar, o‘likxo‘rlar va yirtqichlar) o‘rtasida sezilarli darajada izchil

bog‘langannamunadir. SHuningdek, bioxilma-xillik va ekotizim faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik umuman olganda to‘ldiruvchi bo‘lib hisoblanadi, shuningdek, tasodifiy bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishi ekotizim faoliyatibo‘lgan ta’siri dastlab sust bo‘ladi, ammo keyinchalik tezlashadi.

Ekologik barqarorlik odatda ekotizimning uchta asosiy hususiyatidan bittasiga tegishli bo‘ladi: ekotizimlarhususiyatidagi vaqtinchalik o‘zgarish (masalan, birlamchi mahsulot) yoki javob (qarshilik) yoki qayta tiklanish (chidamlilik).

### O‘zbekistondagi muhofaza qilinadigan xududlar

O‘zbekistonimiz o‘ziga xos o‘simlik va xayvonot dunyosiga ega bo‘lib, suo‘ggi yillarda insonning xo‘jalik faoliyati sababli flora va faunaga nisbatan salbiy ta’sir kuchaymoqda. O‘zbekistonda mavjud 4500 dan ortiq o‘simlik turlarning 10 - 12% i muxrfazaga muxtoj. O‘rmon resurslari cheklangan. Eng qimmatli tog‘ o‘rmonlarining maydoni o‘nlab marta qisqarib ketdi. Tabiiy yaylovlarning holati yomonlashdi.

O‘zbekiston bioxilma - xilligini saqlashda muxofaza etiladigan tabiiy xududlar katta axamiyatga ega. O‘zbekistonning bunday tabiiy xududlari , tizimiga umumiy maydoni 6061- km<sup>2</sup> bulgan 2 ta milliy bog, maydoni 12186,5 km<sup>2</sup> bo‘lgan davlat buyurtmaxonasi va bitta noyob xayvon turlarini ko‘paytirish bo‘yicha Respublika markazi . ("Jayron" ekomarkazi) kiradi. Muxofaza qilinadigan tabiiy xududlar umumiy maydoni 20520 km<sup>2</sup> ni yoki Respublika umumiy xududining 5,2% ini tashkil qiladi.

Qo‘riqxonalarda tabiat, uning yovvoyi vakillari tabiiy qonunlar asosida yashaydi. Qo‘riqxonalar O‘zbekistonning o‘ta xilma - xil, go‘zal va saxiy tabiatini muhofaza qiladi va kelajak avlod uchun saqlab qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq davlat tabiat qo‘riqxonalari qat’iy muxofaza qilinadigan xududlar bo‘lib, ularda yovvoyi tabiatning xayoti yil bo‘yi kuzatib boriladi.

Qo‘riqxonada deganda - insonning xo‘jalik faoliyati butunlay ta’qiqlangan, tabiiy kompleks asl xolida saqlanadigan hududlar tushuniladi.

Qo‘riqxonalarning asosiy vazifasi - tabiatning diqqatga sazovor, qimmatli landshaftlarini jamiyat manfaatlari uchun saqlashdan iborat. Qo‘riqxona xududlaridan xo‘jalikda foydalanish, xattoki pichan o‘rish, ov qilish, baliq tutish, qo‘riqxonalarni buzish umuman ta’qiqlanadi. Uning xududlaridagi majmualar tabiiy xolda saqlanadi. Bu erda tabiat bir butun xolda o‘rganiladi.

Inson tomonidan o‘zlashtirilgan landshaftlarda moslasha olmagan xayvonlarni faqat qo‘riqxonalarda saqlash mumkin bo‘lmoqda. Bular zubr, qulon, begemot, yo‘lbars, arslon, qoplon, ilvirs, suv kalamushi, qizil g‘oz, gagra va boshqalardir. SHuningdek, bir qancha o‘simglik turlari faqat qo‘riqxonalarda saqlanmoqda. Qo‘riqxonalar ovlanadigan xayvonlarni saqlash va ularni ko‘paytirishda xam katta rol o‘ynaydi. Demak, qo‘riqxona xududlari turli xil hayvon va o‘simglik turlarini, ovlanadigan hayvonlarning miqdori

va genetik fondini saqlash uchun xizmat qiladi. Mamlakatimizdagи xamma ko‘riqxonalar ilmiy muassasalar xisoblanadi. Bu erda doimo ilmiy tekshirish ishlari olib boriladi.

O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxona 1926 yilda Zomin rayonning Jizzax o‘rmon xo‘jaligiga qarashli “G‘uralash” tog‘ archa qo‘riqxonasi nomi bilan tashkil qilingan. U keyinchalik Zomin tog‘ o‘rmon qo‘riqxonasi nomy bilan qayta tiklangan.

YOvvoyi xayvonlarning noyob turlarini ko‘paytirish bo‘yicha muassasalar tabiatni muxofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlab qolishning eng samarali shakllaridan biridir. O‘zbekistonda bugungi kunda noyob xayvon turlarini ko‘paytirish bo‘yicha milliy miqyosda bitta Respublika markazi -. “Jayron” ekomarkazi rasman faoliyat yuritmoqda. U 1976 yilda Buxoro viloyatida 5145 ga maydonda jayron, Prjevalskiy oti, qulon kabi noyob xayvon turlarini sun’iy ko‘paytirish maqsadida tashkil qilingan. B. B.Alihanov, V.P.Lim, N.A.Axmedov, A.To‘xtaev va boshqalrning ma’lumotiga ko‘ra (1994-2005 y.) Respublikamizda 9 ta qo‘riqxona va buyurtmaxonalar mavjud va ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz

Zomin xalq bog‘i

Respublikadagi Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘irlarida joylashgan 1977 yilda tashkil etilgan. Uning maydoni 47,7 ming hektar bo‘lib, dengiz satxidan 1000-4030 m balandlikda joylashgan. Ushbu xalq bog‘ida mexnatkashlarning dam olish, sport o‘yinlari va turizm bilan shug‘ullanish bilan birga tog‘ landshafti u erdag'i archazorlar, o‘tloqlar xayvonlar va tabiatning ajoyib namunalari muxofazaga olingan.

### Ugom-CHotqol milliy bog‘i

Respublikadagi ikkinchi milliy bog‘ xisoblanib u Tiyan SHan tog‘ining qismi tizimidagi Ugom va CHotqol tog‘lari yonbag‘irlarini eallab yotadi. Uning maydoni 35,3 mingga atrofida, dengiz satxidan 1000-3200 m balandlikda joylashgan. Ugom-CHotqol milliy bog‘i respublikada va xalqaro sport musobaqalarini o‘tkazishda, ayniqsa, Toshkent shaxar axolisining dam olish maskani xisoblanadi. Bundan tashqari, Milliy bog‘ xududida yong‘oqzorlar, archazorlar, alp o‘tloklari kabi landshaft mintaqalari mavjud. Milliy bog‘ faunasi tarkibida qora bars, oq tirnoqli ayiq, jayra, yovvoyi cho‘chka, Menzbir sug‘uri va boshqalar uchrandi.

“Baday - To‘qay” davlat qo‘riqxonasi. 1971 yilda tashkil etilgan. Qorraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan, maydoni - 6642 ga. qo‘riqxona xududida quyidagilar uchraydi.

### O‘zbekistondagi mahsus himoya qilinadian hududlar

1.Xayvonlarning 135 turi, shundan 1.1 turi O‘zbekistan Respublikasi va TMXI “Qizil kitob” lariga kiritilgan;

2.O‘simliklarning 160 turi, shunday 2 turi O‘zbekistan Respublikasi va TMXI “Qizil kitob” lariga kiritilgan;

Qo‘riqxonada o‘simlik va xayvon turlari ko‘p. Bu erda tarang‘i, yulg‘un va qiyozorlar mavjud. Xayvonlarda yovvoyi cho‘chka, bo‘rsiq, quyon, Xiva qirg‘ovuli, olachipor qizilishton va boshqalar yashaydi.

Kurikxona Amudaryo suvining o‘zgarib turishini xisobga olgan xolda to‘qay o‘simliklarni va hayvonot dunyosini muxofaza qiladi.

Zarafshon davlat qo‘riqxonasi. 1975 yilda tashkil etilgan. Samarqand viloyatida joylashgan, maydoni - 2352 ga. qo‘riqxonada xududida quyidagilar uchraydi:

- 1.Xayvonlarning kariyb 170 turi, shunday 2 turi O‘zbekistan Respublikasi va TMXI “Qizil kitob” lariga kiritilgan;
2. O‘simliklarning 300 turi;

Bu erda keng tarqalgan qush Zarafshon qirg‘ovulidir. Qo‘riqxonada chiyabo‘ri, tulki, bo‘rsiq, to‘qay mushugi va boshqa xayvonlar uchraydi.

Qo‘riqxonadagi barcha o‘simliklar turlarini, ayniqsa, chakandani muxofaza qilish, xayvonlardan Zarafshon qirg‘ovulini ko‘paytirish va saqlash - qo‘riqxonaning maqsadidir.

YUqorida qayd qilib o‘tilgan qo‘riqxona va buyurtmaxonalarda O‘zbekistonning hayvonot va o‘simlik dunyosi muhofaza qilinadi va tiklanadi. Kelajakda O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qiladigan qo‘riqxona va buyurtmaxonalar soni yanada ko‘payib boraveradi.

#### Davlat qo‘riqxonalari

Nº	Qo‘riqxona nomi	Ixtisoslanishi	Maydoni (ga)
1.	Baday – To‘qay	To‘qay qo‘riqxonasi	6481
2.	Qizilqum	To‘qay qo‘riqxonasi	3895
3.	Nurota	Tog‘ o‘rmon qo‘riqxonasi	22537
4.	Zarafshon	To‘qay qo‘riqxonasi	2066
5.	Orol - Payg‘ambar	To‘qay qo‘riqxonasi	3094
6.	Zomin	Tog‘ o‘rmon qo‘riqxonasi	15600
7.	Ugom – Chotqol tabiiy milliy bog‘i	Tog‘ o‘rmon qo‘riqxonasi	35256
8.	Kitob	Geologik qo‘riqxonasi	5378
9.	Xisor	To‘qay qo‘riqxonasi	76889
10.	Qo‘xitangtog‘	To‘qay qo‘riqxonasi	43500

Davlat buyurtmaxonalari

Nº	Buyurtmaxonaning nomi	Ixtisoslanishi	Maydoni (ga)
1.	Nurun – tepa	To‘qay buyurtmaxonasi	29000
2.	Oqbuloq	Tog‘ buyurtmaxonasi	111000
3.	Xorazm	Ko‘l buyurtmaxonasi	7800
4.	To‘dako‘l	Ko‘l buyurtmaxonasi	30000
5.	Dengizko‘l	Ko‘l buyurtmaxonasi	86000
6.	CHadiq	Ko‘l buyurtmaxonasi	18600

### “Blits usuli”

Nº	<u>Mavzular savoli</u>	<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni xoxlayman</u>	<u>Bildim</u>
1.	Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha mavjud bo‘lgan o‘simgilik turlari.			
2.	Qizil kitobga kiritilgan o‘simgiliklar;			
3.	“Qizil kitob” nima?			
4	“Qizil kitob” qachon tashkil topgan ?			
5.	Tabiatni muhofa qilish Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya.			
6.	“Qizil kitob”ning yangi nashrlaridagi o‘simgilik turlarining soni.			

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘sishimcha ma’lumot zarur

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
O‘simlikning inson hayotida tutgan o‘rni				
O‘bekiston o‘simlik olamini tutgan o‘rni				
Qizil kitobga kirgan o‘simliklar				
Insonning o‘simlik olamiga ta’siri				
Yo‘qolib ketayotgan o‘simlik turlari				
Tabiatda o‘simliklar roli				

### Mavzuga oid vaziyatli masalalar

#### Vaziyatli masala

YOvvoyi holda o‘suvchi xilma-xil o‘simliklarning ko‘pchiligi xalq xo‘jaligi uchun foydalidir. Ular orasida juda chiroylisi, zaharlisi, manzarali, texnika o‘simliklari, begona o‘tlar va hokazolar bor. YAshil o‘simlikning eng ahamiyatli tomoni shundaki, u hayot uchun zarur bo‘lgan kislorod manbaidir.

Qachon u SO<sub>2</sub> manbaiga aylanadi ?

#### Vaziyatli masala

Odam hayotini butunlay deyarli o‘simlikka bog‘liq deyish mumkin.

Nima uchun?

### Vaziyatli masala

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tarixiy tabiiy faktorlari va xususan, fizik-geografik sharoitiga muofiq xo‘jalik jihatdan eng qimmatli bo‘lgan o‘simliklarning o‘sishi uchun bebahoy joy bo‘lib hisoblanadi. YAshil o‘simliklar havoni tozalaydi, tevarak-atrofimizga go‘zallik, chiroy, estetik zavq beradi. Dalalarni shamollardan himoya qiladi.

Misol keltiring.

### Vaziyatli masala

Respublikamiz o‘simliklar dunyosi nihoyatda boy va rang–barangdir. Ayniqsa, qaysi viloyatlarimizda o‘sadigan dorivor o‘simliklar, boshqa mintaqalarda umuman o‘smaydi yoki o‘sganda ham o‘zining shifobaxsh xususiyati – kimyoviy tarkiblari, dorivor moddalari bo‘yicha sifat jihatidan bir xil o‘rinda tura olmaydi.

### Vaziyatli masala

O‘zbekistonimiz o‘ziga xos o‘simlik va xayvonot dunyosiga ega bo‘lib, suo‘ggi yillarda insonning xo‘jalik faoliyati sababli flora va faunaga nisbatan salbiy ta’sir kuchaymoqda. O‘zbekistonda mavjud 6500 dan ortiq o‘simlik turlarining 20 - 30% i muxrfazaga muxtoj. O‘rmon resurslari cheklangan. Eng qimmatli o‘rmonlarining maydoni o‘nlab marta ko‘payib ketdi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizning tavsiyangiz.

### Vaziyatli masala

O‘zbekistonning bunday tabiiy xududlari , tizimiga umumiy maydoni 16061- km<sup>2</sup> bulgan 1 ta milliy bog‘, maydoni 2186,5 km<sup>2</sup> bo‘lgan davlat buyurtmaxonasi va 2 ta noyob xayvon turlarini ko‘paytirish bo‘yicha Respublika markazi kiradi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

### Vaziyatli masala

"Jayron" ekomarkazi muxofaza qilinadigan tabiiy xududlar umumiy maydoni 20520 km<sup>2</sup> ni yoki Respublika umumiy xududining 15,2% ini tashkil qiladi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

### Vaziyatli masala

Respublikadagi Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘irlarida joylashgan 1977 yilda tashkil etilgan. Uning maydoni 47,7 ming hektar bo‘lib, dengiz satxidan 1000-4030 m balandlikda joylashgan. Ushbu xalq bog‘ida mexnatkashlarning dam olish, sport o‘yinlari va turizm bilan shug‘ullanish bilan birga tog‘ landshafti u erdag‘i archazorlar, o‘tloqlar xayvonlar va tabiatning ajoyib namunalari muxofazaga olingan.

Gap qaysi bog‘ xaqida ketyapti?

### Vaziyatli masala

Respublikadagi ikkinchi milliy bog‘ xisoblanib u Tiyan SHan tog‘ining qismi tizimidagi Ugom va CHotqol tog‘lari yonbag‘irlarini eallab yotadi. Uning maydoni 35,3 mingga atrofida, dengiz satxidan 1000-3200 m balandlikda joylashgan. Ugom-CHotqol milliy bog‘i respublikada va xalqaro sport musobaqalarini o‘tkazishda, ayniqsa, Toshkent shaxar axolisining dam olish maskani xisoblanadi. Bundan tashqari, Milliy bog‘ xududida yong‘oqzorlar, archazorlar, alp o‘tloklari kabi landshaft mintaqalari mavjud. Milliy bog‘ faunasi tarkibida qora bars, oq tirnoqli ayiq, jayra, yovvoyi cho‘chka, Menzbir sug‘uri va boshqalar uchrandi.

Gap qaysi bog‘ xaqida ketyapti?

### Vaziyatli masala

1971 yilda tashkil etilgan. Qorraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan, maydoni - 6642 ga. qo‘riqxona xududida quyidagilar uchraydi.

Gap qaysi bog‘ xaqida ketyapti?

### Vaziyatli masala

- 1.Xayvonlarning 160 turi, shundan 2 turi O‘zbekistan Respublikasi va TMXI “Qizil kitob” lariga kiritilgan;
- 2.O‘simliklarning 135 turi, shunday 1.1 turi O‘zbekistan Respublikasi va TMXI “Qizil kitob” lariga kiritilgan;
  1. Vaziyatni baxolang.
  2. Sizningfikringiz.

### Vaziyatli masala

1975 yilda tashkil etilgan. Samarqand viloyatida joylashgan, maydoni - 2352 ga. qo‘rikxona xududida quyidagilar uchraydi:

- 1.Xayvonlarning kariyb 170 turi, shunday 2 turi O‘zbekistan Respublikasi va TMXI “Qizil kitob” lariga kiritilgan;
2. O‘simliklarning 300 turi;
3. Gap qaysi bog‘ xaqida ketyapti?

### **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning o‘quv texnologiyasi** **“VENN DIAGRAMMASI” usuli**


#### O‘SIMLIK TURLARI KLASSIFIKATSIYASI



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning o‘quv texnologiyasi**


**“SHAJARA DARAXTI” usuli**

**O‘ZBEKISTONDAGI O‘SIMLIKLAR**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**  
**“Klaster” usuli**

**TURLARNING TABIATDA YO‘Q BO‘LIB KETISH  
HAVFI TOIFALARI**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

**500 MINGGA YAQIN O‘SIMLIK TURI**

**BOR**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**

**O‘ZBEKISTON**

**TABIYY XUDUDLARI**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

**JAYRON” EKOMARKAZI**



### **1 - variant**

1. Qizil kitob qanday hujjat?

- a) Faqat yo‘qolib ketayotgan hayvonlarni asrash haqidagi hujjat
- b) Ayrim viloyatlar, mamlakatlar yoki butun dunyo bo‘yicha kelajakda havf ostida turgan o‘simlik va hayvonlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lgan
- v) Bu kitob hayvonlarni va o‘simliklarni ko‘paytirish haqidagi fan
- g) Qimmatbaho toshlarni himoya qilish haqidagi kitob

2. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha qancha o‘simlik turi mavjud?

A. 500 mingga yaqin

B. 200 mingga yaqin

V. 300 mingga yaqin

G. 400 mingga yaqin

3. dunyo bo‘yicha 500 mingga yaqin o‘simlik turlarii foizlarda taqsimlanishi qanday?

A. 8% suv o‘simliklari, 50% dan ortig‘i gulli o‘simliklar, 27% i zamburug‘lar, qolganlari mox va lishayniklar

B. 20% suv o‘simliklari, 10% dan ortig‘i gulli o‘simliklar, 40% i zamburug‘lar, 30 % mox va lishayniklar

V. 50% suv o‘simliklari, 35% dan ortig‘i gulli o‘simliklar, 5% i zamburug‘lar, 10 % mox va lishayniklar

G. 60% suv o‘simliklari, 20% dan ortig‘i gulli o‘simliklar, 15% i zamburug‘lar, 15 % qolganlari mox va lishayniklar

4. O‘zbekistonda qancha yovvoyi o‘simlik turlari o‘sadi.

A. 4560 dan ortiq

B. 2560 dan ortiq

V. 3560 dan ortiq

G. 1560 dan ortiq

5. O‘zbekiston dagi o‘simliklarning nechta dorivor ?

A. 577 tasi

B. 650 tasi

V. 430 tasi

G. 500 tasi.

6. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tomonidan xalqaro “Qizil kitob“ qachon tashkil qilingan?

A. 1966 yilda

B. 1977 yilda

V. 1955 yida

G. 1956 yilda

7. Tabiatni muhofa qilish Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyaga binoan, nechta kategoriyaga ajratiladi?
- A. 4 ta  
B. 3 ta  
V. 5 ta  
G. 6 ta
8. O‘zbekistonda butunlay yo‘q bo‘lib ketgan xayvonlar?
- A. Turon yo‘lbarsi, gepard, Turkman quloni, Orol sulaymon balig‘i  
B. Sirtlon, qoplon, to‘xta tuvaloq,  
V. Sirdaryo va Amudaryoning kichik va katta kurak burunlari  
G. morxo‘r, qoraquloq, oqbosh o‘rdak, vishildoq oqqush, marmar churrik
9. O‘zbekistonning birinchi “Qizil kitobi” qachon nashr etilgan?
- A. 1983 yilda  
B. 1973 yilda  
V. 19983 yilda  
G. 1963 yilda
10. “Qizil kitob”ning 2- nashriga (2003 y.) qaysi xayvonlar kiritilmagan?
- A. Parrandalarning 5 turi, laqqa baliqning 15 turi  
B. sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 16 turi,  
V. baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchanglarning 3 turi,  
G. mollyuskalarning 14 turi, bo‘g‘imoyoqlilarning 61 turi kiritilgan.

## 2 - variant

1. O‘zbekistonda muxofaza qilinadigan tabiiy xududlar umumiyl maydoni qancha?
- A. 20520 km<sup>2</sup>  
B. 30520 km<sup>2</sup>  
V. 10520 km<sup>2</sup>  
G. 40520 km<sup>2</sup>
2. O‘zbekistonda muxofaza qilinadigan tabiiy xududlar Respublika umumiyl xududining necha % ni tashkil qiladi.

A. 5,2% ini

B. 6.2 % ni

V. 4.2 % ini

G. 3.2 % ini

3. O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxona qachon tashkil qilingina ?

A. 1926 yilda

B. 1936 yilda

V. 1916 yilda

G. 1936 yilda

4. O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxona qaerda tashkil qilingan 7

A. Jizzaxda Zomin tog‘ o‘rmon qo‘riqxonasi

B. Qashqadaryo viloyatida

V. Buxoro viloyatida

G. Surxondaryo viloyatida

5. “Jayron” ekomarkazi qachon va qaerda tashkil qilingan?

A. 1976 yilda Buxoro viloyatida

B. 1966 yilda Qashqadaryo viloyatida

V. 1986 yilda Jizzaxda viloyatida

G. 1996 yilda Surxondaryo viloyatida

6. “Jayron” ekomarkazining umumiy maydoni qancha ?

A. 5145 ga

B. 4145 ga

V. 3145 ga

G. 6145 ga

7. Zomin xalq bog‘i qachon tashkil etilgan?

A. 1977 yilda

B. 1967 yilda

V. 1987 yilda

G. 1957 yilda

8. “Baday - To‘qay” davlat qo‘rikxonasi qachon tashkil topgan?

A. 1971 yilda

B. 1961 yilda

V. 1981 yilda

G. 1991 yilda

9. Zarafshon davlat qo‘rikxonasi.da qaysi xayvonlar bor ?

A. chiyabo‘ri, tulki, bo‘rsiq, to‘qay mushugi

B. yovvoyi cho‘chka, bo‘rsiq, quyon, Xiva qirg‘ovuli, olachipor qizilishton

V. qora bars, oq tirnoqli ayiq, jayra, yovvoyi cho‘chka, Menzbir sug‘uri

G. olachipor qizilishton, yovvoyi cho‘chka, Menzbir sug‘uri

10. O‘zbekistonda nechta davlat qo‘riqxonalari bor ?

A. 10 ta

B. 20 ta

V. 15 ta

G. 7 ta.

**9-mavzu: MUXIT XOLATINI NAZORAT QILISH MONITORINGI.  
EKOLOGIK EKSPERTIZA. EKOLOGIK XAVFSIZLIK. EKOLOGIK  
TA’LIM TARBIYA**

**Amaliy mashg‘ulot texnologik kartasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant  Mashg`ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.  SHu jumladan talabalarni rejallashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan	Talaba  Mashg`ulot rejasni bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.

	tanishtirish.	
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1. Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi.</p> <p>1. YUqoridagi savollar asosida savol-javob o‘tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4. taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari bирgalikda izlanibya. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar qiladi. Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

## **Tashqi muhit holatini nazorat qilish monitoringi**

Monitoring tizimini shakllantirmasdan turib, insonning muhit sharoiti va umuman biosferani asrash murakkab ishdir.

Ekologik monitoringda atrof-muhitni yaxshilash va biosferani musaffo saqlash bo‘yicha qator tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi, chunki biosferada vujudga keladigan o‘zgarishlar asosan inson faoliyati bilan bog‘liqdir. Monitoringda ko‘zda tutilgan tadbirlar o‘zgarishlarning rivojlanishini oldindan bilish va uning oldini olish imkoniyatini yaratadi. “Monitoring” atamasi lotincha “monitor” so‘zidan olingan bo‘lib, ilgariga qarovchi yoki “kuzatuvchi” degan ma’noni anglatadi.

BMTning atrof-muhit bilan shug‘ullanadigan kotibiyati ekologik monitoringni atrof-muhit elementlarini makonda va vaqtida ma’lum maqsad hamda dastur asosida qayta kuzatish, deb ta’riflaydi. Monitoringning ob’ekti tabiat, antropogen, yoki tabiat antropogen ekotizimlari bo‘lishi mumkin. Monitoringning maqsadi faqat faktlarni qayd etish bilan cheklanmasdan, balki eksperimentlar o‘tkazish, jarayonlarni modellashtirish, ilmiy bashoratlarning sifatini tekshirish bilan ham shug‘ullanadi.

Monitoringni tashkil etishdan maqsad ayon, u mahalliy vazifalarni echishi zarur, ya’ni ayrim ekotizimning holatini kuzatishi yoki ularning bo‘laklarini (masalan, biotlar jonli organizmlar majmuasi) va planetar xarakterdagi, global tizimdagi monitoringlarni o‘z ichiga oladi. Global tizimdagi monitoringlar bazasini kosmik va hisoblash texnikasi tashkil etadi. SHu narsa ma’lumki, sun’iy er yo‘ldoshlari, uchuvchisiz va uchuvchili boshqarilayotgan yo‘ldoshlar er biosferasida sodir bo‘layotgan jarayonlar holatini juda muvaffaqiyatli kuzatmoqda, ayni vaqtda bu jarayonlarni erda turib kuzatish juda ham qiyindir.

Misol tariqasida, monitoringning mahalliy vazifasi zararkunandalar populyasiyasining dinamikasini kuzatish va ularni ta’qib qilib turish, jumladan katta maydondagi hasharotlarni (u yoki bu turning butun arealida), muhofaza qilinadigan hayvonlar populyasiyasi harakatini hisobga olish. Monitoring o‘rmon va dala o‘simliklariga hasharotlar tomonidan ko‘rsatiladigan zararlarni, ularning

vaqtlarini nazorat va taxlil qilish imkoniyatini beradi. Kuzatish nuqtalaridan olingan yalpi ma'lumotlar hisoblash texnikalari yordamida yaxshi tahlil qilinishi kerak.

SHunday qilib, ekologik monitoring har xil darajadagi zanjirlarni o'z ichiga olishi zarur, jumladan:

global (biosfera) monitoring, bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi; milliy monitoring, bu har bir davlatning o'zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi;

xududiy monitoring - bu yirik hududda xalq xo'jaligini o'zlashtirish bo'yicha faol faoliyat ko'rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etilayotgan bo'lsa;

mahalliy (bioekologik) monitoring, aholi yashaydigan mavzelar, sanoat markazlarida, korxonalarda muhit sifatining o'zgarishlarini hisobga oladi.

Akademik I.P Gerasimov monitoring tizimlarining har birini o'z vazifasiga ega bloklarga bo'lib, ularni ta'minlovchi bazalar mavjud deb ko'rsatadi.

Atmosferaning ifloslanish darajasini asboblardan foydalanib baholash usullari bilan bir qatorda, biologik indikatsiyalardan, ya'ni jonli organizmlardan ham foydalilanadi (test-ob'ektlar), ayniqsa ma'lum kimyoviy qo'shilmalarga sezgir organizmlar ishlatiladi. Hozir ko'p qo'llaniladigan usullardan biri - bu lixenoindikatsiya usulidir, lotincha "lixenes" so'zidan olingan bo'lib, lishaynik ma'nosini anglatadi, bu usul asosan shahardagi yirik korxonalar joylashgan joylardagi ko'chatlarda uchraydigan lishayniklarni hisobga olishga asoslangan. SHu narsa aniqlanganki, lishayniklarning daraxtlar poyasida uchrashi bilan atmosferaning ifloslanishi o'rtasida bog'lanish bo'lib, agar atmosfera zaharli moddalar bilan ifloslangan bo'lsa, lishayniklar u erdag'i daraxtlar poyasida kam uchraydi.

Mahalliy monitoringning vazifasiga sanoat korxonalaridagi sanitariya – sanoat laboratoriyasining faoliyati ham kiradi. Bu laboratoriya vazifasiga sanoat korxonalari sexlari, sanoat maydonlaridagi havoning ifloslanganligini, shuningdek suv tarmoqlaridagi suvning ifloslanishini aniqlash darajalari kiradi.

Global va milliy monitoringni tashkil etish, ya’ni biosferadagi muhitning sifati haqida ma’lumot yig‘ish uchun maxsus xizmat qiladigan korxonalarini tashkil etish zarurdir. Bunday monitoringlar uchun baza bo‘lib antropogen omillarning ta’siriga uchramagan uzoq faoliyat ko‘rsatadigan hududlar kompleksi bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, muhitning fon darajasi ma’lum miqdorda saqlangan joy bo‘lishi shart, buni taqqoslash tufayli insonning biosferaga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlash imkoniyati yaratilishi lozimdir.

### **Ekologik ekspertiza**

Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga muvofiq xo‘jalik va boshqa ob’ektlarning faoliyatini boshqarishning muhim tomoni hamda yagona ekologik siyosatni yurgizish yo‘li Davlat ekologik ekspertizasi hisoblanadi. Ekologik ekspertiza jamiyat tashkilotlari va davlat muassasalari yangi qurilma ob’ektlari, ishlab turgan xo‘jalik va boshqa ob’ektlarni qayta qurish nazardan baholash uchun faoliyat ko‘rsatadi. Davlat ekologik ekspertizasi respublikadagi ma’lum bo‘lgan ekspert organlari tizimida alohida o‘rin egallaydi. U ob’ektlarni kompleks tarzda baholaydi, ya’ni ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy tomonlaridan baholash bilan birga uning faoliyatini o‘zgarish oqibatlari nimalarga olib kelishi, shuningdek davlat ekologik ekspertizasi “tabiat - jamiyat” tizimidagi barcha o‘zaro bog‘lanishlar va ziddiyatlarni har tomonlama tahlil qiladi.

Ijtimoiy tarakkiyot sharoitida jamiyatning tabiatga ta’sir ko`rsatishi mukarrardir. Tabiat insonning moddiy va ma’naviy extiyojlarini kanoatlantiradigan yagona manba xisoblanadi. Inson tabiatga ta’sir ko`rsatmasdan yashay olmaydi. SHuning uchun ishlab chikarishni va boshqa faoliyatlarni shunday tashkil etish kerakki, nafakat odamlarning moslashuvi chegarasidan chikmasligi, balki shu bilan birga biosfera eng yaxshi xolatda saklanishi kerak.

Inson faoliyatining tabiatni uzgartiruvchi mikyoslarini ko`rsatuvchi kuyidagi ma’lumotlarni keltirib utamiz. Eng sunggi taxminiy xisob-kitoblarga kura, insoniyat Er bagridan yiliga 100 milliard tonna tog jinslari kazib oladi. XX asrning oxirlarida esa bu mikdor olti barobar ortgan. Dastlabki bashoratlarga karaganda, butun dunyo mikyosidagi sanoat ishlab chikarishi uch marta kupayadi.

Uning bunday darajada ortishi esa insoniyatning butun sivilizatsiyasi un ming yil davomida ishlatganga karaganda turt marta kup yangi xom ashyo ressrlarini talab etadi. Olimlarning bergen ma'lumotlariga kura, olingan kazilmalarni kayta ishlashda ular massasining deyarli tukson sakkiz foizi chikindiga ajraladi va kazilmaning atigi ikki foizidan ijtimoiy extiyojlarni kanoatlantirish uchun foydalaniladi.

Xozirgi vaktda ishlab chikarish sur'ati tobora ortib bormokda. Kayta tiklanmaydigan mineral xom ashylar iste'moli xar uttiz yilda ikki barobar ortsa, kazib olinadigan yonilgi mikdori esa xar un besh yilda ikki barobar kupayadi.

Bugungi kunda sayyoramiz o`rmonlari xar dakikada 20 gektarga kamayadi. Tropik o`rmonlar maydoni xar yili birfoizga kiskaradi. Atmosferadagi kislorod xajmi yiliga 10 milliard tonnaga kkamayadi. XXI asrning urtalarida bu borada kator muammolar kelib chikishi mumkin. Xozirgi vaktda suv, elektr kuvvati, neft, moy, mineral va organik xom ashylar, metall, kumir va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanishda kuplab isrofgarchilikka yul kuyilayotgani xech kimga sir emas. Tashish vaktida xom ashylar kanchalik kam yukotilsa, tabiat shunchalik kam ifloslanadi. Masalan, kumir, kum-sement va boshqalarni ochik vagonlarda tashish okibatida katta isrofgarchiliklarga yul kuyiladi, ularning ma'lum kismi shamolda uchib ketadi. Afsuski, xozirgi vaktga kadar dunyoning turli burchaklarida kumir va boshqa xom ashyo maxsulotlari ochik vagonlarda tashilib, inson mexnati va maxsulotlarning bexuda sarflanishi xollari kuzatilmokda.

SHuning uchun fan-texnika tarakkiyoti tabiat boyliklari, materiallar, xom ashylar, yonilgi va energiyadan foydalanishni tubdan yashxilashga yunaltirilishi kerak. Barcha bosqichlarda, ya'ni kazib olish va xom ashynoni kompleks kayta ishlashdan tortib, oxirgi maxsulotni ishlab chikarish va undan foydalanishgacha bulgan jarayonlarda fan va texnikaning eng sunggi yutuklaridan foydalanib kurish samarali natijalar beradi. Tabiiy boyliklarni tejash, xalk xujaligining yonilgi, energiya, xom ashyo va materiallarga bulgan ortib boruvchi extiyojini kanoatlantirishda xal etuvchi omil xisoblanadi.

Bizning nazarimizda, atrof-muxitni ximoya etish va tabiiy resurslarni tiklash masalasida kuyidagilar e'tiborga olinishi kerak:

Maxaliiy va global ekoloik monitoring, ya'ni atrof-muxitning muxim xarakteristiklari xolatini, suv, tuprok, atmosferadagi zararli moddalarning konsentratsiyasini nazorat qilish va ulchash;

O'rmonlarni tiklash va yongin, zararkundalar, kasalliklardan muxofaza qilish;

Kurikxonalar, etalon ekotizimlar, bebaxo tabiiy majmuilarni kengaytirish va ular sonini kupaytirish;

Usimlik va xayvonlarning noyob turlarini saqlash xamda kupaytirish;

Axolining ekologik ma'rifati va madaniyatini yuksaltirish;

Tabiatga yangicha munosabatni shakllantirish buyicha inson faoliyatining barcha soxalarida faol ishlar olib borish, tabiatdan okilona foydalanish va tabiatni asrash texnoloiyasini ishlab chikishgina bugungi kundagi ekologik muammolarni xal etishga kolaversa, tabiat bilan uygun munosabatda bulishga kumaklashadi.

Ekologik ekspertiza – bu geografik muxitning biologik kismiga ta'sirini baxolashdir.

Ekspertiza ilmiy tekshirish yoki loyixalash institutlari tomonidan taklif kilinayotgan loyixalarni o'rganish va ularni amalga oshirish maksadga kanchalik muvofik ekanligini aniklab, chukur asoslangan xulosa berishdan iboratdir. Ekspertiza jaryonida korxonaning atrof muxitga, odamlarning sog`ligiga ta'sir qilishi jiddiy e'tiborga olinadi.

Ekspertiza turli darajalarda amalga oshiriladi:davlat ekspertizasi, ilmiy va jamoatchilik ekspertizasi, vazirliklar ekspertizasi va boshqalar. Ekspertiza O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish Davlat qo`mitasi tomonidan belgilanadi. Mazkur qo`mitada ekologik-geografik ekspertiza boshqarmasi faoliyat ko`rsatadi. Taklif kilinayotgan loyixaning mazmuni, qanday tadbirlar amalga oshirilishiga qarab, shu soxaning etakchi mutaxassislari u bilan tanishib chiqib, uz muloxazalarini bildiradilar. Masalan, tog` daryolarida yirik suv ombori qurilishi loyixasi ekspertizaga topshirilgan bo`lsa, u xolda muxandis-gidrotexniklar, gidrologlar, gidrobiologlar, ekologlar, geograflar, o'rmonchilar, iqtisodchilar,

xuquqshunoslardan iborat gurux tashkil kilinadi va ular loyixa buyicha uzlarining takliflarini tayyorlaydilar.

80-yillarga kadar O`zbekistonda qurilgan sanoat korxonalari ekologik-geografik ekspertizadan rasmiy ravishda deyarli o`tkazilmagan. Albatta, korxona biror joyga qurilishi lozim topilganda o`sha joyning muxandis-geologik, gidrogeologik va gidrologik sharoitlari birmuncha xisobga olingan, lekin korxona keltiradigan zararli oqibatlar deyarli xisobga olinmagan. Shuning uchun axoli zich yashaydigan Chirchik, Oxangaron, Farg`ona vodiylarida sanoat korxonalarining salbiy ta'siri tufayli atmosfera xavosi va suv xavzalari boshqa rayonlarga nisbatan ko`proq ifloslangan.

Endilikda, ayniqsa, O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, yangi sanoat korxonalari ekologik me`yorlarga mos xolda joylashtirish, mavjud korxonalar ishlab chikarayotgan maxsulotlar, atrof muxitga chiqarilayotgan chiqindilar masalasi atroflicha taxlil qilinib, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, gaz va changni tutib qoluvchi, ularni tozalovchi zamonaviy moslamalarni o`rnatishga katta axamiyat berilmoqda.

O`zbekistan Respublikasining ekologik xavfsizligini ta'minlash strategiyasi milliy xavfsizlik Konsepsiysi va O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ekologik soxadagi shaxs, jamiyat va davlatning muxim xayotiy manfaatlaridan kelib chiqadi.

SHaxsning muxim xayotiy manfaatlariga quyidagilar kiradi: inson faoliyati, kishilar sog`lig`ini ximoya qilish uchun qulay ekologik shart-sharoitlarni ta'minlash.

Jamiyatning muxim xayotiy manfatlariga quyidagilar kiradi: barqaror ekologik vaziyatni yaratish, axoli salomatligini ta'minlash, jismonan rivojlangan avlodni shakllantirish.

Davlatning muxim xayotiy manfaatlariga quyidagilar kiradi:

1. Barqaror rivojlanish, mintaqada ekologik vaziyatning barqarorligi, sog`lom xayot tarzini shakllantirish;

2. Iqtisodiyotning ustuvor soxalarida ilmiy-texnik rivojlanishning yuksak darajasini ta'minlash;

3. Milliy xavfsizlikning samarali tizimini yaratish, O'zbekistonning xavfsizlik va xamkorlik bo'yicha mintaqaviy va global tizimlariga va ularning tuzilmalariga uzviy ravishda uyg'unlashuvini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi ekologik-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi inson xuquqi va erkinligiga amal qilish, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish orqali dunyo xamjamiyatiga to'la xuquqli integratsiyalashishni ta'minlovchi xuquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan isloxoatlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchi insonning barkamol rivojlanishi va farovon xayoti, shaxs manfaatlarini amalga oshirish sharoitlari xamda amaliy mexanizmlarini yaratishdan iboratdir.

"Xalqaro xamjamiyat insonning nafaqat yashash xuquqi, balki tulaqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muxit sharoitlariga xam ega bo'lgan xuquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e'tirof etgan. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbliji, juda zarurligi bois eng muxim muammolar jumlasiga kiradi".

Xalqaro xuquqiy tajribalar, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizlik siyosati konstitutsiya, qonunchilik, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiysi, atrof-muxit va barqaror rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro va Yoxannesburg deklaratsiyalarining tamoyillari asosida xalqaro konvensiyalar va shartnomalardan xamda etakchi davlatlarning qonunchilik soxasidagi tajribalaridan kelib chiqadigan Respublikaning majburiyatlari xisobga olingan xolda olib boriladi.

O'zbekiston, barcha sobiq ittifoq davlatlari kabi ishlab chiqarish uchun katta miqdorda energiya va materiallar sarf etishni talab qiladigan, ma'nан eskirib ketgan va atrof-muxitni ifloslantiradigan jixozlar va texnologiyalarga ega

iqtisodiyotni meros qilib olgan. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida makroiqtisodiy rejalashtirishning tabiatni muxofaza qilish siyosati bilan optimal uyg'unlashuvi va uning ijtimoiy xamda boshqa soxalarda yuritilayotgan siyosat bilan xamoxang bo'lishi eng muxim vazifa bo'lib qoldi. Respublikamiz ekologik siyosati tabiatning alovida unsurlarini ximoya qilishdan ekotizimni umumiylashtirishga o'tishga, inson yashaydigan xayot kechirish muxitining qulay jixatlarini kafolatlashga yo'naltirilgan. Bunday ekologik siyosatning amalga oshirilishi xalq xo'jaligi majmui va umuman jamiyatning barqaror rivojlanishi shartlaridan biri bo'lib qolishi kerak. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati natijalaridan biri inson salomatligi uchun yuqori darajadagi xavfga ega xududlarda atrof-muxit sifatini yaxshilash va ekotizimni barqarorlashtirishdan iborat bo'ldi. Orol bo'yida ekologik vaziyatning oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda - kichik maxalliy suv xavzalari, ichimlik suvi bilan ta'minlovchi suv o'tkazgichlarining qurilishi olib borilmoqda. Respublikamizda 1991 yildan boshlab ifoslantiruvchi moddalarning atmosferaga tashlanish miqdori 1.95 barobar pasaydi, ifloslangan oqava suvlari 2.0 barobarga kamaydi.

Pestitsidlardan foydalanish keyingi 5 yil davomida 4 barobar qisqardi. Ekin maydonlarida paxta ekishning kamaytirilishi xisobiga g'alla va dukkakli, sabzavot va poliz, kartoshka ekin maydonlari kengayib bormoqda.

Paxta eqiladiigan maydonlar xozirgi kunda ancha qisqartirilgan va ekin maydonlarining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Milliy qo'riqxonalar, bog'lar va ekomarkazlar rivojlantirilmoqda.

2005 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 24 oktyabrdagi 469-sonli qarori bilan tasdiqlangan, mamlakatimiz ekologik siyosatini amalga oshirishda asosiy strategik yo`nalish xisoblangan "O'zbekistonda 1999-2005 yillarda atrof-muxitni muxofaza qilish bo'yicha xarakatlar dasturini" va 1999-2005 yillarga mo'ljallangan atrof-muxitni muxofaza qilish bo'yicha xududiylashtirish dasturlarni amalga oshirish muddati yakunlandi. Joriy davr mobaynida ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 1999 yil 11 noyabrida

tasdiqlangan, Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 20 oktyabrdagi qabil qilingan 469-sonli qarorini bajarish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga binoan amalga oshirildi. 2005 yil avgust xolati bo'yicha 165 ta rejalashtirilgan tadbirlardan 136 tasi yoki 82,4% bajarilgan, 25 ta tadbir bajarilmogda (ulardan 6 tasini bajarish muddati tugallanmagan) va 4 ta tadbir bo'yicha ishlar mablag' yo'qligi sababli bajarilmayapti, umuman ko'zda tutilgan tadbir-choralarni qamrab olish 98,2% ni tashkil etadi.

Ushbu chora-tadbirlarni bajarish uchun 3,0 milliard so'm, 11,3 mln. Evro va 9,6 mln. AQSH dollaridan ziyod mablag' o'zlashtirildi. Ulardan: 863,2 mln.sum davlat byudjeti mablag'i; 1,5 mlrd, sumdan ko'prog'i - korxona va tashkilotlar mablag'lari; grant asosidagi investitsiyalar 571,6 mln. so'mni, 11,3 mln. Evro va 9,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi xamda 362,9 mln. sum tabiatni muxrfaza qilish jamg'armalari mablag'laridan iborat bo'ldi. Tadbirlarni bajarish natijasida atmosferaga ifoslangan moddalarning tashlanishi 2.1 ming tonnadan ko'proq kamaytirildi, etillashtirilgan benzin ishlab chiqarish ulushi -16,9% ni tashkil etdi (20% - ko'zlangan edi), yuk tashish va engil avtomobillar uchun gaz balonli uskunalar tayyorlandi va sinovdan o'tkazildi, tarkibida simob mavjud bo'lgan ishdan chiqqan lampalarning 75% dan ortig'i qayta ishlandi. Dasturni bajarish natijasida davlat tabiatni muxrfaza qilish qo'mitasi mutaxassislari, manfaatdor vazirliklar, idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining quyidagi beshta qonunlari: "Ekologik ekspertiza to'g'risida" (25.05.2000), "Radiatsion xavfsizlik to'g'risida" (31.08.2000), "Davlat kadastrlari to'g'risida" (15.12.2000), "CHiqindilar to'g'risida" (05.04.2002), "Muxofaza etiladigan tabiiy xududlar to'g'risida" (13.12.2004), xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining quyidagi 32ta qarorlari: "O'zbekiston respublikasi davlat byudjetining 2000 yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarining prognozi to'g'risida" (554-sonli 31 dekabr 1999 yil, unga ko'ra 2000 yilning 1 yanvaridan boshlab tabiiy muxitga ifoslantiruvchi moddalarni tashlash va O'zbekiston Respublikasi xududida chiqindilarni joylashtirish uchun to'lovlar belgilangan); "Ozon qatlamini ximoya qilish soxasidagi shartnomalar

bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2000 yil 24 yanvar 20-sonli); “Tabiiy resurslarni saqlash va CHimyon-CHorvoq xududini o‘zlashtirishga xar tomonlama va tizimli yondashishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2000 yil 10 mart 83-sonli); “O‘zbekiston Respublikasi xududiga tarkibida ozon qatlamini buzuvchi moddalar mavjud bo‘lgan maxsulotlar va ana shunday moddalarni olib kirish yoki olib chiqishni tartibga solish to‘g‘risida” (2000 yil 14 mart 90-sonli); “O‘zbekiston Respublikasi xududiga ekologik xavfli maxsulotlar va chiqindilarni olib kirish yoki olib chiqishni tartibga solish to‘g‘risida” (2000 yil 19 aprel 151- sonli); “O‘zbekiston Respublikasi o‘simgiliklar dunyosi ob’ektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi qoidani va O‘zbekiston Respublikasi xayvonot olamining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash to‘g‘risida” (2000 yil 5 sentyabr 343-sonli); “Vazirliklar va idoralarning monitoring borasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirishni belgilovchi tabiiy muxit davlat monitoring to‘g‘risidagi qoida” (2002 yil 3 aprel 111-sonli); “Orol bo‘yi genofondini ximoya qilish bo‘yicha xayriya jamg‘armasini yaratish to‘g‘risida” (2004 yil 3 aprel 162-sonli); “Andijon va Namangan viloyatlarida Qoradaryo daryosining suv muxofazasi xududlari va qirg‘oq bo‘yi xududlarini belgilash to‘g‘risida” (2004 yil 13 aprel 178-sonli); “Namangan viloyatida Norin daryosining suv muxofazasi xududlari va qirg‘oq bo‘yi xududlarini, belgilash to‘g‘risida” (2004 yil 13 aprel 179-sonli); “Vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari fondlariga mablag‘ ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2004 yil 25 oktyabr 499-sonli); “Biologik resurslardan oqilona foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasi xududiga olib kirish va olib chiqish ustidan nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida” (2004 yil 28 oktyabr 508-sonli) va boshqalar ishlab chiqildi xamda qabul qilndi.

GXFU (gidroxlorftoruglerod), metil bromidlarga kvotalarni ko‘zda tutuvchi xamda tarkibida ozon moddasi (OBM) bo‘lgan va ozonni buzuvchi maxsulotlarga litsenziyalar berish tizimini ko‘chaytirishga qaratilgan Vazirlar Maxkamasining “O‘zbekiston Respublikasi xukumati qarorlariga ba’zi o‘zgartirish va

qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyixasi ishlab chiqildi va Adliya Vazirligiga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan. Ozon qatlamini emiruvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish bo'yicha milliy dastur, mamlakatni barqaror rivojlanish modeliga o'tish milliy strategiyasi, cho'lga aylanib borish bilan kurashish bo'yicha xarakatlar milliy dasturi, parnikli gazlar emissiyasini kamaytirish bo'yicha milliy strategiya, muxofaza etiladigan tabiiy xududlarni rivojlantirish va joylashtirish bosh sxemasi, ekologik ta'lim davlat standarti va ekologik ta'lim dasturi ishlab chiqildi xamda amalga oshirilmoqda. Er osti ichimlik suvlari zaxiralarini shakllantirish xududlariga muxofaza etiladigan tabiiy xududlar maqomini berish bo'yicha ishlar to'la xajmda bajarildi, ulardan 11 tasi Respublika va 8 tasi viloyat axamiyatiga ega. Toshkent shaxri va Toshkent viloyati korxonalarida zaxarli chiqindilar chiqarish ustidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar tayyorlandi, Toshkent shaxri va Toshkent viloyati uchun zaxarli chqindilarni ko'mish poligonlarining texnik-iqtisodiy xisoblari (TIX,) va APZ ishlab chiqildi va loyixani ekologik ekspertizasi o'tkazildi. Tarkibida simob bo'lgan lampalar va asboblarni qayta ishlash maqsadida Navoiy, Andijon va qo'shimcha Buxoro shaxrida lyuminessent lampalarni demerkurizatsiya qilish bo'yicha qurilmalar tayyorlandi va ishga tushirildi.

Inson va xayvonlar uchun xavfsiz bo'lgan pestitsidlardan foydalanib, o'simliklarni ximoyalash umumiyligi tizimini tatbiq etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Biolaboratoriylar va biofabrikalar tarmog'i tashkil etildi xamda entomologik xizmati kuchaytirildi. 83 ta yangi biolaboratoriya ishga tushirildi va ularning umumiyligi soni 809 tani tashkil etdi. O'simliklarni ximoya qilish birlashtirilgan tizimining viloyatlar sxemalari ishlab chiqildi. O'simliklarni ximoya qilish birlashtirilgan tizimi bo'yicha 2000-2005 yillarga mo'ljallab ishlab chiqilgan dasturlarga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasida va viloyatlarda 2001-21003 yillarda o'simliklarni ximoya qilish barcha asosiy turlari (agrokimyoviy va biologik) qo'llanildi. 3482,7 ming hektar maydonda qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha profilaktik ishlarini o'tkazish uchun

biolaboratoriylar tomonidan 4928,1 kg trixogramma, 1431,9 million dona brakon etkazib berildi.

Er osti suvlarining davlat kadastro olib bajarilmoqda. YOnilg‘i sifatini yaxshilash, shu jumladan benzindan qo‘rg‘oshinni ajratib olish bo‘yicha tadbirlar bajarilmoqda, yuk va engil avtomobillar uchun suyultirilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz ballon uskunalarining (GBU) tajriba namunalari ishlab chiqarildi va sinovdan o‘tkazildi.

Samarkand, Xiva, Buxoro shaxarlarining tarixiy yodgorliklar joylashgan xududlarida er osti suvlari darajasini nazorat qilish maqsadida kuzatuv quduqlar tarmog‘i yaratildi. Buxoroda 173 kuzatish quduqlari va 181 vertikal drenaj quduqlari qurildi. 2005 yilning birinchi yarmi davomida ular yordamida 20,6 mln. m<sup>3</sup> er osti suvlari chiqarildi, bu chora er osti suvlari darajasini o‘rtacha 2,15 m darajasida turishini ta’minalashga imkon berdi. Biroq moddiy mablag‘lar yuqligi sababli Xiva va Samarqand shaxarlarida er osti suvlarining talab etiladigan darajasini ta’minalab turish bo‘yicha qiyinchiliklar mavjud.

Amudaryo deltasida va Orol dengizi qurigan tubida kichik suv xavzalarini yaratish bo‘yicha loyixa-izlanish va umumiyligini qurilish ishlari o‘tkazildi, Orol dengizi qirg‘og‘i bo‘ylab va Amudaryo deltasida kichik maxalliy suv xavzalarini yaratish bo‘yicha TIA (texnik-iqtisodiy asoslar) ishlab chiqildi, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (OQXJ) ajratgan 6,15 mln. AQSH dollari o‘zlashtirildi. “Mejdurechensk” suv omborinint shimoliy dambasini, “Glavmyaso” kanaliga beton yon tomon suv chiqarish va suv tushirish inshoatini qurish bo‘yicha ishlar bajarilmoqda.

Muxofaza etiladigan tabiiy xududlar Davlat kadastrini joriy qilish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar tasdiqlandi xamda “Xayvonot va o‘simliklar dunyosi davlat kadastrlarini olib borish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqilib, Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 5 sentyabrdagi 343-sonli qarori bilan tasdiqlandi. SHu asosda 170 dan ortiq uch toifadagi ob’ektlar bo‘yicha kadastr ma’lumotlari to‘plandi.

“Ma’lumotlardan foydalanish, atrof-muxitga taalluqli qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilikning ishtirok etishi va shu masalalar bo‘yicha qonuniy xuquqi to‘g‘risida”gi BMT eIK Orxus Konvensiyasiga (1998) O‘zbekistonning qurilishi imkoniyatlariga doyr zarur materiallar tayyorlandi.

Ozonni buzuvchi moddalar (OBM) o‘rnini bosishni boshqarish bo‘yicha ofis o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda. Davlat tabiatni muxofaza qilish qo‘mitasi va UNEP memorandumiga binoan 17 ming AKSH dollariga teng uskunalar olindi va bojxona xizmatlariga etkazib berildi, bojxona xodimlarining o‘quvi tashkil etildi.

Toshkent, Andijon, Navoiy, Farg‘ona, Uchquduq, Buxoro shaxarlarida 26 ta o‘qituvchi-instruktorlar va muzlatish ishlari bo‘yicha 25 ta gurux mutaxassislarni o‘qitish amalga oshirildi. Jami 500 dan ortiq mutaxassis malaka oshirish bo‘yicha o‘qitildi. OBMlarni boshqarish bo‘yicha o‘quv anjomlari olinib, TDTU, Navoiy tog‘ kolleji, Qarshi muxandislik-iqtisodiy va Toshkent kimyo-texnologiya institutlariga etkazib berildi. 1,1 mln. AKSH dollariga teng mablag‘i xisobiga XFU-12 xladagentlarni retsirkulyasiya qilish va ajratib olish bo‘yicha uskunalar sotib olindi va 101ta korxonaga taqsimlandi.

Iqlim o‘zgarishi xaqida Milliy ma’ruza tayyorlandi va u iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Milliy Komissiya tomonidan tasdiqdandi.

Parnik gazlari emissiyasini kamaytirish bo‘yicha milliy strategiya loyixasi ishlab chiqildi va 9.10.2000 yilda Vazirlar Maxkamasi tomonidan 389-sonli qaror qabul qilindi. Milliy strategiyani amalga oshirish maqsadlarida xalq xo‘jaligi turli soxalari bo‘yicha 12 ta loyixa tayyorlandi va moliyalashtirish uchun Jaxon Banki, Global ekologik jamg‘armasiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga yuborildi. CHO‘lga aylanish bilan kurashish bo‘yicha xarakatlar Milliy dasturi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda muvofiqlashtirildi va tasdiqlandi, mazkur dastur cho‘lga aylanish bilan kurashish bo‘yicha BMT Konvensiyasining kotabiyati tomonidan ma’qullandi.

Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo‘yicha Milliy strategiyani va xarakatlar rejasini amalga oshirish uchun “Muxrfaza etiladigan tabiiy xududlarni

rivojlantirish va joylashtirish Bosh sxemasi” ishlab chiqildi va uni tatbiq etish amalga oshirilmoqda.

“Nurota-Qizilqum biosfera rezervatlarini yaratish” loyixasi amalga oshirilmoqda, biosfera rezervatlari chegaralari belgilandi va uning xududlarini zonalashtirish o’tkazildi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston xududlarida G‘arbiy Tyan-SHanda bioxilma-xillikni saqlab qolish bo‘yicha transchegaraviy loyixa amalga oshirilmoqda.

G‘arbiy Tyan-SHan xududlarida noyob va iqtisodiy axamiyatga ega xayvonlar va o‘simliklar turkumlarining kam uchraydigan va endemik turlari aniqdandi. O‘simliklarning noyob va endemik turlarini saqlab qolish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Bajarish muddati tugagan 17 ta tadbirni amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda. Toshkent shaxrida 358ta jixozlangan va 752 uskunalar bilan jixozlanmagan chiqindi to‘plash maydonchalari qurildi va ishlab turibdi.

Ekologik xavfsizlik, uzuluksiz rivojlanish.

Inson tomonidan yuritilgan xo‘jalik faoliyatining jadal rivojlanishi tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish konuniyatlarini xisobga olmay turib, “XXI asrga yul” Rim klubining ishlaridan birida ta’kidlaganidek, er yuzidagi barcha qarama-qarshiliklar tuproq eroziysi, o‘rmonlarning yo‘q bo‘lib ketishi, baliqlarning ortiqcha ovlanishi, kislotadi yomg‘irlar yog‘ishi, atmosferaning ifloslanishi, ozon qatlaming buzilishi orol bo‘yi muammolari va xokazolarning yuzaga kelishiga olib keldi Respublikamizda axoli zichligining ko`rsatkichi 1980-yildagi bir kvadrat kilometrga 35,6 kishidan 2002 yilga kelib 55,8 kishigacha ortdi. Axoli sonining ortib borish sur’atlarini xisobga olib, 2010 yilda respublika axolisi 28,5-28,7 million kishini tashkil etishi taxmin qilinmoqda.

Adirli xudud (quruq mintaqasi) sharoitlarida, aholi soni o‘sishi bilan antropogen ta’sir (suvga va xayot uchun zarur bo‘lgan boshqa vositalarga nisbatan extiyojning o‘sishi) ortadi. Bu respublikamiz axoli zich yashaydigan xududlarida qo‘sishimcha ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammoni keltiradi.

O‘zbekiston xududida iqlimning global va mintaqaviy o‘zgarishining oqibatlarini baxolash 2030 yillarga kelib, shimoliy xududlarda o‘rtacha yillik xaroratning 2-3 darajaga va respublika janubiy qismida 1 darajaga o‘sishi kutilmoqda (tog‘li xududlarga kamroq ta’sir ko`rsatilishi mumkin).

O‘zbekistonning barcha xududlarida yog‘ingarchiliklar miqdori ko‘payishi kutilmoqda: Fargona vodiysida 5-15 foizgacha, respublikamizning shimoliy qismida esa -15-20 foizgacha. Iqlimning o‘zgarishi suv yuzasidan bug‘lanish xisobiga 10-15 foizga va o‘simpliklar transpiratsiyasi xisobiga 10-20 foizga suv yo‘qotilishi miqdorining ortishiga olib keladi. Bu esa suvdan foydalanishning o‘sishi bilan suv iste’mol qilinishini o‘rtacha 18 foizga o‘sishiga olib keladi. Samarali xarorat yig‘indisining 5-10 foizga o‘sishi va sovuq bo‘lmagan davrning davomiyligi 8-15 kunga ortishi sababli qishloq xo‘jalik ekinlariga ishlov berish agroiqlim sharoitlari o‘zgaradi.

SHu bilan birga, noqulay yozgi davr 1-3 un kunlikkacha ortib, bu paxta va yaylovlar maxsulorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

“Biz 20-25 yil mobaynida jaxondagi eng yirik yopiq suv xavzalaridan birining yo‘qolib borishiga guvox, bo‘lmoqdamiz. Biroq bir avlodning ko‘z o‘ngida butun bir dengiz xalok bo‘lgan xol xali ro‘y bergen emas edi”.

So‘ngi 40-45 yil davomida dengiz satxi 22,0 metrdan ko‘proqqa pasaydi, akvatoriya maydoni 3,8 barobardan ortiq kamaydi, suv xajmi 1064 dan 115 kilometr kubgacha pasaydi, suvdagi tuz miqdori 72 g/l ga etdi. Orol dengizi deyarli “o‘lik” dengizga aylandi. Uning qurib qolgan qismining maydoni 4,2 mln. getktarni tashkil etdi va yaqin atrofga qumli tuzlar tarqatish manbai bo‘lib qoldi. CHang tarqalayotgan maydon uzunligi 400 kilometr va kengligi 40 kilometrga etmoqda. CHangli bo‘ronlar ta’sir doirasi 300 kilometrn qamrab olmoqda.

Xar yili bu erda atmosferaga 15 dan 75 million tonnagacha chang ko‘tariladi. Utgan asrning 80-yillaridan boshlab, bunday bo‘ronlar yiliga 90 kunlab kuzatiladi.

Ayni paytda Amudaryo va Sirdaryo deltalarida erlarning tabiiy xolati buzilib, cho‘lga aylanish sur’atlari o‘sib bormoqda.

Orol dengizining qurib borishi sababli kelib chiqishi va oqibatlari darjasini bo‘yicha xalqaro xususiyatdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar majmuasi yuzaga keldi.

“Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir.

Dengiz xavzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta’sirida qoldi”.

Markaziy Osiyo xududi xavfli tabiiy jarayonlar va xodisalar keng doirasining ta’siri ostida qolib, ularning orasida eng katta xavf tug‘diruvchilari - zilzilalar, suv toshqinlari, sel oqimlari va er ko‘chishi xisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi xududining iqlimi va geologik xususiyatlari xamda xalq xo‘jalik tarmoqlarining infratuzilmasi favqulotda xolatlar yuzaga kelishining yuqori darajadagi extimolliklariga (tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishdagi yirik baxtsiz xodisalar va falokatlar) sabab bo‘ladi.

Inson tomonidan yo‘q qilingan turlarning darjasini va hajmi biroz baxs munozarali hisoblanadi, biroq oxirgi yuz yillar mobaynida yo‘qolish darajasining shiddat bilan o‘sib borayotganiga hech kim shubxa qilmaydi. Bunga asosiy sabab sifatida Evropa kolonizatsiya tufayli tabiiy yashash muhitlarining buzilishi va XX asr davomida aholining dunyo miqyosida ortishi ko‘rsatilmoqda. Insoniyat bevosita yoki bilvosita tarzda bo‘lgan, atrof muhitning sekin-asta o‘zgarishi tufayli sodir bo‘ladigan “tabiiy” va “ahamiyatsiz pozitsiyada” dagi turlar yo‘qolishining 100 dan 10,000 tasiga omil sifatida ko‘rsatilmoqda. Bundan tashqari yangi paydo bo‘lgan kurashlar va vaqtı-vaqtı bilan sodir bo‘lib turuvchi ofatlar ya’ni yong‘in, bo‘ron va kasalliklar ham turlarning yo‘qolishiga olib keladi. Xozirgi va kelgusida yo‘qolish ehtimollik darjasini turli usullarda masalan, Butunjahon himoya birlashmasida (IUCN) maxsus maydon modeli va o‘zgarishlari usuliga ko‘ra xavflilik kategoriysi bo‘yicha o‘lchab boriladi. Barcha mavjud turlarni butun dunyodagi miqdoriga asoslanib shuni aytish mumkinki, amfibiyalarning 31%, qushlarning 12% va sut emizuvchilarning 20% (yaxshi o‘rganilgan hayvon guruhlari) Butunjaxon himoya birlashmasi ro‘yxatiga yo‘qolish xavfi mavjud bo‘lgan turlar sifatida kiritildi. Har yili qancha turning yo‘qolishi ham juda ko‘p

munozaraga sabab bo‘luvchi mavzudir. O‘rtacha olganda ushbu ko‘rsatkich bir necha mingdan boshlanib 100,000 tagacha etishi mumkin va ushbu yo‘qolgan turlar ichida hali fanga ma’lum bo‘lmaganlarining m,avjud ekanligi achinarli hol albatta. Ushbu raqamlar turli shubxalarni keltirib chiqaradi, chunki bu turlar uchraydigan joy, aholi istiqomat maydonlari va tabiiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Bundan ko‘rinib turibdiki berilayotgan bashoratlarning ko‘pchiligi xato hisoblanib, insonning tabiiy tizimining tuzilishi va funksiyasiga ta’siri ham chalkashdir. Beshta katta yo‘qotilishlar quyidagi omillarga sabab bo‘lgan: (1) ular global turli tumanlikning yo‘qolishi; (2) ular tezlik bilan (kamida evolutsiya va geologic vaqt omili tufayli); (3) taksonomik jixatdan, ta’sir tasodifan bo‘lmagan (shuning uchun, ba’zi guruhlar ta’sir natijasida nobud bo‘lganda boshqa guruhlarning ko‘pchiligi o‘zgarishsiz qolgan); va (4) yashovchan turlar ko‘pincha avvalgi dominant evolutsion guruhdan bo‘lmagan. YUqorida keltririlgan barcha xolatlar biologik turlilik krizisiga sabab bo‘lgan. Oltinchi katta yo‘qotilish tropic regionlarga to‘g‘ri kelib, bunda region turlarning har xillik darajasiga (har bir qushning ikkidan ortiq turi mavjud) va ko‘lamiga ko‘ra yuqori o‘rinda turadi. Ushbu regionda aholining ko‘payishi ko‘pgina turlarning xavf ostida qolishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy turlaning yo‘qolishidagi asosiy “tizimli omillar” ga erdan foydalananishning o‘zgarishi (tabiiy muhitlarning yo‘qolishi va bo‘lib tashlanishi), ortiqcha ekspluatatsiya, yirtqich turlar, kasallik, atmosferada karbonat angidridi miqdorining ortishi bilan bog‘liq bo‘lgan iqlim o‘zgarishi (global isish) va azot o‘tirishining miqdorining ortishi kabilar kiradi. Qadimgi turlar yo‘qolishining (inson omili tufayli 200 yil avval) mexanizmi ham biroz o‘xshah bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: hayvonlarni ortiqcha ovlash, yirtqich hayvonlar va kasallik, va ibridoiy odamlarning tabiiy maydonlarga ko‘chib o‘tishi natijasida tabiiy yashash muhitining buzilishi.

O‘zbekiston Respublikasi xududining iqlimi va geologik xususiyatlari xamda iqtisodiyot soxalarining infratuzilmasi favqulotda xolatlar yuzaga kelishida yuqori extimollikka sabab bo‘lmoqda (tabiiy ofatlar, yirik ishlab chqarish avariyalari va xalokatlar). O‘zbekiston Respublikasining yarmidan ziyod xududlari

seysmik jixtdan faol xududlarda joylashgan, bu erlarda MSK-64 xalqaro shkalasi bo'yicha 7-9 ballik kuchga teng er silkinishlari sodir bo'lishi mumkin. Mazkur xududlarda 16 million axoli yashaydi (respublika axolisining 64%). Sanoat saloxiyatining 87,5% jamlangan. Lekin shu bilan birga oxirgi 15-20 yillar davomida ma'lum seysmik osudalik kuzatilmokda. Bu esa ortiqcha seysmik energiyaning tuplanishi bilan ifodalanuvchi xavotirli belgi xisoblanadi. 1996 yil oxiri va 1997 yil boshidan boshlab O'zbekiston va respublikamizga qo'shni bo'lgan davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston, shimoliy-g'arbiy Xitoy, Afg'oniston, shimoliy eron, Turkiya) xududlarida seysmik faollashish davri boshlandi. 1998 yil fevral oyida shimoliy Afg'oniston xududining Xindikush tizmalarida zilzila markazida 8-9 ballga tent kuchli er silkinishi sodir bo'ldi. Janubiy Osiyo, Osiyo - Tinch okeani mintaqasining bir qator mamlakatlarida yadro qurollari sinovlari qayta boshlanishi mumkinligi xam tashvishli xol bo'lib, ular xam Markaziy Osiyoda er silkinishini keltirib chiqarishi mumkin.

CHorvoq, Andijon (O'zbekiston), Toktogul (Qirg'iston) Qayrokum (Tojikiston), Kattako'rg'on, janubiy Surxon suv omborlari to'g'onlarining shikastlanish extimoli ayniqsa xavotirli vaziyatlarni yuzaga keltirishi va buning oqibatida respublika xududida suv bosish xududlari paydo bo'lishi mumkin. Tojikiston tog'larida Usoy uyumi natijasida yuzaga kelgan Sarez ko'li aloxida xavfli xisoblanadi (xajmi -16,6 km<sup>2</sup>). Agar bu uyum to'sig'i yorib o'tilsa Bartog, Panj va Amudaryo daryolar vodiylarida xalokatli toshqinlar yuzaga kelishi mumkin.

Toshkent, Qashkadaryo va Surxondaryo viloyatlari Respublikada eng xavfli er ko'chish xududlari xisoblanadi.

Tog'lar o'ramidagi Farg'ona vodiysida ko'chkilar asosan adirlarni o'zlashtirish bilan bog'liq, Samarqand viloyatining ba'zi xududlarida xam ko'chkilar kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasining tog' yon bag'ri xududlarining deyari barchasi sel xavfi bor xududlar xisoblanadi. Fargona vodiysi, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari sel xavfi kuchli xududlar xisoblanadi. Qorlar jadal eriy boshlaydigan,

uzoq vaqt davom etadigan yomg'irlar davri - aprel-iyun oylarida sellar yuzaga kelish faollashuvi kuzatiladi.

SHunga qaramay xozirgi vaqtida respublikada atigi 5 ta sel omborlari faoliyat yuritmoqda.

Markaziy Osiyoda XXI asrda suv manbalarining cheklanganligi sababli vaziyatning keskinlashishi mumkin. Suv manbalari bilan ta'minlanish borasida O'zbekiston eng noqulay tabiiy sharoitlarda qolgan. Markaziy Osiyo gidrografik tarmog'i suv manbalari ob'ektlarining notekis taqsimlanishiga ega. Sirdaryo daryosi o'zani bo'yicha ko'p yillik o'rtacha daryo oqimi yiliga 37,9 km<sup>3</sup> tashkil etadi. SHu bilan birga ko'p yillar davomida o'rtacha Qirg'izistonda yiliga 28,0 km<sup>3</sup> (73,8%), O'zbekistonda - 5,59 km<sup>3</sup> (14,8%) va Qozog'istonda - 4,08 km<sup>3</sup> (10,8) daryo resurslari shakllanadi. Amudaryo basseyni bo'yicha o'rtacha ko'p yillik resurslar 78 km<sup>3</sup> dan ortiqni tashkil etadi, ulardan 62,9 km<sup>3</sup> (80% dan ortigi) Tojikiston xududida shakllanadi, O'zbekistonda esa faqatgina 4,7 km<sup>3</sup> (6%) qismi tarkib topadi.

Amudaryo suvlarini burish yo'li bilan shimoliy Afg'onistonning daryo bo'yini xududlariga suv chiqarish loyixasini amalga oshirish qo'shni mamlakatlar, birinchi navbatda O'zbekiston va Turkmanistonning xo'jalik manfaatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, cheklangan suv resurslaridan foydalanish uchun tortishuvlarda vaziyatni keskinlashtiradi.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda cho'lga aylanish jarayonlari aloxida tashvishli xolatdir. Bu faqatgina cho'l xududlarining kengayib borishidagina emas, balki biologik maxsuldarlik darajasining o'zgarishida xam namoyon bo'lmoqda. Cho'lga aylanib borish er landshaftining biologik maxsuldarligini pasayishiga olib keladi va buning oqibati sifatida - axolining ekologik noqulayliklariga, o'simlik va xayvonot dunyosi turlari tuzilmalarining qisqarishiga sabab bo'ladi. Mana shu ko'rsatkichlar bo'yicha Markaziy Osiyoda yangi cho'llar maydoni deyarli 100 ming km ga ortgan, ba'zi xududlarning maxsuldarligi esa 50% gacha kamaygan.

CHo‘lga aylanib borish ma’lum darajada ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikka (chorvachilik maxsuldarligini pasayishiga va kasalliklar kelib chiqishining o‘sishiga) sabab bo‘ladi.

CHo‘lga aylanib borishning asosiy sababi - suvdan noto‘g‘ri foydalanish va ma’lum darajada iqlim o‘zgarishi tufayli xududlar va akvatoriya suv rejimining o‘zgarishi xisoblanadi. Orol bo‘ylarida, Ustyurt tizimi, Qoraqum va Qizilqum cho‘llarida, Tyan-SHan va Pomir tog‘ yon bag‘irlarida ayniqsa cho‘lga aylanish jarayonlari tez kechmoqda.

Ekin maydonlari, er resurslari doimiy ravishda turli xildagi eroziyalardan zararlanmoqda, shu jumladan suv erroziyası - 2790 ming ga (sug‘oriladigan - 339 ming hektar), shamol erroziyasiga - 20478 ming ga (sug‘ori-ladigan - 2262 ming hektar), bir vaqtning o‘zida xam suv, xam shamol erroziyasidan 2005 ming ga (sug‘oriladigan -341 ming hektarda) zararlanadi.

Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Farg‘ona viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida tuproqning deflyasiyasi eng keng tarqalgan.

Surxondaryo, Toshkent, Namangan va Andijon viloyatlari erlari eng ko‘p darajada suv eroziyasidan zararlangan, bu xududlarda 50-60% qishloq xo‘jalik maydonlari eroziyaga duchor bo‘lgan. SHaxar va qishloq axoli turar joylarida 20% dan ortiq xududlarni kuchli suv bosgan.

Biologik ob’ektlardan faol foydalanish o‘simliklar va xayvonlar xayot kechirish sharoitlarining yomonlashuviga, ularning turlari va umumiylar sonining kamayishiga olib keldi.

Respublika yovvoyi o‘simliklar dunyosining 3000 dan ortig‘ini oliy o‘simliklar tashkil etadi, ular orasida ko‘plab endemik va qadimgi o‘simliklar bor. O‘simlik dunyosini saqlab qolishga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lish va undan nooqilona foydalanish o‘simliklar dunyosining keskin kambag‘allahib ketish xavfini yuzaga keltirdi.

Keyingi o‘n yillik davomida “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi” ga kiritilgan noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik turlari soni 163 tadan 301 turgacha ortdi (respublikamiz ja’mi o‘simlik dunyosining 8%).

O'rmonzorlarning katta miqdori yo'qolib ketishi xavotirli xolatdir. Keyingi o'n yil ichida o'rmon xo'jaliklari tomonidan o'stirilgan daraxtzorlarning umumiyligi xajmidan taxminan 124.0 ming ga maydondagi daraxtlar yo'q bo'lib ketdi (umumiyligi maydonning 32%) va xisobdan chiqarildi.

Archa va to'qay o'rmonzorlari ekotizimi eng ayanchli xolatda. Xayvonlarning ko'p turlari va soni ancha qisqardi: to'qay bug'usi, xongul-arxar, tog' echkisi, bug'u, yovvoyi chg'chqa, jayron. Bu esa ular bilan bog'liq bo'lган yirtqichlar, yulbars, qoplon, gepard, qizil bo'ri, chiya bo'ri kabilarning respublika xayvonot dunyosidan yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. O'simliklar va xayvonlar endemik turkumlaridan menzbir (Angren yassi tog'liklari) sug'uri, tog' tekisliklari turlari, inson tomonidan keng o'zlashtirilgan Amudaryo quyi oqimlaridagi hidrofil turlari sezilarli jabrga duch kelmoqda. Bundan tashqari 1981 yilda chiqarilgan "Qizil kitob" ga 161 turdag'i xayvonlar kiritilgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 184 turni tashkil etdi, shunga o'xshash 1991 yilda 163 o'simliklar turlari kiritilgan bo'lsa, 1999 yilda 301 turi qayd etildi.

Muxrfaza etiladigan tabiiy xududlarning mavjud tizimi O'zbekistonning xayvonot va o'simliklarning barcha turlarini qamrab olmagan. Ustyurtda, Qizilqum cho'llarida, adirli past tog'liklarda qo'riqlanadigan tabiat xududlari mavjud emas.

SHunday qilib, axoli sonining o'sish sur'atlarini tartibga solish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash xamda nooqilona iste'mol qilish va ishlab chiqarish tizimlarini qisqartirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanish bo'yicha say'i-xarakatlar bir-birini to'ldirish xususiyatiga ega.

Ekologik taxdidlar - bu atrof-muxit axvoliga va insonning xayot faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri zarar etkazish yoki bunga sabab bo'ladigan tabiiy va texnogen xususiyatdagi xodisalardir.

Ekologik taxdidlar quyidagi darajalar bo'yicha tasniflanadi: global, mintaqaviy, milliy, maxalliy.

### Ta'lim va tarbiya konsepsiysi

Keyingi davrlarda - fan va texnika yutuqlariga asoslangan insoniyatning tabiatga ko'rsatgan ta'siri nihoyatda kuchaygan bir paytda tabiatni, undagi

ekologik muvozanatni asrash nihoyatda muhim muammolardan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham kelajak avlodni ekologik jihatdan savodli va etuk kishilar qilib tarbiyalash, bu borada yoshlar ongida ekologik tushunchani shakllantirish hozirgi davrning dolzarb muammosidir.

Tabiat muvozanatini to‘g‘ri tushunmaslik natijasida inson o‘z yashab turgan muhit tabiiy holatning o‘ta buzilishiga sababchi bo‘lmoqda. Insonning tabiatdagi o‘rnini aniq belgilash shart, uning javobgarligini oshirish va hosil bo‘lgan yangi kuchlarini beosferani yaxshilashga yo‘naltirish kerak bo‘ladi. SHu narsani alohida qayd qilish kerakki, har bir odam o‘zi yashab turgan joyni kuzatabiladigan, uning tarixini, tarkibini, organik va mineral komponentlarini to‘liq o‘rgangan bo‘lishi shartdir. Bu mas’uliyatli vazifani bajarishda o‘quvchilarga va barcha yosh avlodga berilayotgan ekologik ta’lim tarbiyaning ahamiyati benihoya kattadir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008 yil 19 sentyabrdagi “2008-2012 yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof – muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to‘g‘risidagi 212-sonli qaror” e’lon qilingan edi. SHu qarorga binoan O‘zbekiston Respublikasining barcha Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va boshqa tashkilotlar 2008-2010 yillarda ekologiya va barqaror rivojlanishni ta’minalash sohasidagi ma’rifiy tizimni yanada rivojlantirish va takomillashtirish dasturi bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib amalga oshirmoqdalar.

Respublikada yashayotgan har-bir inson va yosh avlod bizdagi ekologik muammolarni yaxshi bilishi kerak. Ekologik ma’naviyatni yuqori ko‘tarish lozim. YOshlarni ko‘proq tabiatni muhofaza qilishga va asrashga qaratmoq kerak. Qur’onda keltirilgan 6000 oyatdan 700 tasi tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan. Ekologik ta’lim masalasiga befarq qaramaslik kerak, uni hayotga tez tadbiq qilishimiz lozim. Biz ekologik muvozanatni buzganimiz uchun Orol dengizi atrofida qishloq xo‘jaligida yo‘l qo‘yilgan xatolar dengizning qurishi olib keldi, bu esa o‘z navbatida ana shu viloyatlardagi aholi yashash sharoitlarining yomonlashishiga va har xil kasalliklarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi shu sabablarning buzilishi har xil ekologik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan Amyodaryo quyi qismida hosil qilingan

ekologik fofija, yana har xil o‘ta zaharli moddalarining dehqonchilikda ishlatalishi, daryo suvlaridan to‘g‘ri foydalanmaslik, mineral o‘g‘itlarning noto‘g‘ri va me’yordan yuqori ishlatalishi, ko‘llarning qurishi mintaqada ekologik muvozanat buzilishiga olib keldi.

Hozirgi kunga kelib atmosfera havosi chiqindilar bilan ifloslanishi jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Atmosfera havosining zararli gazlar, chang, qurum, tumanlar bilan ifloslanishi o‘z navbatida insonlarda allergiya, pnevmaniya, bronxial astma va rak kasalliklarini uyg‘otmoqda. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda Olmaliq, Farg‘ona, Navoiy va Qo‘qon shaharlari atmosfera havosining zararli moddalar bilan ifloslanishi bo‘yicha eng iflos havoli shaharlar guruhibiga kiradi. CHirchiq shahrida qon kasali 4,7 barobar, endokrin bezlar tizimi kasalligi 1,9 barobar, qon bosimining oshishi 4,5 barobar ortganligi ma’lum.

Farg‘ona shahrida 1982-1988 yillar mobaynida nafas yo‘li kasalliklari juda oshganligi aniqlangan edi. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo xududiga Tojikistonning Mirzo Tursunzoda shahrida joylashgan alyuminiy zavodi chiqindilarining asorati tufayli bu erda birqancha kasalliklar sodir bo‘lmoqda.

Ayniqsa bolalar o‘rtasida qon va qon yaratuvchi a’zolar, asab tizimi va sezish a’zolari, suyak-mushak tizimi kasalliklari ancha ko‘paygan.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, alyuminiy zavod ishlab tursa atrof-muhit, tuproq va suv fitorli vodorodli, ikki oksidli oltingugurt, ikki oksidli azot, benzopiren bilan ancha bug‘lanishga sabab bo‘ladi. Bu holat esa aholi o‘rtasida umumiylashtirishni ko‘payishiga olib kelayapti.

Respublikamizda sanoatning va kon-metallurgiya kombinatlaridan chiqadigan birikmalar, neft mahsulot chiqindilari mis, xrom, oltingugurt va boshqa zaharli moddalar oqova va daryo suvlariga tashlab yuborilmoqda.

Ayniqsa, jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan qurilish materiallari ishlab chiqarish (sement zavodlari) atmosfera havosini ifloslanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda havoni eng zaharovchi man’ba avtomobil transport hisoblanadi. Ular tarkibida barcha tirik jonzodni zaharovchi qo‘rg‘oshin

birikmalari bor. Toshkent atmosferasiga avtomobil gaz chiqindilari bilan har xil ifloslantiruvchi moddalar tushadi. Keyingi yillarda O'rta Osiyo sharoitida qishloq xo'jalik ancha jadallahshdi. Ekin maydonlar kengaydi. Tuproqqa solinadigan o'g'itlar miqdori oshib bormoqda. Mineral o'g'itlar, zaharli ximikatlarning keng qo'llanilishi tuproqda va keyinchalik o'simliklar va hayvonlardan olinadigan mahsulotlarda kadmiy, qo'rg'oshin, simob, ftor va tabiiy radionukleidlar miqdorining oshishiga olib kelmoqda. Sug'oriladigan er maydonlarining kengayishi natijasida O'rta Osiyo respublikalarida ekologik sharoitning juda murakkablashuviga olib keldi. Millionlab gettar erlar sho'rlandi va suv tagida qoldi, oqova suvlarning ko'payishi sho'r ko'llarni yuzaga keltirdi. Amudaryo va Sirdaryodan rejasiz tarzda ko'plab suvni olish ekologik holatni buzilishiga, ya'ni Orol dengizining qurishiga olib keldi. Qishloq joylarda suvning tarkibi buzildi. Orol bo'yida Qoraqalpog'iston, Xorazm, Toshkent viloyatlarida suv ta'minotida og'ir vaziyat yuzaga keldi.

O'zbekistonda 4,5 mln. ga sug'oriladigan er mavjud, shundan hozirgi kunda 65% er maydoni ma'lum darajada sho'rangan, meliorativ holati yomonlashgan. Bu erlarni ekologik va melorativ holatini yaxshilash maqsadida xukumatimiz 130 milliard so'm mablag' ajratdi.

Ko'p zaharli ximikatlar ishlatilish tufayli tibbiy-sanitariya holat murakkablashdi, ichimlik suvning sifati yomonlashdi.

Faqat O'zbekiston Respublikasi xududida keyingi 10 yil mobaynida har yili chet elda foydalanish man qilingan, tarkibida xlor mavjud pestitsidlar 6 ming tonnadan ortiq ishlatildi. Respublikaning ochiq suv havzalarida bakterial va kimyoviy ifloslanish ko'paymoqda. Ayniqsa kimyoviy moddalar bilan ifloslanish Surxondaryo viloyatida 45,5%, Buxoroda 30,7%, Xorazmda 22,5% undan tashqari Toshkent shahrida 36,4% va Qoraqalpog'iston Respublikasida - 47,2% ni tashkil qiladi. Hozirgi kunda 217 shahar va shahar tipidagi punktlarda 69 kanalizatsiya tizimi mavjud. Respublika bo'yicha 14% aholi kanalizatsiya xizmatidan foydalanadi.

O‘rta Osiyo mintaqasi ekologiya tizimida vujudga kelayotgan ijtimoiy ekologik vaziyat aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Keyingi 15 yilda faqat O‘zbekistonning o‘zida katta yoshdagi aholi va bolalar orasida kasallik muntazam o‘sib borgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy-ekologik vaziyat yaxshi bo‘lмаган xududlar: Orolbo‘yi, Toshkent viloyati, Angren, Buxoro, Qo‘qon, Navoiy, Samarqand kabi sanoati rivojlangan shaharlarda kasalliklarga chalinish darajasi eng yuqori ekan, chunki bu shaharlarning atmosfera havosida ftoridlar, qo‘rg‘oshin, benz (a) parin, oltingugurt qo‘sh oksidi, uglerod va azot oksidlari, xlor va ftorli vodorodlar va chang miqdori ruxsat etilgan chegaraviy miqdordan yuqoriligicha qolmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqaga aylangan bo‘lib, keljakda mashinasozlik, energetika kimyo, gaz, qurilish va oziq-ovqat sanoati transport majmuini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda.

Xolbuki, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlantirilishi respublika ijtimoiy ekologik tizimini holatiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning oldini olish uchun:

Yirik xududiy sanoat komplekslari joylashgan rayonlarda tabiatni muhofaza qilish muamolarini hal qilish;

Orol va orol bo‘yi muammolari, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish;

Agrosanoat kompleksida ekologik muamolarni hal qilish;  
Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari, pestitsidlar va mineral o‘g‘itlar bilan ifloslanishga yo‘l qo‘ymaslik;

O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash, milliy bog‘larni kengaytirish va boshqalar.

YUqorida qayd qilib o‘tilgan masalalarni hal qilishda va vatanimizda ekologik muvozanatni asrash uchun ekologik ta’lim tarbiya va tabiatni muhofaza qilish masalalarining ilmiy asoslarini chuqr va har tomonlama o‘rganishga, inson faoliyati natijasida biosferada ro‘y berayotgan hodisalarining sabab va

qonuniyatlarini tahlil qilish asosiy masalalardan hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish, yoshlarni ekologik, estetik, ma’naviy va ularni mehnatga o‘rgatish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ekologik ta’lim tarbiya litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarining talabalarini o‘z ichiga oladi. Unda tabiat go‘zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalashni taqozo qiladi. YOsh avlodga ekologik ta’lim va tarbiya berish murakkab, uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. YOshlar tabiat haqidagi dastlabki tasavvurlarni odatda o‘z uylarida oladilar. YOshlari ulg‘aygan sari ularning tabiatga bo‘lgan munosabatlari ijobiyligi tomonga o‘zgarib boradi. SHuning uchun ham ota-onalar o‘z farzandlarini ekologik masalalar haqidagi tushunchani ularning ongiga singdirib, tabiatni sevish tuyg‘usini shakllantirib borishlari shart. YOshlarda ekologik madaniyatni shakllashtirish uchun barcha oliy o‘quv yurtlarida ekologiya fanini fuqurroq va mukammal o‘qitish lozim. Ana shundagina yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni bajarish oson bo‘ladi. Hozirgi kunda ekologiya dasrlari ko‘pchilik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilmaydi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarining eng muhim tarbiyaviy qismidir. Insonlarda tabiat qonunlariga to‘la rioya etish to‘g‘risida va bu sohada Vatan, xalq, davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg‘usi va mas’uliyat hissi yaratilmasa, ularda to‘la ekologik ong va tafakkur hosil bo‘lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga ega bo‘lgan inson o‘z mehnat faoliyatida tabiatga ta’sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘rib, ongli ravishda ish ko‘radi. Ekologik tarbiya – ahloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Qishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi va kelajakda sog‘lom hayotiy muhitni yaratishda kafolat beradi. Kelajak avlod uchun go‘zal tabiatimiz go‘zalligicha qolaveradi.

### “Blits usuli”

<u>Nº</u>	<u>Mavzular savoli</u>	<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni xoxlayman</u>	<u>Bildim</u>
1.	Ekologik monitoring			

2.	Global monitoring			
3.	Xududiy monitoring			
4	Maxalliy monitoring			
5.	Mlliy monitoring			
6.	Ekologik muammolar			

### “Insert usuli”

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

#### **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘srimcha ma’lumot zarur

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Monitoring				
Ekologik monitoring				
Eroziya				
Ekologik monitoring darajalari				
Ekspertiza				
Ekologik ekspertiza				

### **Mavzuga oid vaziyatli masalalar**

#### Vaziyatli masala

Qaysi monitoringning vazifasi zararkunandalar populyasiyasining dinamikasini kuzatish va ularni ta’qib qilib turish, jumladan katta maydondagi hasharotlarni (u yoki bu turning butun arealida), muhofaza qilinadigan hayvonlar populyasiyasi harakatini hisobga olishdir?. Monitoring o‘rmon va dala

o'simliklariga hasharotlar tomonidan ko'rsatiladigan zararlarni, ularning vaqtlarini nazorat va taxlil qilish imkoniyatini beradi. Kuzatish nuqtalaridan olingan yalpi ma'lumotlar hisoblash texnikalari yordamida yaxshi tahlil qilinishi kerak.

#### Vaziyatli masala

Ekologik monitoring har xil darajadagi zanjirlarni o'z ichiga olishi zarur, jumladan: global, milliy, xududiy, mahalliy, surunkali, uzluksi, kvartal, oylik.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

Xududiy monitoring, bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

Global (biosfera) monitoring, bu har bir davlatning o'zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi;

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

Mahalliy (bioekologik) monitoring - bu yirik hududda xalq xo'jaligini o'zlashtirish bo'yicha faol faoliyat ko'rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etilayotgan bo'lsa;

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

Milliy monitoring, aholi yashaydigan mavzelar, sanoat markazlarida, korxonalarda muhit sifatining o'zgarishlarini hisobga oladi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

Respublikamizda axoli zichligining ko`rsatkichi 1980-yildagi bir kvadrat kilometrga 45,6 kishidan 2002 yilga kelib 58,8 kishigacha ortdi. Axoli sonining ortib borish sur'atlarini xisobga olib, 2010 yilda respublika axolisi 28,5-28,7 million kishini tashkil etishi taxmin qilingan.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

O‘zbekiston Respublikasi qaysi xududining iqlimi va geologik xususiyatlari xamda xalq xo‘jalik tarmoqlarining infratuzilmasi favqulotda xolatlar yuzaga kelishining yuqori darajadagi extimolliklariga (tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishdagi yirik baxtsiz xodisalar va falokatlar) sabab bo‘ladi.

1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

#### Vaziyatli masala

O‘zbekiston Respublikasining tog‘ yon bag‘ri xududlarining deyari barchasi sel xavfi bor xududlar xisoblanadi. Qaysi viloyatlari sel xavfi kuchli xududlar xisoblanadi. Qorlar jadal eriy boshlaydigan, uzoq vaqt davom etadigan yomg‘irlar davri - aprel-iyun oylarida sellar yuzaga kelish faollashuvi kuzatiladi.

#### Vaziyatli masala

Xozirgi vaktda suv, elektr kuvvati, neft, moy, mineral va organik xom ashyolar, metall, kumir va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanishda kuplab isrofgarchilikka yo‘l ko‘yilyapti.


1. Vaziyatni baxolang.
2. Sizningfikringiz.

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” USULI**

**“EKOLOGIK MONITORING”**



## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“Klaster” usuli**

**O‘rmonlari xar  
daqiqada 20 ga ga  
kamayadi**

**O‘rmonlar maydoni  
xar yili 1 % ga  
qisqaradi**

**EKOLOGIK  
MUAMMOLAR**

**Kislород xajmi yiliga 10  
mlrd t ga kamayadi**


**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**


**«NILUFAR GULI» usuli**

**EKSPERTIZA JARYONIDA KORXONANING ATROF MUXITGA,  
ODAMLARNING**

**SOGLIGIGA TA’SIR QILISHINI O’RGANISH**




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egallashning**  
**“PIRAMIDA” o‘quv texnologiyasi**  
**EKOLOGIK XAFSIZLIK. EKOLOGIK TA’LIM TARBIYA**



**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**“VENN DIAGRAMMASI” usuli**




## **Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning**

**o‘quv texnologiyasi**

**«NILUFAR GULI» usuli**

### **RESPUBLIKAMIZ AXOLI ZICH YASHAYDIGAN XUDUDLARIDAGI MUAMMOLAR**



#### **1 - variant**

1. “Monitoring “ atamasi qanday ma’noni anglatadi ?
  - A. lotincha “monitor”, ilgariga qarovchi yoki “kuzatuvchi“ degan ma’noni anglatadi.
  - B. grekcha “monitor”, orqaga qarovchi yoki “kemiruvchi“ degan ma’noni anglatadi.
  - V. yunlncha “monitor”, yonga qarovchi yoki “nazoratchi“ degan ma’noni anglatadi.

G. inglizcha “monitor”, kelajakka qarovchi yoki “raxbar“ degan ma’noni anglatadi.

2. Monitoringning maqsadi nima ?

A. faktlarni qayd etish, eksperimentlar o‘tkazish, jarayonlarni modellashtirish, ilmiy bashoratlarning sifatini tekshirish

B. Klonlashtirish ishlarini olib borish, faktlarni qayd etish, eksperimentlar o‘tkazish,

V. xayvonlarda tajribalar o‘tkazish, jarayonlarni modellashtirish,

G. o‘simliklar seleksiyasi bilan shug‘ullanish, ilmiy bashoratlarning sifatini tekshirish

3. Monitoringning mahalliy vazifasi nimalardan iborat?

A. zararkunandalar populyasiyasining dinamikasini kuzatish va katta maydondagi hasharotlarni, muhofaza qilinadigan hayvonlar populyasiyasi harakatini hisobga olish.

B. bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi

V. bu har bir davlatning o‘zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi

G. bu yirik hududda xalq xo‘jaligini o‘zlashtirish bo‘yicha faol faoliyat ko‘rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etiladi

4. Ekologik monitoringning darajalari?

A. Global, milliy, xududiy, mahalliy,

B. An’anaviy, milliy, xududiy, mahalliy,

V. Global, yuridik, xududiy, mahalliy,

G. Global, milliy, konstitutsion, mahalliy,

5. Global (biosfera) monitoringining vazifalari nimalardan iborat?

A. bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi

B. bu har bir davlatning o‘zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi

V. aholi yashaydigan mavzelar, sanoat markazlarida, korxonalarda muhit sifatining o‘zgarishlarini hisobga oladi.

G. bu yirik hududda xalq xo‘jaligini o‘zlashtirish bo‘yicha faol faoliyat ko‘rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etiladi

6. Milliy monitoring nima?

A. bu har bir davlatning o‘zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi;

B. aholi yashaydigan mavzelar, sanoat markazlarida, korxonalarda muhit sifatining o‘zgarishlarini hisobga oladi.

V. bu yirik hududda xalq xo‘jaligini o‘zlashtirish bo‘yicha faol faoliyat ko‘rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etiladi

G. bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi

7. Xududiy monitoring nima ?

A. bu yirik hududda xalq xo‘jaligini o‘zlashtirish bo‘yicha faol faoliyat ko‘rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etiladi

B. bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi

V. bu har bir davlatning o‘zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi

G. aholi yashaydigan mavzelar, sanoat markazlarida, korxonalarda muhit sifatining o‘zgarishlarini hisobga oladi.

8. Mahalliy (bioekologik) monitoring nima?

A. aholi yashaydigan mavzelar, sanoat markazlarida, korxonalarda muhit sifatining o‘zgarishlarini hisobga oladi.

B. bu xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladi

V. bu har bir davlatning o‘zida maxsus tashkil qilingan tashkilotlar tomonidan olib boriladi

G. bu yirik hududda xalq xo‘jaligini o‘zlashtirish bo‘yicha faol faoliyat ko‘rsatilayotgan rayon ekotizimidagi hududda yirik ishlab chiqarish kompleksi barpo etiladi

9. Lishayniklarning daraxtlar poyasida uchrashi bilan atmosferaning ifloslanishi o‘rtasida bog‘lanish nimadan iborat?
- A. agar atmosfera zaharli moddalar bilan ifloslangan bo‘lsa, lishayniklar u erdag'i daraxtlar poyasida kam uchraydi.
- B. xech qanday bog‘lanish yo‘q.
- V. atmosfera zaharli moddalar bilan ifloslanmagan bo‘lsa, lishayniklar u erdag'i daraxtlar poyasida ko‘p uchraydi
- G. atmosfera zaharli moddalar bilan ifloslangan bo‘lsa, lishayniklar u erdag'i daraxtlar poyasida ko‘p uchraydi
10. Atmosferaning ifloslanish darajasini aniqlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul?
- A. lixenoindikatsiya
- B. lixenokondensatsiya
- V. mashinoindikatsiya
- G. lixenokompensatsiya

## 2 - variant

1. Markaziy Osiyo xududi xavfli tabiiy jarayonlar va xodisalarga nimalar kiradi ?
- A. zilzilalar, suv toshqinlari, sel oqimlari va er ko‘chishi
- B. tsunami, toshqinlari, sel oqimlari va er ko‘chishi
- V. tornado, suv toshqinlari, oqimlari va er ko‘chishi
- G. vulknn, suv toshqinlari, sel oqimlari
2. Sel xavfi kuchli xududlar qaysilar?.
- A. Fargona vodiysi, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari
- B. Sirdaryo, Amudaryo, Qashqadaryo viloyatlari
- V. Jizzax, Andijon, Xorazm viloyatlari
- G. Navoiy, Samarqand, Buxoro viloyatlari.
3. Ekologik taxdidlar qanday tasniflanadi:
- A. global, mintaqaviy, milliy, maxalliy
- B. genetik, maxsus, milliy, maxalliy
- V. global, markaziy, muxim, maxalliy
- G. global, mintaqaviy, muxit, aralash

4. insoniyat er bagridan yiliga qancha tog jinslari kazib oladi?
- A. 100 milliard tonna
  - B. 10 milliard tonna
  - V. 1 milliard tonna
  - G. 50 milliard tonna
5. sayyoramiz o`rmonlari xar dakikada qanchaga kamayadi?
- A. 20 gektarga
  - B. 10 gektarga
  - V. 30 gektarga
  - G. 15 gektarga
6. Atmosferadagi kislorod xajmi yiliga qanchaga kamayadi?
- A. 10 milliard tonnaga
  - B. 20 milliard tonnaga
  - V. 1 milliard tonnaga
  - G. 5 milliard tonnaga
7. atmosfera havosining zararli moddalar bilan ifloslanishi bo'yicha eng iflos havoli shaharlar guruhiiga kiradi
- A. Olmaliq, Farg'ona, Navoiy va Qo'qon
  - B. Toshkent, Buxoro, Samarkand.
  - V. Xorazm, Ug'rgench, Nukus
  - G. Termez, YAngiyo'l, Gazalkent
8. Orol dengizining satxi qanchaga pasaydi?
- A. 22,0 metrdan ko'proqqa
  - B. 32,0 metrdan ko'proqqa
  - V. 12,0 metrdan ko'proqqa
  - G. 2,0 metrdan ko'proqqa
9. Orol dengizi suv xajmi qanchaga pasaydi?
- A. 1064 dan 115 kilometr kubgacha
  - B. 2064 dan 105 kilometr kubgacha
  - V. 1564 dan 11 kilometr kubgacha

G. 564 dan 15 kilometr kubgacha

10. Orol dengizi qurigan joylardan xar yili atmosferaga qancha chang ko‘tariladi?

A. 15 dan 75 million tonnagacha

B. 5 dan 15 million tonnagacha

V. 25 dan 35 million tonnagacha

G. 1 dan 55 million tonnagacha

### Gigiena bloki

#### 1 – mavzu: Organizmning vitaminlar bilan ta’milanganligini baholash. Ovqatdan zaxarlanishlar va ularning profilaktikasi

		Faoliyat mazmuni
Amaliy mashg‘ulot xronologik xaritasi Texnologik bosqichlar		
1.O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	<p>Assistant</p> <p>1.1.Mashg`ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2.SHu jumladan talabalarni rejalshtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish. (1 ilova)</p>	<p>Talaba</p> <p>Mashg`ulot rejasidagi bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1.Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi. YUqoridagi savollar asosida savol-javob o’tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nioxidasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtiokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat</p> <p>3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari birgalikda izlanibya.</p> <p>Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg`ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiyligi xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

Inson o‘z faoliyati jarayonida, yoki unga bog‘lik bo‘lmasligi sabablar bilan ovqat tayyorlashda, sotishda, tashishda, sanitariya – gigiena va san-epidemiyaga qarshi me’yor va qoidalarga rioya qilmasligi natijasida, ovqat mikroblari va nomirkobli zaxarlinishni sababchisi bo‘lishi mumkin. Kasallikni kelib chiqishda uzatuvchi omil xizmat qiladi, kasallik ma’nbai esa bakteriyalar, viruslar, rikketsiyalar, sodda xayvonlar xisoblanadi.

Ovqatdan zaxarlanish ta’limoti taraqqiyotini tarixida 5 davr mavjud:

1. Qadimiy amaliyot davri
2. Kimyoviy davr
3. Ptominal davr
4. Bakteriologik davr
5. Xozirgi zamon davri (gelmintlar va boshqalar)dir.

Ovqat maxsulotlari va tayyor ovqatga zararli moddalar tushishi natijasida xam organizmda turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin .Bundan tashqari maxsulotlarni qovurish, dudlash, qaynatishda qoidalarga amal qilmaslik natijasida maxsulotlar tarkibida zararli moddalar xosil bo‘ladi , bu moddalar konserogen, toksik xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ovqat bilan bog‘liq bo‘lgan bunday patologik xolat «Ovqatdan zaxarlanish kasalliklari» guruhiba kiradi. Ovqatdan zaharlinishni hozirgi zamon talimoti. Ovqatdan zaxarlanish ta’limoti kelib chiqishini asosiy davrlari:

1.Qadimiy davrdan to 17 asr oxiriga qadar tabiatdagi zaxarlanish xususiyatiga ega bo‘lgan turli maxsulotlar, ovqatlanishda ishlatiladigan o‘simliklar, danaklar va boshqa ozuqa maxsulotlarini zaxarliligi to‘g‘risida malumot to‘planib borilgan, bu zaharlanishni oldini olish choralarini aniqlash, zaharlanishda qanday birinchi yordam berish kerakligi to‘g‘risida malumot to‘planishi bilan xarakterlanadi.

2.Kimyoviy davr 18 asr boshi, 19 asr o‘rtalarigacha davom etgan- bu davr anorganiq ximiyani rivojlanishi, og‘ir metall tuzlaridan zaxarlanish mungkinagini paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Bu davrda ovqatdan zaxarlanish kelib chiqishi kimyoviy tabiatga ega ekanligi to‘g‘risidagi talimot paydo bo‘ldi.

1.Ptominal davri 19 asr o‘rtasida va 19 asr oxiri organiq ximianing rivojlanishi, alkoloidlarni topilishi va u to‘g‘risidagi talimotni yaratilishi. Bu davrda ovqatdan zaharlanishni yangi gipotezasi «Ptomain» nazariyasi yaratilgan. Bu nazariyani 1872 yilda Italian olimi Selmi fanga kiritgan. Ovqatdan zaxarlanishni sababi «Oqsil maxsulotini bo‘lishi, achishi, achish va parchalanish natijasida zararli- azotli aminning xosil bo‘lishi» dir deb xisoblaganlar. 1888 yilda bu nazariyani to‘g‘ri emasligi, laboratoriyada aniqlanadi. SHu yili buyuk olim A. Partner bиринчи мarta, ovqatdan zaxarlanish bakterial tabiatga ega zkanligini aniqladi. U Saksoniyada o‘lgan odam tanasi va kasal xayvon go‘shtidan bir xil mikroblarni aniqladi va uni Gartner tayyoqchasi deb atagan. Uch yil o‘tar-o‘tmas AQSHda D.Solmon cho‘chqalarda chuma kasalini qo‘zgatuvchisini aniqladi, keyinchalik bu ko‘zg‘atuvchini S. cholerae Surius deb ataldi.

1896 yilda Breslavda K.Kenise, 1898 yilda Ertrikda J.Nobel Salmonellas tiphimurium ni aniqlashgan. 1898 yil Gollandiyada Evan Ermengem botulizm qo‘zg‘atuvchisini aniqladi. Bu ixtiolar 4- davrni shakllanishga olib keldi.

10. Aspiratsiya kilingandan oldingi so'zgichning vazni – mg.
11. Aspiratsiya kilingandan keyingi so'zgichning vazni – mg.
12. Namuna olish vaqtida xavo xarorati –  $S^0$ .
13. Atmosfera bosimi – mm/ simob ustunida.
14. CHang xakidagi qo'shimcha ma'lumotlar. Korxona laboratoriyasining ma'dumotlariga kura chang tarkibidagi ozod kremniy (II) – oksidining miqdori - %larda.
15. Ruxsat etsa bo`ladigan miqdori (PDK) –  $\text{mg/m}^3$ .

Kimyoviy birikmalar sanoatda va qishloq xujaligida keng mikyosida qo'llaniladi. Ba'zi kimyoviy birikmalar ma'lum sharoitda o'tkir va surunkali zaxarlanishlar keltirib chikarish mumkin.

Zaxarlar – ekzogen tabiatga ega bo'lgan toksik moddalar bo'lib, organizmga kaysi yo'l bilan tushishidan kat'iy nazar, turli darajadagi struktur va funksional o'zgarishlar keltirib chikaruvchi moddalardir.

Korxonada ish jarayonida ma'lum sharoitda ishchiga kimyoviy birikma ta'sir qilishi natijasida uning oragnizmida moddalar almashinushi bo'zilsa va u utkinchi – funksional yoki organik o'zgarishlar keltirib chikarsa, u sanoat zaxari deyiladi.

Sanoatda zaxarlar xom ashyo sifatida, oralik maxsulot sifatida va oxirgi maxsulot sifatida uchrashi mumkin.

### **ZAXARLARNI KIMYOVIV TASNIFI:**

1. Biologik tabiatga ega bulmagan zaxarlar.

a) Anorganik moddalar (simob, kurgoshin, mishyak, fosfor, ogir metall tuzlari, kislotalar, ishkorlar).

b) organik birikmalar (uglevodlar; metan, etap, spirtlar, efirlar, aldegidlar, ketonlar, FOB, XOB).

2. Biologik tabiatga ega bo'lgan zaxarlar.

a) Bakteriyalar zaxarlari (botulotoksin, stolbnyak toksini, difteriya, cholera toksini)

b) o'simlik zaxarlari (ko'zikorin zaxarlari, alkaloidlar)

v) xayvon zaxarlari (baliq, umurtkasizlar zaxarlari)

### **ZAXARLI MODDALARNI ORGANIZMGA TUSHISHI YO'LLARI**

1. Nafas olish sistemasi orqali: chang, bug, aerozol xolatida.

2. Teri koplamasi orqali, suyuk, kattik, poroshok xolatlarida.

3. Oshkozon – ichak sistemasi orqali, suyuk, kattik, poroshok xolatlarida.

Zaxarli moddalarni organizmga kaysi yo'l bilan tushishidan kat'iy nazar a'zolarda xar xil o'zgarishlarga uchraydi – oksidlanadi, gidrolizlanadi, aminlik xususiyatlarini yo'qotadi va aksariyati zaxarsizlanadi. Ko'pchilik zaxarli

birikmalar organizmda o‘z tarkibini o‘zgartirib, zaxarsiz shaklga aylanib. Organizmdan chiqib ketadi.

Agar organizmda biror kasallik bo`lsa yoki zaxarli moda ko‘p mikdorda tushsa – zaxarlanishlar kelib chikadi. Zaxarlanishlar o‘tkir va surunkali bo‘lishi mumkin.

1. O‘tkir zaxarlanish – kiska vaqt ichida namoyon bo`ladigan zaxarli moddani organizmga ko‘p mikdorda tushishi xisobiga xosil bo`ladigan zaxarlanishdir.
2. Surunkali zaxarlanish – o‘zok vaqt davomida organizmda zaxarli moddalarni ma’lum mikdorda tuplanishi xamda funksional o‘zgarishlar mujassamlashganda paydo bo`ladigan zaxarlanishdir.

### **ZAXARLI MODDALARNI ORGANIZMDAN CHIQIB KETISHI.**

1. Siylik yo‘llari orqali, metallar, galloidlar, buyovchi moddalar, alkaloidlar, kurgoshin, margumush.
2. ichak orqali: metallar, alkaloidlar, buyovchi moddalar, margumush, simob.
3. nafas yo‘llari orqali: alkogol, benzin, efir va boshqalar.
4. sut bezlari orqali kurgoshin, margumush.

### **TOKSIKOMETRIK KO‘RSATKICHLARNI ANIQLASH**

1. KL50 – urtacha uldiruvchi konsentratsiya 2-4 soatlik ingalatsion ta’sir natijasida 50% xayvonlarni uldiruvchi konsentratsiya (2 soat – sichkonlar, 4 soat – kalamushlar).

Bu kotsentratsiyani ANIQLASH uchun kamida 2 xil xayvonlarda tajriba utkazish kerak. Ko‘pincha ok sichkon (massasi 18-24 gr) va kalamushlar (massasi 180-240 gr) qo‘llaniladi.

Zaxarli moddalar aloxida kameralarga junatiladi. Xar bir konsentrat 6 ta xayvonda tekshirimladi. 2 xtaftadan sung ulgan xayvonlar soni aniqlanadi.

2. DL<sub>50</sub>- urtacha uldiruvchi doza – oshkozonga bir marotaba yuborilgandan 50% xayvonni uldiruvchi doza.

Bu dozani ANIQLASH uchun ok sichkonlar (massasi 18-24 gr) qo'llaniladi. Xar bir tekshirilayotgan doza 6 ta ok sichkonga yuboriladi – toza xolda, suvli eritmasi yoki 0,2 ml yog‘li eritmada.

Tajribadan 3 soat oldin sichkonlarga xech qanday ovqat berilmaydi. Zaxarli moda yuborilgandan sung 3 soatdan keyin yana ovqat beriladi. 2 xtaftadan keyin ulgan xayvonlar soni xisoblanadi, ular 50% ni tashkil qilishi kerak.

3. KVIO – ingalatsion zaxarlanish imkoniyati koefitsienti – zaxarli moddani yo‘l kuyilgan konsentratsiyasini urtacha uldiruvchi (konsentratsiyasiga nisbati ( $20^0$  xaroratda)).

$$S20^0 \quad \text{mg/m}^3$$

$$\text{KVIO} = \frac{S20^0}{KL_{50}} = \frac{\text{mg/m}^3}{\text{mg/m}^3}$$

4. TTZ – toksik ta’sir zonasi – urtacha uldiruvchi kotsentratsiyani  $KL_{50}$  o‘tkir toksik ta’sir busagasiga bo‘lgan nisbati.

$$KL_{50}$$

$$TTZ = \frac{KL_{50}}{\text{Lim ac}}$$

5. Lim ac – o‘tkir ta’sir busagasi – organizmga 1 marotaba tushganda biologik o‘zgarishlarga olib keluvchi zaxarli moddani minimal konsentratsiyasi. Uni ANIQLASH uchun 2 xil xayvon qo’llaniladi. Sichkonlarga ta’sir vaqt – 2 soat, kalamushlarga – 4 soat (ta’sir qilish vaqt).

Bu zonani miqdori xam bo`lsa – o‘tkir zaxarlanish imkonini ko‘pligini bildiradi. Aksincha, zonani ta’siri keng bo`lsa o‘tkir zaxarlanishlarni potensial imkoni oz bo`ladi.

6. LD<sub>100</sub> yoki LD<sub>maks</sub>- uldiradigan eng katta mikdor – tajribadagi xayvonlarni (sichkon, kalamush, kuyon, mushuk, kuchuk va boshqalar) xammasini uldiradigan mikdor.

## **ZAXARLANISHLAR VA ULARNI OLDINI OLISH**

Ish sharoitining zararli va noqulay ta'siri bilan bog'liq ishlarda ishlash uchun bulajak kasb egalari tibbiy kurikdan utishlari va sogligiga qarab ishga kabul kilinganlar O'zbekiston Respublikasi SSVning 2000 yil 6 iyundagi 300-sonli buyrugiga asosan vaqtiga bilan tibbiy kurikdan zarur utib turishlari kerak.

- agar zaxarli muddani ishlatish zarur bo`lsa ularni ish joyidagi miqdori 1996 yilda chikarilgan SanKvM – 0046 buyicha mikdordan ortmasligi kerak.
- Kime sanoatida ishlovchilar va zaxarli kimyoviy biirkimlar bilan ishlovchilar davlat xisobidan vitaminli oziq-ovqatlar bilan ta'minlanishi kerak.
- xatarli mexnat sharoitida ishlovchilarga tibbiyot tavsiyalari buyicha bepul sut va sut maxsulotlari berish O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan 19.03.96 yilda tasdiklangan karorida o'z ifodasini topgan.
- xavfli ishlarda ishlovchilarga O'zResSSVning 1996 yildagi -00053 –SanKvM ga asosan davo va profilaktik ovqatlarni gigienik me'yorlarini berish tavsiya kilingan.

## **ISH JOYI XAVOSIDAGI ZAXARLI MODDALAR PDKSI.**

1. Azot oksidi	– 5 mg/m <sup>3</sup>
2. Ammiak	- 20
3. Xrom angidrid	-0,01
4. Anilin	- 0,1
5. Atseton	- 200
6. Benzol	- 5
7. 3.4 benzapirin	- 0,00015
8. Berilliy	-0,001
9. Brom	-0,5
10. Vanadiy	- 0,1
11. Vodorod ftorid	-0,5
12. vodorod xlorid	-5
13. Dimetilamin	-1,0
14. Dixloretan	-10
15. Diextilsimob	- 0,005

16.Marganets	-0,3
17.Metil xlorid	- 5
18.Metal simob	-0,01
19.Kurgoshin	-0,01

### **Situatsion masala.**

1. CHang miqdori 8 mg/m<sup>3</sup>, erkin kremniy oksidi tutadi, yuqori disperslikga ega va 3,4 benzapiren bor. SHaxsiy ximos vositasi yo‘q.  
Vaziyatni baxolang.

#### **Xulosa :**

2. Aralash tarkibli chang, kremniy oksidi 70%, dipersliligi 70% 7 mkm, miqdori 18 mg/m<sup>3</sup> ( PDK 4 mg/m<sup>3</sup>), chang tarkibida asbest tolalari bor.

#### **Xulosa :**

#### **1.Sanoat changi kaysi parametrlar buyicha klassifikatsiya kilinadi?**

- A. Xosil bulishi, kelib chikishi, chidamligi, ta’sir mexanizmi.
- B. Xosil bulishi, kelib chikishi, zaxarliligi, ta’sir mexanizmi.
- V. Xosil bulishi, kelib chikishi, xavfliligi, ta’sir mexanizmi.
- G. Xosil bulishi, kelib chikishi, ifloslanganligi, ta’sir mexanizmi.
- D. Xosil bulishi, kelib chikishi, chidamligi, radioaktivligi.

#### **2.Dispersligi buyicha chang necha guruxga bulinadi.**

- A. 3 ta
- B. 2 ta
- V. 1 ta
- G. 4ta
- D. 5 ta

#### **3.Mikroskopik chang zarrachasi razmeri**

- A. 0,9-2,8 mkm
- B. 0,2-10 mkm
- V. 2,3-3,6 mkm
- G.0,8-1,3 mkm
- D. 0,9-3,3 mkm.

#### **4.Paxta changidan kelib chikadigan pnevmakanioz.**


- A. Antrakoz
- B. Bitsinoz
- V. Sideroz
- G. Silikoz
- D. Silikatoz




**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning  
o‘quv texnologiyasi**

**“SHAJARA DARAXTI” USULI**

**«Sanoat korxonalarida mexnat sharoitlarini sogolomlashtirish»**



**Mavzuni amaliy ko'nikmalarini egalashning o'quv texnologiyasi «Klaster» usuli “Sanoat korxonalarida mexnat sharoitlarini sogolomlashtirish ”**



**Mavzuni amaliy ko'nikmalarini egalashning o'quv texnologiyasi  
“ECHIM DARAXTI» usuli “pnevmonokiozlar klassifikatsiyasi”**



#### **4 – mavzu: LOYIHA MATERIALLARI BO’YICHA DORIXONA MUASSASALARIGA BO’LGAN GIGIENIK TALABLAR VA ULARNI BAHOLASH.**

Dorixona sog‘liqni saqlash tizimiga taalluqli muassasalaridan biri bo‘lib hisoblanadi, u davolash-profilaktika muassasalarini va aholini dori preparatlari, sanitariya va boshqa tibbiyot mollari bilan o‘z vaqtida ta’minlaydi. Tayyorlash va saqlashda gigienik rejimlarga qattiq rioya qilish zarur.

SHuning uchun dorixonada olib boriladigan gigienik tekshiruvlarning natijasiga ko‘ra, dorixonaga qo‘yiladigan gigienik talablarni o‘rganish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Dorixonada sanitar-gigienik talablarining buzilishlarini aniqlash, shuningdek zararli ishlab chiqarish omillarining dorixona ishchilariga ta’siri natijasida kelib chiqadigan kasb kasalliklarini aniqlashdan iborat. Dorixona ishchilariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash asosiy maqsad bo‘lib hisoblanadi.

Dorixonaga qo‘yiladigan gigienik talablar SanQ va M № 0337-16 “Dorixonalarni joylashtirish, jixozlash va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha sanitar qoida va me’yorlari” va SanQ va M № 0319-15 “Dorivor moddalarni va tibbiyot uchun mo‘ljallangan buyumlarni saqlash omborlarini joylashtirish, jixozlash va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha sanitar qoida va me’yorlari”da keltirilgan bo‘lib bular quyidagilardan iborat:

- dorixona er maydoniga gigienik talablar;
- dorixona jihozlari, xonalar ichining loyihalashga va jihozlashga qo‘yiladigan gigienik talablar;
- xonalarni tozalash, dorixona jihozlarini saqlash va avaylashga qo‘yiladigan sanitariya talablari;
- tozalangan suv va ineksiya uchun suvlarni qabul qilish, saqlash va jo‘natishga qo‘yiladigan sanitariya talablari;
- dori preparatlarini aseptik sharoitda tayyorlashga qo‘yiladigan gigienik talablar;
- steril dori shakllarini tayyorlashga qo‘yiladigan gigienik talablar.

## **Dorixonaning loyihalanishi va sanitar-texnik jihozlanishiga gigienik talablar.**

Dorixonalarning aholi yashash punktlarini tasdiqlangan general rejasid asosida va loyihalash proektlariga binoan joylashishi lozim. Er maydoni hajmi shahar, posyolka, qishloq aholi yashash punktlarini loyihalashtirish va qurishga asoslangan San Q va M (Sanitar qoida va me'yori) bo'limlariga muvofiq qabul qilinadi.

Dorixona sig'imining hisob ko'rsatkichi yillik retseptlar soni (birliklarda) va mahsulot ayrboshlashga (so'mda) bog'liq.

Katta shaharlardagi dorixonalar asosan qo'shimcha bino sifatida yoki binoning birinchi qavatiga joylashtirilib, alohida er maydoniga ega bo'lmaydi. Uncha katta bo'limgan qishloq aholi yashash punktlarida, ishchi posyolkalarda dorixonalar alohida binoda joylashib, dorixona er maydoniga ega bo'ladi.

### **Dorixonalarning er maydoniga qo'yiladigan gigienik talablar.**

Dorixonalar uchun 54 m<sup>2</sup> dan kam bo'limgan hajmga ega bo'lgan maydoncha ajratilib bunday er uchastkasi ifloslanmagan, quruq, yaxshi insolyasiyalni va tinch relefli bo'lishi kerak, qisman og'ishmaga ega bo'lgan va janubga qaragan maydonni tavsiya qilish mumkin. Bu nafaqat qulay insolyasiya sharoitini ta'minlab qolmasdan, balki atmosfera yog'inlarining tabiiy oqib ketishini ta'minlaydi. Er osti grunt suvlari - er yuzasiga yaqinlik darajasi 1,5 m dan kam bo'lmasligi kerak. Bunday suvlarning er yuzasiga yaqin turishi dorixona erto'lasiga suv toshishi, devorlarda, fundament va bino xonalarida namlik paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatib, dori preparatlarining holati va xossasiga ta'sir qiladi, chunki ularning ko'pchiligi namlikka sezgir bo'ladi. Dorixona er maydoni atmosfera chiqindilaridan, shovqin va sanoat korxonalarini, aeroport, kommunal manbalar faoliyati bilan bog'liq tashqi muhitning salbiy omillaridan himoyalangan bo'lishi kerak. SHuning uchun, dorixona maydoni salbiy ta'sirlarga ega bo'lgan manbalar orasida sanitariya himoya maydonlari bo'lishi lozim. Atmosfera havosini ifoslantiruvchi manbalar dorixonanining shamol esmaydigan tomoniga

joylashtiriladi. Er maydoni atmosfera havosida zararli moddalar miqdori havo uchun belgilangan REK dan oshmasligi kerak.

Dorixona binosidan tashqari maydonda omborxona, mashinalar turar joyi, germitizatsiyalangan axlatxona va oqava suvlar o‘rasi bo‘lishi kerak. Dorixona bilan funksional bog‘liq bo‘limgan qurilish binolarini maydonga joylashtirish ruxsat etilmaydi. Markazlashgan suv bilan ta’minlanishi mumkin bo‘limganda quvurli quduq o‘rnatiladi, agar shaxtali quduq o‘rnatilgan

Sanitariyaepidemiologiyanazoratmarkazi tomonidan doimiy, qat’iy nazorat qilib borish, quduqni -vaqt bilan tozalash va zararsizlantirish lozim. Ifloslantirish manbai va quduq orasidagi oraliq 25 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Dorixonada kommunikatsiya o‘rnatishning iloji bo‘lganda, xovlida yaxshi jihozlangan va suv o‘tkazmaydigan o‘rali hojatxona joylashtiriladi. Dorixona er maydonining 15-25% qurilish binolari va 50% dan kam bo‘limgan qismi ko‘kalamlashtirilgan maydonga to‘g‘ri kelishi kerak. YUk tushirish maydonchasi va qulay kirish yo‘lakchalarini qurilishi maqsadga muvofiqdir.

Dorixona xonalarining ichini loyihalash va obodonlashtirishga gigienik talablar.

Xo‘jalik hisobidagi dorixonalarning xonalari to‘rtta guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish, qo‘sishimcha, ma’muriyat va sanitar maishiy. Ishlab chiqarish xonasi o‘z navbatida steril bo‘limgan dorilarni tayyorlash uchun xona (assistantlar, qadoqlash analistik-provizor xonasi, yuvish, distillangan suv olish va sterilizatsiya xonalari) va aseptik sharoitda dori tayyorlash xonasi (shlyuzli defektal xonasi va shlyuzli aseptik xona, distillyasion-sterilizatsiya xonasi) xonalariga bo‘linadi. Xo‘jalik hisobidagi dorixonalarda xona maydoni va to‘plami SanQ va M (SanPiN) № 0337-16asosida talab qilinadi.



Gigienik jihatidan dorixonalarda sanitariya va epidemiyaga qarshi rejimga rioya qilishda xonalarning o‘zaro joylanishi katta ahamiyatga ega. SHuning uchun dorixonanining barcha xonalari koridor orqali o‘zaro ichki aloqaga ega bo‘lishi, bundan tashqari dorixona mudirining xonasi sotuv zali bilan chambarchas bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak. Faqat retseptura bilan assistentlar xonasi, assistent xonasi bilan provizor-analitik xonasi, omborxona bilan sotuv zalida bo‘lgan mos bo‘limlar (tayyorlangan dorilarni, tayyor dori shakllarini sotadigan bo‘lim) o‘zaro bog‘liq bo‘lishlari mumkin. Dori preparatlarini saqlaydigan omborxonasi o‘tish yo‘lakchasida bo‘lishi mumkin emas va ularni bo‘laklarga ajratish ruxsat etilmaydi. O‘simliklardan tayyorlanadigan dorilarni quritish va zararsizlantirish uchun xona alohida binoda joylashtirilishi lozim.

Katta shaharlardagi zamonaviy dorixonalar aseptik bloklari tarkibida shlyuzli deffektal xona, shlyuzli aseptik, sterilizatsiya, distillangan suvni tayyorlaydigan xonalari mavjud. Aseptik blokda o‘zaro bog‘liqlikka ega barcha xonalar orqali o‘tadigan umumi shlyuzlari mavjud, 4, 5, 6 toifadagi dorixonalarda defektar xonasining bo‘lmasisligi, aseptik xonasiga sterilizatsion-distillyasion

xonalari orqali kirish ruxsat etiladi. Aseptika xonasini dorixonadagi boshqa xonalar va yo‘lakcha bilan bevosita bog‘liqlikda bo‘lishi ruxsat etilmaydi.

Dorilarni tayyorlash sanitар-gigienik sharoitni maksimal darajada yaxshilashni talab qiladi. Ko‘chadan kiradigan chang, mikroorganizmlar, sovuq havo oqimi, shovqin kabi omillar dori mahsulotlarining sifatiga va dorixona ishchi xodimlarining salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Dorixonada ikkita kirish yo‘li bor: birinchi va ikkinchi toifadagi dorixonalarda ikkita eshigi bo‘lishi; uchinchi va to‘rtinchi toifadagi dorixonalarda eni 0,9 m bo‘lgan bir tabaqali bitta eshigi bo‘lishi kerak. Xodimlar kiradigan va dori mahsulotlarini qabul qiladigan eshikning eni 1,2 m bo‘lishi kerak. 1- 3 iqlimli maydonlarda bu eshiklar ikki qavatli va isitilgan bo‘lishi kerak.

Dori oluvchilar uchun kirish yo‘li himoya to‘sилари о‘rnini bajaruvchi tamburlar bilan jihozlanadi. Tambur uzunligi 1,2 m dan kam bo‘lmasligi, kengligi kirish eshigidan 1,5 marotaba kengroq bo‘lishi kerak. Tamburdagi eshiklar bir-biriga burchak ostida joylashgan bo‘lishi kerak, chunki sotuv zaliga sovuq havo kirguncha isib ulgurishi lozim. Tamburdagi issiq havo pardasini bir-biriga qarama - qarshi joylashgan oddiy eshiklar ham bajarishi mumkin. Kirayotgan havoning harorati 30-350 S orasida bo‘lishi kerak.

1- 3 iqlimli bo‘limlarni isitish uchun ikkita tambur o‘rnataladi. 1-2 toifali dorixonalarda kiruvchi va chiquvchilar uchun tambur alohida ajratilgan (ikki tabaqali) bo‘lishi kerak. Tamburda oyoq kiyimlarni tozalash uchun panjarali qutichaning bo‘lishini e’tiborga olish lozim.

Dorixonalarda omborxona bilan bog‘lanadigan ichki xizmat zinalari va yuk ko‘taruvchi moslama (kengligi 1m va qiyaligi 1:1,5 ko‘p bo‘lmasligi) bo‘lishi kerak. 1-2 toifali dorixonalar xonasining balandligi 3,3 m dan kam bo‘lmasligi lozim.

3-5 toifali dorixonalarning qurilish balandligi aholi yashaydigan uyning balandligiga to‘g‘ri kelishi ruxsat etiladi. Erto‘lalarning, xonalarning balandligi 2,2 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Erto‘la yorug‘likka sezgir, yong‘inga xavfli, kuchli oksidlovchi, dezinfeksiyalovchi moddalarni saqlash uchun xizmat qiladi.

Erto‘ladan dorixona ichiga olib boruvchi kirish va tashqariga chiqish uchun yo‘l bo‘lishi kerak.

Dorixona xonalarining ichki sathi bajarilayotgan funksional ko‘rsatkichlarga mos ravishda jihozlanishi kerak. Bunda dorixona xonalarining jihozlanishi faqat gigienik emas, balki psixologik ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olish lozim. Xonalardagi devorlarning yuzasi bajariladigan texnologik jarayonlarga bog‘liq, ya’ni devorlari silliq, namli va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan tozalashga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Namli rejimda ishlanadigan xonalarda (yuvish, distillangan suv olinadigan, sterilizatsiya, dush xonasi, hojatxona) devorlari 1,8 m balandlikkacha yog‘li bo‘yoqlar, silliq kafellar yoki suvga chidamli sintetik materiallar bilan qoplanishi lozim. Paneldan yuqoridagi devor va shiplar suvli bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi lozim. Aseptik, assistentlar, provizor-analitik xonalarining devorlari chang to‘planmasligi uchun o‘tkir burchaklari bo‘lmasligi kerak. Aseptik xonaning barcha devori yog‘li bo‘yoq bilan, ship suvli bo‘yoqlar bilan yaxshi yuviladigan va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan tozalanadigan sintetik materiallar bilan qoplangan bo‘lishi lozim. Defektar, omborxona, kiyim uchun mo‘ljallangan xonalarining devorlari 1,8 m balandlikda yog‘li bo‘yoqlar bilan, undan yuqorisi va shipi suvli bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi lozim. Ma’muriyat xonasi, yo‘lak, ishchilar xonasining shipi suvli bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi, devorlari namga chidamli oboy yoki suvli bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi lozim. Dorixonadagi dori tayyorlaydigan xonalarining devorlariga qo‘srimcha bezatuvchi narsalarning osilishi ruxsat etilmaydi, chunki ularda chang to‘planadi va tozalash vaqtida qiyinchiliklarni tug‘diradi. Devor va shiplardagi bo‘yoqlarning rangi ochiq tonda bo‘lishi kerak.

Barcha xonalardagi pollari silliq, isitilgan, namli tozalashga qulay bo‘lishi kerak. Polni parket bilan qoplash ruxsat etilmaydi. Pol gigienik jihatdan eng qulay va qoplovchisi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- sotuv zalida-sopol plitkalar yoki sintetik materiallar (relin, linoleum);
- assistent, provizor-analitik xonalarida-sintetik yoki polimerli plitkali materiallar;

- aseptik xonalarda-rulonli materiallar (relin, linoleum), polivinilatsetat mastik material;
- yuvish, sterilizatsiya, distillyasiya-sterilizatsiya, dush xonasi, yuvish xonasi, omborxonalar sopolli plitka yoki namga chidamli sintetik materiallar. Bu xonalar poli (omborxonadan tashqari) yonidagi xonaning polidan 3 sm ga pastroq bo‘lishi kerak. Yuvisht, distillatsion-sterilizatsion va yuvish xonasida almashtirib turuvchi taxtali panjara solinishi kerak. Erto‘laning poli asfalt, asfalt-beton yoki sement bilan qoplanishi kerak.

Dorixonalarda mehnat sharoitini aniqlovchi texnologik jarayon va ishlab chiqarish omillarining asosiy gigienik tavsiyanomasi.

Dorixonada provizor va farmatsevt xodimlarining ishi ish faoliyatining murakkab va jiddiy turiga kiradi. Dorixona ishchilarini tashqi muhit omillari, katta asab-psixologik aktivlik, kam qizg‘in mehnati va noqulay mikroiqlim sharoiti ta’siriga uchraydilar. Dorixona ishchilarining mehnat faoliyatining jismoniy to‘plami o‘rta og‘irlik chegarasidan o‘tmaydi, lekin ko‘zni zo‘riqishi, muammoli masalalarni hal etishdagi asab-hayajonlanishining ortishi (bemorlar bilan aloqada bo‘lish, standartga to‘g‘ri kelmaydigan yozuvlar yordamida alohida dorilarni tayyorlash, tayyorlangan dorilarning sifatiga javobgarlikni) bu mutaxassislikka katta diqqatni talab qiladi.

Birinchi tekshiruvlarda dorixonadagi mehnat sharoiti gigienik tavsiyanoma shuni ko‘rsatadiki, havosi yomon almashadigan, havo biologik aktiv moddalarga to‘yingan yopiq xonalarda uzoq vaqt qolishi natijasida organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bajarilayotgan ishga katta ruhan javobgarligi ishlab chiqarish operatsiyalarini aniq, tez bajarilishi bilan bog‘liqligi va kuchli asab zo‘riqishi kuzatildi. Gigienistlar dorixona ishchilarining salomatligidagi barcha o‘zgarishlar, ish qobiliyatining va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini pasayishi dori tayyorlangandagi sanitariya-gigiena rejimini buzilishi bilan bog‘liqligini aniqladilar.

Sanitariya gigiena sharoitini buzilishi natijasida ammiak eritmasini, novshadil-anis tomchisi va boshqalarni qadoqlashda dorixona xonalari havodagi

gazsimon moddalar aniqlandi. Ish zonasidagi havoda ammiak miqdori REK ancha ortishi, uning bug‘lari qo‘sni xonalarda tarqalganligi aniqlandi. Dori changlari, ayniqsa murakkab kukunsimon aralashmalarni tayyorlashda assistentlar, materiallar xonasi havosida aniqlanadi.

Mikroiqlim sharoitlarini o‘rganilayotganda dorixonaning ko‘pgina xonalarida mikroiqlimni buzilishi aniqlandi. Bundan tashqari dorixona ishchilari shovqin va ishlab chiqarish muhitining boshqa omillari ta’siriga uchrashi mumkinligi kuzatildi.

SHunday qilib, dorixona sharoitida dori preparatlarini tayyorlash jarayonida sanitariya rejimini buzilishi va gigiename’yorlariga rioya qilinmasligi natijasida, ishchilarga ishlab chiqarish muhitidagi noqulay omillar ta’sir etishi mumkin. Bular ichida asosiysi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: dori preparatlarining changi, toksik gaz va bug‘lar, mikroiqlim sharoiti, shovqin, mikrob omillari va boshqalar.

### **Dorixona xodimlarining shaxsiy gigienasi.**

SHaxsiy gigiena qoidalariga ryoja qilish har bir inson uchun albatta bajarilishi va norma bo‘lishi lozim. Dorixona xodimlarining shaxsiy gigienaqoidalariga ryoja qilishi katta ahamiyatga ega, chunki sanitariya qoidalarini buzilishi dorixona ichidagi infeksiyaning tarqalishi va dorilarni ifloslanishiga olib keladi. Bundan tashqari dorixona xodimlarining tashqi ko‘rinishi, kiyim va qo‘llarining tozaligi, soch turmaklashi, gigienik bilimlarga amal qilishi sanitariya oqartuvida katta rol o‘ynaydi. Dorixona xodimlarining xaridorlar bilan bo‘lgan muomalasi, gapirish madaniyati namunali bo‘lishi kerak.

Dorixona xodimi ish vaqtida doimo xalatda va bosh kiyimda (ro‘mol yoki qalpoq) bo‘lishi kerak. SHuning uchun u uchta xalat va uchta bosh kiyimi bo‘lishi, kamida ikki marta almashtirishi, sochlarini bosh kiyim ostiga olishi, qo‘llarini sovunlab va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan yuvishi lozim. Xalat va shaxsiy kiyimlar alohida saqlanishi lozim. Dorixona xodimlari ishga kelganlarida oyoq kiyimlarini almashtirishlari lozim.

Dorixona xodimlari hojatxonaga kirayotganlarida xalatni echishi, chiqqandan so‘ng qo‘llarni sovun, dezinfeksiyalovchi modda bilan yuvishi kerak.

Hojatxona oldida sovuq va issiq suv keltirilgan rakovina, dezinfeksiyalovchi moddali eritma, elektr quritgich, xalat va sochiq uchun ilmoqcha, bularning hammasi hojatxonadan oldingi xonada bo‘lishi kerak.

Xalatda ishlab chiqarish xonalaridan, dorixonadan tashqariga chiqishi, ishlab chiqarish xonalariga xalatsiz kirishi, dastro‘moldan tashqari begona narsalarning xonaga olib kirish, saqlash mumkin emas. SHkafda shaxsiy kiyim va ishlab chiqarish kiyimlarini saqlash ta’qiqlanadi.

Terining tozaligi shaxsiy gigienaning asosiy talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa tirnoq osti tozalik holatiga e’tibor berish lozim.

Aseptik sharoitida dori tayyorlaydigan xodimlar shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishlari lozim. Steril dorilarni tayyorlash shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilgan holatlarda tayyorlanishi kerak. Ish vaqtida tananing barcha qismi yopiladigan (jarrohlik) xalat, bosh va oyoq kiyim, dokali niqob kiyilishi shart. Kiyimlar aseptika (shlyuz) xonasiga kirish oldida almashtirilishi kerak.

SHu arning o‘zida Spasokukotskiy-Kochergin usulida 100 ml suv va 0,5ml 10% ammiak eritmasi solingan ikkita sirli tog‘arachada qo‘l zararsizlantiriladi. Qo‘lni dokali salfetka yoki paxta bilan avval birinchi, so‘ng ikkinchi tog‘arachada zararsizlantiriladi. Agarda ikkinchi tog‘aradagi suv xira bo‘lsa zararsizlantirishni yana takrorlash lozim. Qo‘l yuvilganidan so‘ng quruq steril sochiq, so‘ng 3-5 daqiqa 700 S etil spirti bilan artiladi.

Bu omillarni oldini olish uchun avvalambor ish joyini to‘g‘ri jihozlash, kompleks va kichik mexanizatsiyalangan texnologik va tashkiliy muhit ta’milanishini to‘g‘ri tashkil qilish kerak. Barcha kerakli jihozlar, dori tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan qo‘srimcha materiallar va moddalar ortiqcha harakat qilmaslik, osonlikcha olish uchun ish stoliga maksimal darajada yaqin joyga joylashtirilgan bo‘lishi kerak. Ish joyi qulay, tanani noto‘g‘ri tutishga majbur qilmaydigan qilib tanlanishi kerak.

Ishda qo‘llaniladigan jihozlar va buyumlar stol ustida qulay va ratsional joylashtirilishi lozim. Ish jarayonida o‘ng qo‘lda olinadigan barcha narsalar (tarozi

toshlari, ruchka va boshqalar) o‘ng tarafda joylashtirilishi kerak. CHap tarafda tarozi, signaturlar, dorixona shisha idishlari va boshqalar joylashtiriladi.

Stol va stul konstruksiyasi organizmning fiziologik holatiga mos kelishi va ishslashga qulay bo‘lishi kerak (harakatlanadigan, aylanadigan va boshqa).

Ish turini va faoliyatini almashtirib turish maqsadga muvofikdir. Kukunli dori shakllarini qadoqlashda, idishlarni to‘ldirishda, eritmalarini qadoqlashda va boshqa jarayonlarni qo‘l mehnati bilan bajarishni qisqartirish va iloji boricha to‘liq taqiqlash kerak.

Ko‘pgina diqqatni ishlab chiqarish jismoniy mashgg‘ulotlarga, mikrotanaffusga, tana holatini o‘zgartirishga, mehnatning ilmiy elementlarini kiritishga qaratish lozim. Tahminiy va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, ko‘z, tayanch-harakatlantiruvchi apparatlardagi o‘zgarishlar va boshqa kasalliklarni oldini olishga imkon beradi.

## **Dorixona muassasalari loyihasining sanitar-gigienik baholash .**

### **I. Umumiylumotlar.**

1. Loyihaning nomi va raqami.
2. Dorixonaning loyihalashtirilgan o‘rni.
3. Xonalar soni.

### **II. Er maydoni.**

#### **1. Situatsion loyiha**

A) aholi yashash joyida joylatirilishi (tuman,daha,shahar va qishloq sharoitida o‘ziga xos bo‘lgan talablar asosida);

B) yon atrofdagi asosiy va qo‘srimcha joylashtirilgan inshootlar (zavod va fabrikalar, avtomobil va temir yo‘llar, yirik bozorlar,)

#### **2. Er maydoni va uning tarkibiy qismlari:**

A) Dorixona binosi uchun ajratilgan er maydoni (davolash bo‘limlarining joylashtirilishi)

B) Dorixona xonalari uchun ajratilgan er maydoni

V) Ko‘kalamzorlashtirish maydoni (yashil himoya tasmasi)

G) Xo‘jalik qismi uchun ajratilgan er maydoni

### **III. Bino**

1. Er maydonida joylashtirilishi.
2. Binoning kompozitsiyasi va undagi qavatlar soni.
3. Binoga kirish va chiqish eshiklari soni.
4. Xonalarning joylashtirilishi.
5. Hojatxona.

### **IV. Loyiha materialarining taxlili.**

Davolash profilaktika muassasalarining sanitar gigienik eks pertizasiga taqdim etilgan loyiha quyida ko‘rsatilgan talablarga javob beradimi yoki yo‘qmi?

1. Dorixona xonalarining alohidaligi gigienik talablarga rioxqa qiladimi?
2. Palatalarning isitilishi, yoritilishi gigienik talablarga javob beradimi?
3. Epidemiyaga qarshi tartib talablariga rioxqa qiladimi?
4. Ko‘kalamzorlashtirish etarli darajadami?
5. Xo‘jalik qismi uchun ajratilgan er maydoni etarlimi?

Gigienik talablarga asoslanib yorug‘lik odam ko‘rish analizatorlarining optimal faoliyati, ish qobiliyati, salomatligi va uning yaxshi xis etishini ta’minlashda katta axamiyatga ega. Uning ta’sirida modda almashinuvি tezlashadi, vitaminlar sintezi, qonning xosil bo‘lishi va ichki sekretsiya bezlari faoliyati yaxshilanadi.

### **TABIY YORUG‘LIKNI TEKSHIRISH.**

Tabiiy yorug‘likni tekshirishda geometrik xisoblash usullaridan foydalilaniladi. Tabiiy yorug‘lik derazalarning qaysi tomonga qarab joyylanishi (orientatsiyasi), kattaligi, shakli, soni, oynalarning tozaligi, qo‘shni binolarning balandligi, atrofdagi daraxtlar, derazalar yuqori qismining balandligi, binoning eni va boshqalarga bog‘liq.

### **TABIY YORUG‘LIKNING KO‘RSATKICHLARI.**

Xar qanday iqlim sharoitida xam bolalar muassasalari janubga yoki janubiy – sharqqa qaratilganda, tabiiy yorug‘lik bilan eng yaxshi darajada ta’minlanadi.

YOrug‘lik koeffitsienti deb, derazaning oyna qismi yuzasining pol yuzasiga bo‘lgan nisbatiga aytildi. U oddiy nisbat bilan belgilanadi, ya’ni kasrning suratiga oyna yuzasining satxi, maxrajiga esa polning yuzasi. Maxraj suratga bulinadi.

### **TABIY YORUG‘LIK KOEFFITSIENTI.**

Tabiiy yorug‘lik koeffitsienti ( TYOK) xonalarning tabiiy yoritilganligini baxolashda asosiy ko‘rsatkichdir. TYOK deb xona yorug‘ligning bir vaqtida tashqi yorug‘likka, osmondan to‘g‘ri tushayotgan tabiiy yorug‘likka bo‘lgan nisbatining foiz ifodasidagi qiymatiga aytildi.

**Е хона ёруғ**

$$TYOK = \frac{100\%}{Е ташки ёруғ}$$

Tabiiy yorug‘likni tekshirishda insolysiya tartibiga axamiyat berish zarurdir.

**INSOLYASIYA** – bu bino ichiga yorug‘lik o‘tkazuvchi joylar orqali quyosh nurining tushishi va yoritishidir.

Binolarni insolysiya rejimi bo‘yicha turlari :

Insolysiya turlari	Dunyo bo‘ytcha yorug‘lik orientatsiyasi	Insolyasiya vaqtiga	Insolyasiya alangan maydon	Issiqlik radiatsiyasi	
				Kdj/m <sup>2</sup>	Kkal/m <sup>2</sup>
Maksimal	Jsh, Jg‘	5-6	80	3300	500
O‘rtacha	J, SH	3-5	40-50	2100-3300	500-550
Minimal	SHsh, SHg‘	3	30	2100	500

### **SUN’IY YORITISH MANBALARI VA UNI BAXOLASH USULLARI.**

Xozirgi vaqtida sun’iy yoritish manbai sifatida cho‘g‘lanma va lyuminessent lampalardan foydalilanildi.

Lyuminessent lampalar cho‘g‘lanma lampalarga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega :

1. Bir xil quvvatda cho‘g‘lanma lampalarga nisbatan 2 barobar yorug‘lik ko‘p ajratadi.
2. Uning spektri quyosh spektriga yaqin.
3. Oz yorug‘lik quvvatini talab qilishi bilan ifodalanadi.
4. Keskin soyalar xosil qilmaydi.
5. To‘g‘ri rang o‘tkazishni ta’minlaydi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida lyuminessent lampalardan SHOD lampasi qo‘llaniladi. U 40 Vt li 2 ta lampa ( SHOD-2-40) yoki 80 Vt li 2 ta ( SHOD-2-80) xamda SHLO-240, SHLO-2-80 dan iborat. Xonalarda lampalarning umumiyligi quvvati 300 Vt ni tashkil etishi zarur, shunda xar m<sup>2</sup> satxga 15-18 Vt/m<sup>2</sup> to‘g‘ri kelishi kerak. YOritkichlar ikki qator yoki “P” xarfi shaklida joylashtiriladi.

CHo‘g‘lanma lampalar bilan yoritishda SK-300 lampalardan foydalaniladi, bunda 6 ta yoritish nuqtasi 8 ta gacha ko‘payadi. Xonalarda bir vaqtida lyuminessent lampalar bilan cho‘g‘lanma lampalarni bирgalikda ishlatishga ruxsat etilmaydi.

YOrug‘likni o‘lchashda xozirgi vaqtida 10-16, YU-116 markadagi fotoelementli lyuksimetrlardan foydalaniladi.

Lyuksimetrning YU-116 markali turida lyukslar bilan ifodalangan ikki shkala bo‘lib, ulardan birinchisi 30 ga, ikkinchisi esa 100 ga bo‘lingan. Xar bir darajaning ustiga nuqta quyilgan bo‘lib, 1-shkala bo‘yicha 5 dan 30 gacha, 2- esa 17 ning ustiga quyilgan. SHunga ko‘ra 1-shkala bo‘yicha 5dan 30 gacha, 2-shkala bo‘yicha esa, 17dan 100 lyuksgacha bo‘lgan yorug‘lik aniqlanadi. Uchta qoplagich ( nasadka) KM, KR, KT qo‘llanilganda yorug‘lik filtrlari yorug‘lik oqimining 10,100, 1000 marta kamaytiradi. Asbobda 2 ta tugmacha ( knopka) bo‘lib, 10-100gacha va 0-30gacha bo‘lingan daraja shkalalarni ifodalaydi. YOrug‘lik filtrlarini qo‘llab, lyuksimetrning o‘lchash chegarasini kengaytirish mumkin.

Lyuksimetrdan foydalanish jarayonida selenli fotoelementni extiyot qilish maqsadida, o‘lchashni KT qoplagich bilan boshlab, keyinchalik KR va KM

qoplagichlar bilan, o‘ngdan va chapdagi knopka ( tugmachalarni) ezish kerak. Masalan fotoelementga K qoplagich o‘rnatilib, o‘ng knopka tugmacha ezilganda 0 dan 100 gacha shkalaning ko‘rsatkichi 22. Bunda  $22 \times 100 = 2200$  lyuksga teng bo‘ladi.

### **SUN’IY YORUG‘LIKNI VATT USULIDA ANIQLASH.**

Sun’iy yorug‘likni VATT usulida aniqlash xonadagi lampalar soni va ularning quvvatiga asoslanib  $1 \text{ m}^2$  satxiga tushdigan, vattlar bilan ifodalangan yorug‘lik aniqlanadi.

CHiqqan son, ya’ni yorug‘likni chiqqan solishtirma qiymatini “E” koeffitsientiga ko‘paytirib, vattlar bilan ifodalangan yorug‘lik ( $1 \text{ vatt}/\text{m}^2$ ) necha lyuks yorug‘likka teng bo‘lishini ko‘rsatuvchi solishtirma quvvatini ko‘rsatadi.

Maydoni  $50 \text{ m}^2$  dan ortmagan xonalar uchun “E” koeffitsientining qiymati :

Lampalar quvvati	Elektr tarmog‘idagi kuchlanish. V	
	127	220
100 gacha	2.4	2.0
100 va undan ortiq	3.2	2.5

Misol :  $50 \text{ m}^2$  satxli xonalar xar biri 100 vattli 4 ta lampa bilan yoritilgan.

Tarmoqdagi kuchlanish 200 V.

### **$4 \times 100$**

$$\text{YAkuniy quvvat} = \frac{50}{50} = 8 \text{ VT/m}^2$$

YOrug‘lik esa  $= 2,5 \times 8 = 20$  lyuksga teng.

**TUSHISH BURCHAGI** – tekshirish nuqtasidan ( A) derazaning yuqori qismiga ( V) va pastki qismiga ( S) o‘tkazilgan chiziqlar orasidagi burchakkha aytildi. Me’yorda  $27^\circ$  kam bo‘lmasligi kerak.

**TIRQISH BURCHAGI** – tekshirish nuqtasidan derazaning yuqori qismiga va qarama qarshi turgan bino yoki daraxtning yuqori qismiga taxminiy o‘tkazilgan chiziqlar orasidagi burchakka aytildi. Bu me’yorda  $5^\circ$  dan kam bo‘lmasligi kerak.

**BIODOZA** – deb terida ultrabinafsha nurlarning ta’sirida eritema xosil bo‘lguncha bo‘lgan vaqtga aytildi.

**BOTISH KOEFFITSIENTI** – deb poldan derazaning yuqori qismigacha bo‘lgan masofani xona chuqurligiga nisbatiga aytildi. Me’yorda 1:2 nisbatda bo‘ladi.

**SOYA SOLISH KOEFFITSIENTI** – deb qarama qarshi turgan bino balandligini binolar orasidagi masofa nisbatiga aytildi. Me’yorda 1:2 nisbatda bo‘ladi.

Xonaning tabiiy yoritilganligini gigienik nuqtai nazardan baholashda yorug‘lik koeffitsientini (YOK), yorug‘lik tushish burchagi, burchak teshigi va tabiiy yorug‘lik koeffitsienti (TYOK) ni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

YOrug‘lik koeffitsenti (YOK) deb, derazaning oyna qismi yuzasining pol yuzasiga bo‘lgan nisbatiga aytildi. U oddiy nisbat bilan belgilanadi, ya’ni kasrning sur’atiga oyna yuzasining sathi, maxrajga esa polning yuzasi. Kasr surati 1 ga tenglashtirib olinadi, buning uchun kasrning maxraji sur’atida turgan songa bo‘linadi.

YOrug‘lik tushish burchagi, bu burchak SAV ikkita o‘tkazilgan chiziqdan hosil bo‘ladi, bundan biri gorizontal yo‘nalgan aniqlanishi kerak bo‘lgan sathdan (stol sathidan) oyna romning past qismigacha yo‘naltirilgan (AV), ikkinchisi o‘scha sathdan romning tepe qismigacha yo‘naltirilgan chiziq (AS). YOrug‘lik tushish burchagini aniqlash uchun stol balandligi aniqlanib, gorizontal yo‘nalishda romning quyi qismidan ish joygacha bo‘lgan oraliq hamda romning vertikal balandligida aniqlanadi.

Bu ko‘rsatkich 270 dan kam bo‘lmasligi kerak.

YOrug‘lik tushish tuynugi (SAE) o‘tkazilgan ikkita chiziqdan hosil bo‘ladi, yuqorida tushiriladigan chiziq (SA) xuddi yorug‘lik tushish burchagidek ish joyidan romning tepe qismigacha, ikkinchisi-pastdagi chiziq (EA) ish joyidan uy qarshisidagi soya beruvchi bino yoki daraxtning tepe qismigacha o‘tkazilgan chiziq. YOrug‘lik tushish tuynugini aniqlash uchun ish joyidan uy qarshisidagi bino yoki daraxtdan tushayotgan soyaning tepe qismi ikkinchi shaxs tomonidan qo‘lini ko‘targan holda ifodalanib, ish joyigacha chiziq (S1) tushiriladi. So‘ngra

romning tepe qismidan ish joyigacha tushurilgan (S) chiziq bilan birlashtiriladi, oldingi burchakdan foydalanib, (1-rasm) vertikal ko'rsatkich a dan a1 aniqlanadi. YOrug'lik burchaklari- γ transportini S chizig'i bo'ylab qo'yib aniqlanadi. So'ngra tangens ( $\operatorname{tg}\sigma$ ) 1-jadvaldan burchak kattaligi SAE topiladi. Bunda burchak kattaligi 50 dan kam bo'lmasligi kerak.

Binolarning tabiiy yorug'liq bilan yoritilganlik darajasini belgilab beradigan omillar

Derazalarning yorug'lik tushadigan yuzasi. Xonalarning yoritilishi derazalarning oyna bilan qoplangan (yorug'lik tushadigan) yuzasining kattakichikligiga, ya'ni yorug'lik tushadigan yuzalarning yig'indisiga bog'liqdir. YOrug'lik tushadigan joylarning etarli-etalrimasligi to'g'risida yorug'lik koeffitsienti miqdoriga qarab fikr yuritiladi.

### **Tabiiy yorug'lik bilan yoritilish me'yorlari.**

Lyuksmetr. Tabiiy yorug'likni aniqlaydigan asbob. Xonaning tabiiy yoritilganligini gigienik nuqtai nazardan baholashda yorug'lik koeffitsientini (YOK), yorug'lik tushish burchagi, burchak teshigi va tabiiy yorug'lik koeffitsienti (TYOK) ni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

YOrug'lik koeffitsienti (YOK) deb yorug'lik tushadigan derazalar yuzasining xona poli maydoniga bo'lgan nisbatiga aytildi. U oddiy nisbat bilan belgilanadi, ya'ni kasrning sur'atiga oyna yuzasining sathi, maxrajga esa polning yuzasi. Kasr surati 1 ga tenglashtirib olinadi, buning uchun kasrning maxraji sur'atida turgan songa bo'linadi.

Turarjoy va jamoat binolarida yorug'lik koeffitsientining miqdori xonalarning vazifasiga qarab 1/2 dan 1/5 gacha bo'ladi. YOrug'lik koeffitsienti qurilishni loyihalashda ahamiyatga ega, lekin xonalarning tabiiy yorug'lik bilan qanchalik yoritilishini etarli darajada ta'riflab berolmaydi, chunki yorug'lik darjasini derazalarning yorug'lik tushadigan yuzi bilan xona poli maydoni o'rtasidagi nisbatigagina bog'liq bo'lmasdan, balki ob-havo sharoitlari, xonalarning o'lchamlari o'rtasidagi nisbatlar, yorug'lik tushadigan joylarning shakli va

konstruksiyalari hamda yuqorida aytib o‘tilgan boshqa omillarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Binolarning tabiiy yorug‘lik bilan qanchalik yoritilishini tabiiy yorug‘lik bilan yoritilish koeffitsienti (TYOK) ta’riflab beradi.

### **Tabiiy yorug‘lik koeffitsienti (TYOK) xonalarning tabiiy yoritilganligini baholashda asosiy ko‘rsatkichdir.**

Tabiiy yorug‘lik koeffitsienti deb xona yorug‘ligening (XYO) bir vaqtida tashqi yorug‘likka, ya’ni osmondan to‘g‘ri tushayotgan tabiiy yorug‘likka (TYO) bo‘lgan nisbatining foiz ifodasidagi qiymatiga aytiladi, uni topish uchun:

$TYOK = \frac{\text{Xona yorug‘ligi}}{\text{E tashqi yorug‘lik}} \times 100\%$

E tashqi yorug‘lik

Ish joyidagi va tashqaridagi yorug‘lik lyuksmetr yordamida bir vaqtida aniqlanadi.

Tushish burchagi va teshik burchagini yasash yo‘li bilan ishchi yuzalarining tabiiy yorug‘lik bilan nechog‘lik yoritilganligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilsa bo‘ladi.

YOrug‘lik tushish burchagi, bu burchak SAV ikkita o‘tkazilgan chiziqdan hosil bo‘ladi, bundan biri gorizontal yo‘nalgan aniqlanishi kerak bo‘lgan sathdan (stol sathidan) oyna romning past qismigacha yo‘naltirilgan (AV), ikkinchisi o‘scha sathdan romning tepa qismigacha yo‘naltirilgan chiziq (AS). YOrug‘lik tushish burchagini aniqlash uchun stol balandligi aniqlanib, gorizontal yo‘nalishda romning quyi qismidan ish joygacha bo‘lgan oraliq hamda romning vertikal balandligida aniqlanadi.

Gorizontal va vertikal chiziqlar kichiklashtirilgan holda qog‘ozga tushuriladi, oxirgi nuqtalar diagonal S holatda birlashtiriladi.

YOrug‘lik tushish burchagini aniqlash

YOrug‘lik tushish burchagining kattaligi tangens ( $tga$ ) 3-jadvaldan aniqlanadi.

$SA = tga$

$VA$

Bu ko‘rsatkich 270 dan kam bo‘lmasligi kerak.

YOrug‘lik tushish tuynugi (SAE) o‘tkazilgan ikkita chiziqdan hosil bo‘ladi, yuqorida tushiriladigan chiziq (SA) xuddi yorug‘lik tushish burchagidek ish joyidan romning tepa qismigacha, ikkinchisi-pastdagi chiziq (EA) ish joyidan uy qarshisidagi soya beruvchi bino yoki daraxtning tepa qismigacha o‘tkazilgan chiziq. YOrug‘lik tushish tuynugini aniqlash uchun ish joyidan uy qarshisidagi bino yoki daraxtdan tushayotgan soyaning tepa qismi ikkinchi shaxs tomonidan qo‘lini ko‘targan holda ifodalanib, ish joyigacha chiziq (S1) tushiriladi. So‘ngra romning tepa qismidan ish joyigacha tushirilgan (S) chiziq bilan birlashtiriladi, oldingi burchakdan foydalanib, (1-rasm) vertikal ko‘rsatkich a dan a1 aniqlanadi. YOrug‘lik burchaklari - γ transportini S chizig‘i bo‘ylab qo‘yib aniqlanadi. So‘ngra tangens ( $\text{tg}\sigma$ ) 3-jadvaldan burchak kattaligi SAE topiladi. Bunda burchak kattaligi 50 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Sun’iy yorug‘lik bilan yoritishga qo‘yiladigan gigienik talablar Sun’iy yorug‘lik manbalari xonalar hamda ulardagi ishchi o‘rinlarining etarlicha va bir tekis yoritilishini ta’minlab beradigan bo‘lishi kerak. Sun’iy yorug‘lik bilan yoritishning ikki sistemasi tafovut qilinadi: umumi yoritish va aralash yoritish sistemasi aralash yoritishda umumi yoritish manbaiga qo‘srimcha qilib mahalliy yorug‘lik qo‘shiladi.

Ish o‘rinlarining yoritilishi, ish vaqtida ko‘z o‘tkirligi, mayda detallarni farq qilish tezligi hamda doim ravshan ko‘rishni etarli ta’minlab berishi kerak.

YOrug‘likni ko‘rish a’zolari faoliyatini baholash Qarama-qarshi kontrast sezuvchanlik. Bironta buyumni ko‘rish uchun u ravshanligi hamda rangi bilan boshqa buyumlardan farq qilishi kerak. Buyum ravshanligi va rangi bilan boshqa buyumlardan farq qilishini ko‘z ajrata olsa, unga kontrast sezuvchanlik chegarasi deyiladi.

Ish joylarining bir tekis yoritilmasligi tufayli, yorug‘lik bir xil tushmasligidan har xil soyalar paydo bo‘lib, ish qobiliyati pasayadi. SHu bois ish joyini to‘g‘ri yoritish zarur.

Ko‘z o‘tkirligi deb ko‘zning mayda detallarni ajrata olish xususiyatiga aytiladi. Ko‘z o‘tkirligi ko‘zdan kechirilayotgan ikki obektni alohida-alohida deb idrok etish uchun ketadigan eng kam vaqt oralig‘i bilan ta’riflanadi.

Farq qilish tezligi deb ko‘zning detalni ko‘ra olishi xamda shaklini aniqlay olishi uchun sarflanadigan eng kam vaqtga aytiladi.

Doim ravshan ko‘rish ko‘ruv analizatorining ko‘zga chalingan detallarni aniq holda uzoq saqlab qolish xususiyatini ta’riflab beradi. Ko‘zning bu funksiyasi ko‘z bilan ko‘rib qilinadigai ishni bajarishda muhim axamiyatga ega bo‘ladi va ko‘p jihatdan ish qobiliyatini belgilaydi.

Oq fonda qora obektlar ajratiladigan bo‘lsa 50—70 lk dayoq ko‘z o‘tkirligi qoniqarli darajaga etib qoladi. Tuslarning oq-qoraligi kamroq bilinadigan xollarda ko‘proq. (150 lk ga ch a va bundan ko‘ra ko‘proq) yorug‘lik tushib turishi talab etiladi.

### **YOrithish armaturasi**

Ko‘zni yorug‘lik manbaining qamashtiruvchi ta’siridan saqlash, yoritilgan yuzalarda quyuq, soyalar va yaltillab ko‘rinadigai joylar hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida yorug‘lik oqimini qayta taqsimlash uchun, ba’zi hollarda esa manbadan sochiladigan nur spektrini o‘zgartirish uchun xam xar xil turdagilari yoritish armaturasi qo‘llaniladi.

Manbaning ko‘zni qamashtiruvchi ta’siridan saqlash, yuqorida aytib o‘tilganidek, armaturaning himoya burchagini to‘g‘ri olish va uni tegishli balandlikka osish yo‘li bilan ta’milanadi.

CHiroqlar yorug‘likni qay tariqa taqsimlashiga qarab (armaturaga o‘rnatilgan yorug‘lik manbalari) 3 ta asosiy gruppaga bo‘linadi.

a) tik nur beradigan chiroqlar Bu tipdagi chiroqlar nuring 90% ga yaqinini yoritiladigan yuzaga yo‘naltiradi, shu bilan birga bu yuza ancha yoritib, turadiyu, lekin shunday bo‘lsada yoritilayotgan yuzalarda quyuq soyalar paydo bo‘lishi va YOrithish armaturasi.

1—tik nur chirog‘i; 2 — tik va qisman qaytgan nur chirog‘i; 3 — sut rang shar (bir tekis tarqoq nur beradigan chiroq); 4 — lyuseta (asosan qaytgan nur beradigan

chiroq); 5 —qaytgan nur beradigan chiroq (sk-zoo). uning ba’zi joylari yaltillab ko‘rinishi mumkin. YOrug‘lik manbaining ko‘zni qamashtirib qo‘yishi ehtimoldan holi emas. Tik nur beradigan chiroqlar yordamchi xonalar, sanitariya uzellari va boshqalarni yoritish uchun ishlatiladi.

b) Asosan qaytgan nur beradigan chiroqlar (100-rasm, 4). Bunday chiroqlarning pastki sferik qismi sut rang shishadan, yuqori qismi xira shishadan tayyorlangandir. YOrug‘lik oqimining 65—70% chasi chiroqning yuqori qismiga yo‘naladi. CHiroqning himoya burchagi 90° atrofida. Bu tipdagi chiroqlar

Qaytgan nur beradigap chiroq. ko‘zni qamashtirmaydigan tarqoq yorug‘lik bilan yoritish zarur bo‘lgan xonalarga qo‘yiladi. SHu tipdagi chiroqlarning kamchiligi anchagina yorug‘likni yutib qolishidir, shu munosabat bilan tegishlicha yorug‘ bo‘lishi uchun yorug‘lik manbaining quvvatini oshirish zaruriyatini tug‘iladi.

v) Qaytgan nur beradigan chiroqlar (101-rasm) butun yorug‘lik oqimini shiftga yo‘naltiradi. YOrug‘lik nurlari shift va devorlarning yuqori qismidan turli burchaklar ostida qaytadi, shunga ko‘ra deyarli mutlaqo soya tushmaydi. Bunday chiroqlar bilan yoritiladigan xonalarning shifti bilan devorlari yuqori (kamida 60—70%) nur qaytarish koeffitsientiga ega bo‘lishi kerak.

g) Tarqoq nur beradigan chiroqlar ancha qanoatlanarli yorug‘lik sharoitlarini yaratib beradi: bularning ko‘zni qamashtiruvchi ta’siri juda arzimas bo‘lib, yoritadigan yuzalarida quyuq soyalar tushmaydi. Bu chiroqlar ham, xuddi qaytgan nur beruvchi chiroqlar singari yorug‘likning ko‘pgina qismini yutib qoladi.

Tarqoq nur beruvchi chiroqlar turarjoy va jamoat binolarining xonalarini, o‘quv xonalari va b. yoritish uchun ishlatiladi. Ba’zi xil ishlar (rasm chizish, nozik ishlarni bajarish) vaqtida soyalarni batamom yo‘qotib yuborish yaramasligini aytib o‘tish kerak, chunki soyaning o‘zi ham bizda narsaning shakli va fazoda olgan joyi to‘g‘risida tasavvur tug‘diradi. Nurni tarqatib yoki yarim qaytarib beradigan armatura hammadan mayin va xush keladigan yorug‘lik sezgisini keltirib chiqaradi.

Doimo ham qaytgan nur bilan yoritish ko'ngilga yoqmaydigan, fayzsiz taassurot tug'diradi, shu munosabat bilan ish sharoitlariga ko'ra soyalarni batamom yo'qotish zarur bo'lган xollardagina bunday yorug'likdan foydalanish kerak.

### **Mavzuda ko'rib chiqiladigan savollar:**

- dorixona maydoni va binosini qurishga qo'yiladigan gigienik talablari
- dorixona binolari ichki loyihasining gigienik asoslari
- yorug'lik koeffitsineti
- tabiiy yorug'lik koeffitsenti
- yorug'lik tushish burchagi
- yorug'lik tushish tuynugi
- yorug'likni ko'rish a'zolari faoliyatini baholash

### **Darsda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya usullari:**

#### **«Doira stoli» usuli**

Gurux talabalari 2-3 kishidan iborat kichik guruxlarga (KG) bo'linadi. Har bir KG ga savol yozilgan varaklar tarqatiladi 1-2 daqiqa davomda har bir KG savolga javob yozadi, so'ng javob yozilgan savol keyingi KG ga uzatilib, ulardan boshqa savol olinadi. Agar 6 ta KG tashkil etilgan bo'lsa 12 daqiqa davomida javoblar yoziladi, 12 daqiqadan so'ng o'qituvchi javob yozilgan qog'ozlarni yig'ib oladi, har bir KG tartib bo'yicha raqamlanadi va javob varianti to'g'risida tartib raqami qo'yilishi so'raladi. Har bir qog'ozda bitta savolga berilgan 6 ta javob varianti keltirilgan bo'ladi. O'qituvchi har bir javobga olingan 6 javob variantini o'qib beradi. Olingan eng to'g'ri javobga yuqori ball qo'yiladi va qolgan javoblarga mos ravishda pastroq ballar qo'yiladi.

#### **Talabalarga mavzu bo'yicha quyidagi muammoli savollar berilishi mumkin**

1. YOrug'lik koeffitsineti deb nimaga aytildi.
2. Tabiiy yorug'lik koeffitsenti nima
3. YOrug'lik tushushish burchagining me'yori

#### **TESTLAR**

1. Deraza tagidan hamda tepasidan ish joyiga tushurilgan burchakga nima deyiladi?

1. yorug‘lik koeffitsienti 2. tuynuk burchagi
  3. tabiiy yorug‘lik koeffitsienti 4. yorug‘lik tushish burchagi 5. ko‘rish chidamligi
2. Xonaning yoritilganligini baholovchi ko‘rsatkichlar:
1. yorug‘lik koeffitsienti 2. tabiiy yorug‘lik koeffitsienti
  3. yoritgich lampalarning soni 4. burchak teshigi 5. yorug‘lik tushish burchagi
3. YOrug‘lik koeffitsienti deb...
1. derazaning oyna qismini polning yuzasini foizlardagi nisbatiga aytildi
  2. pol yuzasining deraza qismi yuzasiga nisbatiga aytildi
  3. derazaning yuzasini polning bir qismini nisbatiga aytildi
  4. derazaning oyna qismining pol yuzasining nisbatiga aytildi
  5. derazaning rom qismini polning yuzasini nisbatiga aytildi
4. Ko‘rish o‘tkirligi bu...
1. ko‘rish a’zolarining katta qismlarini aniqlay olish xususiyati
  2. ko‘rish a’zolarining mayda qismlarini aniqlay olish xususiyati
  3. buyumning qisqa muddat ichida shaklini belgilash xususiyati
  4. soyalarni aniqlay bilish xususiyati
  5. buyumni boshqa buyumlardan ravshanligi bilan farqlay bilish xususiyati
5. Tabiiy yorug‘likning ijobiy ta’siri

1. qon hosil bo‘lishi kamayadi va yog‘lar gidrolizlanadi
2. organizmni ish qobiliyatini o‘zgartirmaydi
3. aqliy va ruhiy holatlariga ta’sir qiladi

4. bo'y o'sishi va rivojlanishi kamayadi, ishslash qobiliyati susayadi
  5. qon hosil bo'lishi ko'payadi
6. YOrug'likni aniqlaydigan asbob
1. Refraktometr 2. Psixrometr
  3. Batometr 4. Lyuksmetr 5. Krotov apparati
7. Tabiiy yorug'lik koeffitsientini aniqlash formulasi
1. TYOK = tashqi x 100% ichki 2. TYOK = ichki x 100% tashqi
  3. TYOK = yuzasi x 100% ichki 4. TYOK = ichki x 100% yuzasi
8. Lampaning solishtirma quvvati
1. bu lampalarning umumiy quvvatining xona devori yuzasiga nisbati
  2. lampalarning bir xillik quvvatining polning bir burchak yuzasiga nisbati
  3. bu lampalarning umumiy quvvatining polning yuzasiga nisbati
  4. bu lampalarning umumiy quvvatining derazaning yuzasiga nisbati
  5. bu lampalarning umumiy quvvatining polning yarim yuzasiga nisbati
9. YOrug'likning tuynuk burchagi
1. ish joyiga o'rnatiladigan rom oynasining yuzasidan burchak orqali tushayotgan nurlar taramiga aytiladi
  2. ish joyiga o'rnatilgan rom oynasining pastidan burchak orqali tushishi mumkin bo'lган nurlarga aytiladi
  3. ish joyiga o'rnatilgan rom oynasining tepasidan burchak orqali tushayotgan nurlar taramiga aytiladi
  4. deraza yuqorisi hamda pastidan ish joyigacha tushirilgan burchakdir

10. Xonaning yoritilganligini baholovchi ko'rsatkichlar:

1. yorug'lik koeffitsienti
2. tabiiy yorug'lik koeffitsienti
3. yoritgich lampalarning soni
4. burchak teshigi
5. yorug'lik tushish burchagi

11. Sun'iy yorug'likni aniqlash formulasi

1. E sun.  $X = ex R$  tabiiy  
8 k
2. E sun.  $X = Rx e$  tabiiy 10 k
3. E sun.  $X = Rx K$  tabiiy  
13 k
4. E sun.  $X = Kx T$  tabiiy  
15 k

12. YOrug'likning tuynuk burchagi deb nimaga aytildi?

1. deraza yuqorisi hamda pastidan ish joyiga tushirilgan burchakdir
2. ish joyiga o'rnatilgan rom oynasining yuzasidan burchak orqali tushayotgan nurlar taramiga
3. ish joyiga o'rnatilgan rom oynasining tepasidan burchak orqali tushayotgan nurlar taramiga
4. ish joyiga o'rnatilgan rom oynasining pastidan burchak orqali tushishi mumkin bo'lgan nurlarga

**5 - mavzu: KIMYO-FARMATSEVTIKA**  
**KORXONALARIDATOZAXONALARGAVA ISHCHI-XODIMLAR**  
**KIYIMLARI GAQO‘YLADIGANGIGIENIKTALABLAR. TO‘G‘RI**  
**ISHLAB CHIQARISH QOIDALARI. IONLANTIRUVCHI NURLANISH**  
**MANBALARIDAN FOYDALANILGANDAGI DOZIMETRIK VA**  
**RADIOMETRIK NAZORAT.**

**Amaliy mashg‘ulot xronologik xaritasi**

Texnologik bosqichlar	Faoliyat mazmuni.	
1. O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	<p>O‘qituvchi</p> <p>Mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi, Bakalavrlarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalananadigan adabiyotlar bilan taniştiradi.</p> <p>SHu jumladan bakalavrlarni rejalashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan taniştirish. (1 ilova)</p>	<p>Talaba</p> <p>Mashg‘ulot rejasi bilan taniştiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60 min)	<p>2.1. Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi savollarga javob berishni taklif qiladi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrlarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha ekspertlar tayinlanadi va ular boshqa guruxlar a’zolariga</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>4 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari birgalikda izlanibya. Mashg‘ulotda berilgan savolga javob</p>

	<p>tushuntirish ishlarini olib boradi.</p> <p>2.3.Xar bir gurux uchun ekspert varaqalarini tarqatib beradi. (2 - ilova).</p> <p>2.4.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. O'qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.5.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>izlaydilar.</p> <p>Mashg'ulotlarni sistemalashtiradi, o'zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o'z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	<p>Mavzu bo'yicha umumiy xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi.</p> <p>Talabalar bilimini baxolaydi.</p> <p>Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko'rsatmalar beradi.</p>	<p>Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.</p>

Xo'jalik hisobidagi dorixonalarning xonalari to'rtta guruhgaga bo'linadi: ishlab chiqarish, qo'shimcha, ma'muriyat va sanitar maishiy. Ishlab chiqarish xonasi o'z navbatida steril bo'lmagan dorilarni tayyorlash uchun xona (assistantlar, qadoqlash analistik-provizor xonasi, yuvish, distillangan suv olish va sterilizatsiya xonalari) va aseptik sharoitda dori tayyorlash xonasi (shlyuzli defektal xonasi va shlyuzli aseptik xona, distillyasion-sterilizatsiya xonasi) xonalariga bo'linadi. Xo'jalik hisobidagi dorixonalarda xona maydoni va to'plami SanQ va M (SanPiN) № 0337-16asosida talab qilinadi.

Gigienik jihatidan dorixonalarda sanitariya va epidemiyaga qarshi rejimga rioya qilishda xonalarning o'zaro joylanishi katta ahamiyatga ega. SHuning uchun dorixonaning barcha xonalari koridor orqali o'zaro ichki aloqaga ega bo'lishi, bundan tashqari dorixona mudirining xonasi sotuv zali bilan chambarchas

bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak. Faqat retseptura bilan assistentlar xonasi, assistent xonasi bilan provizor-analitik xonasi, omborxona bilan sotuv zalida bo‘lgan mos bo‘limlar (tayyorlangan dorilarni, tayyor dori shakllarini sotadigan bo‘lim) o‘zaro bog‘liq bo‘lishlari mumkin. Dori preparatlarini saqlaydigan omborxonasi o‘tish yo‘lakchasida bo‘lishi mumkin emas va ularni bo‘laklarga ajratish ruxsat etilmaydi. O‘simpliklardan tayyorlanadigan dorilarni quritish va zararsizlantirish uchun xona alohida binoda joylashtirilishi lozim.

Katta shaharlardagi zamonaviy dorixonalar aseptik bloklari tarkibida shlyuzli deffektal xona, shlyuzli aseptik, sterilizatsiya, distillangan suvni tayyorlaydigan xonalari mavjud. Aseptik blokda o‘zaro bog‘liqlikka ega barcha xonalar orqali o‘tadigan umumi shlyuzlari mavjud, 4, 5, 6 toifadagi dorixonalarda defektar xonasining bo‘lmasligi, aseptik xonasiga sterilizatsion-distillyasion xonalari orqali kirish ruxsat etiladi. Aseptika xonasini dorixonadagi boshqa xonalar va yo‘lakcha bilan bevosita bog‘liqlikda bo‘lishi ruxsat etilmaydi.

Dorilarni tayyorlash sanitar-gigienik sharoitni maksimal darajada yaxshilashni talab qiladi. Ko‘chadan kiradigan chang, mikroorganizmlar, sovuq havo oqimi, shovqin kabi omillar dori mahsulotlarining sifatiga va dorixona ishchi xodimlarining salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi.

### **Dorixona xodimlarining shaxsiy gigienasi.**

SHaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish har bir inson uchun albatta bajarilishi va norma bo‘lishi lozim. Dorixona xodimlarining shaxsiy gigienaqoidalariga rioya qilishi katta ahamiyatga ega, chunki sanitariya qoidalarini buzilishi dorixona ichidagi infeksiyaning tarqalishi va dorilarni ifloslanishiga olib keladi. Bundan tashqari dorixona xodimlarining tashqi ko‘rinishi, kiyim va qo‘llarining tozaligi, soch turmaklashi, gigienik bilimlarga amal qilishi sanitariya oqartuviga katta rol o‘ynaydi. Dorixona xodimlarining xaridorlar bilan bo‘lgan muomalasi, gapirish madaniyati namunali bo‘lishi kerak.

Dorixona xodimi ish vaqtida doimo xalatda va bosh kiyimda (ro‘mol yoki qalpoq) bo‘lishi kerak. SHuning uchun u uchta xalat va uchta bosh kiyimi bo‘lishi, kamida ikki marta almashtirishi, sochlarini bosh kiyim ostiga olishi, qo‘llarini

sovunlab va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan yuvishi lozim. Xalat va shaxsiy kiyimlar alohida saqlanishi lozim. Dorixona xodimlari ishga kelganlarida oyoq kiyimlarini almashtirishlari lozim.

Dorixona xodimlari hojatxonaga kirayotganlarida xalatni echishi, chiqqandan so‘ng qo‘llarni Sovun, dezinfeksiyalovchi modda bilan yuvishi kerak. Hojatxona oldida Sovuq va issiq suv keltirilgan rakovina, dezinfeksiyalovchi moddali eritma, elektr quritgich, xalat va sochiq uchun ilmoqcha, bularning hammasi hojatxonadan oldingi xonada bo‘lishi kerak.

Xalatda ishlab chiqarish xonalaridan, dorixonadan tashqariga chiqishi, ishlab chiqarish xonalariga xalatsiz kirishi, dastro‘moldan tashqari begona narsalarning xonaga olib kirish, saqlash mumkin emas. SHkafda shaxsiy kiyim va ishlab chiqarish kiyimlarini saqlash ta’qilanganadi.

Terining tozaligi shaxsiy gigienaning asosiy talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa tirnoq osti tozalik holatiga e’tibor berish lozim.

Aseptik sharoitida dori tayyorlaydigan xodimlar shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishlari lozim. Steril dorilarni tayyorlash shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilgan holatlarda tayyorlanishi kerak. Ish vaqtida tananing barcha qismi yopiladigan (jarrohlik) xalat, bosh va oyoq kiyim, dokali niqob kiyilishi shart. Kiyimlar aseptika (shlyuz) xonasiga kirish oldida almashtirilishi kerak.

SHu ernen o‘zida Spasokukotskiy-Kochergin usulida 100 ml suv va 0,5ml 10% ammiak eritmasi solingan ikkita sirli tog‘arachada qo‘l zararsizlantiriladi. Qo‘lni dokali salfetka yoki paxta bilan avval birinchi, so‘ng ikkinchi tog‘arachada zararsizlantiriladi. Agarda ikkinchi tog‘aradagi suv xira bo‘lsa zararsizlantirishni yana takrorlash lozim. Qo‘l yuvilganidan so‘ng quruq steril sochiq, so‘ng 3-5 daqiqa 700 S etil spirti bilan artiladi.

Bu omillarni oldini olish uchun avvalambor ish joyini to‘g‘ri jihozlash, kompleks va kichik mexanizatsiyalangan texnologik va tashkiliy muhit ta’milanishini to‘g‘ri tashkil qilish kerak. Barcha kerakli jihozlar, dori tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan qo‘srimcha materiallar va moddalar ortiqcha harakat qilmaslik, osonlikcha olish uchun ish stoliga maksimal darajada yaqin joyga

joylashtirilgan bo‘lishi kerak. Ish joyi qulay, tanani noto‘g‘ri tutishga majbur qilmaydigan qilib tanlanishi kerak.

Ishda qo‘llaniladigan jihozlar va buyumlar stol ustida qulay va ratsional joylashtirilishi lozim. Ish jarayonida o‘ng qo‘lda olinadigan barcha narsalar (tarozi toshlari, ruchka va boshqalar) o‘ng tarafda joylashtirilishi kerak. CHap tarafda tarozi, signaturlar, dorixona shisha idishlari va boshqalar joylashtiriladi.

Stol va stul konstruksiyasi organizmning fiziologik holatiga mos kelishi va ishlashga qulay bo‘lishi kerak (harakatlanadigan, aylanadigan va boshqa).

Ish turini va faoliyatini almashtirib turish maqsadga muvofiqdir. Kukunli dori shakllarini qadoqlashda, idishlarni to‘ldirishda, eritmalarни qadoqlashda va boshqa jarayonlarni qo‘l mehnati bilan bajarishni qisqartirish va iloji boricha to‘liq taqiqlash kerak.

Ko‘pgina diqqatni ishlab chiqarish jismoniy mashgg‘ulotlarga, mikrotanaffusga, tana holatini o‘zgartirishga, mehnatning ilmiy elementlarini kiritishga qaratish lozim. Tahminiy va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, ko‘z, tayanch-harakatlantiruvchi apparatlardagi o‘zgarishlar va boshqa kasalliklarni oldini olishga imkon beradi.

### **Ionlantiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilgandagi**

#### **dozimetrik va radiometrik nazorat.**

Nur manbalari va ionlovchi nurlardan ximoyalanish, ishslash “NRB” (Radiatsion xavsizlik me’yorlari) b\n me’yorlanadi.

Ionlashtiruvchi nurlarga kichik uzunlikdagi to‘lqinlar, elektromagnit tebranishlari bo‘lgan rentgen va gamma nurlari, shuningdek alfa va beta zarrachalari, pozitronlar va neytronlar – musbat va manfiy zaryadli yoki zaryadsiz zarrachalar kiradi.

Radioaktiv nurlarning asosiy xususiyatlari ion xosil qiluvchi ta’siridir. Nurlanishi mumkin bo‘lgan axoli kategoriyalari:

- A. Xodimlar.
- B. Axolini ma’lum chegaralangan qismi.
- V. Viloyat, Respublika axolisi.

Radiatsiya nurlarini organizmga ta'siri natijasida quyidagi effektlar kuzatiladi :

1. Stoxastik effekt
2. Somatik effekt.
3. Gormezist effekt.

Stoxastik effekt – deb oz dozadagi radiatsiya ta'sirida ma'lum vaqt dan sung kutiladigan natijaga aytiladi. ( 5-10 yil). Masalan : yaxshi yoki yomon sifatlari o'smalar rivojlanishi mumkin.

Somatik effekt – deb radiatsiyani yuqori dozada ta'sir qilishi natijasida kelib chiqadigan natijaga aytiladi. Masalan : o'tkir nurlanish rivojlanadi.

Gormezist effekt – deb radiatsiyani organizmga ijobiy ta'siriga aytiladi. Radioprotektorlar – radiatsiya ta'sirida organizmda paydo bo'lgan radikallarni chiqarib yuboruvchi moddalarga aytiladi. Radioprotektorlarga : etil spirti, jenshen, vitamin «S» kiradi.

Radioaktiv modda aktivligi- vaqt birligi davomida yadro almashinuvlar sonidir. Uning o'lchov birliklari Bakkerel' (Bk) va KYURI (Ki)  
I Bk- I sekunddag'i I marta yadro parlanishi.  
IKi- I sekunddag'i 3,710 10 marta parlanishi.

Ionlanuvchi radiatsioni miqdoriy baxolashda ekspazitsion dozadan foydalaniladi. Uning sistemali birligi- kulon  $\text{kg} (\text{kg}/\text{kg})$ , sistemasiz birligi-Rentgen (R). Kulon  $\text{kg} (\text{Kl} \text{ kg})$  – ionlanuvchi nuring energiya miqdori.

Rentgen – I sm<sup>3</sup> xavoda ionlar xosil qiluvchi miqdor.  
Biologik manbalarga rentgen va u-nurlar ta'sir darajasini baxolashda yutilgan dozadan foydalaniladi. Uning o'lchov birligi Grey(Gr) va Rad.

1. Grey – ionlovchi radiatsiyaning energiya miqdori bo'lib, I kg maxsulotga ta'sir qilganda I djoulga teng energiya yutiladi.
2. Rad- yutilgan doza birligi  $\text{b}/\text{b}$ , I G maxsulotga yutilgan 100 ergamga teng.

Retgen va radiologik bo'lim- DPM dagi asosiy diagnostik bo'lim  $\text{b}/\text{b}$  xisoblanadi. Rentgen va radiologiya bo'limlari shifoxonada imkonli boricha aloxida binoga yoki

bemorlar xarakati kam bo‘lgan joyga joylashtirilishi kerak. Bu bo‘limlarda o‘ta extiyotkorlik b\ n ish olib borishi kerak.

Inson organizimi nurlanish vaqtida ionlovchi nurlarni xamda atrof muxit xossalari ni o‘zgarishini umuman sezmaydi: ya’ni ionlovchi nurlar ta’siri vaqtida xech qanday shovqinni, xidni, rangni, bosimni, yorug‘likni temperaturani organizm sezmaydi.

SHuning uchun juda katta dozada xam nurlanish olishimiz mumkin.

Ionlovchi nurlar 1-bo‘lib xujayra suvini radiolizini keltirib chiqaradi. Natijada musbat va manfiy ishorali molekulyar ionlar xosil bo‘ladi.

Bular keyinchalik xujayraning boshqa funksiyalarini buzilishiga olib keladi. Ionlovchi nurlar ta’siriga uchrashi mumkin bo‘lgan 3 guruxga bo‘linadi.

1. A-kategoriya-ionlovchi nur manbalari b\ n ishlovchi xodimlar.
2. B-kategoriya- axolining radioaktiv ta’sitiga uchrashi mumkin bo‘lgan qism.
3. V-kategoriya- qolgan umumiyl axoli.

Radiosezgirligi bo‘yicha organlar xam 3 guruxga bo‘linadi:

1. Butun tana, gonadalar, qizil suyak qumiga.
2. Musqo‘llar, qalqonsimon bez, yog‘ to‘qimasi, jigar, buyrak, OIS, o‘pka va bosh.
3. Teri qoplami, suyak to‘qimasi, barmoqlar, bilak, to‘pig‘, tovonlar.

(BER\YIL).

<b>Kritik organlar guruxi.</b>	<b>Kritik organlar yoki to‘qimalar.</b>	<b>PDD. A-kategoriya uchun.</b>	<b>PDD. B-kategoriya uchun.</b>
1	Butun tana, gonadalar, qizil suyak kumigi	5	0,5
2	1 va 3 guruxdan tashqari organlar va to‘qimalar.	15	1,5
3	Teri qoplami, suyak to‘imasi, barmoqlar, tovonlar, bilak.	30	3,0

40 yoshgacha bo‘lgan ayollar uchun 2 oy davomidagi taz soxasiga olinadigan nurlanish 1 BER dan ortmasligi kerak.

Radioaktiv nurlanishdan ximoyalanish usullari:

1. Miqdor bilan ximoyalanish.
2. Vaqt bilan ximoyalanish
3. Masofa bilan ximoyalash.
4. Ekran bilan ximoyalash.

PDD- yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan doza-bu 50 yil davomida ta’sir ko‘rsatib, EKG zamonaviy tekshirish usullari bilan tekshirilganda professanal ishchilar organizmda xech qanday o‘zgarish keltirib chiqarmaydigan yillik individual ekvivalent dozaning yuqori chegarasidir.

PD- doza chegarasi – axolining chegaralangan qismi (B- kategoriya) uchun yillik yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan Ekvivalent doza.

Organ va to‘qimalar radiosezgirligi qanchalik yuqori. Ular uchun yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan doza miqdori shunchalik kichik bo‘ladi: A-kategoriyaga kiruvchilar uchun 1 gurux kritik organlari, PDD- 5 ber\yil, 2 gurux kritik organlarga 15 ber\yil.

Ionlovchi nurlarning organizmga ta’siri.

## **TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN RENTGEN NURLARI KLASSIFIKATSIYASI**

Rentgen nurlari bilan doimiy ravishda bevosita muloqotda bo‘luvchi xodimlarni ximoya qilish va xavfsizlik chora tadbirlarini kuchaytirgan xolda quyidagi davolovchi nur turlari mavjud.

1. Rentgenodiagnostika
2. Distansion rentgeno i gammaterapiya. YUqori energiyalarni qo‘llash yo‘li bilan davolash.
3. YOpiq usuldagи to‘qimalararo, to‘qimalar ichi va aplikatsion terapiya.
4. Nurlar yordamida davolash va diagnostika qilish.

Tasvir xosil qilish bo‘yicha quyidagi turlari mavjud. :

1. Rentgenoskopiya – kuchaytirilgan ekranlar orqali vizual ko‘rish.

2. Rentgenografiya – Maxsus plyonkalar qo‘llash orqali.

3. Flyurograфиya – ekrandagi fotoapparat yordamida tasvirni suratga olish.

RADIATSIYA – umumiy tushuncha bo‘lib, nurlanishning ba’zi bir xil ko‘rinishlari tabiyatda uchraydi, qolganlari esa sun’iy usullarda olinadi.

Radiaktiv nurlardan ximoyalanish chora tadbirlari.

Xodimlarni va axolini radiaktiv nurlardan ximoya qilish asosiy omillardan biri xisoblanadi.

### **Ximoyalanish tadbirlari quyidagilarga asoslangan :**

- Doimiy ravishda yillik nurlanish miqdorlarini kamaytirib borish.
- Iqtisodiy va ijtimoiy omillarni xisobga olgan xolda stoxastik omillar miqdorini kamaytirish.

**Ximoyalanish tadbirlarining maqsadlari** doimiy ravishda jismoniy, aqliy ish qobiliyatini yuqori darajada ushlab turish.

### **Ximoyalanish tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi :**

- Barcha nurlanish manbalaridan axolini nurlanish miqdorini kamaytirish fizikaviy va kimyoviy noradiatsion omillarni axoliga ta’sirini cheklash.
- Axolini radiaktiv nurlar va moddalarga chidamligini oshirish
- Axolini tibbiy ximoyalash.
- Axolini radiaktiv nurlar xaqidagi bilimlarini oshirish.
- Axoliga psixologik nuqtai nazaridan yordam berish.

Radiatsiya nurlarini kamaytirish uchun kerakli bo‘lgan yordamlarni ko‘rsatish.

- axolini sog‘lom turmush tarzini tashkil etish.

- Axolining ijtimoiy, iqtisodiy axvolini yaxshilash.

Avariya xolatlarida axolini nurlanish extimollarni kamaytirish, zararlangan xududdan olib chiqib ketish va ushbu xududlarda yashashlarini cheklash uchun qo‘srimcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

- Maxalliy qishloq xo‘jaligi maxsulotlari tarkibidagi radionukleotidlar miqdorini kamaytirish chora tadbirlarni joriy etish.

- axolini toza oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash uchun zararlangan maxsulotlarni qayta ishslash va etarli darajada ekologik toza maxsulotlar bilan ta'minlashni nazorat qilish.

- Axoliga zarur bo'lgan xolatlarda shaxsiy ximoyalanish vositalarini o'rgatish va amalga oshirish.

Qo'shimcha chora tadbirlar sifatida axoli orasida to'g'ri tushintirish ishlarini olib borish, axoli xamda ishlab chiqarish xududlariga radonning tushib xolatlarini cheklash va boshqalar kiradi.

### **1. Raioaktiv moddaning aktivligini aniklang :**

Masala. Operator xafka davomida, ya'ni 36 soat davomida nurlovchi manbadan 1m uzoqlikda doim ish olib borsa, u qancha nurlovchi manba aktivligida ishslash mumkin.

**Natija :**

**Xulosa :**

### **2. Radioaktiv modda bilan ishslash vaqtini aniqlang :**

Masala. Laborant manbadan 1 m uzoqlikda, 10 mg ekv.rad. aktivligidagi modda bilan ish olib borsa, 1 xafka davomida qancha vaqt ishlashi mumkin.

**Natija**

**Xulosa :**

### **3. Manbadan qancha uzoqlikda ishslash masofasini aniklang :**

Masala. Radiologiya bo'limi xamshirasi xar kuni 6 soat mobaynida aktivligi 3,3 mg.ekv.ga teng radiy preparat tayyorlasa, u manbadan qancha metr uzoqlikda ishlashi kerak.

**Natija :**

**Xulosa :**

Ionlovchi nurlanish manbalaridan foydalanganda sanitariya-dozimetriya nazorati

Ionlovchi nurlarni yuqori biologik faollikka ega bo'lishiga qaramay bir qancha vaziyatlarda tibbiyot tufayli ionlovchi nur manbalarini inson faoliyatining har qanday sohalarida qo'llanilishi ko'paymoqda va haqiqatda ham ionlovchi nurlanish

bilan kontaktda bo‘lish muhim kasbiy omil bo‘lib qolgan shaxslar soni ko‘paymoqda.

Ionlovchi nurlanish manbalari bilan aholini kontakti ehtimoli va darajasini hisobga olib barcha aholi 2 kategoriyaga bo‘linadi.

A-kategoriya ionlovchi nurlanish manbalari bilan bevosita aloqada bo‘luvchi xodimlar.

B-kategoriya-aholini chegaralangan qismi demak ionlovchi nurlanish manbalari bilan kasb tufayli bog‘liq emas lekin uni ta’sir qilish sohasida bo‘ladigan aholi

Ionlovchi nurlanish manbalarini qo‘llash yo‘nalishlarining ko‘payishi halq xo‘jaligining har xil sohalarida ionlovchi nurlanish manbalarini qo‘llashda nazorat olib borish shu bilan birga Davlat sanitariya nazorati tashkilotlari tomonidan ham nazorat olib borish kerakligini bildiradi.

#### **Sanitariya-dozimetrik nazoratga kiradi:**

- radiologik ob’ektlarni qurishda va rekonstruksiya qilishda ogohlantiruvchi sanitariya nazorati olib borish;
- qo‘llanilayotgan ionlovchi nurlarning manbalari va faoliyat yuritayotgan radiologik ob’ektlarni qayd qilish;
- har xil aholi guruhlarini nurlanish dozasini o‘lchash va baholash;
- tashqi muhitda, ishlab chiqarish va yashash xonalarini tabiiy va texnogen radiaktiv birikmalarni tutganligini nazorat qilish;
- radiatsion avariylar sodir bo‘lgan holatlarida radionuklidlarni amaldagi darajalarini aniqlash va vaqtinchalik ruxsat qilinadigan darajalarini o‘rnatish;
- radiaktiv birikmalarni tashish va saqlashga bo‘lgan nazorat;
- kasbiy nurlanishga duch keladigan shaxslarni sonini va tibbiy ko‘rik vaqtini nazorat qilish.

Ionlovchi nurlanish manbalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan radiatsion havflarni kamaytirish dunyo amaliyotida qabul qilingan 3 ta asosiy prinsipga asoslanadi:

-ionlovchi nurlanish manbalaridan nurlanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyat agar u ishdan foydadan ko‘ra zarari ko‘p bo‘ladigan bo‘lsa bajarilmasligi kerak; -iloji boricha shaxsiy doza miqdori va nurlangan shaxslar soni kam bo‘lishi kerak; -ionlovchi nurlanish manbalari bilan faoliyat yuritayotgan shaxslarning nurlanishi ruxsat qilingan doza atrofidan oshmasligi kerak.

Ionlovchi nurlanish manbalarini qo‘llashda gigienik sharoitlarni belgilab beruvchi asosiy hujjat “Radiatsion havfsizlik me’yorlari va radiatsion havfsizlik sanitar taminotining asoslari” O‘zR SSV tomonidan 05.012006 da buyruqi hisoblanadi.

Inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llaniladigan ionlovchi nur manbalari 2 ta guruhga bo‘linadi: ochiq va yopiq nurlantirish manbalari

YOpiq manbalar-bu ionlovchi nur manbalarini shunday turiki-bunda ishchi ishlash jarayonida nurlanish olishi mumkin, lekin radiaktiv birikmalar me’yordagi ekspluatatsiya sharoitlarida organizmga tushishi mumkin emas.

### **Bunday ionlovchi nur manbalari 2 ta guruhga bo‘linadi:**

- a) doimiy ta’sirli nur manbalari hisoblangan izotop manbalar
- b) nurlanish generatorlari-izotop bo‘lmagan manbalar

Doimiy ta’sirli yopiq ionlovchi nur manbalari-bu radiaktiv birikmalarni oldindan ko‘rilgan ekspluatatsiya sharoitida tashqi muhitga tushishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday manbalarga beta, neytron nurlari, har xil vazifadagi gamma-uskunalar kiradi.

Nur generatorlari-bu nurlarni davriy ravishda generatsiya qiladigan manbalar. Bularga rentgen apparatlari va zaryadlangan zarrachalarni tezlatuvchilari kiradi.

YOpiq manbalar bilan ishlaydigan ishchilar me’yordagi ekspluatatsiya sharoitida faqat tashqi nurlanishga uchraydilar. Aniqlanishicha izotop manbalaridan foydalanganda personal oladigan tashqi nurlanish dozasi manba aktivligi ,ular bilan ishlash vaqt, gamma doimiy izotopga proporsional bo‘ladi va masofa kvadratiga va nurni ekran bilan susaytirish karraligiga teskari proporsional bo‘ladi.

## **D=(Q x kλ x t):(KxR2)**

Bu erda:

D-nurlanish dozasi R

Q-manba faolligi, m Ki

K-manbaning gamma-doimiyligi

T-manba bilan ishslash vaqt, saot

R-manbadan ishchigacha bo‘lgan masofa, sm

Haqiqatdan ham tashqi nurlanish dozasini kamaytirish uchun quyidagi 4 ta prinsipga asoslangan holda himoya ta’minlangan bo‘lishi kerak:

- miqdor bilan himoyalanish-ishni ish-joyida eng kichik faollik bilan olib borish. Bu prinsip chegaralangan qo‘llanishga ega, demak uni qo‘llanilish ko‘pincha texnologiyani o‘zgartirish zarrurati yoki ish vaqtini uzaytirish bilan bog‘liq bo‘ladi;
- vaqt bilan himoyalanish, demak ionlovchi nur manbalari bilan ishslash vaqtini qisqartirish (ish kunini qisqartirish, cho‘zilgan ta’til);
- masofa bilan himoyalanish (distansion boshqaruv, manipulyatorlarni qo‘llash). Bu usul juda samarali chunki manbadan ishchigacha bo‘lgan masofani 2 martaga ko‘payishi nur dozasini 4 marta kamaytiradi.
- ekran bilan himoyalanish-har xil qalinlikdagi va har xil materiallardan qilingan ekranlarni qo‘llash. Ekranlashtirish uchun qo‘llaniladigan materialning turi nuring energiyasi va xarakteriga, uning quvvatiga va qo‘llaniladigan materialning turiga bog‘liq bo‘ladi.

Rentgen va gamma nurlaridan himoyalanish uchun qo‘rg‘oshin, qo‘rg‘oshinli shisha yoki rezinka, temir, g‘isht, beton, suv ishlatiladi. Bunda ekranlar sifatida konteynerlar, qurilish konstruksiyalari, eshik, deraza, pol, shift, parda, fartuk, qo‘lqop va ko‘zoynaklar bo‘lishi mumkin.

Neytronlardan himoyalanish uchun bir necha qavatli himoya qo‘llaniladi:

1 qavat- tezkor neytronlarni susaytirish uchun (parafin, suv);

2 qavat-sekin neytronlarni shimishi uchun (bor, kadmiy);

3qavat-sekin neytronlarni yutilishida kelib chiqadigan gamma nurlarni yutish uchun.

Beta nurlaridan himoyalanish uchun engil materiallar qo'llaniladi (alyuminiy, plastmassa, organik shisha).

Ochiq ionlovchi nur manbalari-bu shunday manbalarki ulardan foydalanganda tashqi muhit radiaktiv birikmalar bilan ifloslanishi mumkin. SHunday manba bilan ishlovchi ishchilar radiaktiv birikmalarni inkorporatsiyalanishi hisobiga ichki ham tashqi nurlanishga uchraydilar.

Ionlovchi nurlarni ochiq manbalaridan foydalanganda nafaqat tashqi nurlanishdan himoyalanishni balki tashqi muhitni radiaktiv ifloslanishi va radiaktiv birikmalarni organizmga tushishini oldini olish choralar ham ko'zda tutilishi kerak.

Ochiq manbalar bilan ishslash uchun DSENM dan ruxsatnomaga olish kerak, lekin "Radiatsion havfsizlik me'yorlari va radiatsion havfsizlik sanitarni taminotining asoslari" O'zR SSV tomonidan 05.01.2006 buyruqida eng kam ahamiyatga ega faollik o'rnatilgan - bu degani ish joyida kam ahamiyatga ega bo'lgan faollilik uchun DSENM ni qarori talab qilinmaydi. Eng kam ahamiyatli faollik miqdori radionuklidlarni havflilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Radiatsion xavflilik darajasi bo'yicha barcha radionuklidlar 4 guruhga bo'linadi: A,B,V,G. Radionuklidlarni qaysi guruhga mansubligi va uni eng kam ahamiyatga ega bo'lgan faolligi "Radiatsion havfsizlik me'yorlari va radiatsion havfsizlik sanitarni taminotining asoslari" O'zR SSV tomonidan 05.01.2006 da buyruqibo'yicha aniqlanishi mumkin. Agar ionlovchi nur manbalarining faolligi eng kam ahamiyatli faollikdan yuqori bo'lsa radiaktiv birikmalar bilan ishslash sinfi aniqlanishi kerak.

### **Dozimetrik va radiometrik nazorat olib borishda qo'llaniladigan tekshirish usullari**

Dozimetrik va radiometrik nazoratini olib borish asosida ionlovchi nurlanishni qayd qilish yotadigan instrumental tekshiruvlardan foydalanishga asoslanadi.

Ionlovchi nurlanishni qayd qilish usullarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. fizikaviy, ionlashtiruvchi, sintilyasion, kalorimetrik, spektrometrik
2. kimyoviy, fotografik, radiokimyoviy
3. biologik, aholini salomatlik holatini baholash, eksperimental

#### Fizikaviy usullari

1. Ionizatsiya usuli. Bu usul Geyger-Myuller hisoblagichini to‘ldiradigan gazning ionizatsiyalanish samarasini qayd qilinishiga asoslangan. Ionlanish natijasida hisoblagichni darajalanishi yoki ular zaryadlari potensialining kamayishiga olib keladi. Hisoblagichga priborni pasportida ko‘rsatilgan muayyan ish kuchlanish berilganda hisoblagichni darajalanishidan kelib chiqadi.

Geyger-Myuller hisoblagichi yordamida beta-zarrachalari, gamma-kvant, shuningdek rentgen nurlari qayd qilinadi qattiq turdagি nurlarni dozimetriya va dozimetriyasi.

2. Sintilyasion usul. Ba’zi bir moddalar (rux sulfid, stilben, antratsit) ionizatsion nurlanishi ta’siri ostida yorug‘lik va sintilyasion portlash hosil qilishiga asoslangan. Sintilyasiya intensivligi ionlovchi nur instensivligiga proporsional bo‘ladi, buni FEU ushlab olib va hisoblash uskunasiga qayd qilinadigan elektr tokiga aylanadi. Bu usul har xil nurlanishlarni aniqlashda ishlatiladi.

3. Kalorimetriya usuli. Bu usul nurlanish energiyasining kalorimetik tanasida yutilib unda issiqlik energiyasiga aylanishiga asoslangan.

Alfa nurlarini kalorimetrik usulda o‘lhash osonroq. Chunki ular kalorimetrik tanasiga to‘liq yutiladi. Ko‘proq dozimetriyada qo‘llaniladi.

#### Kimyoviy usullar.

Kimyoviy usul. Bu usul yordamida ionizatsion nurni moddalarga ta’sir qildirib kimyoviy o‘zgarishi aniqlaniladi: valentligining o‘zgarishi, molekulyar tarkibini o‘zgarishi, ochiq materiallarni qorayishi. SHaxsiy nurlanish dozasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Fotografiya usul. Ionlovchi nurlanish ta’sirida fotoqog‘ozning qorayishni qayd qilinishiga asoslangan. Bu fotoqog‘ozning qorayishi darajasi nurlanish

dozasiga bog'liq bo'ladi. Asosan korpuskulyar nurlarni tashqi oqimini o'lchash uchun ishlatiladi.

Biologik usul.

Bu usul ionlovchi nurlanish ta'sirida organizmda bo'ladigan o'zgarishlarni darajasi va xarakterini qayd qilishga asoslangan. Odamga nisbatan bu usul qandaydir avariya natijasida shtatdan tashqari holatda olgan nurlanish dozasini baholash uchun ishlatiladi. Bu murakkab, mehnat talab qilinadigan usullar olingan nurlanish dozasi haqida aniq ma'lumot bermasligi ham mumkin.

#### Radiatsion nazoratni o'tkazish tezligi

Ionlovchi nurlanishni ishlatish sohasi	Radiatsion xavfsizlik xizmati uchun	DSENM uchun
Sanoatda va eksperimentda qo'llaniladigan quvvatli radiatsion texnikani ekspluatatsiyasi	yilda 2 marta	yiliga 1 marta
Sanoatda qo'llaniladigan radioizotop defektoskopi	har kvartalda	yilda 1 marta
Tibbiyotda: -gammaterapiya uskunalari ekspluatatsiyasi -rentgen tashxislash uskunasi -rentgenerapiya uskunasi	yilda 2 marta har kvartalda har kvartalda	yilda 1 marta yilda 1 marta yilda 2 marta

Ish joyi va tutash xonalarda rentgen, gamma va neytron nurlarni o'lchovlarini olib borishda dozimetrik o'lchovlarni pol yuzasidan 160-170 sm, 120-130 sm, 60-75 sm balandlik darajalarida olib borilishi tavsiya qilinadi.

Nurlanish miqdorini aniqlash uchun dozimetrik asboblar hamda hisoblash usullaridan foydalilanadi. Hamma dozimetrik asboblar shartli ravishda 3 guruhga bo'linadi:

1. Rentgenometrlar. Bu guruhga kiruvchi dozimetrik asboblar asosan R0 va J nurlarining ma'lum hajmdagi havoda ionlar paydo qilishi natijasida hosil bo'lgan ekspozitsion dozasini (miqdorini) aniqlaydi.

#### KID-2, MRM-2, DG-3, DP-5A

2. SHaxsiy dozimetrlar, odamlarning ish jarayonida olgan dozalarini o'lchaydi; KID, IFKU, TLD

3. Radiometrlar. Bu guruhga kiruvchi asboblar asosan alfa va betta zarrachalari chiqaradigan impulslarning o'lhashga asoslangan.

Radiatsion nazoratni tashkil qilish va uning turlari. Dozimetrik nazorat uchun qo'llanuvchi apparaturaning turi va dozimetriya o'tkazish nuqtalari radiatsion sharoitga bog'liq. Radiatsion muhit doimiy bo'lgan sharoitlarda statsionar dozimetrlar, boshqa hollarda qo'lda ko'tarib yuriluvchi dozimetrlar qo'llanadi. Gamma va neytron nurlarni o'lhash uchun DRG tipidagi dozimetrlar (DRG-0,5m, DRG-0,5-0,1m) qo'llaniladi, rentgen va gamma nurlarni o'lhash uchun SRP-68-01 qo'llaniladi. Yana hozirgi paytda DKG-105 (gamma-nurlanishni qayd etuvchi), RKS-104 (gamma-nurlanishni qayd etuvchi) va RKS-107 (gamma-nurlanishni qayd etuvchi, 1-rasm) dozimetrlar ishlab chiqilmoqda va ishlatilmoqda.

Radioaktiv gazlar va atmosferadagi radioaktiv aerozollarning miqdorini nazorat qilish uchun statsionar, RKS toifasida yoki olib yuriluvchi RGA-01P, RGB-02 (2-rasm), RGB-07, RAS-0,4 dozimetrlar qo'llanadi. Tekshirish uchun namunalar hamma xonalardan olinishi, agar xodim xonada ish kunining 50% vaqtini davomida bo'lsa o'rtacha kunlik, undan kam bo'lsa haftalik namuna olinadi.

#### Nazprat savollari

1. Radiatsion gigienaning tarixi.
2. Radiaktivlik xodisasiga ta'rif.
3. Ionlantiruvchi nurlarning biologik ta'siri.
4. Ionlantiruvchi nurlar ta'sir qiluvchi kritik organlar.
5. Ochiq nurlanish sabablari.
6. Ionlantiruvchi nurlarning REKsi va o'lchov birliklari.

7. Ionlantiruvchi nurlardan saqlanish choralari.
8. Dozimetrik nazorat.
9. Radiatsion xolatni aniqlovchi usullari va asboblari

### **Testlar**

1. Radiaktivlik hodisasi va rentgen nurlari birinchi bo‘lib kimlar tomonidan ixtiro qilgan:
  - a) Mariya Skladovskaya Kyuri b) Kondrat Rentgen
  - s) Per Kyuri d) G.I.Rumyansev e) A.A.Minx
2. Ionlovchi nurlanishni qayd qilish usullari
  - a) Fizikaviy b) Kimyoviy
  - s) Bakteriologik d) Biologik e) Mikrobiologik
3. Ochiq ionlantiruvchi nur manbalari bilan ishlaganda nurlanish sabablarini ko‘rsating:
  - a) Asosli rentgen tekshirishga yuborish b) Bemorlarni oldindan ogohlantirmaslik
  - s) Qo‘rg‘oshin fartuklardan foydalanmaslik d) Sezgir organlarni himoya qilmaslik
  - e) Rentgenologlarning malakasizligi
4. Ionlantiruvchi nur manbalari birinchi navbatda ta’sir qiladi:
  - a) Qon, qon ishlab chiqarish organlariga
  - b) Jigarga s) Moddalar almashinuviga
  - d) Teri va shilliq pardalarga e) Taloqga
5. Ekspozitsion dozaning o‘lchov birligi
  - a) Kulon/kg b) Grey s) Rentgen d) Rad e) Zivert
6. YUtilgan dozaning o‘lchov birligi:
  - a) BER b) Rad s) R/soat d) Zivert e) Grey

7. Tashqi nurlanishdan saqlanish yo'llarini aniqlang:

- a) Vaqt bilan b) Sifat bilan c) Ekran bilan
- d) Miqdor bilan e) Masofa bilan

8. Ionizatsion nurlanish ta'siri natijasida organizmda kelib chiqadigan kasalliklar:

- a) O'tkir va surunkali nurlanish
- b) Jinsiy organlarning ayrim kasalliklari kelib chiqadi
- c) Oshqozon-ichak kasalliklari kelib chiqadi
- d) Somatik a'zolarda xavfli o'simta paydo bo'ladi
- e) Genetik tug'ma nogironlik paydo bo'ladi

9. Dozimetrik asboblar va hisoblash usullari qaysi maqsadda qo'llaniladi:

- a) Nurlanish miqdorini bilish uchun
- b) Ochik radiaktiv manbalarni aniqlash uchun
- c) Nurlanish sifatini aniqlash uchun
- d) Muxofaza choralari natijasini aniqlash uchun
- e) YOpiq radiaktiv manbalarni aniqlash uchun

10. Dozimetrik asboblar shartli ravishda quyidagi 3 ta guruxga bo'linadi:

- a) Radiometr TISS b) SHaxsiy dozimetrlar c) Radiometrlar
- d) Rentgenometrlar e) Mikrorentgenlar

## TESTLAR

1. Kimyoviy omillar qanday guruxlarga bo'linadilar.

1. Maxsus 2. Tanlab tasir qiladigan 3. Umumtoksik tasirli 4. Mahalliy

5. Tanlab va umumtoksik tasirli moddalar.

6. Mahalliy qo'zg'atuvchi tasir qiluvchi moddalar.

2. Keltirilgan qaysi natijalardan biri ishlab chiqarish zararlarining umumtoksik ta'siriga kiradi.

1. Spetsifik zararlanish 2. Surunkali zaxarlanish. 3. O'tkir zaxarlanish

4. Mutagen va allergik tasiri. 5. Mutagen va maxalliy qo‘zg‘atuvchi ta’siri.
3. Quyidagi qaysi natija ishlab chiqarish zararlarining spetsifik ta’siriga kiradi.
1. Teratogen
  2. Surunkali zararlanish
  3. Mutagen
  4. Allergen
  5. Kanserogen
4. Zaxarlar va ularning metabolizm mahsulotlarni organizmdan chiqish yo‘llarini ko‘rsating.
1. O‘pka
  2. Oshqozon ichak yo‘li
  3. Teri va sut bezlari
  4. Buyrak
  5. Ter bezlari
5. Quyida keltirilganlardan qaysi biri kasb kasalliklaridan zararlanishda muhim hisoblanadi
1. Ishlab chiqarish jarayonini germatizatsiyalash va xonani havosini yangilash
  2. Kasallarni o‘z vaqtida aniqlash va davolash
  3. Maxsus kiyimlarni kiyish
  4. Surunkali zaxarlangan kasallarni kasalxonaga yotqizish
6. Qanday ishlab chiqarish zaharlari bor kasbga emizikli ayollar ruxsat qilinmaydi
1. Jismoniy yuklama bilan ishlashga
  2. SHovqin va vibratsiya sharoitida ishlashga
  3. Kimyoviy birikmalar bilan ishlashga
  4. Qurituvchi mikroiqlimli sharoitda ishlashga
7. Zararli kasbdagi ishchilar uchun maxsus ovqat nima
1. YUqori kaloriyali talab qiladigan og‘ir kasbdagi ishchilarning ovqati
  2. SHikastlanuvchi azoning ish faoliyatini yaxshilaydigan qo‘shimcha ovqat
  3. Zararli kasbdagi ishchilarga qo‘shimcha bepul ovqat
  4. Organizmga tushgan zaxarlarni zararini yo‘qotish
  5. Asosiy ovqatga qo‘shimcha meva va sabzavotlar

8 . Kimyoviy termoregulyasiya nima?

1. organizmda issiqlik hosil bo‘lishini boshqarish
2. issiqlik organizmdan chiqishini boshqarish
3. tashqi muhit bilan issiqlik almashnuvini boshqarish
4. issiqlik his etilishi

9. Uglerod oksidini zaxarli ta’siri ostida nima yotadi?

1. karboksigemoglobinni hosil bo‘lishi
2. oqsillar denaturatsiyasi
3. qonda metgemoglobinni hosil bo‘lishi
4. qondagi xolinesterazani aktivligini yuqotishi

10. Quyida keltirilgan moddalardan qaysilari material kumulyasiya xususiyatlariga ega?

1. organik erituvchilar, simob organik birikmalar
2. simob, qo‘rgoshin, mishyak
3. azot va uglerod oksidalari
4. polimer moddalar

11. Qo‘rgoshin bilan zaxarlanishda organizmning ko‘prok qaysi sistemasi zararlanadi?

1. endokrin
2. oshkozon ichak yuli
3. nafas yuli
4. asab

## TESTLAR

1. Radioaktiv nurlarning asosiy xususiyatlari nima ?

- |                            |                      |
|----------------------------|----------------------|
| A) nur xosil qilish        | B) vatt xosil qilish |
| V) radiatsiya xosil qilish | G) ion xosil qilish  |

2. Radiatsiya nurlarining organizmga ta'siri natijasida nechta effekt kuzatiladi ?



### 3. Radioaktiv moda aktiv birligi nima ?



## 4. Rad nima ?



5.Ionlovchi nur manbaalari b/n ishlovchi xodimlar kaysi kategoriyaga kiradi ?

- |        |        |
|--------|--------|
| A) «A» | B) «B» |
| V) «V» | G) «G» |

6. Axolini radioaktiv ta'siriga uchrashi mumukin bulgan kismi kaysi kategoriyaga mansub ?



7.Radiosezgirligi buyicha organlar nechta guruxga bulinidi ?



## 8.PDD nima ?




### 9. PD nima?



#### 10. Radioprotektorlarga nimalar kiradi?

- A) Etil spirti, ziravorlar, ukrop.      B) Mevalar, etil spirti, sut maxsulotlari.  
V) Jenşen, etil spirti, vitamin S.      G) Jenshen, vitamin S, sitrusli mevalar.

**Mavzuni amaliy ko‘nikmalarini egalashning o‘quv texnologiyasi “Loyixa”**  
**usuli Radiatsiya nurlarining organizmga ta’siri natijasida**  
**kuzatiladigan effektlar**



**6-mavzu: GALEN PREPARATLARI VA TAYYOR DORILAR**  
**SHAKLLARNI XAMDA ANTIBIOTIKLARNI ISHLAB CHIQARISHDAGI**  
**MEHNAT GIGIENASI**

Amaliy mashg`ulot xronologik xaritasi Texnolo gik bosqich lar	Faoliyat mazmuni	
1.O'quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant	Talaba
	<p>1.1.Mashg`ulot mavzusini e'lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2.SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o'quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish. (1 ilova)</p>	<p>Mashg`ulot rejasi bilan tanshitiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1.Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi. YUqoridagi savollar asosida savol-javob o'tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo'ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo'yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. O'qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo'linadi</p> <p>Gurux a'zolari birgalikda izlanibya. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg`ulotlarni sistemalashtiradi, o'zaro fikr almashadi. Gurux sardorlari o'z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	<p>Mavzu bo'yicha umumiyl xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko'rsatmalar beradi</p>	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

## **Fitopreparatlar tayyorlashda mexnat sharoitlarining gigienik tavsifi.**

Fitopreparatlar dorivor o'simlik xom ashvosidan oladilar. Ularni ikki guruxga ajratadilar: yangi uzilgan usimliklardan taiyorlangan preparatlar va quritilgan o'simlik xom ashvosidan tayyorlangan preparatlar.

Yangi uzilgan usimliklardan tayyorlangan preparatlar sharbatlar va ajratmalarga bulinadi.

Ularni tayyorlash chog'ida apparaturaning germetikligi buzilgan xolda va ventilyasiya ishining samaradorligi past bulganda ishlovchilarga ekstragentlar (dixloretan, efirlar, spirtlar va b.q) ning bug'lari ta'sir ko`rsatishi mumkin. YAngi uzilgan dorivor o'tlarni maydalash operatsiyalarini gigienik jixatdan nokulay deb xisoblash lozim, chunki bu paytda ular sharbati tomchilari va mayda bulaklari nafas organlari tananing ochik kismlari terisiga (qullar, yuz) tushib, bunda terini va sensibilizor ta'sir ko`rsatishi mumkin.

Nastoykalar kuruk o'simlik xom ashvosidan tayyorlangan spirtli yoki spirtli-efirli ajratmalar bo`lib, ular isitishsiz va ekstragentlardan olinadi. Nastoykalarni tindirish, perkolyasiya (filtr orkali uzlucksiz filtrlash) va ekstraktlarni eritish yuli bilan oladilar. Ekstraktlar - quruq o'simlik xom ashvosidan olingan konsentratsiyalangan eritmalar, ballast moddalardan tozalangan galenli preparatlar. Konsentratsiyasiga kura suyuk, kuyuk va kuruk ekstraktlarga ajratiladi. Ekstraktlarni olish texnologik chizmasida asosiy operatsiyalar kuyidagilar konsetratsiyasi valeriana ildizni ortishdagi ifloslanish darajasidan 2-4 baravar ortik bulgan.

Dorivor changi fizikaviy xususiyatlari, kimyoviy qurilishiga kura organizmga turlicha ta'sir qilishi mumkin: umumiy zaxarli, terini yalliglantiruvchi, allergen va b.

CHunonchi, masalan, tarkibida atropin guruxidagi alkaloidlar bo'lgan belladonna utini ortishda teriga tushib, uni yalliglantiradi. Uzok ta'sir etganda, ayniqsa changi nafas iullari orqali tushganda zaxarli ta'sir bosh aylanishi, umumiy quzgalish, tomir urishi va nafas olishning tezlashishi kurinishida namoyon bo`ladi. Kizil

kalampir, shalfey, va boshqalarning changi teriga yalliglantiruvchi ta'sir ko`rsatadi. Limonnik, lisodadiy va boshqa utlarning changi bilan aloqada allergik tasirlanish xillari ta'riflangan.

Galenli va yangi galenli preparatlarning olinishida ish zonasini xavosining ekstragentlar va eritmalar (spirt, efir, xloroform, dixloretan va b.) buglari bilan ifloslanishi ruy beradi. Masalan, bir kator korxonalarda spirtli eritmalar tayyorlash xonalarida etil spirti buglarining yuqori konsentratsiyalari aniklandi, ularda ish zonasini xavosida olingan probalarning 20-30% ida buglarning tarkibi EKKdap ortik, bulgan. Kimyoviy omilga ega majmuada ayrim uchastkalarda yig'ilovchilar me'yordam ortik issiklik bilan belgilanuvchi mikroiqlim va shovqinning bir vaktdagi- ta'siri ostida bo`ladilar.

### **Galenli sexlarda ishlovchilarga kimyoviy omilinng ta'sir**

ko`rsatish turi va darajasi qo'llanilayotgan texnologik uskuna, dorivor xom ashyo tarkibi, me'yoriy mexnat sharoitlarini ta'minlashda zararli moddalarning ajralib ballarini xisobga olgan xolda galenli sexlarni juda katta axamiyat kasb etadi. Ishlab chikarish omillarining zararli ta'sir ko`rsatishining oldini olishda shaxsiy ximoya vositalari katta axamiyatga ega. Maydalagichlar, tegirmonlar, elaklar, shnekli va tasmali transportyorlar va boshqa texnologik uskunalarga xizmat ko`rsatuvchi ishchilar maxsus kiyim-bosh, 03-N. 03-K turidagi ximoya kuzoynaklari. kulkoplar. SHB-1 guridagi respiratorlar bilan ta'minlanishi shart. Bundan tashkari, organik ekstragetlar bilan

alokada buluvchi apparatchilarda A rusumli filtrlovchi kutichali protivogaz bulishi shart.

## **2. Ampulardagi dorilarni ishlab chikarishda mexnat sharoitlarining gigienik tavsifi.**

Ampulardagi dorilarni ishlab chikarish texnologik jarayoni farmatsevtika zavodining ampulla sexida amalga oshiriladi. Ampulalarni tayyorlashni ishlab chikarish sikli kuyidagi asosiy operatsiyalardan tashkil topadi: ampulalar tayyorlash in'eksiya

eritmasini tayyorlash va ampulalarni tuldirish (ampulalash), ampulalarpi yopish, eterillash, nazorat, yorliklar na urab joylash.

## Z.Ampulalar tayyorlash.

Ampula sexi bulimida maxsus apparatlar (avtomatlar yoki yarim avtomatlar) yordamidga amalga oshiriladi. Ampulalar uzun kimyoviy jixatdan chidamli shisha kuvurchalar - drotlardan tayyorlanadi. Dastlab drot yuviladi, so`ngra aylana yarim avtomatlar yoki avtomatlarga o`rnatilib, gazli yondirgichlar yordamida undan ampulalar olinadi. Keyingi bosqichlarda ochik kapillyarli vakuumli yarim avtomatlarda yuviladi. YAnada samarali yuvish uchun sunggi yillarda ampulalarga ultratovush bilan ishlov berishlari keng foydalanilmokda. Yuvilgan ampulalarni quritish javonlarida issik xavoda kuritib, so`ngra ampulalarni tuldirish bulimlariga junatadilar. Tadkikotlarning ko`rsatishicha, bu uchastkada ishlovchilar uglerod oksidi na yuqori xarorat (280S gacha) ta'siri ostida bo`ladilar. Ajralib chiqadigan zararli moddalarniig asosiy manbai tabiiy gazni ampula mashinalarinish gazli yondirgichlarida yondirish jarayoni xisoblanadi.

Xonalarni tozalash qoidalari buzilganda, xususan, ampula mashinalari yuzasidan changni mexanik usulda va puflash yuli bilai ketkazishda bu davrda shisha changi konsentrapiyasi EKKdan 2 baravar va u 44dan ortik bo`lishi mumkin. Yuqoridagi ishlab chikarishdagi zararlar bilan bir katorda ishlovchilar ampula mashinalaridan chiquvchi shovqin ta'siriga beriladilar. Bundan tashkari, drotlar va ampulalarni yuvishda, shuningdek ampula mashinalariga xizmat ko`rsatishda shisha siniklaridan jaroxat olish xavfi yuzaga kelishini ko`zda tutish zarur.

**4. Eritmani tayyorlash va ampullash.** In'eksiya eritmasini tayyorlash eritmaga ishlov berishdan boshlanadi, suv, turli yog`lar (shaftoli, bodom, eryongoq va b.), sintetik va yarim sintetik birikmadar eritma sifatida qo`llaniladi. In'eksiyalar uchun suvgaga ishlov berish uning tegishli sifati, jumladan apirogenligini ta'minlovchi yuqori ishlab chikarish distillyatorlarida amalga oshiriladi.

Ampulalash shprits yoki vakuum usulida amalga oshiriladi: birinchida ampulalarni

eritma bilan tuldirish avtomatik ravishda shprits yordamida quyiladi. Ikkinchisida - ularda ma'lum chukurliklagi vakuum yaratilib, u chikarilgach, in'eksiya eritmasiga - botirilgan ampula uning ma'lum xajmi bilan tuladi. Ampulalarni dorivor modda bilan tuldirish mukammal tozalikni talab etadi, shu sababli texnologik operatsiyalar,

xonalarni rejalashtirish, pardozlash va tutishga nisbatan kat'iy sanitariya-gigiena talablari kuyiladi. Devorlarga plitka yopishtirilishi yoki moyli buyok, bilan buyalishi

shart. Pol materiali suv, dezinfeksiya vositalari. organik erituvchilar va boshqa kimyoviy moddalar ta'siriga chidamli bulishi kerak. Kup jixatdan uni polimer material (podivinilxlorid, plitkalari. relin va b.) bilan koplash ushbu talablarga muvofik keladi. Xovoni tozalash (filtrlash) va uni bakteritsid lampalar yordamida zararsizlaptirish muxim jixatlardan sanaladi. Xonani doimiy ravishda xullab tozalab

gurish zarur. In'eksiya eritmalarini tayyorlash va ampulalarni ular bilan tuldirishda ish zonasidagi xavo erituvchilar va dorivor moddalar bilan ifloslanishi mumkin. Dorivor moddalar eritmalarini olish operatsiyalari, xususan kukunli dorilarni dozalash va ularni reaktorlarga ortishni kulda bajarish gigienik jixatdan eng notugri xisoblanadi. Ushbu bosqichda mexnat sharoitlarini soglomlashtirish maksadida kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishining oldini olishga karatilgai sanitariya-gigiena tadbirdi majmuini utkazish zarur. Ishlovchilar shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishi va shaxsiy ximoya vositalaridan foydalanishi muximdir.

## **5. Ampulalarni yopish.**

Ushbu texnologik operatsiya turli konstruksiyadagi yarim avtomatlarda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda yuqori xavo xarorati (290S gacha) va unda uglerod oksidining mavjudligi asosiy ishlab chikarishdagi zararlar xisoblanadi. Bir kator korxonalarda aylana yarim avtomatlarda tabiiy gaz yokilganda ajralib

chikayoggan uglerod oksidi ampulalarni konveyer liniyalarda yopish chogida chikadigan mikdoridan kariyb 2 barobar ortikni tashkil etdi.

Mavjud zararlar bilan kurashishda eng samarali sanitariya-texnikaviy tadbir oqim ustidan tortish ustunlik qiladiigan okilona okimli-tor ventilyasiyasi kurilmasi xisoblanadi. Qo‘l va ko‘zlarni shaxsiy ximoya qilish vositalaridan (kulkop va ximoya kuzoynagi) foydalanishiga aloxida e’tibor berilishi shart.

Ampula yopilgach, uning germetikligi tekshirilib, sterillanadi va nazoratdan utishga junatiladi.

## **6. Tabletkalar tayyorlashda mexnat sharoitlarining gigienik tavslisi.**

Tabletkalar - tayyor dorivor preparatlarning presslangan kukunlari yoki aralashmalaridan iborat qat’iy dozalangan dorivor shakldir. Tayyorlash usuliga kura tabletkalar presslangan va trituratsion turlarga bulinadi. Presslangan tabletkalar eng

keng tarkalgan. Tabletka tarkibiga dorivor moddadan tashkari yordamchi birikmalar xam

kiradi, ular belgilanishiga kura kuyidagilarga bulinadi:

- aralashtirmalar, ular tabletkaga zaruriy massa xosil qilish maksadila kuyuiladi (kraxmal, sutli kand, lavlagi kandi, glyukoza, magniy oksidi. kaolin, sorbit va b.); parchalovchilar - oshkozon yoki ichakda tabletkanipg mexanik bulinnshini ta’minlovchi birikmalar. Ularga shishish (agar-agar, jelatin va b.) yoki gaz xosil qilish (limonli yoki vino-tosh kislotali natriy gidrokarbonat) xisobiga tabletkani parchalovchi yoki namlanishni yaxshilovchi (kraxmal, tvinlar, spenlar va b.) moddalarning uch guruxi kiradi;

	<p>bittadan savol bo‘yicha ekspertlar tayinlanadi va ular boshqa guruxlar a’zolariga tushuntirish ishlarini olib boradi.</p> <p>2.3.Xar bir gurux uchun ekspert varaqalarini tarqatib beradi. (2 - ilova).</p> <p>2.4.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.5.Taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Gurux a’zolari birgalikda izlanibya. Mashg‘ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi.	Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarni yozib oladilar.

O‘quv - tarbiyaviy va davolash – profilaktika ishlarini olib borishda mikroiqlimning axamiyati juda katta: xavoning xarorati, namligi, xarakat tezligi va issiqlik nurlaridan iborat bo‘lgan atrof muxitning xolati mikroiqlim deb ataladi. Bundan tashqari atmosfera bosimini xam mikroiqlim ko‘rsatkichlari qatoriga kiritiladi. Xavoning bu ko‘rsatkichlari odam organizmida issiqlik almashinuv jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi bilan muxim gigienik axamiyat kasb etadi.

## **XAVONING TEMPERATURASINI ANIQLASH.**

Binolarda xavo xarorati simobli yoki spirtli termometrlar yordamida aniqlanadi. Xavo xaroratini ma'lum vaqt ichida (bir necha kundo'z yoki xafta) o'zgarishini o'zluksiz yozib olish uchun termograflardan foydalilanadi. Tremograflar uch qismdan iborat: qabul qiluvchi qism, o'zatuvchi va yozib oluvchi qismlar. Qabul qiluvchi qism yarim oy shaklidagi bimetall plastinkadan iborat bo'lib, xavo xarorati o'zgarganda o'z xolatini o'zgartiradi va bu o'zgarish richaglar sistemasi orqali asbobning yozib oluvchi qismiga uzatiladi. Strelka uchida ko'rinnmaydigan siyox qo'yiladigan pero o'rnatilgan bo'lib xarorat o'zgarishlari, aylanma barabanga o'ralgan, soat yoki kunlarga bo'lingan qog'oz lentasiga yozib olinadi.

**Natija :**

**Xulosa :**

## **XAVO NAMLIGINI ANIQLASH.**

Xavoning muayyan suv bug'lari bilan to'yingan miqdori namlikdir. Gigiena amaliyotida namlikni uch turidan ko'prok foydalilanadi. Muayyan joyning namligiga baxo berishda absalyut, maksimal va nisbiy namliklar aniqlanadi.

Absalyut namlik. Bir kub metr xavoning tarkibidagi suv buglarining miqdori absalyut namlikdir.

Maksimal namlik. Bir kub metr xavoni tuyintirish xususiyatiga ega bo'lgan suv buglarining miqdoriga maksimal namlik deyiladi.

Nisbiy namlik. Absalyut namlikning maksimal namlikka nisbatini foizlardagi ifodasiga nisbiy namlik deyiladi.

A

N=-----100%

F

Bu erda      N - nisbiy namlik

    A – absalyut namlik

    F – maksimal namlik

Absalyut namlik Avgust yoki Asman psixrometrlari yordamida aniqlanadi. Avgust psixrometri maxsus o'rnatilgan nam va quruq termometrlardan iborat. Nam

termometrning simobli yoki spirtli sharchasi yupka batist matoxi kiykimi bilan uralgan va distirlangan suv kuyilgan stanqanchaga tashirilgandir.

Avgust psixrometri yordamida namlikni ANIQLASH jarayonida Rene formulasidan foydalanib absalyut namlik aniqlanadi.

$$A = F - a (T - T_1) V$$

Assman aspiratsion psixrometridan foydalanilganda absalyut namlik SHprung formulasi yordamida aniqlanadi.

$$A = F - 0/5 (T - T_1)$$

Bu erda      A – absalyut namlik

    F – maksimal namlik

    T – quruq termometrning ko‘rsatkichi

    T<sub>1</sub> – nam termometrning ko‘rsatkichi

    a – psixrometrik koeffitsient ( atmosfera xavosida 0,00074,

    Binolarda 0,0011 ga teng).

    V – namlik aniqlanayotgan paytidagi atmosfera bosimi.

755 – urtacha atmosfera bosimi.

Nisbiy namlik psixrometrik gigrometrler yordamida xam aniqlanadi. Namlikning bu usul bilan aniqlash quruq va nam termomterlar ko‘rsatkichlaridagi fark va xavo namligi orasidagi boglanishga asoslangan. Bunda namlik quruq va nam termometr ko‘rsatkichi, quruq va nam termometrlar ko‘rsatkichlari orasidagi farkga asoslanib, maxsus jadvallar yordamida aniqlanadi. Bundan tashkari xavo namligini aniqlashda gigiena amaliyotida gigrometr va gigrograf asboblaridan xam foydalaniladi. Jumladan gigrograf asbobidan namlikni muayyan vaqt oraligida o‘zgarib turishini doimiy tarzda yozib olishda foydalaniladi. Bu asbob xam termograf kabi tuzilishga ega bo‘lib faqat kabul kiluvchi qismda bimetall plastinka urniga yog‘sizlantirilgan ot yoki soch tolasidan foydalaniladi.

**Natija :**

**Xulosa :**

### **XAVO XARAKAT TEZLIGINI ANIQLASH.**

Xavo xarakat tezligi uning yo‘nalishi va tezligi bilan ifodalanadi. Bu ko‘rsatkichlar muxim gigienik axamiyatga ega. SHamolning yo‘nalishi u esayotgan er shari tomonlari va romblari bilan belgilanadi. Mazkur joyda muayyan vaqt davomida shamol takrorlanishining foizlar bilan ifodalangan grafik tasviri shamollar guli deyiladi. SHamollar guli shaxarlarni rejalashtirish, turar joylar, shifoxonalar, bolalar muassasalari va turli xavoni iflovchi sanoat korxonalarini loyixalash va qurishda juda katta axamiyatga ega.

Xavoning xarakat tezligi anemometrlar yordamida aniqlanadi. Anemometrlarning ikki turi tafovut etiladi. Bular parrakli va kosachali anemometrlar. Unliklar, yuzliklar va minglarni ifodalovchi uchta siferblat bo‘lib, shamolning tezligini ANIQLASHdan oldin, anemometrning ko‘rsatkichlari yozib olinadi. SHamolning ta’sirida kanotlar va kosachalar o‘z uki atrofida aylangani sababli anemometr ko‘rsatkichlari o‘zgaradi. Ko‘rsatkichlar urtasidagi fark, ulchash mobaynida utgan vaqt ( sekundlar bilan ifodalangan) ga bo‘linadi. So‘ngra asbobga ilova qilingan jadval yordamida xavoning sovutish qobiliyati xam aniqlanadi.

Binolarning ichidagi xavoning xarakat tezligi katatermometrlar yordamida aniqlanadi. U xozirgi vaqtda ikki xil rezervuarli katatermometrlar yordamida xavoning sovutish qobiliyati xam aniqlanadi.

**Natija :**

**Xulosa :**

### **ATMOSFERA BOSIMINI ANIQLASH.**

Atmosfera bosimi simobli yoki aneroid barometrlar yordamida aniqlanadi. Atmosfera bosimining ma’lum vaqt davomida o‘zgarishi barograflar yordamida uzluksiz yozib olinadi. Barograf xam oldingi keltirib o‘tilgan o‘zi yozib oladigan asboblar kabi uch qismdan iborat bo‘lib, bu erda kabul kiluvchi qism asbobning ichida joylashgan bo‘lib metall plastinkalardan iborat.

Mikroiqlimni gigienik tekshirishni, xavoning fizikaviy xususiyatlarining organizmga kompleks ta'siriga asoslanib olib boriladi.

Davolash – profilaktika muassasalarida mikroiqlimning quyidagi ko'rsatkichlari tavsiya etiladi :

Xavo xarorati :

Katta odamlarga mo'ljallangan palatalarda	20 S <sup>0</sup>
Bolalar palatalarida	28
CHala tug'ilgan chakaloklar palatalarida	25
Tug'ruq xonalarda	25
Operatsiya xonalarida	21
Jarroxlik bo'limlarining yara bog'lash va muolaja bajarish xonalarida	22
Nisbiy namlik miqdori	30-50%
Xavoning xarakat tezligi	0,2-0,4 m/s
Iqlimga qarab,xavo xarorati yasli va bog'chalarda	20-24,20-26.
Maktablarda	16-22,18-20.

Xonalarda havo haroratining o'rtacha ko'rsatkichlarini aniqlash

Xonalardagi havo haroratini simobli va spirtli termometrlarda aniqlanadi. Hozirgi kunda xona haroratini aniqlashda selsiy shkalasi bo'yicha 00 dan + 300-500, tashqi havoni esa-500 bo'lgan simobli va spirtli termometrlardan foydalilanildi.

Xonaning kun davomida maksimal darajadagi yuqori va eng past haroratini aniqlash uchun maksimal va minimal ko'rsatkichlarni ifodalovchi termometrlardan foydalilanildi. Bunday termometr orqali xonaning haroratini maksimal darajaga ko'tarilganligini va tushganini ma'lum ajratilgan vaqtda aniqlash mumkin.

Devor haroratini aniqlashda devor haroratini o'lchaydigan termometrlardan foydalilanildi. Termometrni yopishtirish uchun mum, kanifol yoki alibastr pol sathidan 10-15 sm hamda 1,5 m balandlikda o'lchanadi. Ushbu termometr

yordamida devorning burchaklari va eng sovuq joyining haroratini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Tashqi muhit haroratini uzluksiz ravishda ob'ektiv belgilab turish uchun o'zi yozuvchi asbob-termografdan foydalaniladi. Termograflar bir kunlik yoki haftalik bo'ladi.

Asbob takomillashmagani tufayli vaqtı-vaqtı bilan tekshirib aniqlik kiritib turish zarur. Havo haroratini aniqlashda termometri mumkin qadar isituvchi yoki sovutuvchi moslamalardan uzoqroq o'rnatgan ma'qul. Bolalar muassasalaridagi (yasli-bog'cha, shifoxona va h.k) havo harorati spirtli termometrlar yordamida o'lchangani ma'qul. Spirtli termometrlar simobli termometrlariga nisbatan ancha aniq bo'lmasa ham, ishlanish uchun bexavotirdir. Oz miqdorda bo'lsa ham tasodifan termometrdan to'kilgan simob bolalarga zaxarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xona havosining o'rtacha haroratini aniqlash uchun gorizontal holda kattalar uchun poldan 1,5 m balandlikda, bolalar muassasalarida esa ularning o'rtacha bo'yiga qarab 5 nuqtadan, ya'ni xonaning 4 burchagidan devorlardan va isitish moslamalaridan 10 sm nari va xona o'rtasidan o'lchab arifmetik miqdori olinadi. Vertikal bo'yicha kuzatilishi mumkin bo'lgan haroratning o'zgarishi 3m balandlikda, jumladan: poldan 10 sm va 1,5 m balandlikda hamda shiftdan 15-20 sm pastdan aniqlanadi.

Gorizontal yo'nalishi bo'yicha haroratning o'zgarishi tashqi devordan ichki devorgacha bo'lgan oraliqda 20 dan, vertikal yo'nalishi bo'yicha xonaning polidan 1.5 m balandlikda 1,5-20 S dan oshmasligi kerak.

Xona haroratini bir yo'la tekshirib to'la ma'lumot olindi, deb bo'lmaydi , chunki olinadigan ko'rsatkich fasnga, isitish moslamalarining turiga, issiqlik chiqarish davomiyligiga, xonadagi odamlar soniga, ularning xonada bo'lish paytiga va hakozoga bog'liq. SHunga ko'ra xona harorati yuqoridagilarni hisobga olgan holda kun davomida tekshirib turilgani ma'qul.

Havo namligi

Suv xavzalari, tuproq yuzasi va o'simliklardan muntazam ravishda suv bug'lari chiqib turadi, bu havoning namligini ifodalaydi. 1 m<sup>3</sup> havodagi suv bug'larining miqdori (g-da) absolyut havo namligi deb aytildi. Maksimal havo namligi deb havoning ma'lum haroratda namlik bilan to'la-to'kis to'yinib olishi uchun zarur bo'lgan suv bug'larining miqdoriga aytildi. Havo harorati ko'tarilib borgan sari havoning maksimal namligi oshib boradi. Nisbiy havo namligi deb, absolyut havo namligining maksimal havo namligiga foizlarda ifoda qilingan nisbatiga aytildi. Nisbiy havo namligi havoning suv bug'lari bilan to'yinish darajasini belgilab beradi.

Havo namligini aniqlashda aspiratsion va statik psixrometrlardan hamda gigrograflardan foydalaniladi. Aspiratsion psixrometrni statik psixrometrdan farqi shundaki, aspiratsion psixrometrga o'rnatilgan moslama orqali termometr ko'rsatkichlarini aniqlashdan oldin, joylarda aspiratsiya usulida havo yo'nalishini bir tekisda tashkil qilish bilan birga termometrlarni radiatsion nur ta'siridan himoya qilish choralari ko'rildi.

Psixrometrlar yordamida absolyut namlik aniqlanadi. Absolyut namlik formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$K = F - 0,50 (T - T_1) / V$$

755

bu erda: K-absolyut namlik, mm simob bo'yicha

F- nam termometrning ko'rsatishi bo'yicha maksimal namlik

T- quruq termometr ko'rsatishi (gradusda)

T<sub>1</sub>- nam termometr ko'rsatishi (gradusda),

V-tekshirish vaqtidagi barometrik bosim, mm simob ustunida. Topilgan absolyut namlikni namlikka o'tkazish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$K_1 = K \times 100\% F_1$$

bu erda: K<sub>1</sub>-nisbiy namlik, % hisobida

K-absolyut namlik, mm simob ustunida

F<sub>1</sub>-quruq termometrning harorati bo'yicha maksimal namlik olinadi.

Nisbiy namlikni formula bilan aniqlashdan tashqari, aspiratsion psixrometr ko‘rsatkichlari bo‘yicha maxsus jadval yordamida ham topish mumkin.

Aholi yashaydigan xonalarda nisbiy namlik 40-60% bo‘lishi kerak.

Gigrograf - havo namligini uzlusiz qayd qiluvchi asbob. Gigrografning asosiy qismi yog‘sizlantirilgan ayol sochi yoki ot yoli bo‘lib, unga uzatgich mexanizmi yordamida chizuvchi ko‘rsatkich ulangan. Namlik o‘zgarganda soch tołasi uzayadi yoki qisqaradi. Namlikning o‘zgarishi soat mexanizmi qo‘zg‘almas o‘q atrofida aylanib turadigan barabanga o‘rnatilgan chizg‘ich yordamida uzlusiz chiziladi, barabanning aylanish davriga ko‘ra, gigrograflar sutkali va haftali bo‘ladi.

#### Havo harakati

Havo harakatini markaziy Osiyo iqlim sharoitida aniqlash muhim gigienik ahamiyatga ega. U turar joy, ko‘chalarni, binolar va atmosfera havosining tabiiy tozaligini ta’minlaydi.

Havo harorati yuqori bo‘lganda shamol ortiqcha issiqlikni haydaydi. Past haroratlari sharoitlarda esa shamolning salbiy ta’siri ortadi.

Sanitariya amaliyotida havo yo‘nalishi tezligi havoning tabiiy tozaligini ta’minlaydi.

Sanitariya amaliyotida havo yo‘nalishi tezligi asosan qanotli va kosachali anemometrlar yordamida aniqlanadi.

Qanotli anemometrlar shamolda harakatga keluvchi o‘qqa o‘rnatilgan qanotlardan iborat. Qanotlar harakati natijasida aylantirilgan o‘q o‘z yo‘lida ko‘rsatkichini harkatga keltirish tufayli, havoning yo‘nalish tezligi siferblatda ifodalanadi. Buning uchun asbobni ishlatishdan oldin siferblat ko‘rsatkichlaridagi sonlar yozib olinadi, ma’lum vaqt asbob ishlatgach so‘nggi ko‘rsatkichlardan oldingisi ayrilib, sekundlarga bo‘lingandan keyin olingan raqam, havo harakat tezligini sekundlarda ifodalaydi.

Qanotli anemometrlar yordamida tezligi 0,3 dan 12 m/sek bo‘lgan havo yo‘nalishini aniqlash mumkin.

Kosachali anemometrlar. Bu usulda havo yo‘nalish tezligini aniqlash aylanuvchi o‘qqa qanotlar o‘rniga kosachalar o‘rnatilishi bilan farqlanadi. SHu sababli tezligi sekundiga 1 dan 20 m bo‘lgan havo yo‘nalishini aniqlash mumkin. YOpiq xonalarda havoning kichik harkat tezligini aniqlash uchun (0,1-0,2 m/sek gacha) katatermometrar qo‘llaniladi.

Havo harorati uning harkat tezligiga ham bog‘liq. SHuni hisobga olgan holda katatermometr yordamida odam tanasining tashqi muhitga issiqlik chiqarish miqdorini ham aniqlash mumkin.

Agar 1 sek ichida 1 sm<sup>2</sup> ter sathining yuzasidan katatermometr ko‘rsatkichi bo‘yicha 5,5-7 millikaloriya bo‘lganda kiyingan odam o‘zini yaxshi his etsa, bunda organizm o‘zidan 1,2-1,4 mkal-sm<sup>2</sup>/sek issiqlik yo‘qotadi.

Agar katatermometr ko‘rsatkichi 7 kkal sm<sup>2</sup>/sek dan yuqori bo‘lsa, odam sovuqlikni, agar 5,5 kkal-sm<sup>2</sup>/sek dan past bo‘lsa issiqlikni his etadi.

Havoning sovutish xususiyatini aniqlash uchun katatermometr asbobning yuqori rezervuarini ichidagi spirt S-1/3 hajmiga ko‘tarilgunicha suv hammomida isitiladi, so‘ngra ho‘llangan qismini quruq qilib artib tekshirilayotgan joyga-shtativga o‘rnataladi va naychadagi (spirtning ko‘rsatkichi 380 S dan 350 S ga qadar tushish vaqt) sekundlarda belgilanadi. Katotermometrning sovish tezligi (mkal-sm<sup>2</sup>/s) havoning sovutish xususiyatini ifodalaydi.

Bu quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N = F ;$$

a

F-katatermometr omili (o‘zgarmas kattalik)

a-naychadagi spirt ko‘rsatkichi 380 ga qadar tushishi vaqt sekundlarda ifodalanadi.

N-ni va atrofdagi havo harorat tezligini bilgan holatda empirin topilgan formula yordamida xonadagi harakat tezligini aniqlash mumkin.

$$\sqrt{ } = (H - 0,20) \cdot 2 \text{ 1 m/sek bo‘lgan havo tezligi uchun}$$

Q

H

$\sqrt{v} = (Q - 0,20)2$  1 m/sek dan yuqori bo‘lgan havo tezligi uchun

0,47

Bu erda:  $\sqrt{v}$ -havo harkat tezligi. m/sek, N-quruq katatermometrning sovush tezligi mkal/sm<sup>2</sup> sek Q-odamning tana harorati 36.50S bilan tashqi muhit harorati orasidagi farq.

0,20-0,40-0,13-0,47-empirik koeffitsientlar.

YOpiq xonalarda, dorixona xonalarida va muassasalarida havoning harakat tezligi 0,2-0,4 m/sek orasida bo‘lishi kerak.

Kichik havo yo‘nalish tezligini quruq katotermometrning sovush tezligi (mkal/sm<sup>2</sup>/sek) ko‘rsatkichini, odamning tana harorati (36.50S) bilan tashqi muhit harorati orasidagi farqining nisbat ko‘rsatkichini maxsus jadvallar yordamida ham topish mumkin. Havo harakati tezligining me’yori asosan xonaning haroratiga qarab belgilanadi. Turar joy xonalarida havo harakatinig tezligi 0,1-0,3 m/sek, sport zallarida 0,5 m/sek gacha, ishlab chiqarishda va issiq sexlarda 1-1,5 m/sek gacha me’yor bo‘lib hisoblanadi.

Gigienik nuqtai nazardan qulay deb shunday harorat, nisbiy namlik tezligi va boshqa ko‘rsatkichlarga aytildiki, hosil qilingan bunday sharoitlarda organizmda issiqlik almashinuvi va fiziologik faoliyat me’yorida kechadi. Bunday mikroiqlim komfort zona deb aytaladi.

Komfort zona (kattalar uchun) havo harorati 17-180S. nisbiy namligi 40-60% va havo yo‘nalish tezligi 0,1 m/sek bo‘lishi kerak.

Atmosfera bosimi va uni aniqlash

Er kurrasini qoplab turgan havo qatlami (atmosfera) o‘z og‘irligiga ega, bunday bosim havo tarkibidagi gazlarni odam tanasiga bir tekis tarqatib, a’zolar bo‘shliqlari va to‘qimalaridagi gazlarni muvozanatda saqlashni ta’minlaydi. Lekin ba’zan suv tagida ish bajarilganda yoki suvga to‘yingan er qatlamida ishlaganda organizm atmosfera bosimiga duchor bo‘ladi.

Toqqa ko‘tarilganda yoki samolyot, vertolyotda atmosferaning yuqori qatlamlariga ko‘tarilganda organizm past atmosfera bosimiga duchor bo‘ladi. SHu sababli atmosfera bosimini bilish muhim gigienik tadbirlardan hisoblanadi.

1980 yil 1 yanvardan boshlab atmosfera bosiminig o‘lchov birligi qilib jahon miqyosida yagona Paskal (Pa) qabul qilingan.

Atmosfera bosimi dengiz sathida 1000 mbar-1000 Pa - 750 mm simob ustuniga teng. Demak, 1 millibar-0,75 mm simob ustuniga, 1 mm simob ustuni o‘z yo‘lida 1,33 millibarga teng.

Atmosfera bosimini aniqlash yaqin orada ob-havoda kuzatilishi mumkin bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda past yoki yuqori bosim sharoitida ishlaganda qanday profilaktik chora-tadbirlar ko‘rish kerakligini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqari tashqi muhitning gazlar bilan ifloslanishi atmosfera bosimining qanday ko‘rsatkichida sodir bo‘lganini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Atmosfera bosimini simobli, metalli barometrlar hamda barograflar yordamida aniqlash mumkin.

1. Simobli barometr. Asbob vertikal holatda o‘rnatilgan, ustki qismi berk, pastki qismi esa simob solingan kosachaga tutashtirilgan shisha naychadan iborat. Bosimni o‘lhashdan oldin simob ustuni maxsus vintil yordamida “0”ko‘rsatkichiga tenglanadi. Simobning naycha bo‘ylab ko‘tarilishi, atmosfera bosimini shkala ko‘rsatkichi orqali ifodalaydi.

Simobli barometrni tashqi muhit haroratining o‘zgarishiga qarab to‘g‘irlab turish kerak, chunki harorat ko‘tarilish simobning kengayishiga, bu o‘z yo‘lida naycha orqali simob ko‘tarilishiga olib keladi. Bundan tashqari shkalaning kengayish koeffitsientini ham hisobga olish zarur, Barometr ko‘rsatishini to‘g‘irlash simobning kengayish koeffitsientiga 0,000163 hamda termometr ko‘rsatishiga ko‘paytirish yo‘li bilan topiladi.

Barometr ko‘rsatkichidan to‘g‘irlash ko‘rsatkichi olinadi, agar termometr ko‘rsatkichi musbat bo‘lsa qo‘shiladi, termometr ko‘rsatishi manfiy bo‘lganda ayrıladı.

Misol. Barometr ko‘rsatishi 755 mm simob ustuniga teng, havo harorati 200 S bo‘lsa, tuzatishni topish uchun olingan ma’lumotlar ko‘paytiriladi.  $755 \times 0,000163 \times 20 = 2.46$ . SHunday qilib, to‘g‘irlash 2.46 ga teng.

Barometr ko‘rsatishidan to‘g‘irlash ko‘rsatkichi ayrilsa, haqiqiy atmosfera bosimi topiladi:

$$755 - 2,46 = 752,54$$

demak, atmosfera bosimi tekshirilgan sathda 752,54 mm simob ustuniga teng.

2. Metalli barometrlar (aneroidlar). Asbob quticha shaklida bo‘lib, devorlari yupqa metaldan yasalgan. quticha ichida bosimni sezuvchi bo‘shliq hosil qilingan. Atmosfera bosimining o‘zgarishi tufayli, quticha devorlari ko‘tariladi yoki puchayadi. Bunday o‘zgarish richag sistemasi orqali siferblatga o‘rnatilgan ko‘rsatkichni harakatga keltiradi va atmosfera bosimini simob ustunini mm larda ifodalovchi raqamlarda belgilaydi.

3. Barograf atmosfera bosimini avtomatik holda aniqlash maqsadida o‘zi yozuvchi barograflardan foydalilanildi.

Metalldan yasalgan qutichalar asbobning sezuvchi qismi hisoblanadi.

Atmosfera bosimining o‘zgarish tufayli, qutichalar shaklini o‘zgartiradi va richagni harakatga keltiradi.

Harakatga kelgan richag avtomatik holatda aylanuvchi barabanga o‘ralgan qog‘ozda atmosfera bosimini bildiruvchi chiziqlarni ifodalaydi.

Havo mikroiqlimini baholash bilan bir qatorda uning kimyoviy tarkibini, jumladan uglerod (IV) –oksid miqdorining ko‘payishi, uning organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zga kimyoviy birikmalar, changlar hamda kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlar bilan ham ifloslanganligin bildiradi. SHu sababli xonalarda uglerod (IV) –oksid ko‘rsatkichi -sanitariya ko‘rsatkichi deb qabul qilingan, uning miqdoriga qarab, xona havosini tozalash chora-tadbirlari belgilanadi.

### “Blits usuli”

<u>Nº</u>	<u>Mavzular savoli</u>	<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni oxlayman</u>	<u>Bildim</u>
<u>1.</u>	Mikroiqlim xaqida tushuncha.			
<u>2.</u>	Mikroiqlim parametrlari.			

<u>3.</u>	Palatadagi mikroiqlim me'yorlari.			
<u>4</u>	Mikroiqlim ko'rsatkichlarini aniqlovchi asbob uskunalar.			
<u>5.</u>	SHamollar guli va uning gigienik axamiyati.			
<u>6.</u>	Atmosfera bosimining axamiyati			
<u>7.</u>	<u>Xavo namligini o'lchash</u>			
<u>8.</u>	<u>Xavo xaroratini o'lchash</u>			

### ***“Insert usuli”***

**Insert** - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar

oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

#### **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘srimcha ma’lumot zarur

### ***Insert jadvali***

Tushunchalar	V	+	-	?
Katatermometr				

Anemometr				
Barometr				
Termograf				
Psixrograf				
Gigrograf				

**«Mikroiklim parametrlari» mavzusini mustaxkamlash uchun testlar**

**1. Mikroiklim parametrlariga nimalar kiradi ?**

- A)Biodoza, radiatsiya.
- B)Xarorat, namlik, xavo-xarakat tezligi.
- V)Atmosfera bosimi, Kettle indeksi.
- G)Xavo namligi, ITM, Kettle indeksi.

**2. Palatada xavo namligi normada kancha bo`ladi?**

- A)20-30 %.
- B)10-20%
- V)40-60 %
- G)50-70 %
- D)20-50 %

**3. Palatada xavo xarakat tezligi normada kancha bo`ladi?**

- A)0,2-0,3 m/s.
- B)0,3-0,8 m/s
- V)01-0,6 m/s
- G)0,4-0,7 m/s

**4. Xavo xarakat tezligi kaysi asbobda aniklanadi?**

- A. Anemometr.
- B. Gigrometr.
- V. Barograf.
- G. Termograf.

**5. Xavo xarorati kaysi asbobda aniklanadi?**

- A..Anemometr.

B. Gigrometr.

V. Barograf.

G. Termograf.

**6. Atmosfera bosimi kaysi asbobda aniklanadi?**

A..Anemometr.

B. Gigrometr.

V.Barograf.

G. Termograf.

**7. Xavo namligi kaysi asbobda aniklanadi?**

A.Anemometr.

B. Gigrometr.

V. Barograf.

G. Termograf.

**8. Xavo namligi kaysi asbobda grafik tasvirda yozib olinadi?**

A. Gigrometr.

B. Barograf.

V. Termograf.

G. Gigrograf.

**9. Xavo xarakati tezligi kaysi asbobda aniklanadi?**

A.Anemometr.

B. Gigometr. V. Katatermometr .

G. Termograf.

**Xavo xarorati palatadagi me'yori ?**

A. 8-20 B. 16-18 V. 14-15 G. 20-22

**8 – mavzu: ICHIMLIK SUVI SIFATINI YAXSHILASH USULLARI.  
FARMATSEVTIKA SOHASIDA QO’LLANILADIGAN SUVGA GIGIENIK  
TALABLAR**

Amaliy mashg‘ulot xronologik xaritasi Texnolo gik bosqich lar	Faoliyat mazmuni	
1.O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant	Talaba
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>1.1.Mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2.SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish. (1 ilova)</p>	<p>Mashg‘ulot rejasি bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
3. YAKUNIY bosqich (10 min)	<p>2.1.Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi. YUqoridagi savollar asosida savol-javob o‘tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrлarni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtiropchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari bирgalikda izlanibya. Mashg‘ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg‘ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi.</p> <p>Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>

**Ichimlik suvi sifatiga qo‘yiladigan gigienik talablar**

Ichimlik suvi epidemiologik nuqtai - nazardan salomatlik uchun xavfsiz bo‘lishi kerak, kimyoviy tarkibi bo‘yicha zararsiz, organoleptik xususiyatlari bo‘yicha yoqimli va radiatsion xavfsizlik holatida bo‘lishi kerak. Bu talablarning

bajarilishi O‘zR SSV gining 951-2011 Davlat Standart «Ichimlik suvi sifatiga bo‘lgan gigienik talablar va uning nazorati» qoidalariga javob bergandagina erishiladi. Davlat standarti ikkita asosiy bo‘limdan tashkil topgan: « Suvning sifat ko‘rsatkichlarini normativlari va uni nazorat qilish usullari va «Xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti markazlashgan tizimida suv sifatining nazorati» .

- Ichimlik suvining sifat ko‘rsatkichlari o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi:
1. Mikrobiologik ko‘rsatkichlar: umumiy mikroblar soni, koli-indeks, esherixiyalar, kolifaglar.
  2. Parazitologik ko‘rsatkichlar: oddiy patogenlar va gelmint tuxumlari
  3. Toksikologik ko‘rsatkichlar: REK bo‘yicha: a) anorganik komponentlar, organik moddalarning komponentlari
  4. Organoleptik ko‘rsatkichlar va komponentlar uchun REK, chunki bu komponentlar suvning organoleptik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Radioaktiv ifloslanish ko‘rsatkichlari — alfa va beta aktivlik bo‘yicha tekshiriladi.

### **Ichimlik suvning fizikaviy xossalari aniqlash**

Organoleptik xususiyatlarini aniklash.

Odamning sezgi a’zolari yordamida aniqlash mumkin bo‘lgan tekshirish usullariga organoleptik usullar deyiladi. Suvning organoleptik xossalariiga uning hidi, tiniqligi, rangi, ta’mi, harorati va h.k. kiradi.

1. Suv hidini aniqlash: 150—200 ml kolbaga 2/3 qism hajmida sinama suv olinadi. Kolbaning og‘zi soat oynasi bilan berkitiladi va 40—50° gacha qizdiriladi. Kolba silkitilgandan keyin, hidi aniqlanadi va 5 ball darajasida ifodalanadi.

Agar suv hidining jadalligi ruxsat etilgan 2 balldan oshmasa, iste’mol qiluvchiga yomon ta’sir qilmaydi.

Ball	Sezish belgilari	Aniqlashni aks ettirish
0	hech qanday	hid sezilmaydi
1	juda kuchsiz	iste’mol qilgan odam sezmaydi, lekin laboratoriyyada aniqlanadi.

2	kuchsiz	iste'mol qilgan odam yaxshiroq ahamiyat
bersa seziladi.		
3	sezilarli	hid etarli darajada seziladi.
4	yaqqol sezilarli	hid o'ziga jalb qila olandigan darajada.
5	juda kuchli	hid kuchli, iste'mol qilish mumkin emas

Suvning tiniqligini aniqlash. Sinama suv aralashtiriladi va ubi tekis, rangsiz silindrga solinadi (20-rasm). Silindr tagida undagi suvni chiqarib yuboradigan jo'mrak bor. Silindr tagiga 1 sonli bosmadan chiqqan Snellen harflari qo'yiladi. YUqoridan qaralganda silindr tagiga qo'yilgan harflar yaqqol ko'ringuniga qadar suv jo'mrak orqali oqizib turiladi. Silindrda to'kilgandan qolgan suv ustuni sm larda o'lchanadi. Ruxsat etilgan suvning tiniqligi 30 sm dan kam bo'lmasligi kerak. 20—30 sm gacha bo'lgan tiniqlik kuchsiz loyqa suv, 10—20 sm gacha juda loyqa suv hisoblanadi.

Suvning rangini aniqlash. Suvning rangi teng hajmda olingan distillangan suv bilan oq qog'oz ustida taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Sinama suv suzgichdan o'tkaziladi, 40 ml li rangsiz silindrga quyiladi va shu hajmdagi distillangan suv bilan solishtiriladi. Suvning rangi har xil sabablarga ko'ra o'zgarishi mumkin. Masalan o'simliklarning kolloid moddalari parchalanishi tufayli, botqoqlik suv sarg'ish bo'ladi va h.k.

Loyqa suv — loyning mayda bo'lakchalar bilan ifloslanganidan dalolat beradi. Temirning kolloid birikmali suvgaga yashil yoki sarg'ish-yashil rang beradi. Suvda ko'k-yashil o'tlar bo'lsa, uning rangi yashil tusda bo'ladi. Suv rangining darajasini aniqlashda standart aralashmalar shkalasi bilan solishtiriladi (platina-kobalt va xrom-kobalt aralashmali). Suvning rangi graduslarda ifodalanadi, bu ko'rsatkich  $20^{\circ}$  dan oshmasligi kerak.

4. Suv ta'mini aniqlash. Suvning ta'mi kimyoviy, bakteriologik, virusologik, radiologik tekshirishlardan so'ng aniqlanadi. Suv ta'mini aniqlash uchun 15—20° gacha isitiladi. Suvni og'izga oz-ozdan olib, bir necha sekundgacha ushlab turiladi. Suvning ta'mi uning tarkibidagi kimyoviy birikmaga qarab — achchiq, sho'r, shirin, nordon, xlorli, baliq ta'mli (va h.k.) bo'lishi mumkin.

Suvning ta'mi 5 ball darajasida baholanadi:

Ball	Ta'mi	Ball	Ta'mi
0	hech qanday	3	seziluvchan
1	juda kuchsiz	4	yaqqol seziluvchan
2	kuchsiz ta'mli	5	kuchli

Suv tarkibida ichak tayoqchalari qanchalik ko'p bo'lsa, kasallik chaqiruvchi mikroblar xam shunchalik ko'p bo'ladi. SHu sababli yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar qiya bakteriologik usullar deb ataladi.

Ichimlik suvga epidemiologik jihatdan baho: 1 litr suvdagi ichak tayoqchalarining soniga (coli-indeks), eng kam miqdor suv tarkibidagi 1 ta ichak tayoqchasiga (coli-titr) hamda go'sht pepton agariga ekilgan 1 ml sinama suv 37° li termostatda 24 soat saqlangandan so'ng o'sgan koloniya soni («mikrob soni») ko'rsatkichlariga qarab beriladi.

Suvni ozonlash. Ozon suvda atomar kislorod hosil bo'lganicha parchalanadi:  $O_3 + O_2 \rightarrow O_3$ . Keyingi vaqtlardagi tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, oksidlovchi xususiyatga ega bo'lgan ozod radikal (masalan N<sub>2</sub>O) hosil bo'lishiga qadar, suvga qo'shilgan ozon bir qancha oraliq reaksiyalarini o'tkazadi. Ozonning oksidlovchi va bakteriotsidik xususiyatining xlorga nisbatan yuqori bo'lishi, uning oksidlovchi potensiadining (+ 1,90 v), xlorning oksidlovchi potensialidan yuqori (+ 1,36 v) bo'lgani tufaylidir.

Suvni ozon bilan zararsizlantirish gigienik nuqtai nazardan eng samarali, ishonchli usul hisoblanadi. Jumladan rangi tozalanadi, o'zga hid va ta'mdan xoli bo'ladi. SHu sababli ozonlangan suvning xususiyatlari buloq suvini eslatadi.

Ortiqcha miqdordagi ozon tez orada kislorodga parchalanib chiqib ketishi natijasida, suvda hech qanday yot birikmalar qolmaydi.

Ozon bilan zararsizlantirish muddati 3—5 daqiqa bo‘lib, 0,5—0,6 mg/l miqdorda qo‘shilgan ozon etarli hisoblanadi. Organoleptik xususiyatlarini jumladan, rangini yaxshilash uchun ko‘rsatilgan miqdordan ko‘proq qo‘llash ham mumkin. Suvni zararsizlantirishda ozonlash usulining kam qo‘llanish sababi, ozonni olish uchun ko‘p elektroenergiya sarflanishidir. Lekin elektroenergiya etarli bo‘lgan joylarda suvni ozonlash usuli bilan za-rarsizlantirish tavsiya etiladi.

### Suvni fizikaviy usullar bilan zararsizlantirish

Fizikaviy usullar bilan suvni zararsizlantirishga uni qaynatish, sterilizatsiya qilish, ultrabinafsha nurlarini, yuqori shovqin, yuqori tok tezligi hamda gamma nurlarini qo‘llash kiradi.

Suvni qaynatish. Suvni qaynatish oddiy usul bo‘lishi bilan bir qatorda, suvni zararsizlantirishda juda ishonchli usul ham hisoblanadi. Patogen mikroblrdning vegetativ formasi  $80^{\circ}\text{S}$  haroratda 20—40 sekund ichida o‘ladi. SHu sababli 3—5 daqiqa qaynatilgan suv butunlay zararsizlantirilgan hisoblanadi. Suv 30 daqiqa muddatida qaynatilganida ko‘pchilik sporali mikroblar ham yo‘qoladi, bunda suv deyarli sterillangan bo‘ladi, bundan tashqari, botulizm toksini parchalanib ketadi. Lekin, ommaviy iste’mol uchun suvni qaynatib etkazishga iqtisodiy imkoniyat va vaqt etishmasligi bois, bu usulni keng qo‘llashning iloji yo‘q.

Markazlashgan usulda zararsizlantirilmagan suvlar qaynatish yo‘li bilan tozalanib, kam sonli aholi, kasalxonalar, maktablar, bolalar muassasalari, dorixonalar, temir yo‘l stansiyalarining ehtiyojlarini ta’minlaydi.

Ichish uchun mo‘ljallanib, suvni saqlaydigan idishlarning tozaligiga alohida ahamiyat berish va mikroblarning qaynatilgan suvda tez rivojlanishini hisobga olgan holda, uni har kuni yangilab turish darkor.

Suvni sterilizatsiya qilish. Suvni sterilizatsiya qilganda uning tarkibidagi bakteriyalarning hamma turlari va sporalilari ham qirilib ketadi. Bu usulning katta kamchiliklaridan biri, bunda ko‘p miqdordagi suvni zararsizlantirib bo‘lmaydi, qolaversa, sterillash jarayonida suv tarkibidagi butun tuzlardan xoli bo‘ladi. Bu o‘z

yo‘lida suvning organoleptik xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli sterillangan suv tibbiyot amaliyotida hamda ba’zi bir korxonalarda ishlatiladi.

Suvni ultrabinafsha nurlar (UBN) bilan zararsizlantirish. Ultrabinafsha nurlarning bakteritsidlik xususiyati tez ifodalanadi, 1—2 daqiqa nurlash natijasida patogen mikroblarning vegetativ shakli qirilib ketadi. Tarkibida temir tutgan, rangli, loyqa suvlarda ultrabinafsha nurlar ta’sirida zararsizlantirish sust o‘tadi. SHuning uchun ham ultrabinafsha nurlar ta’sirida suvni zararsizlantirishdan oldin uni rangsizlantirish, temir va uning tuzlaridan hamda loyqalardan bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Ultrabinafsha nurlar ta’sirida suvni zararsizlantirishning xlorlashga nisbatan bir qancha afzalliklari bor. Bakteritsid xususiyatga ega nurlar suvning tarkibida bo‘lgan oqsil birikmalarini denaturatsiyaga uchra-tadi. Suvning organoleptik xususiyati o‘zgarmaydi, bundan tashqari, keng spektrli antibiotik ta’sirga ega. Ultrabinafsha nurlar xlorga chidamli mikroblarga, viruslarga, gijja tuxumlariga halokatli ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda ko‘p miqdorli bakteritsid ta’sirga ega bo‘lgan nur chiqaruvchi simob-argonli lampa sanoat usulida chikarilmoqda.

Suvni kuchli shovqin bilan zararsizlantirish. Kuchli shovqin chiqaradigan moslama lampali generatordan iborat bo‘lib, o‘zidan yuqori tezlik bilan tebranish natijasida, elektrik tebranishni mexanik tebranishga o‘tkazib boradi. Bunda suvning rangi, tarkibidagi quyqalar-ning miqdoriga qaramasdan, bakteriyalarning ko‘pchilik qismi 5 sekund ichida qirilib ketadi. Bu usul epidemiologik jihatdan yaxshi natija bersa ham, suvdagi birikmalarning organoleptik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ichib bo‘lmaydigan darajada bo‘lishi mumkin, bundan tashqari, bu usuldan foydalanish uchun lampali generator kerak.

SHu sababli bu usul texnologik jarayon uchun mikrobsiz suv ishlatish zarur bo‘lgan korxonalarda qo‘llanadi.

d). Suvni yuqori kuchlanishli tok bilan zararsizlantirish. YUqori kuchlanishli tok kuchini qo‘llash bilan suv tarkibidagi mikroblar har xil qoldiqlar miqdoriga qaramasdan, qisqa muddatda zararsizlantiriladi. Bunda suvning organoleptik

xususiyatlari o‘zgarmaydi, lekin bu usulni qo‘llash uchun maxsus yuqori kuchlanishli tok beruvchi generator hamda elektroenergiya bo‘lishi kerak.

e). Suvni gamma nurlar ta’sirida zararsizlantirish. Bunda suvning organoleptik xususiyatlari o‘zgarmaydi. Lekin bu usulda suvni zararsizlantirish hozirgi kunda keng qo‘llanilmaydi.

**Suvni tozalangan holda olish.** Dastlabki tayyorgarlik va olish. Suvni tozalangan holda olishning texnologik sxemasini tanlashda quyidagilarga asoslaniladi: asos suv(berilgan suv)ning sifatiga; suv olishning yakuniy bosqichini tanlashga; Farmakopey qoidalarining suvga qo‘yilgan talablariga; asos suvning sifatiga bo‘lgan talablarga; tarkibi normativ hujjatlarda belgilanganidek yoki farmakologik mahsulotni ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan tartibda aralashmalarni yo‘qotishga yo‘naltirilgan dastlabki tozalash bosqichlariga. Dastlabki tayyorgarlik – bu sifatli tozalangan suvni olish uchun qilinadigan operatsiyalar majmuidir. Normativ talablarga mos keladigan suvni olish bu so‘nggi bosqich sanaladi.

**Filtrlash.** Suvni qayta ishlash sistemasida filtratsiya texnologiyasi muhim rol o‘ynaydi. Turli usullarda qo‘llash uchun filtrlash qurilmalarining juda ko‘p turlari ishlab chiqarilmoqda. Qismlarni g‘alvirdan o‘tkazish darajasiga ko‘ra ular bir –biridan tubdan farq qiladi. Yirik donalarni (antrasit donachalari, kvars, qum) filtrlovchi va mayda donachalarni filtrlovchi membran filtrlar. Qurilma va sistemalarning o‘zaro joylashishi texnologik jarayonda filtrlash uskunalarining qo‘llanish joyi va turiga ko‘ra o‘zgaradi. Zamonaviy filtrlash sistemasi 3 va 5 siklli ish rejimiga ega, ya’ni ular avtomatik ravishda (nazorat dasturi asosida) ishlashga va qo‘lda boshqarishga moslangan.

Texnologik ish rejimida filtrlash qurilmasi quyidagilarni bajaradi: suvni tozalangan holda olish, filtr oraliqni to‘g‘ri va qayta tozalash. Bu rejimdan regeneratsiya talab qilmaydigan (ko‘p qavatli filtrlar, Birm asosida temirsizlantiruvchi filtrlar, aktivlashtirishgan ko‘mirli filtrlar) sepuvchi qurilmada foydalilaniladi. Ishning besh siklli rejimida suvni toza holda olish, qayta tozalash, regeneratsiya, sekin tozalash, tez tozalash va tuz bakani to‘ldirish nazarda tutiladi.

Ushbu rejim filtrlash muhiti ( margansovkali seolit asosida temirsiz-lantirilgan filtrlar, yumshatish filtrlari) da regeneratsiya o‘tkazilishi zarur bo‘lgan filtrlash qurilmalari uchun foydalaniladi. Ko‘p qavatli filtrlardan foydalanish suvni dastlabki tayyorlashning boshlang‘ich bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ulardan foydalanish suvning yuqori darajadagi loyqalanganligi va uning tarkibida mexanik kolloid qismlarining yuqori darajada mavjudligida maqsadga muvofikdir. Ko‘p qavatli filtrlarni ishlatishda suvni filtrashning minimal tezligi - 5-10m/s, qayta tozalashning yuqori tezligi soatiga 35-40 m bo‘lishini ta’minlash zarur. Bundan ko‘rinadiki, filtratsiya va qayta tozalashda zarur bo‘lgan tezlikni ta’minlash uchun nasosni to‘g‘ri tanlay bilish muhim kriteriya hisoblanadi. Birm filtrlash muhiti va margansovkali seolit asosida temirsizlantiruvchi filtrlar suvning tarkibidagi temir va marganes aralashmalarini yo‘qotish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari, margansovkali seolit yordamida suvda erigan vodorod sulfidi yo‘qotiladi. Filtrlash muhiti ustida kimyoviy katalitik oksidlanish protsesslari natijasida erigan temir va marganes erimaydigan holat (gidrooksid)ga o‘tadi va engil cho‘kma ko‘rinishida qayta tozalash yo‘li bilan filtrdan chiqariladi. Birm filtrlash muhitidan foydalanishda muhim shartlardan biri suvda erigan kislorodning konsentratsiyasi, 15% ga erigan temirning konsentratsiyasi borligidir. Marganesli seolit qo‘llanilganda o‘zining katalitik tarkibini yo‘qotadi, shu sababli uning kaliy permanganat eritmasi bilan davriy (yoki doimiy) regeneratsiyasi bo‘lishi shart.

**Suvni yumshatish.** Suvni yumshatish ion almashishidagi tez-tez uchraydigan tasodifiy hol sanaladi. Suvni yumshatishda suvning qattiqligini pasaytirish uchun magniy va kalsiydek kationlar yo‘qotiladi. YUmshatish suvni ion almashuvchi va qayta so‘riluvchi membranaga tozalashga berishdan oldin ionlar tarkibini sezilarli pasaytirishga imkon beradi. Ko‘pgina hollarda qattiq tuzlar kationlarining natriy kationlariga almashishi sodir bo‘ladigan kationitlar bilan to‘ldirilgan avtomatik kolonka – yumshatuvchilardan foydalaniladi. Farmasevtik korxonalarda doimiy ravishda yumshatilgan suv olish uchun smolaning ion almashish regeneratsiyasi galma-gal bo‘ladigan dupleks qurilmalardan foydalaniladi. Smolaning almashinish sig‘imini pasaytirish uchun uning natriy

xlorid bilan eritmasi yordamida davriy avtomatik tarzda yoki qo‘l yordamida regeneratsiya o‘tkaziladi. Suv tayyorlash sistemasida ko‘proq quyidagi 3 holatda yumshatishdan foydalaniladi: qayta so‘rilish va distillyatsiya oldidan; ion almashish qurilmasining regeneratsiyasi uchun foydalanishda ishlatiladigan suvni olishda; Faqat yumshatilgan suv etarlicha olinadigan hollarda (avtoklavka, yuvish joylarida va b. suvdan foydalanishda). YUmshatuvchilar distilyatorning ichki yuzasi va qayta so‘rilish membranasida erimaydigan cho‘kmalarni hosil bo‘lish potensial imkoniyatlarini pasaytirgan holda asos suvdagi polivalent ionlarni yo‘qotadi. SHuningdek, yumshatishda qattiq tuzlar bilan birga bariy, alyuminiy, stronniy kabi foydali ionlarni ham yo‘qotishi mumkin. YUmshatish sistemasini ishlatishda filtratsiya tezligini noto‘g‘ri tanlash, smolaning organik mikrobiologik iflaslanishi, qurilmani ishlatish va saqlash qoidalariiga rioya qilmaslik sababli smola elementlarining yorilishi, regeneratsiyada tuzli eritma bilan ifloslanish sababli kanallar paydo bo‘lish xavfi qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. CHastotani (regeneratsiya oraliq davri 24 s dan kam bo‘lmasligi) va yumshatuvchining ion almashish regeneratsiyasining davomiyligini to‘g‘ri tanlash zarur. Suvning qattiqligi monitoringgini olib borish, ya’ni, smolaning ajratilgan zarrachalarini yo‘qotish uchun filtratsiyadan o‘tkazish, yumshatish filtrini, tuz baki va b. ni natriy gipoxlorit bilan sanitar qayta tozalash (yiliga 1 marta) zarur.

## TESTLAR

1. Suvning sifatini yaxshilash usullari:

1. tindirish 2. bakteriologik 3. filtrlash 4. koagulyasiya 5. radiologik

2. Suvni zararsizlantirish usullarini aniqlang:

1. fizikaviy 2. filtrlash 3. tindirish 4. kimyoviy 5. ftorlash

3. Suvni qanday fizikaviy usullar binlan zararsizlantirish mumkin:

1. qaynatish 2. tindirish 3. koagulyasiya

4. ultrabinafsha nurlar yordamida 5. ultratovush yordamida

4. Suvni qanday kimyoviy usullar bilan zararsizlantirish mumkin:

1. koagulyasiya 2. normal dozalarda xlorlash

3. giper xlorlash 4. super xlorlash 5. xlorlash

5. 1 l suv uchun koagulyant me'yori mg
  1. 20-100
  2. 10-50
  3. 150-40
  4. 200
6. Suvni degazatsiya qilish bilan nimaga erishiladi:
  - 1.suvni ta'mi yaxshilanadi
  2. suv mikroblardan tozalanadi
  3. suvni sifati yaxshilanadi
  4. suvni xidi yaxshilanadi
5. suv radiaktiv moddalardan tozalanadi
7. Suvni koagulyasiya qilish uchun ishlatiladigan koagulyantlar:
  1. alyuminiy sulfat
  2. natriy xlorid
  3. temir xlorid
  4. temir sulfat
  5. alyuminiy xlorid
8. Suvni tiniqligini me'yorini ko'rsating
  1. 30 mg litr
  2. 30 gradus
  3. 30 sm
  4. 3 ball
  5. 30%
9. Suvning oddiy sharoitlardagi fiziologik me'yori
  1. 2,5-3 l/kun
  2. 1,5-2 l/kun
  3. 3,5-4 l/kun
  4. 4,5-5,5 l/kun
  5. 6-8 l/kun
10. Suv tiniqligini aniqlaydigan asbob
  1. Krotov apparati
  2. kolbalar
  3. Gener silindri
  4. batometr
  5. mikroskop
11. Suvni kimyoviy usullar bilan zararsizlantirish yo'llari:
  1. suvni sterilizatsiya qilish
  2. xlorlash
  3. kumush ionlari bilan
  4. suvni yuqori kuchli toq bilan tozalash
  5. ozonlash
12. Suv orqali yuqadigan kasallik
  1. xolera
  2. difteriya
  3. salmonellez
  4. ko'k yo'tal
  5. qorin tifi

**9 –mavzu: BOLALAR VA O,,SMIRLARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH.**  
**SHAXSIY GIGIENA VA SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI.**

**Amaliy mashg‘ulot xronologik xaritasi**

Texnolo gik bosqich lar	Faoliyat mazmuni	
1.O‘quv jarayoniga kirish (10 min)	Assistant	Talaba
	<p>1.1.Mashg`ulot mavzusini e’lon qiladii, Talabalarni rejadagi asosiy savollar va tushunchalar, atamalar, foydalanadigan adabiyotlar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2.SHu jumladan talabalarni rejalashtiradigan o‘quv natijalari va baxolash kriteriyalari bilan tanishtirish. (1 ilova)</p>	<p>Mashg`ulot rejasni bilan tanishtiradilar va zaruriy axborotlarni qayd etib boradi.</p>
2. Asosiy bosqich (60min)	<p>2.1.Quyidagi diqqatni jalb qiluvchi sa vollarga javob berishni taklif qiladi. YUqoridagi savollar asosida savol-javob o’tkazadi. (Bunda bir nechta javoblarni tinglaydi)</p> <p>2.2. Bakalavrlni bir nechta kichik guruxlarga bo‘ladi. Xar bir guruxda bittadan savol bo‘yicha varaqalarini tarqatib beradi.</p> <p>2.3.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. O‘qituvchi maslaxatchi sifatida javoblarni sharxlab boradi, Aniqliklar kiritadi, xatolar tuzatadi.</p> <p>2.4.taqdimot nixoyasida xulosalar qilib, xar bir gurux ishtirokchilari diqqatini mavzuning asosiy savollarini yoritishga qaratadi.</p>	<p>Savollarni tinglaydi, ularga javob beradi va javoblarni taxlil qiladi.</p> <p>5 kishidan iborat 3 guruxga bo‘linadi</p> <p>Gurux a’zolari birgalikda izlanibya. Mashg`ulotda berilgan savolga javob izlaydilar.</p> <p>Mashg`ulotlarni sistemalashtiradi, o‘zaro fikr almashadi. Gurux sardorlari o‘z guruxi ish natijalarini tayyorlagan materiallari asosida namoyish qiladi va gurux javoblarni asoslab beradi.</p>
3. YAkuniy bosqich (10 min)	<p>Mavzu bo‘yicha umumiylar xulosalar qiladi.Natijalarni aniqlaydi. Talabalar bilimini baxolaydi. Mustaqil amaliy mashq bajarilishi yuzasida ko‘rsatmalar beradi .</p>	<p>Mustaqil amaliy mashq yuzasidan vazifalarini yozib oladilar.</p>

Jismoniy rivojlanishni baholash uchun antropometrik ko'rsatkichlar aniqlanadi, bunga: -o'lchov ko'rsatkichlariga qarab (samotometrik) baholash (vazni, bo'y uzunligi, ko'krak qafasining kengligi, va h.k)

-fiziologik ko'rsatkichlariga qarab (fiziometrik) baholash (o'pkaning hayotiy sig'imi, qo'l va bel mushaklarining kuchi, yurak, qon, tomir ko'rsatkichlari va h.k)

-tashqi ko'rinishga qarab (somatoskopik) baholash (organizmning tashqi ko'rinishini belgilovchi umurtqa pog'onasining rivojlanishi, yog' qatlamining miqdori, tovonning ko'rinishi, jinsiy rivojlanish belgilari va boshqalar) kiradi.

a) bo'y uzunligi (turgan holda) organizmning plastik jarayonini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Bo'y zunligi yog'ochdan yasalgan bo'y o'lchagich yoki metaldan yasalgan antropometr yordamida aniqlanadi.

b) ko'krak qafasining aylanasini aniqlash. Olinadigan ma'lumotlar jismoniy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar tananing hajmi, ko'krak va elka mushaklari xamda ko'krak qafasidagi a'zolar faoliyatini ifodalaydi.

Ko'krak qafasining aylanasini deyarli tinch holatda, chuqrur havo olganda hamda chuqrur havo chiqarganda o'lchanadi. Orqa tomondan quyilgan metrli tasma tagida kurak burchaklari bilinib turishi, old tomondan esa ko'krak qafasining o'rtaligida bo'lishi kerak. O'lchash uchun qo'llar tushiriladi, bunda tasma orqa tomondan kurak tagiga surilib tushadi. Tasmani shunday o'rnatish kerakki, u osilib turmasligi, nafas olish va chiqarishga halaqit bermasligi zarur. To'g'ri o'lchash uchun bolaning bir tekisda nafas olishi kutiladi, so'ng chuqrur nafas olganda, chiqarganda, tinch holatda alohida-alohida har biridan 3-4 marta o'lchab, o'rtacha arifmetik ko'rsatkich aniqlanadi. Chuqrur nafas chiqarilgandagi ko'rsatkichning farqi ko'krak qafasining ekskursiyasi hisoblanadi.

Ko'krak qafasining tinch holdagi ko'rsatkichi chuqrur nafas chiqargandagiga nisbatan 1-2 sm ko'p, chuqrur nafas olgandagi ko'rsatkichga nisbatan esa deyarli shuncha kamdir. SHunga ko'ra to'g'ri ma'lumot olish mumkin.

v) og‘irligini aniqlash. Tana vazni organizm a’zo va to‘qimalarining jumladan, suyak-mushaklar, yog‘ to‘qimalari hamda ichki a’zolar rivojalanishiga bog‘liq.

Tana vaznini aniqlashda tibbiy tarozilardan foydalinladi. Kichik yoshdagি bolalar maxsus tarozilarda tortiladi. Tarozida ishlashdan oldin maxsus tarozilarda tortiladi. Tarozida ishlashdan oldin uning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun maxsus o‘lchov toshlari bilan tekislab olish tavsiya etiladi

a) o‘pkaning hayotiy sig‘imi aniqlash orqali uni qancha miqdorda havoni qabul qila olishi hamda nafas nafas olishda ishtirok etadigan mushaklarning rivojlanganligini bilish mumkin.

O‘pkaning hayotiy sig‘imi kattalarda suvli, kichik bolalarda esa havoli siprosetrlarda aniklanadi.

b) qo‘l mushaklarining kuchini aniqlash. Bu ko‘rsatkich qo‘l mushaklarining rivojlaniganidan dalolat beradi. Ko‘rsatkichlar qo‘l dinamometrii yordamida aniqlanadi. Tekshirish uchun tekshiriluvchi tomonidan dinamometr to‘la panja bilan ushlanadi, qo‘l gorizontal holatda olingan yoki yonga uzatilgan holda qattiq qisiladi, qushimcha harakatga ruxsat etilmaydi. Tekshirish alohida chap va o‘ng qo‘llarda o‘tkaziladi.

v) bel mushaklarining kuchini aniqlash. Buning uchun bel dinomometrini oyoq bilan bosib turgan holda ustki qismidan qo‘l bilan tortiladi. Bunda dinamometrning ushlaydigan qismi tizza balandligida bo‘lishi kerak. Bo‘yga to‘g‘irlash uchun asbobga mo‘ljallangan zanjirlardan foydalanish mumkin.

Tayanch va harakat apparatlarining holati. Suyakning rivojlanishi uning ko‘rinishiga qarab 3 xil baholanadi. 1-ingichka yoki «tor» suyak, bunday bolalarda ko‘krak qafasi va elkasi tor, barmoqlari va tovoni kichkina bo‘ladi, 3 keng yoki qo‘pol ko‘rinishli, bunday bolalarning elkasi keng, barmoqlari va tovoni katta; 2-1 va 3-ning o‘rtacha ko‘rinishi darajasida.

Bundan tashqari, bola umurtqa pog‘onasining qayishqoqlik davrida tepalikdan qattiq joyga tik yiqilsa-kifoz, ko‘krak qismidagi fiziologik egilmaning orqaga qarab jadal egilishi yoki bel qismidagi egilmaning oldinga qarab egilishi-

lordoz shaklida o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar bola o‘sishi va rivojlanishiga ta’sir qiladigan eng salbiy omillardan hisoblanadi.

## **ORGANIZMNING TASHQI KO‘RINISHIGA QARAB BAHOLASH (SAMOTOSKOPIYA)**

Bolalarning jismoniy rivojlanishiga baho berishda o‘lchov asboblarini qo‘llash bilan bir qatorda tashqi ko‘rinishga ham ahamiyat berish zarur. Qator belgilar (skeletning, mushaklarning rivojlanishi, yog‘ qatlami va hakozo) uch darajada baholanadi. 1 raqam bilan past darajani, 2 raqam o‘rtacha, 3 raqam esa yuqori darajadagi rivojlanishni bildiradi.

Tayanch va harakat apparatlarining holati. Suyakning rivojlanishi uning ko‘rinishiga qarab 3 xil baholanadi. 1-ingichka yoki “tor” suyak, bunday bolalarda ko‘krak qafasi va elkasi tor, barmoqlari va tovoni kichkina bo‘ladi, 3-keng yoki qo‘pol ko‘rinishli, bunday bolalarning elkasi keng, barmoqlari va tovoni katta; 2-1 va 3-ning o‘rtacha ko‘rinishi darajasida.

Umurtqa pog‘onasi tayanch vazifasini bajaradi. Umurtqa pog‘onasi oldindan, yondan hamda umurtqa pog‘onasi bo‘ylab vertikal yo‘nalishda barmoq yordamida o‘tkazilgan chiziq holatiga qarab, kuraklarning simmetrik joylashishi, elkaning turishi va qo‘lning tushirilgan holatidagi quymich gumbazigacha bo‘lgan oraliqda hosil bo‘ladigan uchburchak ko‘rinishiga qarab baholanadi. Bolalikning boshlang‘ich davridan boshlab, uning umurtqa pog‘onasida to‘rtta fiziologik egilma paydo bo‘ladi.

SHundan birinchisi bola 6-7 haftalik davrida, boshini ko‘tara boshlaganida umurtqa pog‘onasining bo‘yin qismi oldinga qarab egilishi tufayli, ikkinchi va uchinchi bola 6 oylik bo‘lganda o‘tira boshlashi bilan ko‘krak va dumg‘aza qismlarida orqaga qarab egilishi hisobiga hosil bo‘ladi.

To‘rtinchi egilma bola yura boshlaganda umurtqa pog‘onasi bel qismining oldinga qarab egilishi tufayli yuzaga keladi. Lekin bola bu davrda ta’sirotlarga beriluvchan bo‘ladi. Bu eigmalar balog‘atga etish davriga kelib to‘la shakllanadi. SHu yoshgacha og‘ir yuk ko‘tarilsa, egilish kuchayadi va umurtqa rivojiga salbiy

ta'sir ko'rsatadi. Bolaning partada yoki stolda noto'g'ri o'tirish natijasida umurtqa pog'onasi yon tomonga egilib qoladi. Bunday holat skolioz deb ataladi.

Skoliozlar chap yoki o'ng, ba'zida esa murakkablashgan chap va o'ng hamda o'ng va chap bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, bola umurtqa pog'onasining qayishqoqlik davrida tepalikdan qattiq joyga tik yiqilsa-kifoz, ko'krak qismidagi fiziologik egilmaning orqag'a qarab jadal egilishi yoki bel qismidagi egilmaning oldinga qarab egilishi-lordoz shaklida o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishlar bola o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiladigan eng salbiy omillardan hisoblanadi.

Jismonan etilmaga bolalarda suyak sistemasi noto'g'rivojlanishi tufayli qator o'zgarishlar (elkasi qisilgan yoki bukchaygan, boshi tushgan, ko'krag yassi, ichiga kirgan va boshqa holatlarni uchratish mumkin)

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning skeleti ko'p darajada tog'ay to'qimasidan iborat bo'ladi, shu sababli, b'zi holatlarda (tana vaziyati noto'g'rilingida, uzoq vaqt tik turganda, o'tirganda, o'rin-joy noqulay bo'lganda) salga o'zgaradi. Agar shu holatlar hisobga olinmasas va bola jismonan to'g'ri tarbiyalanmasa, uning qomatida nuqsonlar paydo bo'ladi.

Bola hayotining birinchi yilidan boshlab oyoq kafti gumbazi (tovoni) shakllana boradi. Oyoq kafti gumbazining rivojlanishiga qarab-to'g'ri shakllangan, yassilashishga moyil va yassi bo'ladi.

Oyoq kafti gumbazining shakllanishi. Tovon shaklini aniqlash uchun tovon qismini kaft qismi bilan bog'lovchi oraliqqa va uning kengligiga ahamiyati beriladi. Buning uchun har xil bo'yoqlardan foydalanib, uning izini olish mumkin (plantografiya): tekshiriluvchi oyog'ini bir yarim xlorli temir birikmasining 1% suvdagi eritmasi bilan namlangan mato ustiga qo'yadi so'ng 0,5% tanining spirtdagi eritmasi bilan namlangan qog'oz ustida turadi. Bunda bola butun og'irligini tekshirilayotgan oyog'iga solishi kerak. Olingan shakl quritilib, tegishli belgilar qo'yilgach, tahlil qilinadi. SHakli tushgan tovonning kengligi (a), tovoning perpindikuryal kengligiga (a+b) nisbati foizlar hisobida olinadi. Agar shakli tushgan tovonning kengligi umumiyligi kengligining 50% gacha bo'lsa, to'g'ri

rivojlangan, 50-60% yassilanishga moyil, 60% dan yuqori bo'lsa, yassi tovon deyiladi.

Oyoq shaklini aniqlash uchun tekshiriluvchi tovonni birlashtirgan holda to'g'ri turishi kerak. Oyoqlar to'g'ri rivojlanganida tizza bo'g'imida birlashib turadi. «0» shaklidagi holatda esa tizzalar birlashmaydi. «X» shaklidagi holatida bir oyoqning tizzasi ikkinchisining ustiga chiqib turadi.

Teri ostidagi yog' qatlaming yig'ilishiga qarab, bolaning to'laligiga baho berish mumkin. YOg' qatlaming rivojlanganligi suyak sathiga hamda yog' qatlami qalinligiga qarab aniqlanadi. Kam miqdorda yog' qatlami bo'lsa (1 darajali), bunda bilak va qovurg'a suyaklarning qirralar aniq ifodalanadi, qorin tortilgan, teri ostidagi yog' qatlami juda yupqa, go'yo teri ostida yog' qatlami yo'qdek.

Suyaklar sathi silliqlashgan bo'lasa, teri ostida ozroq yog' qatlami borligi sezilsa, oragnizmda yog'ning yig'ilishi o'rtacha hisoblanadi. YOg' miqdori ko'p bo'lganda suyak sathi sezilarli darajada silliqlashgan, tana ko'rinishi dumaloq, yog' qatlami rivojlangan bo'ladi.

Teri ostidagi yog' qatlamini qo'l bilan hamda suriluvchi pargar bilan ham aniqlasa bo'ladi. YOg' qatlamini qorin bo'shlig'ining chekkalaridan kindik bo'ylab, ko'krak bezidan 2-3 sm pastdan hamda ko'krak tagidan aniqlanadi. YOg' qatlaming rivojlanishiga baho berishda bolaning yoshini, jinsini hisobga olsh zarur.

Bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limi- bu profilaktik meditsinaning bir qismi bo'lib, bolalar va o'smirlar salomatligiga, jismoniy tarakkiyotiga, organizmning funksional xolatiga va faoliyatiga ta'sir ko`rsatuvchi muxit sharoitlarini urganuvchi, ilmiy asoslangan amaliy tadbirlarni ishlab chikuvchi, salomatlikni mustaxkamlash va saqlashni ta'minlovchi bo'lim xisoblanadi.

Bolalar va o'smirlar gigienasining asosiy muammolari:

1. Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash va ukitish gigienasi.
2. O'smirlarni mexnat gigienasi.
3. Bolalar va o'smirlar muassasalari gigienasi.

4. Jismoniy tarbiyalash gigienasi.
5. Bolalar va o'smirlar salomatligini o'rganish va korreksiya qilish.

Ko'pgina patologik xolatlar atrof-muxit omillari ta'sirida bolalik va o'smirlik davrlarida rivojlanadi. M: ateroskleroz, kandli diabet, gipertonik kasalliklar. Xatto utgan asrlarda bolalar va o'smirlarda "Maktab kasalligi" keng tarkalgan. Maktab kasalligiga quyidagi kasalliklar kiradi:

- I. YAKindan kurolmaslik.(miopiya) Xozirgi kunda yuqori sinf o'quvchilari urtasida 27.3 % uchraydi.
2. Nevrasteniya.
3. Anemiya.
4. Osankaning bo'zilishi. ( Tana tuzilishi).

**Bolalar va o'smirlarni kasallanishini analizi shuni ko`rsatadiki, vrachga murojatiga kura:**

- 1-urin - nafas organlari kasalliklari.
- II-urin - jaroxatlar, zaxarlanishlar, baxtsiz xodisalar.
- III-urin- ovqat xazm qilish va sezuv organlari.

Bolalar va o'smirlarda yosh utgan sayin surunkali kasalliklar soni ortib boradl. M: Nerv va sezuv organlari kasalliklari, ovqatlanish va moddalar almashinuvining bo'zilishi, nafas organlari kasalliklari, YUKTS, siyidik chikarish, ovqat xazm killsh sistemasi kasalliklari. Bu kasalliklar keyinchalik katta eshdagilar urtasida vaqtincha mexnat faoliyatini yo'qotish, nogironlik va ulim xolatlarini ko'payishiga sabab bo'ladi.

**ASR KASALLIGI** - bu semirish kasalligidir. Semirish kasalligin bolalarda uchrashining asosiy sabablari: ovqatlanishning mikdor va sifat jixatidan bo'zilishi, kam xarakatli xayot tarzi, jismoniy yuklamalarni ozligi.

- ONTOGENEZda** ya'ni insonning rivojlanishida 7 ta davr tafovut etiladi,
- |                      |                         |
|----------------------|-------------------------|
| 1. CHakaloklik davri | -1-10 kun               |
| 2. Ko'krak yoshi     | - 10 kundan 1 yoshgacha |
| 3. Ertalik           |                         |
| 4. I-bolalik yoshi   | -4-7 yosh               |

## 5. 2- bolalik yoshi

kizlarda	- 8-12 yosh
ugil bolalarda	- 8-11 yosh

## 6.O'smirlik yoshi

Kizlarda	- 12-15 yosh
Ugil bolalarda	- 13-16 yosh

## 7.Uspirinlik yoki yoshlik davri

Kizlarda	- 16-20 yosh
Ugil bolalarda	- 17-21 yosh

Bu davrlarda asosiy morfologik ko'rsatkichlar, ya'ni tana o'zunligi, vazn va Ko'krak kafasi aylanasi o'zgaradi.

TANA O'ZUNLIGI - I yoshga borib tugilgandagiga nisbatan 47% ga ortadi, 2 yoshga borib 1 yoshga nisbatan 13%ga, 3 yoshda 2 yoshga nisbatan 9%ga, 4- 7 yoshda esa xar yili 5-7% ga, 8-10 yoshda Z% ga ortadi. 16-17 yoshga borib usish keskin sekinlashadi. 18-20 yoshda esa usish amaliy tuxtaydi.

TANA VAZNI - 4-5 oylikda tugilgandagiga nisbatan 2 baravar ortadi. 1 yoshda 3 marotaba ortsa, 3-7 yoshda yiliga 5-7,5% ga ortadi.

Keyingi davrlarda vazn kushilishi keskin kamayadi, faqat jinsiy etilish davrida ortadi.

## **BOLALAR VA O'SMIRLARNING SALOMATLIK GURUXLARI.**

1- gurux: Soglon bolalar guruxi.(Normal rivojlanish va normal funksiya darajasiga ega.).

2- gurux: Soglon bolalar guruxi. (ayrim funksional va morfologik o'zgarishlar mavjud, o'tkir va surunkali kasalliklarga karshiligi pasaygan).

3- gurux: Surunkali kasalliklar kompensatsiya davrida.

4- gurux: Surunkali kasalliklar subkompensatsiya davrida.

5-gurux: Surunkali kasalliklari dekompensatsiya davrida.

Bolalar va o'smirlarning salomatlik xolati davlatning kelajagini, iqtisodiy potensialini va mudofaa kobiliyatini belgilaydi.

## **BOLALAR VA O‘SMIRLAR JISMONIY TARAKKIYOTNI GIGIENIK BAXOLASH USULLARI.**

Bolalar va o‘smirlarning jismoniy tarakkiyoti quyidagi usullar yordamida gigienik baxolanadi; antropometrik, sigma ogish usuli, sentil, regressiya usuli va boshqa usullar.

Jismonii tarakkiyotni o`rganishda quyidagi ko`rsatkichlardan foydalilanadi:

1. Somatometrik ko`rsatkichlar: tana o‘zunligi, vazni, Ko‘krak kafasi, aylanasi...
2. Somatoskopik ko`rsatkichlar: Ko‘krak kafasi, umurtka pogonasi, va tovon shakllari, teri osti eg katlami, jinsiy belgilar,
3. Fiziometrik belgilar: O‘pkaning tiriklik. sig‘imi, muskul kuchi, kon bosimi, yurak urish soni va boshqalar.

## **BOLALAR VA O‘SMIRLAR ORGANIZMINING USISH VA RIVOJLANISHI KONUNIYATLARI**

Tirik jonzodlar ichida inson eng yordamga muxtoj ximoyasiz tugiladi. CHakalok mustakil yashashga umuman tayyor emas. U butunlay etuk bo‘lishi uchun o‘zok muddatli usish va rivojlanish davrini utishi kerak. USISH- organizmga tushadigan moddalar xisobiga tukimalar va organlar vaznini miqdoriy ortishi xamda yangi tukimalarni xosil bo‘lishidir.

RIVOJLANISH - bu tukima va organlarda kuzatiladigan sifat o‘zgarishlar bo‘lib, buning natijasida tukima va organlar differensirovksi, ularning funksional etilishi xamda yangi funksiyalalarni xosil bo‘lishidir.

Usish va rivojlanish organizm xayot faoliyati jarayonining 2 tomoni bo‘lib, uning asosini moddalar almashinushi va energiya tashkil etadi. Insonning xayot sikli 3 ta etapga bulinadi:

1. Etilish etapi.
2. Etuk yosh.
3. Karish.

## **BOLALAR VA O‘SMIRLAR ORGANIZMIDA AYRIM ORGAN VA SISTEMALAR RIVOJLANISHINING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

Rivojlanish - bu organizmning mikdor va sifat jixatidan kayta xosil bo‘lish jarayonining asosidir. Bolalar organizmidagi ruxiy va fiziologik o‘zgarishlar asosan maktab yoshida bo‘lib utadi.

Inson organizmining sifat jixatdan rivojlanishi 3 bosqichdan iborat:

- I. Organ va sistemalarning tabiiy biologik rivojlanish bosqichi.
- II. Xayotiy tajribalar natijasida o‘z xoxishi bilan rivojlanish bosqichi.
- III. Oliy bosqich: maksadga yunaltirilgan o`rganish bosqichi.

Organizmning postnatal rivojlanishi organ va sistemalarda parallel bulmaydi. Umuman olganda organizmning usish va rivojlanishi tugilgandan boshlab 18-20 yoshgacha davom etadi.

**NERV SISTEMASI VA MIYA** - asosan xayotning I- yillarida aktiv rivojlanadi. Markaziy nerv sistemasida boshqa organ va sistemalardan fark qilib mikdor emas, sifat o‘zgarishlar ko‘p bo`ladi. M: Katta yoshdagilar organ va sistemalar vaznining chakaloklardagiga nisbatan kattaligi.

Mushak	- 21
Suyak	- 37
Teri va teri osti eg katlamasi	- 19,2
Periferik nerv sistemasi	- 15,3
Bosh miya	- 3,7

7 yoshdan 16 yoshgacha bosh miya vazni bor yugi 200 gramga ortadi.

7 yoshda	- 1282 gr.
16 yoshda	- 1430 gr.

Miya arikchalarining rivojlanishi 7 yoshgacha intensiv bo`ladi.

LIMFA SISTEMASI - (timus, limfa tugunlari) 10-12 yoshda o‘zining eng yuqori usish darajasiga etadi, sung rivojlanish 5-6 yoshdagi xolatga kattadi, ya’ni biroz rivojlanish pasayadi.

QURISH O‘TKIRLIGI - 7 yoshda katta yoshdagilar darajasiga etadi.

Organizmning usish va rivojlanishi bu asosan genetik programmaning bajarilishidir. Bunga muxitning tasiri kuchli. M: UVU da kolgan. Noqulay omillarning usishga ta'siri kizlarga nisbatan ugil bolalarda kuchli. Tan o'zunligining yillik usishi yosh kattalashgan sari kichrayadi. M: 7 yoshda yillik usish 5-6 sm bo`lsa, 16-17 yoshda 3 sm bo`ladi.

Tananing yuqori va pastki qismlari turli davrlarda turlicha rivojlanadi. 9-10 yoshgacha tananing yuqori qismi pastki qismidan katta bo`ladi. 10-11 yoshdan boshlab tananing pastki qismi ya'ni oyoklar rivojlanishi tezlashadi va yuqori qism ko'rsatkichidan oshib ketadi.

12 yoshda konstitutsiya - ya'ni somatik rivojlanish tipi xosil bo`ladi. Ugil bolalar va kizlarning tana o'zunligini usishida 2 ta kesishishni qurish mumkin.

I. 10-11 yoshda - bunga kadar ugil bolalar tana o'zunligi kizlarga nisbatan o'zun.

II. 14-15 yoshda - 11 yoshdan 14 yoshgacha kizlarning tana ueunligi ugil bolalarnikidan yuqori.

15 yoshdan boshlab ugil bolalar ko'rsatkichlari yana yuqori bo`ladi  
**JINSIY DEMORFIZM** - bu turli jinsdagi organizmning struktur va funksional fark qilishidir.

Bu jarayon postnatal ontogeneda kuchli rivojlanadi va xulki, tananing tuzilishi, ikkilamchi jinsiy belgilar bilan farklanadi. Jinsiy etilish davrida endokrin bez faoliyati aktivlashadi.

Xar bir organizmning usishi quyidagi 3 variantning biriga to'g'ri kelishi kerak.

1. Tana o'zunligi yoshga nisbatan yuqori, jinsiy rivojlanish esa past.
2. Tana o'zunligi yoshga nisbatan past, jinsiy rivojlanish yuqori.
3. Tana o'zunligi va jinsiy rivojlanish yoshga nisbatan yuqori.

3- variant garmonik rivojlanish, 1-2 variantlar esa organizmning funksional kobiliyatini pastligini ko`rsatadi. Bu yuklamalarni me'yorlashda katta rol uynaydi

**MUSHAK SISTEMASI** - tananing umumiylar vazniga nisbatan mushaklarning vazni quyidagicha.

7-8 yoshda - 27,2%

13-15 yoshda - 32,2%

16-18 yoshda - 44,2%

YOsh o‘zgargan sayin mushak tolalarining soni o‘zgarmaydi, balki, diametri o‘zgaradi. Masalan:

7- yoshda - 22-23 mkm

16-17 - yoshda - 29-34 mkm.

Kizlarda muskul kuchi, ugil bolalarga nisbatan tezrok etiladi. Kizlarda muskul kuchi maksimal xolatiga 15 yoshda, ugil bolalarda 19 yoshda.

### **TANA O‘ZUNLIGINI ( BUY) NI ULCHASH.**

Buyni ulchash uchun vertikal xolda o`rnatiladigan reykaga orka bilan tik turiladi. Bunda korin tortilgan, qo'llar tushirilgan, elka to‘g‘rilangan, tovonlar birlashtirilgan xolda bo‘lishi kerak. Buy ulchagichda to‘g‘ri turilganda tovon, kuymich gumbazi va Ko‘krak kafasidagi kuraklar orasiga vertikal turgan reyka tegib turishi kerak. Boshni shunday tutish kerakki, bunda ko‘z olmasining pastki qismi bilan kulokning eshituv teshigining ustki qismi buyicha utkazilgan chizik bosh suyagida gorizantal xolatda bo‘lishi kerak.

2 yoshgacha bo‘lgan bolalarming buyi gorizontal xolatda maxsus buy ulchagichlarda ulchanadi. Bola orkasi bilan ulchagichga yotganda oyoklar to‘g‘rilanadi, tovонни to‘g‘ri burchak xosil kilguncha buklanadi, bosh ulchagichni tepe qismiga tegib turishi kerak.

### **NATIJALAR :**

### **XULOSA :**

### **KO‘KRAK KAFASI AYLANASINI ULCHASH.**

Ko‘krak kafasining aylanasi deyarli tinch turgan xolatda, chukur xavo olganda xamda chukur xavo chikarganda ulchanadi. Orka tomondan kuyilagan

metrli tasma tagida Ko‘krak burchaklari bilinib turishi, old tomondan esa Ko‘krak kafasining urta qismida bo‘lishi kerak.

O`lchash uchun qo‘llar tushiriladi, bunda tasma orka tomondan kurak tagiga surilib tushadi. Tasmani shunday o`rnatish kerakki, u osilib turmasligi, nafas olish va chikarishga xalakit bermasligi kerak. To‘g‘ri ulchash uchun bolaning bir tekisda nafas olishi kutiladi, sung chukur nafas olganda, chikarganda, tinch xolatda aloxida-aloxida xar biridan 3-4 marta ulchab, urtacha arifmetik ko‘rsatkich aniqlanadi. CHuqur nafas olgandagi ko‘rsatkichdan chukur nafas chikargandagi ko‘rsatkichning farkiga qarab Ko‘krak kafasining ekskursiyasi aniqlanadi.

**NATIJALAR :**

**XULOSA :**

**TANA VAZNINI ANIQLASH.**

Tana vazni tibbiy tarozi yordamida ulchanadi. Tarozida ishlashdan oldin uning qanchalik to‘g‘riligini ANIQLASH uchun maxsus toshlar bilan tekislab olish tavsiya etiladi. Tortish och korinda ust-bosh va oyok kiyimsiz amalga oshiriladi.

**NATIJALAR :**

**XULOSA :**

**O‘PKA XAYOTIY SIG‘IMINI ULCHASH.**

O‘pkaning xayotiy sig‘imini kattalarda suvli, kichik bolalarda esa xavoli spirometrarda aniqlanadi.

Tekshiriluvchi mundshtuk atrofini ogiz bilan mxkam berkitgan xolda nafasni tuxtatib, burun orqali nafas chikarmasdan spirometr nayiga maksimal darajada nafas sikaradi. Anikalsh 2-3 marotaba kaytariladi va eng yuqori ko‘rsatkich olinadi.

**NATIJALAR :**

**XULOSA :**

## **QO`L MUSHAKLARI KUCHINI ANIQLASH.**

Kul mushaklari kuchi kul dinomometri yordamida aniqlanadi. Tekshirish uchun tekshiriluvchi tomonidan dinomometr tula panja bilan ulchanadi, kul gorizontal xolatda oldinga yoki yonga o`zatilgan xolda kattik kisiladi. Qo`srimcha xarakatga ruxsat etilmaydi. Tekshirish alovida chap va ung qo`llarda o`tkaziladi.

### **NATIJALAR :**

#### **XULOSA :**

## **BEL MUSHAKLARI KUCHINI ANIQLASH.**

ANIQLASH uchun bel dinamometrini oyok bilan bosib turgan xolda ustki qismidan kul bilan tortiladi. Bunda dinamometrni ushlaydigan kisim tizza balandligida bo`lishi kerak. Buyga to`g`rilash uchun asbobga muljallangan zanjirlardan foydalanish mumkin.

### **NATIJALAR :**

#### **XULOSA :**

## **TOVON SHAKLINI ANIQLASH.**

Tekshiriluvchi oyog`ini bir chrim xlorli temir birikmasining 1% li suvdagi eritmasi bilan namlangan mato ustiga kuyadi, sung 0,5%li taninning spirtdagi eritmasi bilan namlangan kogoz ustida turadi. Bunda tekshiriluvchi butun ogirligini tekshirilayotgan oyog`iga solishi kerak. Olingan shakl kuritilib, tegishli belgilar kuyilib, taxlil qilinadi.

### **NATIJALAR :**

#### **XULOSA :**

## **TERI OSTI YOG` KATLAMINI ULCHASH.**

Teri osti yog` katlamini kul bilan yoki suriluvchi pargar (sirkul) bilan ulchanadi.

Teri osti yog` katlamini korin bushligining chekkalaridan kindik buylab, Ko`krak bezidan 2-3 sm pastdan Ko`krak tagidan aniqlanadi. Olingan natijani 2ga bulinadi va yog` katlamini kalinligi aniqlanadi.

### **NATIJALAR :**

## **XULOSA :**

### **ОҮОQLAR SHAKLINI ANIQLASH.**

Oyoklar shakli to‘g‘ri (normal), X kurinishida va O kurinishida bo‘lishi mumkin.

Oyoklar shaklini ANIQLASH uchun tekshiriluvchi tovonlarini bir-biriga tekkan va uchlari kerilgan xolda tik turadi.

Oyoklar to‘g‘ri ( normal) shaklda bo`lsa tizza bugimlari bir-biriga tegib turadi.

Oyoklar “O” shaklda bo`lsa tizza bugimlari bir-biriga tegmaydi.

Oyoklar “X” shaklda bo`lsa tizza bugimlari bir-birini ustiga chiqib turadi.

## **NATIJALAR :**

## **XULOSA :**

### **KO‘KRAK KAFASI SHAKLINI ANIQLASH.**

Ko‘krak kafasi silindr, konus, yassi va aralash shakkarda bo‘lishi mumkin. Ko‘krak kafasini shakli tush osti burchagiga qarab aniqlanadi. Tekshiriluvchi tekshiriluvchining tush osti burchagiga bosh barmoklarini kobirga yoyi buyicha keltiradi va bosh barmoklar orasidagi burchakga qarab Ko‘krak kafasini shakli aniqlanadi.

Agar tush osti burchagi 90 g bo`lsa Ko‘krak kafasi silindr, 90 g dan katta bo`lsa konus, 90 g dan kichik bo`lsa yassi shaklga ega bo`ladi.

## **NATIJALAR :**

## **XULOSA :**

### **Mavzu bo‘yicha yoritilishi lozim bo‘lgan savollar:**

- bolalar va o‘smlarni jismoniy rivojlanishi nimaga asosan baholanadi
- vaznni aniqlash usullari
- bolani bo‘yini baholash usullari
- bolani ko‘krak va bosh aylanasini o‘lchash qoidasi va baholash
- bolada yassi oyoqlikni aniqlash
- bolalarda o‘pkaning tiriklik sig‘imi va qo‘l, bel mushaklarini kuzatib baho berish
- bolalarda suyak sistemasi va teri osti yog‘ qatlamini rivojlanganligiga baho berish

-o'smirlarni jinsiy rivojlanganligini aniqlash va baholash

### **Darsda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya usullari:**

#### **"D U M A L O Q S T O L" U S U L I**

Stol ustiga vaziyatli masala (mavzuga oid savol) yozilgan qog'oz tashlanadi. har bir talaba o'zining javob variantini yozib boshqa talabaga qog'ozni uzatadi. Hamma o'z javobini yozib bo'lgandan keyin tahlil qilinadi: noto'g'ri javoblar o'chirilib, to'g'ri javoblar muhokama qilinadi, talabalar bilim darajasi baholanadi. Bu usul nafaqat yozma, balki og'zaki holda ham olib borilishi mumkin. O'qituvchi tomonidan savol to'liq va aniq berilishi lozim.

### **"Bolalar va o'smirlar gigienasi" mavzusi bo'yicha savollar quyidagicha:**

1. Bolalar va o'smirlar gigienasi fanining maqsadi va vazifalari
2. Somatotropik ko'rsatkichlar
3. Fiziometrik ko'rsatkichlara va ularni aniqlash tartibi
4. Somatoskopik ko'rsatkichlar
5. Bolalarning va o'smirlaryosh guruxlari yoki davrlari
6. Bolalar salomatligiga ta'sir qiluvchi omillar
7. Bolalar va o'smirlar gigienasi qanday bo'limlardan tashkil topgan.
8. Bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish vaqtি
9. Skolioz turlari
10. Bolalar kun tartibining o'ziga xos xususiyatlari

### **Testlar**

1. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi birlari samotoskopik ko'rsatkichlarga kiradi  
a) Suyak sistemasining xolati b) Ko'krak qafasining aylanasi  
c) Ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi d) Doimiy tishlarning miqdori  
e) O'pkaning tiriklik sig'imi
2. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi birlari samotometrik ko'rsatkichlarga kiradi  
a) Bo'y b) Suyak sistemasining holati c) Vazn (og'irlilik)  
d) Ko'krak kafasining aylanasi e) O'pkaning tiriklik sig'imi
3. Qaysi ko'rsatkichlar fiziometrik ko'rsatkichlarga kiradi.

- a) O'pkaning tiriklik sig'imi b) Qo'lning kuchi s) Bo'y  
d) Vazn, ko'krak qafasining aylanasi e) Suyak sistemasining holati
4. Tana uzunligini o'lchayotganda bo'y o'lchagichga tegib turadigan nuqtalar:  
a) Bosh b) Dumba sohasi s) Ko'raklararo soha  
d) Tovon e) elkaning tepe nuqtasi
5. Qomat turlari :  
a) Kifotik b) Tekislashgan s) Bukirsimon d) Lordotik e) Me'yoriy
6. Ko'krak qafasining turlarini ko'rsating  
a) «Tovuq» ko'krak b) YAssilashgan s) Konussimon  
d) Silindrik e) «Etikdo'z» ko'krak
7. Oyoqning asosiy shakllarini ko'rsating  
a) «X» - shaklida b) «O» - shaklida s) «U» - shaklida  
d) YAssilashgan e) Me'yoriy
8. Skolioz turlari  
a) Umumiylchap taraflı b) Ko'krak s) «S» shaklida d) Umumiylong taraflı
9. Spirometrlarning turlari:  
a) Suvli b) Havoli s) Spirtli d) Havosiz e) Simobli
10. Bolalarni partada noto'g'ri o'tirishi nimaga olib kelishi mumkin  
a) Bolalar qomatining buzilishiga  
b) Umurtqa pog'onasining noto'g'ri shakllanishiga  
s) Dumg'aza suyaklarining organik o'zgarishiga  
d) Umurtqa pog'onasining noto'g'ri suyaklanishi  
e) YAssi oyoqlikka

## **TESTLAR**

1.Nechta salomatlik guruxi bor?

- A)5 ta  
B) 3 ta  
V) 4 ta  
G) 1 ta

2.Salomatlikning uchinchi guruxiga kimlar kiradi.?

- A) Sogлом
- B) Azolarida funksional o'zgarishlar bo'lган bolalar.
- V) I va II gurux nogironlari
- G) Kompensatsiya davridagi surinkali kasali bo'lган bolalar
- 3.Akseleratsiya deganda nimani tushinasiz.
- A) O'sish va rivojlanishning tezlashishi
- B) Jinsiy tayyorgarlik
- V)o'sishni tezlashishi.
- G) Gavdani kattalashishi
- 4.Salomatlikning birinchi guruxiga qanday bolalar kiradi?
- A) surinkali kasali subkompensatsiya davri
- B) Surinkali kasalligi bor
- V) Sogлом bolalar.
- G) I va II gurux nogironlari.
5. Maktab o'quvchilari qanday jismoniy guruxlarga bo'linadi?
- A)Asosiy, tayyorlov, maxsus
- B) Asosiy tayyorlov kushimcha.
- V) Tayyorlov asosiy boshlangich
- G)Tayyorlov urta umumiy.
- 6.Beshinchi salomatlik guruxiga qanday bolalar kirishi mumkin.?
- A) Dekompensatsiya davridagi yuz beradigan surunkali kasali bor bolalar.
- B) Sogлом surunkali kasali bulgan bolalar
- V) Sogлом lekin tez-tez kasal bo`ladigon bollar
- G)Kompensatsiya davrida kasal bo`ladigan bolalar.
7. Qanday xollarda jismoniy rivojlanish ko`rsatkichlar mehyoridan yuqori bulishi mumkin?
- A) Modda almashinushi jarayoni buzilganda.
- B) Akseleratsiyada ichki bezlar giperfunktsiyasida.
- V)Xamma javoblar tugri
8. SHaxsiy jismoniy rivojlanish xozirgi paytda kaysi usullar bilan baxolanadi?

A) Regressiya shkalasi buyicha

B) R yegressiya, kompleks, tsentil

V)tsentil usuli bilan.

G)Kompleks usuli bilan.

9. Fiziometrik ko`rsatkichlarni aniklash uchun qanday asboblar zarur?

A)spirometr, dinomametr

B) spirometr psixometr

V) Dinamometr, buy ulchagich, psixrometr

G)Buy ulchagich va tibbiy tarozi, gigrograf

10. Arterial bosim kaysi asbobda ulchanadi.

A) Anemometr

B) Dinamometr

V)Spirometr

G)Tanometr.

## **GLOSSARIY**

### **ATAMALAR LUG'ATI**

**Autekologiya.** - Autekologiya-tur vakllarining yashash sharoiti, bir-birlari hamda ularni o‘rab turgan atrof-muhit bilan munosabatlarini o‘rganadi, shuningdek turning turg‘unligini, uning turli ekologik omillar ta’sirida moslashuvini, muhitning organizmlarning morfologik, fiziologik va xulqiy o‘zgarishlariga sabab bo‘lishini aniqlaydi.

**Ekologik nisha.** - Ekologik joy-nishachsi ancha keng, ya’ni: makondagi nisha yoki makondagi ma’lum joylanish; trofik nisha (turlararo aloqalardagi turning joyi), ko‘p gomerli yoki giper hajmli nisha. Organizm ekologik nishasida organizm qaerda yashayotganligi va uning atrof –muhitga bo‘lgan umumiyl talabi inobatga olinishi haqidagi tushunchalar

**Ekologik omillar** - Tashqi muhit omillari. Omil tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi muhitning ayrim bir tarkibiy qismidir

**Ekologik muhit.** - Ekologik muhit buzilishining sabab va oqibatlari. Ekologik omillarning tasniflanishi. Ekologik omillarning tirik organizmlarga ta'sir etishining umumiy qonuniyatları )

**Muhitning abiotik omillari-** - organizmga ta'sir etuvchi jonsiz tabiat omillari, ular organizmnning yashash sharoitini belgilaydilar. M.a.o kimyoviy (atmosfera havosi va uning tarkibidagi gazlar aralashmasi, suv, suv osti yotqiziqlari va tuproqdagagi kimyoviy birikmalar) va fizikaviy (havo va suvning harorati, bosimi, shamollar, radiatsiya va h.k.z.) omillar guruxlariga bo'linadi. Organizmlar o'zlarining evolyusion taraqqiyoti jarayonida bu omillarining t'sirini o'tkazadi.

**Optimum qonuni** – Pessimum - (lot. optimus -eng yaxshi) — muayyan bir ekologik omilning organizmga ko'rsatadigan yoqimli ta'sir kuchining chegarasi. O'sha omilning aynan shu darajadagi ta'siridan organizm o'zini yaxshi his qiladi. Uning ta'sir darajasi belgilangan chegaradan qanchalik ko'p chiqsa (kamaysa yoki ko'paysa), organizmga ta'siri shunchalik salbiy bo'lib boradi. Bu erda dono xalqimizning «asal ham me'yorida shirin» degan iborasini eslash o'rinni. Qar.

**Adaptatsiya** -Organizmlarning evolyusion rivojlanish jarayoni davomida ularning abiotik muhit omillariga moslashishi va boshqa organizmlar bilan erkin raqobat qilaolish xususiyati. Ushbu jarayonda ularda muxit omillari ta'siriga nisbatan fiziologik, morfologik va xulq-atvor moslashishlari paydo bo'ladi;

**Galofitlar** — kuchli sho'rlangan tuproqda o'suvchi o'simliklar.

**Galofoblar** — tuzli muhitda yashashga chidayolmaydigan organizmlar. Ularga chuchuk suvda yashovchilar (ko'pgina suvo'tlari, sodda organizmlar, zuluklar, ba'zi mollyuskalar, suv hasharotlari va chuchuk suv baliqlari) va tuproqdan makon topganlar kiradi

**Geliofillar** -(gr. helios—quyosh +fileo-sevadigan)—yorug'likni sevuvchi organizmlar, quyoshsevarlar

**Gelioffitlar.**- (gr. helios-quyosh +fiton - o'simlik) — quyosh nuri ko'p tushadigan joylarda hayot kechirichni xush ko'rvuchi o'simliklar

**Gelobiontlar** organizmlar- (gr. helos-botqoqlik.+biontos-yashovchi) — botqoqlikda yashovchi

**Gelofitlar** - (gr. helos-botqoqlik +fiton - o'simlik) — botqoqlik o'simliklari (mas., sfagnum, botqoqlik kiparisi).

**Gemikriptofitlar** - (gr. hemi —yarim + kryptos - yashirin + fiton- o'simlik) — ko'p yillik o'tchil o'simliklar ya'ni qishda er usti poyalari qurib, o'sish kurtaklari er yuzasida yashirin holda, to'kilgan xazonlar yoki qor tagida sovuqdan himoyalanib, bahorda er isishi bilan yana o'sishga boshlaydigan o'simliklar (o'rta kengliklarda tarqalgan ko'p yillik o'tchil o'simliklar, mas., ba'zi ayiqtovonsimonlar, qoqi va boshq.).

**Populyasiya** - (yunoncha populus; - guruh uyushma, xalq) — bu uzoq muddat davrida muayyan bir hududda yashaydigan yoki o'sadigan bir turga mansub individlar yig'indisidir. Populatsiya deganda bir turga oid bir-birlari bilan doimo bog'langan organizmlar yig'indisi e'tiborga olinadi

**Populatsyaning asosiy xususiyatlari:** - organizmlarning to'g'ridan to'g'ri ekologik moslashishi, qayta ko'payishi va turg'unligi bo'lib, populatsyaning turg'unligi uzoq vaqt nasl qoldirish qobiliyatini saqlab qolishidir

**Populatsiya biologik xususiyatlari:** - populatsiya a'zolarining hayot sikli, o'sishga qobiliyati, farqlanishi va o'zining son sifatini ushlab tirish xususiyatlari kirib, ular populatsiyani hosil qiluvchi organizmlarga taaluqlidir.

**Populatsiya guruqlik xususiyatlari.** - Tur vakllarinig umumiy soni; Ma'lum maydon uchun o'rtacha soni, qalinligi va makonda, massasi, tug'ilishi, o'lishi, tug'ilish va o'lish o'rtasidagi farq, o'sish tezligi

**Elementar populyasiya** - bu uncha katta bo'limgan, bir xil joyda uchraydigan tur vakillarining yig'indisi

**Ekologik populyasiya** – sodda elementar populyasiyalar yig'indisidan hosil bo'ladi. Ular ma'lum biogeotsenozda tur ichidagi guruhlardan yuzaga keladi

**Geografik populyasiya** – ekologik populyasiyalarni o'z ichiga oladi va bir hil geografik sharoitda, xududda uchraydi. Lekin geografik populyasiyalar etarli

darajada bir – biridan chegaralangan bo‘lib, katta-kichikligi, ko‘payishi, ekologik moslanishlari, fiziologik va xulqiy xususiyatlari bilan farq qiladi.

**Modifikatsiya (yoki turlanuvchi) omillar** - Hamma abiotik omillar kirib, ular populyasiyaning soni, sifati, zichligi, tuzilishi, ozuqa resurlariga faol ta’sir qiladi, ularning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ammo o‘zlarini o‘zgarmay qoladi.

**Boshqaruvchi omillar.** - Popuyasiya a’zolarining miqdorini o‘zgartiradi, o‘zgarishni tezlashtiradi, optimal holatdan chetlashtiradi. Bunday boshqaruvchi omillarga organizmlarning bir-birlari orasidagi biotik munosabatlar kiradi.

**YOpiq populyasiya.** - Faqat bir-biri bilan juftlasha oladigan individlar guruhi

**Panmiktik populyasiya** - Individlar juftlashishi juft tanlamasdan amalga oshadi

**Mendelcha populyasiya** - Bir geografik arealda tarqalgan, ko‘payish va boshqa xususiyatlari bir xil bo‘lgan individlar majmui;

**Izogen populyasiya.** - Genetik jihatdan aynan o‘xshash, ya’ni barcha lokuslar (xromosomaning bir gen joylagan chiziqli uchastkasi) bo‘yicha ko‘pchilik hollarda gomozigota bo‘lgan individlar guruhi;

**Muvozanatlangan populyasiya..**- Genlar chastotasi (takrorlanishi) mutatsion va seleksion tazyiqlar o‘rtasidagi muvozanatga asoslanib o‘zgarib turadi va tasodifiy juftlashish prinsipiiga ko‘ra juftlashishda hamda lokuslararo erkin rekombinasiyalanishda genotiplarning amaldagi chastotasi nazariy kutilgan holatga mos keladi

**Populatsiyaning tuzilishi.** - Populatsiya a’zolarining jins yosh bo‘yicha, morfologik ko‘rinishi, fiziologik jarayoni, xulqiy xolatlari, genetik xususiyatlari va xududlar bo‘yicha taqsimlanishi populatsiyaning tuzilishini aks ettiradi.

**Populatsiyalarning yoshiga qarab tuzilishi;.** - Populatsiyaning yosh boyicha tuzilishi uning muhim belgisi bo‘lib, populatsiyaning tug‘ilishi va o‘lishiga ta’sir qiladi.tezkor ko‘payayotgan populatsiyalarning asosiy qismini yosh vakllar tashkil qiladi

**Populatsiyaning jins boyicha tuzilishi;.**- populatsiya a’zolarining yosh boyicha va jins bo‘yicha tarkibi doim bir-birlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Populatsiya vakllarinig hayoti uning yosh bo‘yicha tuzilishiga qaramdir

**Populatsiyaning makonda tuzilishi;** - populatsiyani hosil qiladigan tur vakllari har xil makonda turlicha tarqalish imkoniyatiga egadir. Bu bilan ular o‘zları yashaydigan joy va ozuqa bilan ta’minlanadi hamda o‘sish, ko‘payish va rivojlanish, nasl qoldirish uchun muhitning abiotik va biotik omillari bilan aloqada bo‘ladi

**Populatsiyaning etiologik tuzilishi-** - uning a’zolari ortasidagi qonuniy aloqalar bo‘lib, uning asosida hayvonlar xulqlarini o‘rganadigan ish yotadi.

**Biotsenoz.** - Tabiyatda har xil turlar populatsiyalari birlashib, yuqori tuzilish va xususiyatlarga ega bo‘lgan biologik birliklar yoki biotzenozlarni hosil qiladi. Biotsenozlar-bu o‘simlik, hayvon va mikroorganizmlar populatsiyalari guruhidan iborat bo‘lib, ma’lum joyda birlikda yashashga moslashgan biologik birlikdir.

**Fitosenoz** - o‘simliklar guruhlari

**Zootsenoz** - hayvonlar guruhlari

**Mikrosenoz** - mikroorganizmlar guruhlari

**Trofik aloqalar.** - Biotsenozdagi bir turning ikkinchi tur bilan, uning tirik vakillari yoki o‘lik qoldiqlari, mahsulotlari bilan oziqlanish jarayonidan kelib chiqadi. Masalan, ninachilarining hasharotlar bilan oziqlanishi, qo‘ng‘izlarning molok go‘ng arilar changi, yo‘lbarslar turli o‘ljalar, ularning qoldiqlari bilan oziqlanishi misol bo‘ladi

**Forik munosabatlar.** - Biotsenozdagi bir tur ikkinchi turning tarqalishiga yordam beradi. Bu holatda tashuvchi vazifasini ko‘pchilik hayvonlar o‘taydi (zooxoriya); hayvonlar juni, tanasiga o‘simlik urug‘lari ilinib, yopishib bir joydan ikkinchi joyga tushadi

**Fabrik munosabatlarda.** - Biotsenoz ichidagi bir tur o‘zining yashash joyi uchun ikkinchi tur qoldig‘i, o‘lik yoki tirik qismlaridan foydalanadi. Masalan, qushlar uya qurish uchun o‘simlik bargi, poyasi, butalar shoxi, boshqa qushlar patlari, hayvonlar junlari, paxta va lattalardan ham foydalanadi. Daryolardagi toshlar ustida uchraydigan qurtlar loyqa, o‘simliklar shoxi, poyasi, bargidan foydalanadi.

**Fiziologik optimum.** - Bu biotsenoz ichidagi turning o‘sish, ko‘payish va rivojlanishi uchun hamma abiotik omillarning qulay bo‘lishidir.

**Sinekologik optimum.** - Bu biotsenoz ichidagi biotik aloqalar bo‘lib, shu erdagiga tur boshqa turlar ta’siri (raqobati, yirtqichlar, parazitlar)dan holi sharoit turning yaxshi rivojlanishiga imkon beradi.

**Neytralizm — (0:0)** - Bunda ikki populatsiyadagi assatsiatsiyalarda o‘zaro ta’sir sezilmaydi, ikki populatsiya individlari ham deyarlik bir xilday yashaydi.

**Konkurensiya (raqobatlilik)..** - Bunda ikki populatsiyalar bir- birlariga to‘sinqinlik qiladilar. YA’ni bir populyasiya ikkinchi populatsiya bilan defitsit (etishmaydigan) resurslarni o‘zlashtirishda kurashadilar

**Amensalizm (-.0).** - Bunda bir populatsiya o‘ziga zarar keltirmasdan ikkinchi populatsiyaning yashashiga to‘sinqinlik qiladi yoki uni o‘sishga qo‘ymaydi. Amensalizmga tipik misol qilib antibiotik zamburug‘lar — aktinomitsetlar yoki o‘simgil fitonsidlarining parazit mikroorganizmlarga ko‘rsatgan ta’sirini olish mumkin

**Parazitizm va yiritqichlik - (+,-)** Bunda bir populatsiya ikkinchi populatsiyaga hujum qilib uning yashashishga zarar keltiradi, biroq o‘zining kelgusidagi hayoti ham o‘ljasiga bevosita bog‘liqdir

**Kommensaliztik - (+,0)** Bunda bir populatsiya ikkinchi populatsiya bilan birlashganda foyda ko‘radi, bu birlashish ikkinshi populatsiya uchun esa ahamiyasiz yoki uning uchun befarq bo‘ladi

**Mutualizm (+,+)..** - Birlashgan ikki populatsiya ham faqat foyda ko‘radi, bu birlashish ular uchun foydalidir, bunday birlashgan organizmlar tabiiy sharoitda biri ikkinchisiz hayot kechira olmaydi

**Biosfera** - Biosfera- tirik organizmlar yashaydigan va ularning ta’sirida tinmay o‘zgaradigan er shari qobig‘ining bir qismidir. Erdagi hamma biogeotsenozlarning yig‘indisi umumiyligi ekologik sistema – biosferani hosil qiladi.

**Gaz almashinish funksiyasi.-** fotosintez va nafas olish jarayonlariga bog‘liq. Avtotrof organizmlarning organik moddalarni sintezlash jarayonida qadimgi atmosfera tarkibidagi korbonat angidrid ko‘p miqdorda sarflanadi

**Konsentratsiyalash funksiyasi** - tirik organizmlar tomonidan atrof-muxitda tarkqalgan kimyoviy elementlarning to‘planishidir. O‘simgilklar fotosintez

jarayonida kimyoviy elementlarni tuproqda, kaliy, fosfor, azot, vodorod va boshqalarni, havodan uglerod olib xo‘jayraning organik moddalari tarkibiga kiritadi

**Oksidlanish–qaytarilish funksiyasi** - o‘zgaruvchan valentlikka ega bo‘lgan kimyoviy elementlarning temir, oltingurgut, marganets, azot va boshqalarni aylanishini ta’minlaydi.

**Biokimyoviy funksiyalar** - tirik organizmlarning xayot faoliyati davomida va ularning o‘limidan keyin biokimyoviy jarayonlarni taominlaydi. Biokimyoviy funksiya organizmlarning oziqlanitsi, nafas olitsi, ko‘payitsi, o‘lgan organizmlarning parchalanishi, chirishi bilan bog‘liqdir

**Biogen migratsiyasi.** - Kimyoviy elementlar doimiy ravishda bir organizmdan ikkinchisiga tuproqdan, atmosferadan, gidrosferadan tirik organizmlarga, ulardan esa yana atrof-muhitga o‘tib, biosferaning jonsiz moddalari tarkibini to‘ldiradi

**Avtotrof organizmlar.** - Quyosh energiyasini yutib anorganik moddalardan organik moddalarning birlamchi o‘simlik moddalarini hosil qiladi.

**Produtsentlar** – o‘lik moddalardan tirik moddalarni hosil qiluvchilar. Bular, asosan fotosintezlovchi murakkab va tuban yashil o‘simliklardir

**Konsumentlar** - yoki iste’mol qiluvchilar. Produtsentlar hosil qilgan organik moddalarni iste’mol qiladi. Ularga hayvonlar, parazit o‘simlmk va mikroorganizmlar kiradi

**Redutsentlar-** organik moddalarni minerallashtiruvchilar, avvalgi holatiga qaytaruvchilar. Ularga bakteriyalar, zamburug‘lar, saprofit usimliklar kiradi. Ifodali kilib aytganda xayot estafetasini yashil o‘simliklar boshlab hayvonlarga uzatadi, uni bakteriyalar marraga olib boradi, yana qaytadan yashil o‘simliklarga uzatadi. Yangi halqa boshlanib bu estafeta tinmasdan davom etaveradi.

**Biogenez bosqichi.-** Erda biosfera birinchi tirik organizmlar bilan bir vaqtda paydo bo‘ldi. SHu vaqdan boshlab tirik organizmlar evolyusiyasi bilan birga biosfera ham o‘zgara boradi. Birinchi paydo bo‘lgan tirik organizmlar bir hujayrali geterotrof, anaeroblar edi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qosimova S.T. va boshqalar. “Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi (o‘quv qo‘llanma)” T., Istiqlol, 2005 y.
2. Ergashev A., YULchieva M., Ahmedov O‘., Abzalov A., ekologiya, Toshkent, 2010 y.
3. Nurmuxamedova M.X., Nazarova X.A. Gigiena. “O‘zR Fanlar akademiyasi” nashriyoti. T., 2007 y.335 bet
4. Obshaya gigiena. A.M.Bolshakov, I.M.Novikova. Moskva «Meditina» 1985. 320 str.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. NMIU, 2017 – 29 b.
6. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. NMIU, 2017 – 47 b.
7. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan ko‘ramiz. NMIU, 2017 – 485 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947 – sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6 – son, 70 – modda.
9. O‘zbekistonning ekologik sharxi . Indikatorlarga asoslangan. Toshkent 2008 y.
10. Ergashev A., Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. T. “Yangi asr avlodi” 2005 y.
11. Mustafoev S. O‘roqov S.. Suvunov P, Umumiy ekologiya. T., YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2016 y.
12. Dade W.Moeller. Environmental Health. Third edition. London, england. 2005. 652 pag
13. Duschanov B.D., Iskandarova SH.T. Umumiy gigiena “Yangi avlod” nashriyoti. T., 2009 y.

14. SH. T. Iskandarova, K. SH. Baltaeva, M. I. Xasanova, D. SH. Ziyaviddinova Umumiyligigienadan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma – T., 2011 y.
15. Sanitarnye normy i pravila po ohrane atmosfernogo vozduxa naselennykh mest Respubliki Uzbekistan. SanPiN № 0350-17
16. Sanitarnye pravila i normy ustroystva, oborudovaniya i ekspluatatsii aptek. SanPiN R.Uz № 0337-16
17. Sanitarnye pravila i normy ustroystva, oborudovaniya i ekspluatatsii skladskix pomeshcheniy xraneniya lekarstvennykh sredstv i izdeliy meditsinskogo naznacheniya. SanPiN RUz № \_0319-15
18. Solixo'jaev S.S., Do'stjanov B.D. Umumiyligigien. T., 1996 y.
19. Solixo'jaev S.S., Gigiena. T., 1992 y.
20. A.E. Fedotov. "CHistie pomeshcheniya" - M. ASINKOM, 2003y.
21. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: ( 2011 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgartirish qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2011. – 276 b.
22. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po obshey gигиене. Iskandorova SH.T, Xasanova M.I., Inogamova V.V., IkramovaM.I. Izdatelstvo "Tafakkur bo'stoni" Tashkent. 2014, 320 str.
23. Uayt V. "Texnologiya chistых помещений" – M. Klinrum, 2002y.
24. Fayzullaeva Z.R., Qodirova D.E., Ataulaeva S.G'. Gigiena. "YAngi nashr" nashriyoti. T., 2011 y.187 bet
25. Fiziologicheskie normy potrebnostey v rишечnyx veshchestvax i energii po polovozrastnym i professionalnym gruppam naseleniya Respubliki Uzbekistan dlya podderjanii zdorovogo pitaniya. SanPiN RUz № 0347-17.

### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.nature.uz](http://www.nature.uz)
3. [www.catuzmu.uz](http://www.catuzmu.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

5. [www.natl.uz](http://www.natl.uz)
6. [www.eso.uz](http://www.eso.uz)
7. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)
8. [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com)
9. 2.[www.pharmapractice.ru](http://www.pharmapractice.ru)
- 10.[www.remedium.ru](http://www.remedium.ru)
- 11.[www.pharmvestnik.ru](http://www.pharmvestnik.ru)
- 12.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
- 13.[www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi.



O'QUV QO'LLANMA

# EKOLOGIYA VA GIGIYENA

YUSUPOV K.M.,  
MIRZAEVA M. M.

АДТИ КИТОБ ДЎКОНИ

Телеграм: [@kitoblarkerakmi](https://t.me/kitoblarkerakmi)

Andijon 2022 yil

